

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

I.M. HAYDAROV, M.M. ASKAROV

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

TOSHKENT – 2021

UDK 009

Haydarov I.M., Askarov M.M., O‘zbekistonning eng yangi tarixi // O‘quv qo‘llanma. – T.:“TDSHU”, 2021. 264 bet.

O‘quv qo‘llanma barcha ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavriat talabalari va professor-o‘qituvchilar uchun O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanidan foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

A.X. Doniyorov – tarix fanlari doktori, professor (ToshDShU)

A.A. Ermetov – tarix fanlari doktori, professor v.b. (O‘zMU)

O‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 202__ yil __-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 202__ yil ____dagi ____-sonli buyrug‘iga asosan barcha bakalavr ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan. (Ro‘yxat raqami ____)

© I.M. Haydarov, M.M. Askarov, 2021.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021 y.

SO‘Z BOSHI

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shuningdek, ta’lim sohasida ham bir qator islohotlar o‘tkazilib, barkamol avlodni shakllantirishga yo‘naltirilgan islohotlar rivojlantirilib borilmoqda. Bugun jahonda yuz berayotgan voqea va hodisalar, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning mazmun-mohiyatini tahlil etish, turli xil yot g‘oyalardan yoshlarni himoya qilish uchun tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Oliy o‘quv yurtlarida O‘zbekistonning eng yangi davri tarixini chuqur o‘rganish yosh mutaxassislarining bugungi davr siyosatini, jahon hamjamiyatidagi o‘rnini, davr qahramonlarini, ayniqsa o‘zining ham shu jarayon ishtirokchisi ekanligini to‘g‘ri va to‘liq anglashi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi xaqida so‘z ketganda, avvalo 1991- yildan beri mamlakatimiz bosib o‘tgan tarixiy yo‘lning mohiyati va ahamiyatini tushunish kerak. Ushbu jarayon qanday o‘tganini, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar va mustaqillikning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganligini tushunish muhimdir.

Pandemiya sharoitida ushbu dasturda O‘zbekistonning eng yangi tarixi, ya’ni O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi arafasida yuzaga kelgan murakkab vaziyat, respublika mustaqilligining e’lon qilinishi, mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalaridagi islohotlar va ularning bosqichlarini, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, tinchliksevar tashqi siyosat kabi masalalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining asosiy maqsadi - tarixni o‘qitish orqali o‘quvchilar yurtimiz hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilishga o‘rganadi, mazkur jarayonlarning rivojlanish qonuniyat-lari, sabab va oqibatlarini tushunib hamda ochib berish orqali yoshlarning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ularning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatlarini yuksaltirish ajdodlar an’analariga sadoqat, milliy o‘zlikni anglashga o‘rgatish asosiy maqsad qilib belgilanadi. SHuningdek, istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlar ularning mazmun-mohiyati hamda ahamiyati ochib beriladi. Birinchi Prezident I.A. Karimov tomonidan demokratik fuqarolik jamiyat qurish nazariy asoslarining ishlab chiqilishi. Uni tahliliy o‘rganishni taqozo etuvchi shart-sharoitlar va omillar talabalarga chuqur o‘rgatiladi. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishda yangi tarixiy davrning boshlanishi, 2017-2021- yillarga muljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining mohiyatini chuqur urganish hamda Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning demokratik fuqarolik jamiyati qurish bilan bog‘liq nazariy asoslarning ishlab chiqilishini ilmiy ijodiy asosda o‘rganish.

1-MAVZU: KIRISH. “O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI” O‘QUV FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI.

Reja:

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining fan sifatidagi ahamiyati. Fanning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.
2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari.
3. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.
4. XXI globallashuv asrida ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar.

***Darsning o‘quv maqsadi:** O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, manbalari va mintaqa tarixining jahon tarixi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida bilimlar tizimini shakllantirish.*


***Tayanch iboralar:** tarix, O‘zbekiston, fan, predmet, obyekt, maqsadi, vazifalari, tamoyillar, holislik, ilmiylik, tarixiylik, davr, tarixiy manba, yozma manbalar, moddiy manbalar, xalq, mamlakat, mintaqa, o‘tmish, Movarounnahr, Turkiston, Gerodot, xitoy yilnomalari, Kvint Kursiy Ruf, Strabon, madaniyat, til, urf-odatlar, tarixiy o‘tmish, tarixiy xotira, sivilizatsiya, arxeologiya, numizmatika, paleografiya, etnografiya, sharq va g‘arb, shaharsozlik, “Avesta”, Bexistun yozuvlari, “Temur tuzuklari”, Beruniy, Forobiy, madaniy meros, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Alisher Navoiy, komil inson, vatanparvarlik, insoniylik.*

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining fan sifatidagi ahamiyati. Fanning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.

O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan xalqlarning tarixi qadim o‘tmishga borib taqaladi. Bu qadimiy va tabarruk zaminda buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, siyosatchilar, buyuk sarkardalar yashab o‘tganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu yerda yaratilgan va yuksalgan. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini sinchiklab o‘rganish, ulardan O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizni buyuk davlatlar qatoriga ko‘tarishda, xalq farovonligini yuksaltirishda foydalanish muqaddas vazifadir. Chunki O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “...kim bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi”¹. Demak, o‘zligini tanigan, tarixiy tajribadan chuqur saboq olgan fuqarolariga ega bo‘lgan davlatni tanlagan yo‘ldan qaytarib bo‘lmaydi. Bunday davlatda tinchlik, taraqqiyot, farovonlik barqaror bo‘ladi.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т., 1998. – Б. 4-5.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritilishi tufayli o‘zbek xalqi davlatchiligi tarizida yangi davr – mustaqillik davri boshlandi. O‘zbekiston bugungi kunga kelib dunyo siyosiy xaritasidagi tenglar ichra teng davlat sifatida o‘zining munosib o‘rnini topdi. Mustaqillik uzoq yillar mustamlakachilik zulmining achchiq damlarini boshidan kechirgan o‘zbek xalqi hayotida yangi istiqbolli davrni boshlab berdi. Istiqlol har bir vatandoshimizning ongida, tafakkurida, mustamlakachilik, ma’naviy jismoniy tobelik, axloqiy-ruhiy qaramlikdan so‘ng u bergan beqiyos ne‘matlarni – qadimiy an’analar va qadriyatlarimizning tiklash imkoniyatlarini, ko‘p ming yillik tariximizni yuksak iftixor ruhida o‘rganish imkoniyatlarini ochib berdi. O‘zbekistonning eng yangi tarixi bu – O‘zbekiston tarixi fanining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Garchand, istiqolol yillarida boshlangan buyuk davlatchiligimiz poydevorini yaratishdagi ulkan bunyodkorlik, tashkilotchilik ishlari hali tarixga aylanib ulgurmagan bo‘lsa-da, qisqa fursat ichida O‘zbekistonning istiqolol taraqqiyoti yo‘lidan olamshumul islohotlarning mazmun-mohiyatini o‘rganishni, tahlil qilishni hayotning o‘zi dolzarb masala sifatida kun tartibiga dolzarb qilib qo‘ymoqda.



O‘zbekistonning eng yangi tarixida: O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, yangi jamiyatga o‘tish davrida siyosiy islohotlarning amalga oshirilishi, O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi, fuqarolik jamiyatining shakllantirilishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir tadbirlar, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash omillari, ma’naviy-ruhiy tiklanish va milliy qadriyatlarning tiklanishi hamda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rni olishi kabi masalalar – bu bosqichdagi O‘zbekiston tarixining mazmunini tashkil etadi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani – **obyekti** sifatida, fanning O‘zbekiston tarixining eng yangi davri ekanligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib, 1991- yildan to hozirgi kungacha bo‘lgan voqea va hodisalarning bir butun hamda yaxlitlikda o‘z ichiga oladi. Fanning **predmeti** esa mana shu bir butun obyekt ichidagi aniq siyosiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rnidan iborat bo‘ladi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi materiallari, tarixiy jarayonlarning talqini sobiq tuzum davrida an’anaga aylangan-sinfyilik, partiyaviylik kabi soxta tamoyillardan holi bo‘lmog‘i lozim. Bundan kelib chiqqan holda:

-birinchidan, O‘zbekistonning eng yangi tarixi materiallari chuqur ilmiylik, xolislik, tarixiylik, xronologik, izchillik, tarixiy haqiqatning ustuvorligi tamoyillariga asoslanadi;

-ikkinchidan, fan materiallarini o‘zlashtirish bo‘lajak mutaxassislarda tarixiy bilimlarning davomiyligini, tasavvur va tushunchalarning chuqurlashuviga xizmat qiladi, masala mohiyatiga ilmiy-nazariy yondashuv fazilatlarini shakllantiradi;

-uchinchidan, O‘zbekistonning eng yangi tarixi materiallari boshidan oxirigacha vatanparvarlik, tolerantlik, insoniylik kabi fazilatlar g‘oyasi bilan sug‘orilgan;

-to‘rtinchidan, tarixiy talqindagi materiallar umumbashariy va milliy qadriyatlar ustuvorligi hamda tarixga hurmat e‘tibor ruhida shakllantirilgan.

-beshinchidan, bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash, dunyoviy davlat qurishning asosi bo‘lgan qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini ta‘minlash tamoyillari vujudga keldi.

2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari.

Har qanday fan kabi O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani ham o‘zining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular O‘zbekiston tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo‘lidagi nufuzini ortib borishi uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma‘naviy-ma‘rifiy ehtiyoj bo‘lsa, tarix fani esa, bu ehtiyojlarni ro‘yobga chiqishi uchun ma‘sul bo‘lgan yuksak intellektual ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo‘lishi ya‘ni, tarix fani rivojlanishida metodologik ilmiy g‘oya va nazariyalar hamda usul va uslubiy tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki, bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasini to‘laroq ro‘yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. SHuning uchun ham O‘zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g‘oya va ta‘limotlari nimalardan iborat bo‘lishi o‘ta muhim masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta‘kidlab, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q“, “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi“, “Tarix xalq-ma‘naviyatining asosidir” kabi ko‘plab tarixiy haqiqatni to‘g‘ri anglatuvchi o‘ta teran fikrlarni olg‘a surdi va barcha islohotlarni ushbu fikrlardan og‘ishmay olib bordi.

Tarixchi olimlar butun insoniyat, millat, xalq va o‘rganish obyekti (ma‘lum mavzu) evolyutsiyasini, uning ma‘no va mazmunini to‘g‘ri bilishi, tahlil qila olishi kerak. Agar tarix falsafasi tarixiy voqealıklar tahlilidan kelib chiqadigan haqiqat (xulosa) larning so‘zdagi aniq ifodasi bo‘lsa, tarix fani metodologiyasi mana shu tarixiy haqiqatlarni ro‘yobga chiqishi – tarix haqiqiy yozilishi uchun birdan-bir to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi dasturdir. Eng qisqa va tushunarlik qilib aytsak, umuman metodologiya fanlarning fanidir.

Keyingi paytda O‘zbekiston tarixi fani metodologiyasini yaratish imkoniyati paydo bo‘ldi. Avvalo, metodologiya haqida to‘xtalsak, metodologiyaning lug‘aviy ma‘nosi grekcha «*Metodos*» va «*Logos*» degan ikki so‘z birikmasidan iborat bo‘lib, metod, ya‘ni, usul – tadqiqot olib borish usuli (yo‘li), nazariya, ta‘limot, logiya esa fan deganidir. Demakki, metodologiya ya‘ni, uslubiyat ilmiy tadqiqot olib borish yoki biror bir masalani ilmiy o‘rganishning eng qulay usullari, eng to‘g‘ri va mukammal g‘oyasi, nazariyasi va ta‘limotlari majmuidan iborat bir butun fandidir. Boshqa

ma'noda esa, metodologiya ilmiy bilish yoki ma'lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar haqidagi fandır. Demak, tarix fani metodologiyasi tarixni o'rganuvchi va o'qituvchilarni aniq maqsad sari to'g'ri etaklaydi, ya'ni tarix haqqoniy yozilishi va o'rganilishiga yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Har qanday fanning metodologiyasi xususida gap borar ekan, odatda shu fanga xos metod (usul)lar majumi tushuniladi. Tarix fanini o'qitish metodologiyasi deganda bu yo'nalishdagi ilmiy bilimlarning tuzilishi va rivojlanishi, ularning natijalarini asoslash yo'llarini amaliyotda mazkur fanga xos bo'lgan ilmiy bilimlar mexanizmini



samarali tadbiiq etilishi tushuniladi. Tarix fani metodologiyasi deb tarix fanlari doirasidagi ilmiy bilimlarning tuzilishi tamoyillariga, shakli va ilmiy jihatdan tarix fani doirasida qo'llaniladigan ta'limotiga aytiladi. O'zbekiston tarixi fanining fan sifatidagi nazariy-metodologik asoslari o'zida mazkur fanning qonuniyatlari va tamoyillarini, faqatgina shu fanga xos bo'lgan

qat'iy tushunchalar majmui va bilish metodlarini o'z ichiga oladi.

Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog'liq bo'lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani qay darajada ekanligiga ham bog'liq. Bu holdagi uzviy va ikki tomonlama bog'liqlik har ikkala yo'nalishning umumiy qonuniyati hisoblanadir. Mana shu o'zaro aloqadorlik qonuniyatini, mumtoz tarixshunosligimiz va hozirgi zamon sivilizatsion yondashuvlarga asoslangan holda O'zbekiston tarixi fani metodologiyasini quyidagi ikki qismga bo'lish tavsiya etiladi:

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik (uslubiy) ilmiy-nazariy, g'oyaviy-mafkuraviy va falsafiy asoslari. Bunga quyidagilar kiradi:

- Din bilan dunyoviylik o'rtasida mo'tadil munosabat bo'lishi va dunyoviylik aslo dahriylik emasligi;
- Tarixni milliy, umuminsoniy, muqaddas hodisa hamda qadriyat deb tushunish;
- Tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtayi nazari va bag'rikenglik asosida yondashish;
- Tarixiy taraqqiyot asosini evolyutsion – tadrijiy yo'l va islohotchilik tashkil etadi deb anglamoq;
- Tarixga milliy mentalitet nuqtayi nazaridan o'zgarlar tarixiga hurmat ruhida murojaat etish;
- Tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika (Gegel) hamda sinergetika (Prigojin) qonuniyatlari asoslarida rivojlanishi haqiqat ekanligi;

- Tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning joni, tani hamda g'oyaviy-mafkuraviy muhofaza quroli ekanligi.

2. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik (uslubiy), ilmiy usul va tamoyillari. Ular quyidagilardan iborat:

- Ilmiy xolislik (obyektivlik);
- Tarixiy – tahliliylik;
- Mantiqiy – uzviylik;
- Vorislik va xronologik izchillik;
- G'oyaviylik va vatanparvarlik;
- Qiyoslash, kuzatish va umumiyashtirish;
- Baxslashish, munozara yuritish va asoslab berish;
- Matematik hisoblash;
- Shakllash va modellashtirish;
- Ayrimlikdan umumiylikka (induksiya) va umumiylikdan ayrim (juz'iy)likka (deduksiya);

O'zbekistonning eng yangi tarixi mazmun-mohiyatiga ko'ra ilmiy va amaliy ahamiyatga moyildir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 1996-yil 13-dekabrda Farmoniga ko'ra – O'zbekistonning yangi tarixini tayyorlash va nashr qilish haqida qaror qabul qilindi. Shu asosda 2000 - yil "Sharq" nashriyatida Mustaqil O'zbekiston tarixi (III jild) chop etildi. Mustaqillik davrida o'tgan kunlarimiz alohida o'rganishni, tadqiq etishni, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishni taqazo etadi. Chunki, birinchidan, istiqlol yillarida O'zbekiston dunyo hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'ldi. Moddiy resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari, aqliy va jismoniy salohiyatlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar bilan tengma-teng turib, hamkorlik qilish imkoniyatlariga ega bo'ldi; ikkinchidan, mamlakatimiz uchun og'ir, mas'uliyatli paytda respublikamizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorlik ta'minlandi. Respublika hukumati mana shunday ziddiyatli holatda vaziyatni tezda anglab yetdi va to'g'ri siyosat yuritdi.

Bizning tariximiz ham, jahon tarixi ham din (aniqrog'i dinlar) tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Ijtimoiy hayotni dindan, diniy ijtimoiy hayotdan ajratib bo'lmaydi. Agar ajratilsa, tarixga ham, dinga ham mantiqqa ham zid bo'ladi. Ma'lumki, sovet tarix fani tarixni soxtalashtirdi, din ilmga zid, tarixiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi degan dahriylikka amal qildi. Tarix qanday bo'lsa, uni shundayligicha o'rganish ustuvor bo'lmog'i keraglini zamon dolzarb qilib qo'ymoqda. Shuning uchun ham u din bilan mo'tadil, mutanosiblik asosida o'rganilmog'i hozir eng asosiy zaruriyat bo'lib turibdi. Bu esa, yoshlarni har xil din niqobidagi dinga aloqasi bo'lmagan terroristik guruhlariga adashib kirib qolishlarining oldini oladi, shuningdek, bu imkoniyat tariximizni haqqoniy va to'la yozilishiga yo'l ochib beradi.

Istiqlol tufayli o'z tariximizni o'zimiz yozish va tarix fani metodologiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ldik. O'tgan davr ichida O'zbekistonning yangi tarixi yozildi va tarix fani jadal rivojlanmoqda. Butunlay yangi ruh va mazmundagi ilmiy qarash (konsepsiya)lar paydo bo'ldi, o'quv qo'llanma va darsliklar, tarixiy

asarlari chop etildi. Bu o‘rinda yuqoridagi metodologik ilmiy-nazariy asos va ularning ahamiyati katta bo‘ldi.

3. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.

Markaziy Osiyo mintaqasi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lib, insoniyat qadimgi tarixi va madaniyati o‘chog‘laridan biri hisoblanadi. Uzoq yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintaqaning turli viloyatlarida bir umumiy, bir-biriga o‘xshash, ko‘p hollarda bir-birini takrorlaydigan madaniyatga oid yodgorliklar topib o‘rganilgan va ilmiy doiraga tatbiq etilgan. Chunonchi, O‘rta Osiyo hududlarida qadimgi davrlarda yuz bergan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bir-biriga yaqin bo‘lib, turli migratsion jarayonlarga qaramasdan bu hududda yashagan qadimgi qabilalar va elatlarni umumiy va etnik ildizlar birlashtirib turgan. Shuning uchun ham O‘rta Osiyo xalqlarining tarixiy taqdiri qadimgi davrlardan boshlab bir-biriga uzviy bog‘langan bo‘lib, qadimgi davrlar haqida so‘zlaganimizda “Markaziy Osiyo tarixi” va “O‘zbekiston tarixi” atamalarini yonma-yon ishlatishimizning boisi ham ana shundadir.

Ma‘lumki, nafaqat O‘zbekiston, balki butun insoniyat tarixi uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, tarixiy-madaniy voqealarga nihoyatda boy hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘rta Osiyoning turli hududlarida arxeologiya, antropologiya, etnografiya va numizmatikaga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borildi hamda tariximizni xolisona yoritish uchun xizmat qiladigan muhim ma‘lumotlar to‘plandi. Ushbu ma‘lumotlar va ashyolar o‘lka tarixining qadimgi bosqichlaridagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida yanada to‘laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini berib, ular eng qadimgi xo‘jaliklar va mehnat qurollari, zamonaviy qiyofadagi odamning paydo bo‘lishi, xo‘jalikning ishlab chiqaruvchi shakllariga o‘tilishi, ishlab chiqarishda metalning ishlatila boshlanishi, ayirboshlash va savdo-sotiq, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi kabi ko‘plab tarixiy-madaniy jarayonlariga bog‘liq ravishda bo‘ladi. Tarixni davrlashtirishda ushbu jarayonlarga asosiy e‘tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston tarixini zamon talablariga asoslanib davrlashtirish masalasida olimlar orasida hamon bahslar davom etmoqda. Bu masala yuzasidan, xususan, eng qadimgi davrlardan bugungi kunga qadar bo‘lgan tariximizni davrlashtirishda e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan tarixiy-madaniy jarayonlar, masalaga sivilizatsion yondoshuv, davrlashtirishning metodologik asoslari kabilarga A.Asqarov, E.Rtveladze, A.Sagdullaev va boshqa olimlar e‘tibor qaratgan bo‘lishlariga qaramay, davrlashtirish masalalari to‘la yechimini topgani yo‘q. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalalariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Chunki, o‘rganilayotgan tarixni avvalo, xronologik izchillikda davrlarga bo‘lib, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib darslik nuqtayi nazaridan ma‘ruzalar belgilash hamda dars soatlarini taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Qanchalik sodda ko‘rinmasin, ushbu jihat ham murakkab masala hisoblanagan tarixni to‘g‘ri davrlashtirishni talab etadi. Masalaning eng muhim tomoni esa, yoshlarimizga ilmiy asoslangan davrlashtirish asosida tarix fanidan ta‘lim berishdir.

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, mustaqillik davriga kelib, haqqoniy tariximizni yaratish borasida olib borilgan tadqiqotlar tufayli sovet davri mafkurasiga asoslangan besh bosqichli formatsion davrlashtirish inkor etildi. Qadimgi tarixni davrlashtirish masalasida tarixiy-madaniy taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy omillariga asosiy e'tiborni qaratish g'oyalari paydo bo'ldi. Xususan, A. Sagdullaevning fikricha, Markaziy Osiyo tarixining eng qadimgi davri bir necha yuz ming yillarni o'z ichiga oladi. Yevropa va Osiyo hududlarida tarixiy va madaniy jarayonlar rivojlanishining notekisligi, ayniqsa, turli davrlarda moddiy madaniyatdagi o'zgarishlarning bir-biriga mos kelmasligi tufayli, ayrim hududlarga tegishli tarixiy sana va davrlashtirish bir-biridan farqlanadi.

A.Asqarovning fikricha, O'zbekiston tarixi jahon tarixining tarkibiy qismidir. Bu zaminda yuz bergan tarixiy jarayonlarni jahon tarixidan ajratib o'rganish mumkin emas. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining mahsulidir. Har bir xalq yer kurrasining qaysi mintaqasida yashamasin, taraqqiyotning barcha bosqichlarini u yoki bu darajada bosib o'tishi shart. Ammo, jamiyat rivojlanishi hamma yerda birday kechmagan. Jamiyatning notekis rivojlanish qonuniyati esa, qadimgi zamonlarda ko'proq mintaqaning tabiiy-geografik va ekologik imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan. Jamiyat hayotida yuz beradigan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, Markaziy Osiyo tarixining rivojlanish darajasi va ana shu mintaqa tarixi taqazo etgan holatdan kelib chiqib, Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixini davrlashtirish mumkin.

Tarixini davrlashtirish masalasi A.Asqarovning "O'zbek halqining kelib chiqish tarixi" monografiyasida keng yoritilgan va unda tarixni davrlashtirishda nimalarga e'tibor berish lozimligi ta'qidlanib, O'zbekiston tarixini 7 ta davrga bo'lib o'rganish muvofiqligi ilgari surilgan². Unda jamiyatda yuz beradigan tub o'zgarishlar hisobga olingan holda, birinchidan, har bir ulkan tarixiy davrda jamiyat iqtisodiy asosini harakatlantiruvchi kuchlari kimlar edi? Ikkinchidan, jamiyatda mulkka egalik qilishlikning xarakteri qanday bo'lgan?



Uchinchidan, jamiyat ijtimoiy hayotining ma'naviy asosini qanday mafkura tashkil etgan? degan savollar qo'yilib, kishilik jamiyati tarixi davrlashtirilishi kerak, degan fikrni ilgari surgan³ va quyidagi davrlashtirishni ilmiy ommaga taklif etgan:

I. O'zbekistonda "Ibtidoiy to'da davri" (mil. avv. I million – 40 ming yilliklar)⁴.

II. O'zbekistonda "Ibtidoiy urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri" (bundan 40 ming yil avval to milodiy III-IV asrlargacha). Bu davrni uch bosqichga bo'ladi: 1 bosqich – matriarxat urug' jamoasi bosqichi. 2 bosqich -

²Asqarov A. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Т.: 2015, 70-91 бетлар

³Asqarov A. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Т.: 2015, 77- бет.

⁴ XX асрнинг иккинчи ярми давомида жаҳон фанида Шимолий-Шарқий Африканинг Олдувай водийсида олиб борилган археологик ва антропологик изланишларга кўра, одамзоднинг илк аجدодлари бундан 2,5-3 миллион йил аввал Африка қитъасида яшай бошлаган. "Homo sapiens, sapiens" (ақлли одам) эса, ер қуррасида мил. avv. I миллион йилдан бошлаб яшай бошлаган, деган тасаввур пайдо бўлди.

patriarxal urug' jamoasi bosqich. 3 bosqich urug' jamoalarining harbiy demokratiya bosqichi.

III. O'zbekistonda "Ilk o'rta asrlar davri" (milodiy V asrdan to VIII asr oxirigacha).

IV. "O'rta asrlar davri" (IX asrdan Somoniylar davlatini tashkil topishidan to XIX asr o'rtalarigacha).

V. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixining beshinchi davrini "Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri" deb atash mumkin. Uning davriy chegarasi – Rossiya imperiyasi bosqinidan to 1917-yil Oktabr to'ntarishiga qadar davom etgan davrni o'z ichiga oladi.

VI. O'zbekiston tarixining oltinchi davri "Sovetlar hokimiyati davri" bo'lib, bu davr 1917-yildan 1991- yilgacha davom etgan.

VII. O'zbekiston tarixining yettinchi davri "Milliy istiqlol, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish davri" deb atab, bu davr 1991- yil 31 - avgustdan to bugungi kungacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi.

Akademik A.Asqarov tomonidan ilgari surilgan bu davrlashtirish uslubida ham O'zbekiston hududining o'ziga xos taraqqiyot yo'li aks etgan. Shuningdek, biz o'rganayotgan davr, ya'ni O'zbekiston tarixining yettinchi davri "O'zbekistonning eng yangi tarixi" deb ham atalib, ushbu davr ham o'z ichida bir necha bosqichlardan iborat. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Respublika Prezidenti Islom Karimov asarlari orqali mustaqillik davrida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan ulkan o'zgarishlarni, respublika aholisining serg'ayrat va fidokorona mehnati tufayli qo'lga kiritilgan katta yutuq va natijalarni, ularning mohiyati va ahamiyatini hisobga olib mustaqil taraqqiyot 3 bosqichga bo'linishini ko'rishimiz mumkin. Birinchi bosqich 1991-2000 - yillarni o'z ichiga olib, bu davrda mustaqillikning mustahkam poydevori bunyod etilib, "o'zbek modeli" asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yo'l tutildi, O'zbekiston jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi, milliy istiqlol mafkurasi jamiyat hayotida keng kirib bordi.

2001-2010 - yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich, I.Karimov ta'biri bilan aytganda, "fan demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi".

Uchinchi bosqich esa, 2010 - yildan keyingi davr bo'lib, bunda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud huquqi va axborot sohasini isloh qilish, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik institutlarini rivojlantirish, bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish davri bo'lib qoldi. Ushbu davrning boshlanishi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasining ishlab chiqarilishi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, O'zbekistonning eng yangi tarixida yuqoridagi bosqichlarga qo'shimcha ravishda 2017-yildan keyingi davrni ham alohida jarayon sifatida qabul qilish mumkinki, bu davr tarixi 2016-dekabr oyida saylangan O'zbekiston Prezidenti

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev strategik taraqqiyotga asoslangan keng ko‘lamli jadal islohotlar davri boshlanganligi bilan izohlash mumkin.

Ta‘kidlash lozimki, taklif etilayotgan ushbu davrlashtirish bu mavzuni yakunlamaydi. Tarix fanini o‘qitish borasida dolzarb bo‘lib turgan davrlashtirish masalalari hali jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lishi tabiiydir. Ammo, bu yo‘nalishda aniq konsepsiya ishlab chiqilib, o‘quv jarayoniga joriy etilishi davr talabidir.

4. XXI globallashtirish asrida ta‘lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar.

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi davrda O‘zbekistonning eng yangi tarixini yozish soha hodimlari oldidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida “O‘zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish ” to‘g‘risidagi Farmoyishiga muvofiq hamda xalqimizning yangi tarixini o‘rganish va yozish, mamlakatimiz hayotida sodir bo‘layotgan buyuk o‘zgarishlar va uning jahonshumul tarixiy ahamiyatini ko‘rsatishni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1996-yildagi 16-dekabrda “O‘zbekistonning yangi tarixi”ni tayyorlash va nashr etish to‘g‘risida qarorining o‘rni nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu qarorga ko‘ra, O‘zbekistonning yangi tarixi”ni yozishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar e‘tiborga olinishi belgilab berildi:

-xalqimiz o‘tmishidagi millat taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy jarayonlarni chuqur ilmiy tadqiq etish va xolisona yoritish;

-“O‘zbekistonning yangi tarixi”ni yozishda tarix bosqichlari va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot uzluksiz jarayon ekanligini nazarda tutish, tarixiylik va vorisiylik tamoyillariga amal qilish;

-O‘zbekiston xalqining buyuk tarixiy merosga ega ekanligi va umumbashariyat qadriyatlariga munosib hissa qo‘shganligini e‘tirof etgan holda, o‘ziga xos davlat qurilishi an‘analari va ularga nisbatan fikrlar, qarashlar xilma-xilligi mavjudligini hisobga olish;

-“O‘zbekistonning yangi tarixi”ning har bir qism va bo‘limlarini yozishda bir yoqlama, subyektiv yondashuvlarga yo‘l qo‘ymasdan yagona tadqiqot uslubiga amal qilish;

-O‘zbekiston tarixiga oid voqea-hodisalarni yoritishda uning ko‘hna Turonzamin, Turkiston tarixining tarkibiy qismi bo‘lganligini yodda saqlash;

-O‘zbekiston tarixi dunyoning turli mintaqalarida sodir bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar hamda jahon taraqqiyoti jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini va ularning bir-biriga o‘zaro ta‘sirini hisobga olish;

-tadqiqot yaratishda eski kommunistik-bolshevistik mafkura aqidalariga va o‘tmishni soxtalashtirishga yo‘l qo‘ymaslik, tarixiy jarayonlarni xolisona baholash;

-yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalari, vatanparvarlik va umuminsoniylik ruhida tarbiyalashda tarixiy voqea-hodisalarning ahamiyatini e‘tiborga olish.

“O‘zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o‘qitish, ilmiy, ilmiy-ommabop, o‘quv-metodik,

ma'rifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, ilm-fanning ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish borasida ilmiy, madaniy, ta'lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilarida, oliy o'quv muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish maqsadida" O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-iyun kuni "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori ham O'zbekistonning eng yangi tarixini yaratishda muhim burilish bo'lib xizmat qildi. Mazkur qaror bilan O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashining quyidagi asosiy vazifalari belgilandi:



-demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning "o'zbek modeli" mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni, hozirgi dunyoda O'zbekistonning roli va o'rnini chuqur o'rganish va yaqqol ochib berish;

-O'zbekistonning eng yangi tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o'rganishni tashkil etish, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'yimaslik ishlarini amalga oshirish;

-ilmiy, o'quv, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlarini muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash;

-O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha ilmiy, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv dasturlari monitoringini shakllantirish;

-sohada ilmiy-tadqiqot, o'quv-metodik ishlarning sifatini yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va joriy etish;

-fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat, xalqning tarixiy an'analari, madaniy merosiga hurmat, O'zbekiston mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga ko'maklashish;

-O'zbekiston tarixi bo'yicha zamonaviy chet el ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, hozirgi O'zbekistonning tarixiy o'tmishi, sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi,

mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar to'g'risidagi xolis axborotni keng xalqaro jamoatchilikka ilmiy asosda yetkazish.

-Qarorda ijtimoiy-gumanitar fanlarni ta'lim bilan integratsiyalashuvini mustahkamlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

-Jamoatchilik kengashi shuningdek, "Tarix" ta'lim yo'nalishi va tegishli magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablarini ishlab chiqishda qatnashishi mustahkamlab qo'yildi.

-Jamoatchilik kengashining ishchi organi sifatida O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz belgilangan bo'lib, uning asosiy vazifalari sifatida Jamoatchilik kengashi faoliyatini ilmiy-metodik ta'minlash, O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish bo'yicha dolzarb masalalarni ishlab chiqish, O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha o'quv, o'quv-metodik adabiyotlar yaratish yuzasidan tanlovlar o'tkazishda ishtirok etish, davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida O'zbekistonning eng yangi tarixi tadqiqotlari bo'yicha ilmiy-texnika loyihalari tanlovlarini vazifalari ro'yxatiga kiritish uchun takliflar ishlab chiqish hamda ularni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Fan va texnologiyalar agentligiga kiritish, O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish, har yili O'zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro va respublika konferensiya va seminarlari ro'yxatini belgilangan tartibda ishlab chiqish belgilangan.

Dunyoda, xususan, O'zbekistonda yuz berayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar davrida tarix fani ham bir qator masalalarni qayta ko'rib chiqish va chuqur o'rganish muammosiga duch kelmoqda. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018- yil 18 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, lozim", degan fikrlari⁵ sohaning oldiga ko'plab ilmiy masalalarni ko'ndalang qo'yadi.

Savol va topshiriqlar.

1. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti va obyekti nimalardan iborat?
2. "Tarix – xalq ma'naviyatining asosidir" iborasini qanday tushunasiz?
3. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi?
4. O'zbekistonning eng yangi tarixi qaysi davrdan boshlangan tarixiy jarayonlarni o'z ichiga oladi?
5. O'zbekistonning eng yangi tarixi materiallari, tarixiy jarayonlarning talqini sobiq tuzum davrida an'anaga aylangan-sinfilylik, partiyaviylik kabi soxta tamoyillardan qaysi jihatlari farq qilishi lozim?

⁵ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон. - Б. 15.

6. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik (uslubiy) ilmiy-nazariy o‘zida nimalarni qamrab oladi?

7. O‘zbekistonning eng yangi tarixining metodologik (uslubiy), ilmiy usul va tamoyillariga nimalar kiradi?

8. O‘zbekistonda nechanchi yildan keng qamrovli stretegik tadqiqotlarga asoslangan davr boshlandi?

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinining “O‘zbekistonning yangi tarixi”ni tayyorlash va nashr etish to‘g‘risida qarorining mohiyati nimalardan iborat?

10. Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018- yil 18 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida gumanitar soha hodimlari oldiga qanday ustuvor vazifalarni qo‘ydi?

2-MAVZU. MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLAR.

Reja:

1. XX asrning 80-yillari oxirida O‘zbekistonda yuzaga kelgan keskin va jiddiy vaziyat.
2. O‘zbekistonda qatag‘onlikning yangi bosqichi. “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” nomli soxta ishlar.
3. I.Karimovning O‘zKompartiyasi Markaziy Kengashining birinchi kotibi etib tayinlanishi.
4. O‘zbekistonda prezidentlik lavozimining joriy etilishi.

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida ma’lumot berish.

Tayanch iboralar: sovet tuzumi, “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi”, “Sharqiy front”, “qayta qurish”, panturkizm, erkin yoshlar uyushmasi, Orol fojiasi.

1. XX asrning 80-yillari oxirida O‘zbekistonda yuzaga kelgan keskin va jiddiy vaziyat.

XX asrning 80-yillari SSSR tarixida siyosatda keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarish “qayta qurish” siyoati bilan bog‘liq edi. SSSRdagi “qayta qurish” jarayonidan avval boshdanoq siyosiy maqsad ko‘zlangan edi. Iqtisodiy islohotlar esa unga bo‘ysunuvchan ahamiyat kasb etdi. Ko‘p o‘tmay, jadallashib borayotgan siyosiy jarayonlar (oshkoralik, demokratiya) bilan sust rivojlanayotgan iqtisodiyot o‘rtasida katta farq ko‘rinib qoldi. Bu paytda SSSRning tarkibiy qismi bo‘lgan O‘zbekiston SSR ham qayta qurish girdobiga tortildi va uning qonuniyatlari amalda bo‘ldi.

Qayta qurishning birinchi bosqichida (1985-1986 yillar) asosan ma’muriy-tashkiliy tadbirlarning an’anaviy usullarda olib borildi. Mazkur bosqichda kun tartibiga qo‘yilgan vazifalardan biri ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni yuksaltirish va shunga muvofiq inson omilini faollashtirishdan iborat bo‘ldi.

Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e’tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga qaratildi. Shuning uchun ham 1986-yil 1-mart kuni KPSS XXVII sye’zining KPSS Markaziy Komiteti siyosiy ma’ruzasi yuzasidan qabul qilingan rezolyutsiyada fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish masalasiga katta e’tibor berilgan edi.

Demak, qayta qurish siyosatida dastlabki davrlarida asosiy e’tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratildi. Biroq, bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amalga oshirish mumkin emasligi tezda ayon bo‘ldi. Shuning uchun 1986 yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e’tibor qaratishga majbur bo‘lindi. Bunday siyosatning asosiy maqsadi esa jamiyatni demokratlashtirish, ma’muriy-buyruqbozlik va byurokratizmga, qonunsizlikka qarshi kurashish turar edi.



Ayni paytda, butun Ittifoqda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham dastlab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda ma'lum o'zgarishlar yuz bera boshladi, kishilarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratiya sari dastlabki qadamlar tashlandi, milliy o'zlikni anglash jarayoni boshlandi. Ammo, tub o'zgarishlar va barcha sohalarida haqiqiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi urinishlarzoye ketdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1986-yildan boshlab mamlakat iqtisodiy ahvoli yanada og'irlasha boshladi, 1987-yil yanvardan ishlab chiqarish sur'atlari keskin orqaga keta boshladi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda muvafaqqiyatsizlik bilan

yakun topdi

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987-1990 - yillar) jamiyatning barcha sohalarini yahlit tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Bunday vazifa kommunistik mafkura tomonidan 1987-yil yanvarda yanada aniqlik kiritildi. Moskva shahrida 1987-yil 27-28 - yanvarda bo'lib o'tgan KPSS MK Plenumida KPSS Markaziy Komitetining Bosh sekretari M.S.Gorbachyov «Qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati to'g'risida» ma'ruza uyushtirdi. Unda siyosiy islohotlarning bosh maqsadi oshkoralik va kadrlar siyosatini to'g'ri yuritish asosida sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirish bo'ldi. Keyinchalik M.S.Gorbachyov o'zining qayta qurish haqidagi mashhur kitobida bu masalalarga alohida e'tibor qaratadi. Ammo siyosiy tuzumni isloh qilish va demokratlashtirish, keng xalq ommasining siyosiy va tarixiy jarayonlarda ishtirok etishi Markaz uchun kutilmagan oqibatlariga olib kelishi natijasida Moskva tomonidan siyosiy va iqtisodiy islohotlar boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Oqibatda 1990 - yil nafaqat qayta qurishning ikkinchi bosqichi, balki SSSR aholisi, balki butun dunyo umid ko'zi bilan qarayotgan qayta qurish siyosati butunlay mag'lubiyatga uchradi. Bu holat ham SSSR inqirozini tezlashtirdi va uning parchalanishiga olib keldi.

Davlat ichida tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazish mumkin bo'lmadi. Bu quyidagi uch sabab bilan izohlanadi: birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan strategiya va taktikasi hamda yagona dasturi yo'q edi. Ikkinchidan, kommunistik partiya rahbarlari (partokratiya) qayta qurish g'alabasidan manfaatdor emas edi. Ular har qanday demokratiya va oshkoralik totalitar tuzumning kushandasi ekanligini yaxshi bilishardi. Uchinchidan, M.S.Gorbachyov g'oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkin emas edi. Sotsializmga xos sinfiy munosabatlar, davlat mulkchiligi, milliy va ijtimoiy sohadagi siyosat yakkapartiyaviy rahbarlik, kommunistik mafkura, mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya bilan chiqisha olmas edi.

Shuni aytish mumkinki, qayta qurish yuqoridan boshlandi. Mazkur jarayonning boshlanish paytida jamiyat a'zolari unga juda katta umid bog'ladilar. Ro'y

berayotgan o'zgarishlar, ayrim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar kishilarda ertangi kun va porloq kelajakka ishonch ruhini yana uyg'otdi. Dastlabki davrda qayta qurish rahnamolari, ya'ni, yuqorining quyi bilan munosabatlarida ma'lum kelishuvchilik, xayrixohlik sezildi.

Lekin, keyinchalik vaziyat butkul o'zgardi. 1986-1987 yillardan boshlangan iqtisodiy inqirozning kuchayishi, ijtimoiy muammolarni hal etishdagi o'quvsizlik demokratik jarayonlar va oshkoralikning yarim yo'lda qolib ketishi - bularning barchasi jamiyat a'zolarida qayta qurishga bo'lgan munosabatni o'zgartirdi. Qayta qurishning uchinchi yilida uning to'liq mag'lub bo'lishi aniq ko'zga tashlanib qoldi. Amaliy ishlar, foydali tadbirlar o'rniga siyosiy jahadagi turli tadbirlar: siyosiy safсатаbozlik, quruq va'dalar, so'z bilan ish birligining yo'qligi jamiyatdagi loqaydlik holatini yanada kuchaytirdi. Ijtimoiy faollik o'rnini sustkashlik, davlat va firqa siyosatiga ishonmaslik, befarqlik va sovuqqonlik egalladi.

Qayta qurish oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma-xilligining ma'lum ma'noda kuchayishiga imkon yaratdi. Shu bilan birga, bunday jarayonlarni madaniy shaklda xalqaro andozalar asosida olib borish imkoni bo'lmadi. Buning ustiga Ittifoqqa nisbatan O'zbekistonda respublika rahbariyati demokratiya va oshkoralikning kuchayishiga turli to'siqlar qo'ydi. Bunga ko'proq kommunistik mafkuraning yakkahokimligi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi asoratlari ta'sir qilar edi. Natijada tom ma'nodagi oshkoralikka erishib bo'lmadi, demokratiya esa amalda navbatdagi siyosiy o'yinlar ko'rinishi tusini oldi. Fikrlar xilma-xilligining turli ko'rinishlari esa yuqorining siyosiy va g'oyaviy masalalarda hurfikrlilik va demokratiyani ta'qib etishi asnosida yuz berdi.



Ana shunday sharoitda O'zbekistonning o'sha paytdagi siyosiy rahbariyati Markaz oldida o'zining no'noq va noshudligini ko'rsatdi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteta rahbariyati Markazdan qochish, uni inkor etish siyosati o'rniga ko'proq unga yaqinlashish va mustahkam birlashish yo'lidan bordi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitet birinchi kotiblari I.Usmonxo'jaev va R.Nishonovda qat'iy jur'at, Ittifoq doirasida respublikaning tutgan o'rnini ochiq-oydin aytish uchun jasorat yetishmadi. Aksincha, bu rahbarlar va ularning o'rinbosarlari Markaz vazifalarini tezroq uddalash, respublikaning Ittifoqqa boqimanda ekanligi to'g'risidagi soxta fikrlarni tasdiqlash va takrorlashdan nariga o'ta olmadilar. Ijtimoiy va ma'naviy sohada milliylikning har bir ko'rinishi internatsionalizm mohiyatiga yot ekanligini isbotlashga urunildi. Bu narsa o'zbek tiliga munosabat, islom dini, milliy urf-odatlar, an'analar va diniy marosimlar, xususan, Navro'z bayramiga munosabatda yaqqol sezilib qoldi.

2. O'zbekistonda qatag'onlikning yangi bosqichi. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" nomli soxta ishlar.

Bu davrda, ma'muriy-buyruqbozlik hamda kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davlati o'z ichki siyosiy mavqeyini mustahkamlash maqsadida ma'lum

davrlarda zo‘ravonlik siyosati ortidan bordi. Tazyiq, zo‘ravonlik va qatag‘onlar boshqa xalqlar ichida milliy ruh va o‘zlikni yo‘qotishga, loqaydlik kabi kayfiyatlarni yuzaga kelishiga olib keldi. Sovet davlati tomonidan boshlangan qatag‘onlarning oxirgi davri O‘zbekistonda XX asr 80-yillarida “paxta ishi”, keyinroq “o‘zbeklar ishi” degan ma‘shum nom ostida tarixga kirdi. Sovet davlatini qamrab ola boshlagan inqiroziy holatlarni mavjud tuzum negizida emas, balki “yuzaga kelgan salbiy illatlarda” deb bilgan markaz, O‘zbekistonni tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab oldi.

1982-yil noyabrda KPSS MQ Bosh kotibi L.I. Brejnev vafotidan so‘ng hokimiyatni egallagan Yu.V. Andropov mamlakatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish siyosatida ta‘qib va tazyiqqa asoslangan qattiqqo‘llik yo‘lini tanladi. Yu.V. Andropov o‘zining Davlat xavfsizlik qo‘mitasidagi uzoq yillik tajribasiga tayanib, mamlakatning tobora og‘irlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy



hayotiga doir bo‘lgan barcha ma‘lumotlardan, xususan, rahbar-kadrlar faoliyatidagi nuqson va kamchiliklardan xabardor edi. Markazdagi siyosiy rahbariyat mamlakatda yuzaga kelgan chuqur inqiroziy holatlarning sabablari yechimini aksariyat kadrlar siyosatida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, tartib-intizomning bo‘shashi, mafkuraviy hushyorlikni yo‘qotish bilan xarakterlanadi. Hukmron partiyaning 1983-yil iyun plenumida ham aynan partiya ideologik, ommaviy siyosiy ishining muhim masalalari kun tartibiga qo‘yildi va jamiyatdagi poraxo‘rlik illatlarining asosiy sabablarini biron-bir xodimning xatolaridan, rivojlanishning aniq muammolaridan va qiyinchiliklaridan qidirish lozimligini ta‘kidlandi.

Respublika ijtimoiy hayotida katta “burilish” yasagan O‘zbekiston KP MQ 1984- yil XVI plenumi ham markazning respublikadagi “sog‘lomlashtirish” borasida ko‘rsatayotgan va belgilayotgan tadbirlarini qo‘llab-quvvatladi. Bunday tartib respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy hayotiga salbiy ta‘sir etayotgan bo‘lsa-da, kadrlar bilan ishlashni partiyaning asosiy “vazifalaridan” biriga aylantirib olganlarga nisbatan hech qanday chora ko‘rilmagan edi. Mazkur plenyum markazning O‘zbekistonda “turg‘unlik davri illatlariga qarshi kurash”ini qo‘llab-quvvatlagan holda mahalliy rahbar kadrlarni turli yo‘llar bilan tazyiq ko‘rsatish va jazolash jarayonlarini boshlab yubordi.

Ana shunday vaziyatlar O‘zbekiston sovet mamlakatidagi “poraxo‘rliklar, qo‘shib yozishlar, o‘g‘rilik kuchayib ketgan yagona hudud”, degan tushuncha paydo bo‘lishiga olib keldi. O‘zbekiston KP MQ XVI plenumi va XXI s‘ezdi qarori bilan O‘zbekistonga markazdan kadrlar jo‘natila boshlandiki, O‘zbekiston Kompartiyasi MQ O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti, O‘zbekiston SSR Oliy Soveta, O‘zbekiston SSR Prokuraturasi, O‘zbekiston SSR Ichki Ishlar Ministrligi kabi muhim boshqaruv bo‘g‘inlari shunday kadrlar qo‘l ostiga tushib qoldi. Ular respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yanada keskinlashishining asosiy sababchilariga aylana bordilar. Qisqa muddat ichida O‘zbekiston prokuraturasining eng yuqori, eng muhim

lavozimlaridan tortib, oblast, rayon prokurorlarigacha markazdan doimiy ishlashga yuborilgan vakillari bilan almashtirilgan. 1984 yilda O‘zbekiston SSR Prokurori, uning muovinaridan uchta, eng katta boshqarmalarning boshliqlari lavozimlariga markazdan yuborilgan xodimlar qo‘yildi. Natijada, Buxoro viloyatiga G.N. Matyushov, Samarqand viloyatiga V.I. Eremenko, Xorazm viloyatiga A.D. Titorenko, Navoiy viloyatiga A.P. Suxarev, Surxondaryo viloyatiga V. M. Jeltkov, Qoraqalpog‘iston ASSRga V.V. Donsov, Toshkent shahariga G.P. Filippenkovlar prokuror etib tayinlandilar.

Bunday choralar aslida respublikadagi asosiy mas’uliyatli lavozimlarga markazdan yuborilgan “desantchilarni” joylashtirish siyosati boshlanganligidan darak berar edi. Ular ittifoq markazining respublikadagi tayanchi bo‘lishi va respublikada sovetcha usuldagi «tartib-intizom»ni yanada mustahkamlashlari lozim edi. Shubhasiz, mahalliy rahbariyat “iltimosiga binoan” yuborilgan kadrlar noqonuniy tarzda hibsga olinganlarning manfaatlarini himoya qilishi ham qiyin edi. Aksincha “desantchilar” qatag‘onlik siyosatining davom etishida, respublikada nohaklik va qonunbuzarlik, mansabni suistemol qilishning avj olishida, zo‘ravonlik va tazyiqni kuchayishida “faol” rol o‘ynadilar. O‘z navbatida ular markazning respublikadagi tayanchi bo‘lib qoldi va respublika huquq-targ‘ibot organlariga ehtiyojni “decantchilap” orqali to‘ldirib borishdi.

Bunday vaziyatda o‘zi egallab turgan lavozimiga noloyiq deb «hisoblangan» kadrlarga nisbatan ta‘qib boshlanib, etilib kelayotgan iqtisodiy inqiroz «gunohkorlar»ini topish, ularga partiyaviy jazo berish bilan, go‘yoki, muammolarni oldini olish boshlandi. 1983 yilda SSSR Bosh Prokurori A.M. Rekunkov topshirig‘iga ko‘ra, SSSR Prokuraturasining alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchisi T.Gdlyan boshchiligidamamlakatning turli mintaqalaridan to‘plangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuziladi va O‘zbekistonga yuboriladi. Bu “paxta ishi”ni amaldagi boshlanishi edi.



O‘zbek xalqiga qo‘yilgan tuxmatlar “Paxta ishi” uydirmalaridan boshlangan vaqtda xalq xo‘jaligida “jinoiy ishlarga qo‘l urgan” xodimlar javobgarlikka tortilib, ular xalq xo‘jaligida “qo‘shib yozishlarga” yo‘l qo‘yilganlikda ayblandilar. Qo‘shib yozishlarni tekshirishdan boshlangan tergov guruhining faoliyati asta-sekinlik bilan rahbarlik lavozimida ishlayotgan kishilarni ham torta boshladi. “Paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” nomini olib kelgan qatag‘onga keyinroq milliy tus berilib, to‘liq “o‘zbeklar ishi”ga aylantirildi. Natijada mahalliy rahbar xodimlar, ziyolilar ham ta‘qib ostiga olinib boshladi. O‘zbekistondagi bu holatlar haqida markaziy matbuot sahifalarida shunchalik ko‘p maqolalar chop etildiki, ulardan “xalqimizning tarixi, madaniyati, paxta va paxtakorning mashaqqatli mehnatlaridan behabar odamlarda go‘yo, o‘zbeklar turli nopok yo‘llar bilan daromad ortirib, yengil -yelpi hayot kechiradi”, degan noto‘g‘ri tasavvur tug‘ilishiga sabab bo‘lib kelgan edi.

Aholini tergov qilish uchun markazdan chaqirilgan tergov guruhiga kirgan tergovchilarning asosiy qismi katta bilim va tajribaga ega bo'lmagan, noqonuniy holatlardan ko'z yumadigan, topshiriqdarni ko'r-ko'rona tarzda bajaradigan kishilar bo'lgan. Tergov guruhiga katta vakolat va imtiyozlar berilgan. Ular soxta ayblovlar bilan qonunsizlik yo'liga o'tib, tergov jarayonlarida tuhmat, ig'volar uyushtirish, faktlarni soxtalashtirish, kishilarni sohta ma'lumot berishga majbur etish, o'zlariga yoqmagani kishilardan o'ch olish vositasi sifatida foydalanganlar. T.Gdlyan olib borayotgan jinoyat-tergov ishlarining barchasi ochiqdan ochiq ayblov yo'nalishida bo'lgan. Ko'plab jismoniy va ma'naviy azoblardan so'ng qamoqqa olinganlar o'z ayblarini bo'yinlariga olishga majbur bo'lganlar.

Tergovchilar gunohi hali isbotlanmagan kishilarni qamoqlarda ashaddiy jinoyatchilar bilan birga bir kameralarda ushladilar, ularni shafqatsiz kaltaklab, ruhiy azob berib, qo'rqitib, tergovchilar avvaldan tayyorlab qo'ygan hujjatlarga imzo chekishga majbur etdilar.

Ana shunday qabih yo'llar bilan tergov guruhi guvohlik beruvchilardan o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olgan. Noqonuniy qamoqqa olingan kishilar orasida ko'p bolali onalar, xomilador ayollar, yosh bolalar ham bo'lgan. Bu ishlardan ko'zlangan maqsad iqtisodiy "jinoyatchilik"ni fosh etish emas, balki mamlakat hayotidagi umumiy salbiy holatlarning aniq bir qo'rinishi bo'lgan qo'shib yozishga qarshi harakatlarni to'xtatish, "temir intizom" bilan milliy kadrlarni jazolab, erkin fikrlaydigan ziyolilarni jilovlash, respublikalarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarni bo'g'ib tashlash, milliy ong, fuqaroning faolligini ham bir tizginda ushlab turishdan iborat edi.



T.Gdlyan rahbarligidagi tergov guruhining O'zbekistondagi faoliyati davomida O'zbekiston SSR prokraturasi va O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirliklarining 20 nafar rahbar xodimi, O'zbekiston Kompartiyasi MQning to'rt nafar kotibi, viloyatlardagi qo'mitalarining sakkiz kotibi, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi, O'zbekiston SSR Oliy Soveti prezidiumi Raisi,

O'zbekiston Paxta tozalash sanoati vaziri va boshqa bir qancha ma'sul xodimlar, umuman 62 nafar mas'ul shaxs pora olishda ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortildilar. 1989 - yilning may oyiga qadar javobgarlikka tortilgan 35 nafar ayblanuvchining ishi sudga oshirildi. 1984-1989 - yillar davomida T.Gdlyan guruhi tomonidan 800 dan ko'proq «jinoiy» ish ko'rilib, jinoiy javobgarlikka tortilganlarning 600 nafari rahbar xodimlar, 10 nafari Sotsialistik Mehnat Qahramonlari bo'lgan. O'zbekiston SSR Paxta tozalash sanoati vaziri V.Usmonovga esa 1986-yilda o'lim jazosi belgilangan, hukm 1987-yilda amalga oshirilgan.

XX asr 80 - yillariga kelib ko'shib yozishlar, poraxo'rlik, mansabni suite'mol qilish hollari ittifoqdosh respublikalarning barchasida kuchaygan edi. Shuningdek, bu illatlar faqat mahalliy rahbar kadrlar yo'l qo'ygan xato, kamchiliklarinigina emas, balki mamlakatda o'tgan yillar ichida shakllangan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining

natijasi edi. “Paxta ishi” uydirmalari bo‘lsa, o‘zbek xalqining kuchayib kelayotgan iqtisodiy inqirozlardan chalg‘itish, bunda biror bir xalqni “aybdor” qilib ko‘rsatish orqali xalq e‘tiborini boshqa tomonlarga burib yuborishdan iborat edi. Aslida shunday ham bo‘ldi, butun mamlakat bo‘ylab O‘zbekistondagi “ulkan o‘g‘riliklar”, “poraxo‘rliklar” muhokama etildi. Natijada, “turli millat xalqlarining buzilmas ittifoqi tashkil toptan” bu ulkan davlatda “do‘stlik va qardoshlarcha hamkorlik” bir chetda qolib, butun mamlakatga o‘zbek xalqiga nisbatan “boqimanda” degan yorliq yopishtirildi. Butun bir millatni ayblash yo‘liga o‘tib olgan siyosiy rahbariyat “paxta ishi”ni “o‘zbeklar ishi”ga aylantirib yubordi. O‘zbekiston mustaqil ravishda “paxta ishi”ni tekshirish boshlanganda ishni mahalliy rahbarlarga berishni istamay, tekshiruv ishlariga to‘sqinlik qilishga, haqiqiy aybdorlarni yashirib turishga, barcha ayblovlarni yana o‘zbek xalqi yelkasida qoldirishga intildi.

3. I.Karimovning O‘zKompartiyasi Markaziy Kengashining birinchi kotibi etib tayinlanishi.

XX asrning 80-yillari sobiq sovet davlatida ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy jihatdan yaqqol tunazzul holati yuzaga kelib qolgan davr edi. “Qayta qurish” siyosati barbod bo‘lishi, ma‘muriy-buyrukbozlikka asoslangan, mulkchilikning turli shakllari raqobat asosida saqlanishni inkor etgan mavhum siyosiy, sinfiy, umumiy manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo‘ygan, yagona partiya ish hukmronligiga tayangan mustabid tuzum butunlay istiqbolsiz ekanini amalda yana bir bor ko‘rsatgan edi. Bu vaqtda O‘zbekiston iqtisodiy hayoti juda og‘ir ahvolda, xususan, sanoatning biryoqlama rivojlanib, “paxta” sanoat kompleksiga moslashishi, ekologik ahvolning og‘irlashib, onalar va bolalar o‘limining oshib ketishi, millatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelib, milliy mojarolar yanada kuchayib, milliy urf-odatlar, qadriyatlar ta‘kib ostida qolishi respublikani tang ahvolga solib qo‘ygan edi.



O‘sha paytlarda O‘zbekiston respublikasi davlat siyosatining jabhalarida O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan xalqlar va ularning manfaatlari bilan bog‘liq masalalar birinchi navbatda turar edi. Shunday vaziyatda tinch hayotni ta‘minlash uchun davlatni boshqara oladigan, bo‘lib o‘tgan va o‘tayottan iqtisodiy, siyosiy jarayonlardan to‘g‘ri xulosa millat ravnaqi yo‘li asoslarini boshlab bera oladigan rahbar pepublika uchun zarur edi. 1989 - yil 24 - iyunda I.A. Karimov O‘zbekiston rahbari etib saylanishi bilan O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Farg‘ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan Kengashda so‘zlangan nutqida: “Hozirgi kunda ko‘pgina odamlar Farg‘ona voqealarning sabablarini turlicha izohlashmoqda. Men ham butun barcha sabablarni sanab ularning eng asosiylarini qayd etmoqchi emasman. Lekin, barcha voqealarining ildizi - Farg‘ona vodiysida yashayotgan aholining og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bog‘liq, desam, o‘ylaymanki, ko‘pchilik bu fikrga qo‘shiladi” deb alohida ta‘kidlab o‘tadi. O‘zbekistonning rahbari sifatida ish boshlagan I.A. Karimov “O‘zbekiston

etakchisi sifatida uzoq vaqtlar davomida echilmasdan, gazak oldirilgan kamchilik va nuqsonlar, o'tkir ijtimoiy muammolarning ildizini ochib tashlaydi, mavjud ayanchli ahvolni tuzatish bo'yicha Markaz rahbariyati oldinga qat'iy talablarni prinsipial tarzda qayta-qayta qo'yishdan cho'chimaydi".

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov o'z faoliyatining dastlabki kunlaridan yirik davlat arbobi va mohir siyosatchi, bunyodkor va tashkilotchi, katta tajribaga ega bo'lgan amaliyotchi va teran nazariyotchi sifatida serqirra va samarali faoliyat bilan respublikada millatidan va dinidan qat'iy nazar, odamlar O'zbekistonni o'z Vatani deb hisoblashlariga nafaqat da'vat etdi, balki ular uchun shart-sharoit yaratish qayg'usi bilan yashadi. 1989 - yil sentabrda KPSS MQning navbatdagi plenumida ham I.A. Karimov O'zbekistonning yangi rahbari sifatida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tang vaziyatga tushib qolganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Biroq, markaz respublikalar milliy manfaatlarini o'ylashdan yiroq edi. Respublikada sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar avvallari markazni qanchalik e'tiboridan chetda qolgan bo'lsa endilikda ham uni mamlakatda iqtisodiy inqirozlar kuchayib turgan vaqtda bu hol umuman qiziqitirmas edi. Mana shu vaqtda respublika rahbarining haqiqiy milliy rahbar sifatidagi o'rni yaqqol namoyon bo'lgan edi.



Ko'p yillik tarix davomida dunyoning ko'plab davlatlarida xalqlar millatlarning ozodlik kurashlari tarixida ona xalqining milliy ozodlik kurashiga boshchilik qilgan ko'plab yo'l boshchilar ma'lum. O'zbekiston tarixida ham XX asr 90-yillariga kelib Islom Karimov ham millatning lideri, ulug' yo'l boshchi sifatida maydonga chiqdi. U avvalo respublikadagi tang ahvolni qalban sezgan holda markazdan xoli xalq manfaatlarini ko'zlab ish olib borish lozimligini anglab, og'ir va mas'uliyatli vazifalarni hal etishni boshladi. Farg'ona vodiysida kuchayib ketgan mesxeti-turklari va o'zbeklar o'rtasida turli ig'volar va bo'xtonlar natijasida boshlangan mojarolarga ehtiyotkorona va bosiqlik bilan, mojarolar ildizini bilib, mojarolar yana kuchayib ketishining oldini olish choralari belgilagan holda siyosat yuritdi. Uning siyosiy yetakchilikka xos fazilatlari, masalaga yondashish usuli, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini o'ta nozik va chuqur anglay olish salohiyatiga ega ekanligi mana shu yerda yaqqol ko'zga tashlandi. 25 - iyun kuni Farg'ona vodiysiga borgan I.A. Karimov sarosimaga tushgan odamlar bilan chin dildan suhbatlashdi. Xavfsizlik xizmatining qattiq qarshiliga qaramay Qo'qon shahriga bordi, yo'l-yo'lakay bir-ikki joyda to'xtab, odamlarning ro'y berayotgan voqealar haqidagi fikrini bilib oldi. Mojarolar tufayli zarar ko'rganlar savdoga chiqariladigan zahira hisobidan oziq-ovqat bilan ta'minlandi.

Farg'ona vodiysida tinchlik o'rnatilgach, sovet davlati milliy siyosati o'zini oqlay olmaydigan darajada sayoz ekanligini anglagan O'zbekiston rahbari O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining milliy manfaatlarini

himoya qilish, xususan ona Vatanlaridan majburan ko‘chirilgan xalqlarni 74 yil davomida ta‘kib ostida ushlagan siyosatdan himoya qilish, ularga milliylik hissini berish, g‘ururni shakllantirish maqsadida respublikada milliy madaniy markazlar tuzish uchun xarakatlarni boshladi. Bu markazlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O‘zbekiston SSR Madaniyat ishlari vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi va ularning soni 1989 - yilda 12 ta edi. Ushbu markazga milliy madaniy markazlar faoliyatiga rahbarlik qilishi, turli millatlarning urf-odat, diniy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishda ko‘mak berishi asosiy vazifa qilib belgilandi. O‘sha yillari butun mamlakatda bo‘lganidek, milliy madaniy markazlar faoliyatida ko‘p narsalar birinchi marotaba sodir bo‘ldi.

Ana shunday markazlar, xususan, polyak milliy madaniy markazi “Svetlitsa Polska”, koreys milliy madaniy markazi “Vozrojenie” (Tiklanish), ozarbayjon milliy madaniy markazi “Gardashlo‘k” (Do‘stlik), nemis milliy madaniy markazi “Wiedergeburt” (Tiklanish, Wiedergeburt), kabilar respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, xalqlar o‘rtasida do‘stlik, qardoshlikni mustahkamlashda sharaflilikni o‘tadi. Masalan, O‘zbekistonda “Wiedergeburt” nemis milliy-madaniy markazi 1989 - yildan boshlab O‘zbekistonda istiqomat qiladigan nemis xalqi manfaatlarini himoya qilib, o‘z kelayotgan nemis yoshlariga nemis tili, xalq bayramlari, xalq qo‘shiq va raqslarini o‘rgatishni yo‘lga qo‘ydi. Ushbu milliy-madaniy markaz tashabbusi bilan



birinchilardan bo‘lib Rojdestvo – “Weihnachten” bayramini qayta tiklandi, 1990 - yilda Toshkentda nemis Evangelist-Lyuteran cherkovi qayta ta‘mirlandi. 1993 - yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning farmoyishi bilan Evangelist-Lyuteran cherkovi O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan nemis xalqiga topshirildi. 1992- yildan esa “Wiedergeburt” nomi bilan rasmiy

ro‘yxatga olinib, butun respublika xususan, O‘zbekistonning Toshkent, Farg‘on, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlaridagi nemis milliy-madaniy markazlari ochilib o‘z faoliyatini davom ettirib bordi. Shuningdek, respublikaning umumta‘lim o‘rta maktablarida tojik, qozoq, turkman va qirg‘iz tilida o‘qitish darajasini kengaytirish, respublika oliy o‘quv yurtlarida qozoq, tojik, qirg‘iz tillarida o‘qitish bo‘limlari va ularni darslik hamda o‘quv ko‘rgazmalari bilan qurollantirish vazifasi ham belgilandi.

Mamlakatda kuchayib ketgan bu jarayonlar o‘z navbatida iqtisodiy tanglik bilan bog‘liq ekanligi ma‘lum edi. Avval milliy manfaatlarini toptalgan xalqlarga o‘zligini anglashga yo‘l ochgan O‘zbekiston endi butun respublikada iqtisodiy tanglikni oldini olish chora-tadbirlarini ko‘rish kerak, ularni izga solish uchun chora-tadbirlarini belgilab, amalga oshirish yo‘llarini ishlab chiqish ham muhim edi.

Respublikadagi vaziyatni yaxshi tushungan O‘zbekiston rahbari Islom Karimov tashabbusi bilan 1989 - yil 17 - avgustda “Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta‘minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha sharoitlarni

yaratib berish haqida” qaror qabul qilindi. Mazkur qaror qabul qilinganidan so‘ng o‘tgan bir yil mobaynida 60 mingdan ziyod oilaga er uchastkalari ajratib berildi. Respublikada mavjud bo‘lgan tomorqalar butun ekin maydonlarining 5 foizini tashkil etgan holla, jami 200 ming gektar erni tashkil etdi. Ayni paytda bu erlarning har gektaridan ko‘plab daromad olindi.

1990 - yil 1 - noyabrga kelib qishloqda yashovchi 2.22 -0.129 oiladan 1.327.149 oila yangi tomorqa uchastkalari olish va mavjudlarni kengaytirishga muhtoj bo‘lgan holda ularning 394.098 nafar oilasi yangi yer uchastkalari olishdi. Ularga foydalanishlari uchun 55.036 gektar yer ajratib berildi. O‘z uchastkalarini kengaytirishga muhtoj bo‘lgan 933 164 oiladan hammasining talabi qondirildi. Ularga qo‘shimcha ravishda 101.117 gektar yer ajratildi. Natijada, qishloq mehnatkashlarining davlat tomonidan olgan yerlari 156.153 gektarga yetdi. Bundan tashqari bu qaror bajarib bo‘lingandan so‘ng yangi tashkil topgan oilalarga ham maydoni 11.009 gektar bo‘lgan 87.515 ta tomorqa uchastkasi ajratib berildi. Mazkur tashkil topgan xo‘jaliklarda yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish maqsadida davlat 1990 - yilda 765.862 ta shartnoma tuzdi.

Yer uchastkalari yiriklashtirilgan holda dehqon shaxsiy yordamchi xo‘jalikda yetishtirilgan mahsulotning oilasidan qolgan qismini bozorga chiqarish imkoniga ham ega bo‘ldi. Natijada, mayda tovar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yila boshlandi. Bunday yordamchi xo‘jaliklar bozor munosabatlarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirishga muayyan hissa qo‘sha boshladilar. 1990 - yil 28 - iyulda Prezident Islom Karimovning “Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta’minlashni yaxshilash to‘g‘risida”ni Farmoni e’lon kilindi. Mazkur farmoning qabul qilinishi qishloq qiyofasini tubdan o‘zgartirish, u yerda yashovchi fuqarolarning turmush tarzini yaxshilash borasida tashlangan yana bir muhim qadam edi.



Bunday harakatlar zamirida mustaqil tiklanish, milliy davlatchilikni tuzish uchun harakatlarni sezish mumkin edi. 1989 - yilning oxirlariga kelib o‘zbek tiliga ham Davlat tili maqomini berish uchun harakatlar milliy davlatchilikni shakllantirishga qo‘yilgan dastlabki qadamlardan biri bo‘ldi. O‘zbek tiliga davlat tili makomini berish harakatlari 1988 yildan boshlangan bo‘lsada, hali-hanuz bir qarorga kelishning imkoni yo‘q, matbuotda esa bu haqida turli qarashlar va fikrlar bildirilar, aniq bir natija belgilashning imkoni bo‘lmas, markazning ta’siri ham kuchli edi. Respublikada rahbarlikni boshlagan I.A. Karimov alohida komissiya tuzish haqida ko‘rsatma beradi. Ushbu komissiya xalq fikrini o‘rganib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini beruvchi qonun loyihasini tayyorlashi kerak edi. Yangi tuzilgan komissiya tarkibiga norasmiy tashkilotlarning vakillari ham kiritilgan edi. Loyiha muhokama qilinayotgan to‘rt oy davomida komissiyaga jami to‘rt mingga yaqin maktub kelib tushdi, bu xatlarga jami 150 mingdan ortiq kishi imzo chekkan edi.

Komissiya tomonidan milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda bu takliflar o'rganib chiqildi va tezda qonun loyihasining yangi uch varianti yuzaga keldi. Bular komissiya loyihasi, yozuvchilar uyushmasi tuzgan loyiha, norasmiy tashkilotlar vakillari tuzgan loyihalardan iborat edi. Barcha loyihalar ochiq, xolis muhokama etildi va ularni o'rganish, umumlashtirish asosida yangi loyiha tayyorlanib, u 1989 - yil 11 - oktabr kuni matbuotda e'lon qilindi. Loyiha umumxalq muhokamasidan



so'ng O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989 - yil 21 - oktabrda bo'lgan 11-sessiyasida "O'zbekiston SSRning Davlat tili haqida" Qonuni qabul qilindi. Shundan so'ng davlat tilini izchil takomillashtirish maqsadida keng harakatlar boshlandi. Qonunda belgilangandek, Respublikada qonun loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar aniq belgilangan holda faqat rahbar xodimlargina emas, balki

turli millat vakillari bilan muntazam aloqada bo'luvchi kishilar, huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar, ijtimoiy ta'minot, xalq maorifi, madaniyat va sog'liqni saqlash, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa, transport, kommunal xo'jalik, ommaviy axborot vositalari xodimlari, o'z vazifalarini bajarishi uchun etarli darajada davlat tilini bilishlari kerakligi ta'kidlangandi.

Shuni aytib o'tish joizki, O'zbekiston rahbariyati o'zbek tilini davlat tili darajasiga ko'tarishda respublikada istiqomat qiladigan boshqa xalqlarning milliy manfaatlarini ham hisobga oldi. Davlat tili haqidagi qonunda o'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishi boshqa milliy tillarning manfaatlariga zid kelmasligi belgilangan edi. Qonunga respublikada yashovchi barcha xalq va millat vakillari teng huquqli ekanini ko'rsatuvchi modda ham kiritildi.

Bunday yondashuv asosida 1995- yil 24 - avgustda "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori e'lon qilindi. Bu qaror Davlat tili haqidagi Qonunni to'ldirdi. Shundan so'ng respublikadagi rusiyzabon aholining davlat tilini egallashlari uchun yanada ko'proq imkoniyat yaratish, shu munosabat bilan maktablar, makatabgacha ta'lim, maktabdan tashqari muassasalardagi o'zbek tili ta'limini yanada yaxshilash, takomillashtirish, ular uchun yangi dastur, darslik hamda boshqa o'quv qo'llanmalarini yaratish, davlat tilini jadallashtirib o'rgatishning zarur uslubiyotini tezkorlik bilan ishlab chiqish, bu muhim tadbirda ana shu soha mutaxassislarining keng va faol ishtirokini ta'minlash maqsadida bir qator vazifalar ham amalga oshirildi. Shuningdek, harbiy, diniy va boshqa sohalarda kerakli til belgilanishiga urg'u berildi.

Shuningdek, O'zbek tilining ijtimoiy - siyosiy va ilmiy-texnikaviy atamalarini tartibga keltirish va takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Ministrlar Soveti huzurida maxsus Atamalar qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita oldiga tegishli vazifalar qo'yildi. Qo'mita dastlabki vaqtdan boshlab matbuotda berilgan, radio va teleko'rsatuvlarda qo'llangan atamalarni, 15 ta vazirlik, qo'mita va idoralardan kelgan, shu idoralarga taalluqli atama va nomlanishlarni to'plab, muhokama etdi.

Masalan, tibbiyot bo'limi sog'liqni saqlashda qo'llaniladigan eng dolzarb atamalarni to'plab o'z seksiyasida muhokama qildi. Atamalar qo'mita byurosida muhokama qilinib, yana muhokamaga 22 - tashkilotga yuborildi.

Umuman olganda, 1989 - yilda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonun ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasa-da, biroq bu qonunning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda qabul qilinganini hisobga olsak, bunday kamchiliklarning sabablarini tushunib olish qiyin emas edi. Mazkur qonun xalq madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o'rganish, tarixiy xotirani tiklash, shu asosda



milliy ong, ruhiyat mustahkamligi, ijtimoiy faollik kuchayishiga ham yo'l ochib berdi. Shu ma'noda milliy tillarga davlat maqomi berilishi sotsialistik tuzumga qarshi olib borilayotgan mustaqillik yo'lidagi harakatlarning kuchayishiga ham ijobiy ta'sir etdi. Davlat tili haqidagi qonun milliy o'zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo'lida respublikadagi yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim siyosiy qadam bo'ldi va milliy mustaqillikning ma'naviy poydevoriga asos bo'ldi. O'z-o'zidan, ushbu Qonun o'zbek xalqining mavqeini tiklashga, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida to'la amal qilishiga katta imkon yaratdi.



Respublika aholisi xohish-irodasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xalqning chinakam taraqqiyoti va gullab-yashnashini ta'minlash, uning ma'naviy imkoniyatlarini boyitish zarurligiga asoslanib, O'zbekiston Prezidentining "Navro'z xalq bayramini o'tkazish yakunlari to'g'risida" gi 1990 - yil 3-mayda qabul qilingan Farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida har yili 21 - martni dam olish kuni va umumxalq Navro'z bayrami kuni deb e'lon qilindi. Navro'zning bayram qilinishi teran xalq an'analari, yerga va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, dehqon mehnatini hurmat qilish, yaxshi qo'shnichilik, mehr-muruvvatga va boshqalarning dardiga malham bo'lishga intilishlari qudratli omil bo'ldi.

Ma'muriy-buyrukbozlik avj olgan milliy his-tuyg'ularni poymol etish evaziga shovinistik ruh bilan shakllangan kommunistik tuzum XX asr 80-yillarida butun O'zbekiston xalqini ta'na-dashnom va tuhmatlar domiga tortgan, "paxta ishi" yoki keyinchalik "o'zbeklar ishi" nomini olgan uydirmalar sovet tuzumi qatag'onining yangi bosqichi bo'lgan eli. Yuzaga kelgan turli ijtimoiy va iqtisodiy xarakterdagi muammolar mavjud salbiy vaziyatni keskinlashtirib yuborgan, biroq 1989 - yilning ikkinchi yarmidan respublikadagi o'zgarishlar "paxta ishi" qatag'onlari bilan bog'liq bo'lgan T. Gdlyan guruhiga nisbatan munosabatli ham o'zgartirib yubordi. 1989 - yilga qadar respublika aholisi orasida qo'rquv hissini uyg'otib kelgan «paxta ishi»

yoki «o‘zbeklar ishi» uydirmalariga ham 1989 - yilning ikkinchi yarmidan boshlab barham berila boshlandi.

O‘zbek xalqning prokuratura organlariga ishonchini uyg‘otish, birinchi navbatda xalq va yurt manfaatlaridan kelib chiqib ish tashkil etish, Gdlyan-Ivanovlar tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarga barham berish, ularga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘ash, noqonuniy jazoga tortilganlarni ozod qilish, markazdan kelgan “qonun posbonlarini” kelgan joyiga qaytarib yuborish, markaz bilan aloqani asta-sekin uzish ishlari eng muhim vazifaga aylandi.


O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi 1989-yil 12-sentabrda “paxtachilikdagi qo‘shib yozishga yo‘l qo‘ygani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan kishilarni afv etish maqsadida hujjatlar tayyorlaydigan” komissiya tashkil etdi. Ushbu komissiya tayyorlagan hujjatlarga tayanib, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi jinoiy javobgarlikka tortilgan 43 kishini gunohidan o‘tishni O‘zbekiston SSR Oliy Sovetidan so‘radi. Unda ko‘plab shaxslarga belgilangan jazo muddatlarini yengillashtirish choralarini so‘ralgan edi. Ma‘lum bo‘lishicha, shu vaqt oralig‘ida “paxta ishi”da sudlanganlar soni 4018 kishini tashkil etgan bo‘lsa, respublikada boshlangan ijobiy o‘zgarishlardan so‘ng rehabilitatsiya qilinganlar soni 2940 kishini, qayta tergovga yuborilganlar 63 kishini, asossiz sudlanganlar 1016 kishini tashkil etdi.

1990 - yil 31 - oktabrga kelib Oliy Sovetning 12-chaqiriq uchinchi sessiyasida O‘zbekiston Prezidenta tavsiyasi bilan respublika prokurorining ittifoq prokuroriga qaramligiga barham berish va bu tizimning mustaqilligini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Prokurori Respublika oliy organi tomonidan tayinlandi. Umuman, 1990 - yilga kelib sovet davlatining hukmronligi inqirozga uchrayotgan, ittifoqdosh respublikalar o‘z milliy mustaqilligi uchun keng harakatlarni olib borayotgan davrlar bo‘ldi. O‘zbekistonning yangi rahbariyati ham mustabid tuzum uchun butkul yot bo‘lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan maydonga chiqdi. Aynan mana shu davr respublikaning mustaqillik sari yo‘l olishi bilan ifodalandi. O‘zbekistonning rahbari I. A. Karimov boshchiligida boshlangan bu yo‘l tarixiy-ma‘naviy tiklanish, markaz tomonidan olib borilgan qatag‘onlik siyosatiga chek qo‘yish, o‘zbek xalqi sha‘nini himoya qilish, iqtisodiy tanazzul holatini cheklash, ichki bozorni himoyalash, butkul yangi ijtimoiy himoya siyosatini olib borish, markaz ta‘sirini kamaytirish va boshqa keng qamrovli tadbirlarlan iborat bo‘ldi.

Keyinchalik, 1990 - yil bahorida Islom Karimov gorbachyovcha qayta qurish boshi berk ko‘chaga kirib qorganini anglab etdi. O‘sha vaqtda SSSR siyosatchilari orasida bunday odamlar kamdan-kam edi. Rossiyada va boshqa ittifoqdosh respublikalarda tobora kuchayib borayotgan tartibsizliklar O‘zbekistonda ham yuz bermasligi uchun qat‘iy choralar ko‘rish kerak edi. O‘zbekistonda hokimiyatning ozgina zaiflashuvi ham respublikada millatlararo nizolar yangidan boshlanishiga, ijtimoiy portlashlarga olib kelishi mumkin edi. Shu sababli Gorbachev va uning atrofida norozi bo‘lishiga va qarshilik ko‘rsatishiga qaramay, O‘zbekiston Respublikasi Oliy respublika Prezidentligini joriy etdi.

4. O‘zbekistonda prezidentlik lavozimining joriy etilishi.

Yirik tarixiy voqealardan biri sifatida 1990-yil 23-martda O‘zbekiston Kompartiyasi MKning Plenumi ham respublika siyosiy tizimi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqqan va unda O‘zbekiston hokimiyatning Prezidentlik boshqaruvi shakliga o‘tishi respublika suvereniteti va davlatchiligida mohiyatan yangi bosqich ekanligi ta’kidlangandi. 1990 - yil 24 - mart kuni O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining XII chaqiriq 1 sessiyasida SSSR doirasida birinchi bo‘lgan siyosiy hujjatni – “O‘zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi ta’sis etish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi va O‘zbekiston Kompartiyasi MQ birinchi kotibi Islom Abdug‘anievich Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. Shu tariqa, O‘zbekiston - SSSR respublikalari ichida birinchi bo‘lib o‘zining milliy huquqiy va demokratik davlatiga mustahkam zamin yaratdi. O‘zbekiston xalqining manfaatlarini ko‘zlab I. A. Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan dastlabki tadbirlarning o‘ziyoq prezidentlik boshqaruvining o‘z vaqtida ta’sis etilganidan dalolat berdi.



O‘zbekiston mustaqillikka erishishida qo‘yilgan yana bir muhim qadam bu 1990 - yil 20 iyunda «Mustaqillik Deklaratsiyasi» qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur qonun O‘zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustuvorligini ta’minladi. Deklaratsiyada har bir millat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya tamoyillariga asoslanib O‘zbekiston SSRning davlat suvereniteti e’lon qilindi. 1990 - yil 1-oktyabrda “O‘zbekiston SSR Prezidenti Kengashining tarkibi to‘g‘risida” O‘zbekiston SSR Prezidentining Farmoni e’lon qilindi. Farmon asosida O‘zbekiston SSR Prezidenti Kengashining 14 kishidan iborat a’zolari tayinlandi.

O‘zbekiston Prezidentining bevosita ko‘rsatmasi bilan respublika ichki ishlar vazirligining mas’ul lavozimlariga malakali mahalliy kadrlar qo‘yildi. Bu tadbirlarning huquqiy asosi bo‘lib. 1990 - yil 31 - oktyabrda Prezident imzolagan «Militsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to‘g‘risida»gi O‘zSSR Qonuni, 1991- yil 25 - oktyabrda qabul qilingan Vazirlar Maxkamasining «O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risida»gi qarorlari muhim ahamiyat kasb etdi.

1991- yil 31 - avgustga kelib «Mustaqillik Deklaratsiyasi» O‘zbekistonning mavjud bo‘lgan boshqaruv, huquqiy faoliyatini ta’minlash, barcha sohada mustaqil siyosat olib borish imkonini berdi. 1991- yilga kelib O‘zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlari tayyorlash va qabul qilish borasida dadil ishlar boshlandi. 1991- yil 15 fevralda O‘zbekiston Oliy Kengashi «O‘zbekistonning davlat ramzlari to‘g‘risida» maxsus qaror qabul qildi.

Mamlaakatning o‘z suvereniteti uchun kurashi, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilishida, bundan tashkari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaati ifoda etilganligi bilan ajralib tura

boshladi. Xususan, 1991- yil 21 iyulida O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiuminiig “O‘zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo‘ysinuvchi davlat korxonlari, muassasalari va tashkilotlarini O‘zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o‘tkazish” to‘g‘risida qabul qilgan qarori ham O‘zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston SSR Oliy Kengashn va hukumati O‘zbekistonning siyosiy - iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar tashlanganligining isboti bo‘lib qoldi.

1991- yil 18 avgustda Moskva shahrida bir guruh avantyuristlar M.Gorbachevni rahbarlikdan chetlashtirib, Favqulodda holat davlat komitetini tuzadi. Bu voqea “GKCHP voqeasi” nomi bilan tarixga kirdi. GKCHP rahbarlarining asosiy maqsadi mustaqillik sari intilayotgan milliy respublikalarga nisbatan tazyiq va ta‘qiblarni kuchaytirib, tobora zaiflashib borayotgan qizil imperiyani saqlab qolishdan iborat edi. SHu maqsadda ular butun SSSR hududida favqulodda holat joriy etmokchi, milliy respublikalarning o‘z xalqi manfaatlarini o‘ylab qilgan qonun va qarorlarini bekor etmoqchi bo‘ladilar.



Davlat rahbari bu vaqtda Hindiston safarida bo‘lib, Respublika rahbarining yo‘qligidan foydalangan O‘zbekiston SSR vitse-prezidenti va O‘zbekiston Kompartiyasining ikkinchi kotibi O‘zbekiston SSR hududida SSSRda Favqulodda holat davlat qo‘mitasining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash haqida ko‘rsatma berib yuboradilar. I.Karimov Favqulodda holat e‘lon qilinganini eshitib, zudlik bilan Toshkentga qaytadi va O‘zbekiston SSR hududida GKCHPning qonunga zid qarorlarini bekor qilish haqida ko‘rsatma beradi. 1991- yil 20-avgust kuni O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Soveti, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida majlis o‘tkazadi. Unda so‘zga chiqqan I.Karimov har birimiz og‘ir va vazmin bo‘lishimiz kerakligini, boshimizga tushgan sinovlar, noaniq davr va sharoitdan, avvalambor, aql va idrokimizni bir joyga yig‘ishtirib, insof va vijdonni yo‘qotmasdan, sarosimaga tushmasdan chiqishimiz kerakligini» alohida ta‘kidlab o‘tadi. 1991- yil 21 avgust kuni O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning Farmoni bilan Favqulodda holat davlat qo‘mitasining O‘zbekiston Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan qarorlari va farmonlari noqonuniy deb e‘lon qilindi.

O‘zbekiston Prezidentining 1991- yil 25 - avgustdagi Farmoniga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va davlat xavfsizligi qo‘mitasi qonuniy ravishda O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston Prezidentiga bo‘ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi, prokuraturasi, adliya organlari, ichki qo‘shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo‘shinlari partiyadan butunlay holi qilindi.

O‘zbekiston Prezidentining 1991- yil 25 - avgustdagi Farmoniga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va davlat xavfsizligi qo‘mitasi qonuniy ravishda O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston Prezidentiga bo‘ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi, prokuraturasi, adliya organlari, ichki qo‘shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo‘shinlari partiyadan butunlay holi qilindi.

Umuman, XX asrning 80-yillari ro‘y bergan ulkan siyosiy voqealar jahon taraqqiyotini keskin o‘zgartirib yubordi, qarama-qarshilikka, sinfiy ziddiyatga, o‘zaro kamsitishlarga va zo‘ravonlikka asoslangan, besamar «sotsialistik taraqqiyot» yo‘lini mahkam ushlagan, dunyoning oltidan bir qismida umumbashariy g‘oyalarni rad etib, faqat kuch ishlatish va xalqlarni qaramlikda saqlab turish yo‘lini amalga oshirib kelgan yirik va so‘nggi imperiyalardan biri bo‘lgan SSSRning parchalanib ketishi dunyoda yangicha siyosiy, ijtimoiy, ma‘naviy qiyofa kasb etdi. Mustamlakachilikning uslubiga asoslangan mustabid imperiya o‘rnida umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va demokratiya taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi qilib olgan mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Yangi paydo bo‘lgan MDH davlat o‘zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma‘naviy taraqqiyot yangi bosqichiga qadam qo‘ydilar. O‘zbekiston Respublikasining qaramlik asoratidan qutilib, davlat mustaqilligini qo‘lga kiritganligi xalqimiz taqdirida buyuk o‘zgarishlar yasadi.

O‘zbekiston mustaqilligi haqida so‘z yuritar ekanmiz, shubhasiz, O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ning o‘rni va ahamiyatiga alohida to‘xtalish lozim. Zero, bu muhim hujjat O‘zbekistonning mustaqillikka erishishida qo‘yilgan navbatdagi muhim qadamlardan biri edi. Bu umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan Deklaratsiyani qabul qilishda respublika Oliy Soveti deputatlari faollik ko‘rsatdilar. O‘zbekistondagi tarixiy shart-sharoit va vaziyatni hisobga olgan 200 dan ortiq deputat XII chaqiriq respublika Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi (**1990 - yil 18 iyunda**) boshlanishidayoq mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilishni kun tartibiga kiritishni va kechiktirmasdan shu sessiyada uni qabul qilishni qat‘iy talab etdilar.



O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Rayosati a‘zolari, komissiya raislari va muovirlari “Mustaqillik Deklaratsiyasi” xususida fikrlashib, deputatlar fikrini olish va so‘ng uni sessiyaga olib chiqish lozim deb topdilar. 19-iyun kuni 40 dan ortiq deputat, doimiy komissiyalarning raislari, huquqshunoslar tayyorlagan Deklaratsiya matni batafsil ko‘rib chiqildi. Natijada bu masala 20-iyun kuni sessiyada kun tartibiga kiritildi.

“Mustaqillik Deklaratsiyasi” deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi, har bir millat o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi qayta-qayna ta‘kidlandi. Unda o‘zbek xalqining asrlar davomida qo‘lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an‘analari hisobga olinishi uqtirildi. Sessiyada qabul qilingan «Mustaqillik Deklaratsiyasi» kirish qismiga quyidagicha yozib qo‘yildi:

«O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan an‘analari, har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta‘minlashdan iborat oliy maqsad haqi, O‘zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas‘uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro

huquq qoidalari, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qiladi”.

Shuningdek, birinchi moddada: “O‘zbekiston SSRniig demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o‘z hududida barcha tarkibiy kislarni belgilashda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir” – deb belgilab qo‘yildi. Sessiya qabul qilgan “Mustaqillik Deklaratsiyasi” xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

Shu kundan boshlab respublikada O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. 1991- yil 15 fevralda O‘zbekiston Oliy Kengashi “O‘zbekistonning davlat ramzlari to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qildi. Unda, jumladan, shunday deyiladi:

“Mustaqillik to‘g‘risidagi Deklaratsiya”ga amal qilib, O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi qaror qiladi:

XII chaqiriq Oliy Kengash II sessiyasida tuzilgan, O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning yangi loyahasini tayyorlovchi komissiyasiga O‘zbekiston SSRning Yangi Davlat bayrog‘i, Gerbi va Madhiyasiga doir takliflar hamda ular to‘g‘risida Nizomlar tayyorlash topshirilsin. Komissiya respublika jamoatchiligi va deputatlarining fikrlariga tayanib ish ko‘rsin. Bu boradagi takliflar matbuotda e‘lon qilinib, umumxalq muhokamasi uyushtirilsin”.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qabul qilgan qonunlar. O‘zbekiston Prezidentining farmonlari, hukumat qarorlari kata ahamiyatga ega bo‘lib, ular respublikaning iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil rivojlanish yo‘liga bevosita qaratila boshladi.



1991- yil 22 - iyulda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi “O‘zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo‘ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini “O‘zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o‘tkazish to‘g‘risida» qaror qabul qilib, jumladan, unda “O‘zbekiston SSRning “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ga amal qilib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish va ularning xo‘jalik mustaqilligini ta‘minlash maqsadida respublika hududida joylashgan ittifoqqa bo‘ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O‘zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o‘tadi”, deb qayd qilindi.

Shuningdek, ushbu qarorda “O‘zbekiston SSR Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga Ittifoqqa bo‘ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O‘zbekiston SSR huquqiy tobelggiga o‘tishi tartibini belgilash vazifasi topshirildi”.

Shunday qilib, o‘tgan asr 90-yillarning dastlabki davrlarida O‘zbekiston SSR Prezidenti I.A. Karimov O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi va Hukumati O‘zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar qo‘ydilar. Bu qadamlar xalq tomonidan ham qoniqish bilan kutib olinib boshladi.

Savol va topshiriqlar.

1. SSSRni turg'unlik holatiga olib kelgan sabablarni ayting.
2. "Qayta qurish" siyosati nima uchun barbod bo'ldi?
3. 1985-1990 - yillarda O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday edi?
4. Iqtisodiyotda turg'unlik jarayonlarining chuqurlashuviga nima sabab bo'ldi?
5. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon qanday yo'l tutdi?
6. O'zbekistonda prezident lavozimi qachon ta'sis etildi?
7. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishiga nima sabab bo'ldi?
8. O'zbekiston xalqlari hayotida mustamlakachilik qanday illatlar qoldirdi?
9. O'zbek tiliga davlat maqomining berilishi va uning ahamiyati haqida gapirib bering.
10. Sovet davrida O'zbekistonda amalga oshirilgan kadrlar siyosatining mohiyati nimadan iborat edi?
11. O'zbekistonning milliy davlat mustaqilligi qachon va qay tarzda e'lon qilindi?
12. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga nisbatan jahon hamjamiyatining munosabati qanday bo'ldi?
13. I.Karimovning 1989 -1991- yillarda amalga oshirgan tadbirlarining tarixiy ahamiyati haqida gapirib bering

3-MAVZU. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI.

Reja:

1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlar.
2. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining e‘lon qilinishi
3. Islom Karimov - O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida ma‘lumot berish.

Tayanch iboralar: Mustaqillik deklaratsiyasi, “Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g‘risida shartnoma”, “9+1”, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash Bayonoti”, Islom Karimov – Mustaqil O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti, O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.

1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, tarixiy qisqa vaqt ichida katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Tarixiy nuqtayi nazardan qisqa vaqt ichida ulkan zafarlar qo‘lga kiritildi. Erishilgan muvaffaqiyatlarning asosida nimalar yotishini tahlil qilish, xulosalar chiqarish kelajakdagi taraqqiyot uchun zamin bo‘ladi. Bunday farahli kunlarda o‘tmishga yana bir bor nazar tashlash, ya‘ni mustaqillikning qo‘lga kiritilishi arafasida respublikada hukm surgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ko‘z oldimizga keltirib, eslashimiz zarur.

Mustaqillikka intilish xalqimiz hayotida u yoki bu ko‘rinishda sobiq Sovet imperiyasi hukmronlik qilgan davrda ham namoyon bo‘lib turdi. U faqat 1991- yilga kelibgina ro‘yobga chiqdi. Buning bir qancha sabablari bor. Eng asosiysi, kishilik jamiyatining uzoq tarixidan ma‘lumki, har qanday imperiya o‘zi yaratilgan kundan boshlab o‘limga mahkumdir. Chunki uning maqsadi mustamlaka mamlakat xalqlarini ezish, uning moddiy boyliklarini talash bo‘ladi. Shunday maqsadni ko‘zlagani uchun ham u bo‘ysundirilgan xalqlarning tobora ko‘proq qarshiligiga uchraydi, ularni boshqarish borgan sari qiyinlashib boradi, pirovard natijada imperiyaning o‘zi inqirozga yuz tutadi.

Mustabid tuzum hukmronligini yodga olsak, 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshlarida mamlakatda umumiy inqirozning ko‘rinishlari yaqqol namoyon bo‘la bordi. Shuningdek, O‘zbekistonda ham ishlab chiqarish asta-sekin so‘na bordi. Masalan, 1987 yilda O‘zbekistonda milliy daromad kishi boshiga 1985 yildagiga nisbatan 94,5 % ni tashkil qildi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi 1986-1990 - yillarda biron marta ham 1985 yildagi darajaga yetib bormadi. Bu davrlarda sanoat va qishloq xo‘jaligining bir qancha sohalarining nafaqat kishi boshiga, balki mutlaq miqdori ham kamayib ketdi. Po‘lat, traktor, paxta terish mashinalari, ekskavator, ko‘prikli kran, qog‘oz, paxta tolasi, shohi gazlama, go‘sht ishlab chiqarish miqdori ancha kamaydi. Qishloq xo‘jaligida ham paxta va sabzavot turlarining hosildorligi pasaydi. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, o‘rtacha ish haqi to‘lash va boshqa ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha O‘zbekiston Rossiyadan deyarli ikki barobar orqada qola

boshladi. Ijtimoiy-madaniy sohalarga e'tibor tobora kamayib bordi. Achinarlisi shundaki, maorif, fan, sog'liqni saqlash oqsay boshladi. Agar 1985-yilda maorif va fanga, umumiy ijtimoiy-madaniy tadbirlarga yo'naltirilgan mablag'ning 46,3 % sarflangan bo'lsa, 1991- yilga kelib bu ko'rsatkich 25 -,2 % gacha kamayib ketdi. Sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya sohasida ham bu ko'rsatkich 18,0 % dan 12,7 % ga pasaydi.

Mamlakat mustaqilligini qo'lga kiritish arafasidagi eng katta fojialardan biri – bu millatlararo munosabatlar hamda respublikalar bilan markaz o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi bo'ldi. Uning bir qancha obyektiv va subyektiv sabablari mavjud edi. Ularga, jumladan quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy muammolarning yechimini topishda milliy respublikalarning xususiyatlarini (ko'p bolalilik, og'ir ekologik vaziyat, turli kasalliklarning ortib borishi, urf-odatlar, qadriyatlar) hisobga olmaydigan eskicha usullarni qo'llashning davom ettirilishi;

- ittifoq ijro etuvchi hokimiyatini shakllantirishda aksariyat rahbar lavozimlarni rusiyzabon shaxslar egallashining davom etayotganligi oqibatida joylarda ruslarga nisbatan salbiy munosabatning kuchayganligi va jamiyatdagi ko'p nuqsonlar rusiyzabonlarning faoliyati bilan bog'liq degan asoslanmagan fikrning tug'ilganligi;

- teng huquqli ittifoqni shakllantiradigan yangi shartnomani ishlab chiqishda markaziy hokimiyatning sustkashlik qilishi, markazning ko'proq o'z mavqeini mustahkamlashga e'tibor berib kelganligi, joylarga haqiqiy mustaqillik berishdan qo'rqish;

- ilgari qatag'on qilingan xalqlar: qrim tatarlari, koreyslar, mesxeti turklari, nemislar va boshqalarning rasmiy ravishda o'z huquqlari va davlatchiligini tiklashi borasida deyarli hech qanday xayrli ish qilinmaganligi;

- rasmiy hokimiyatning Ittifoqqa kirgan O'rta Osiyo respublikalari o'zlarini boqa olmasdan qarz hisobiga yashayotganligi haqidagi ta'nalari mahalliy millatlarning g'ururiga tegdi va ularni kamsitdi. Bunday salbiy munosabat ularda markazga nisbatan ishonchsizlik va qarshilikni kuchaytirdi.

Yangi mustaqillikka erishgan yurtimizda o'sha davrda hukm surgan ijtimoiy tanglikning yana bir ko'rinishi siyosiy manqurtlik bilan bog'liq. Bu nafaqat oddiy fuqarolar dunyoqarashiga aloqador, balki, birinchi navbatda, respublikada yuqori lavozimlarni egallab turgan rahbarlarga ham tegishlidir. Ular respublikadagi inqirozni faqat chetdan yuborilgan rahbar kadrlar orqali tuzatish mumkin, deb o'yladilar. Shunday takliflar bilan markazga murojaatlar qilindi. Mahalliy urf-odatlar va turmush tarzidan umuman bexabar va uzoq, markazdan keltirilgan 400 nafardan ortiq partiya, sovet, xo'jalik xodimlari respublikaning turli rahbarlik lavozimlarini egalladilar. O'zbekiston Kompartiyasining XVI plenumidan (1984-y.) keyin o'tgan atigi 1,5 yil mobaynida viloyatlar partiya qo'mitalarining 65 nafar kotibidan 40 nafari almashtirildi, ulardan 9 nafari birinchi kotib, 260 nafari shahar va tuman kotiblari etib tayinlandilar⁶. Bu almashtirishlar boshqa sobiq sovet va xo'jalik organlarini ham chetlab o'tmadi. Natijada rahbar xodimlarning aksariyatida kelajakka ishonchsizlik, umidsizlik, vazifalariga nisbatan mas'uliyatsizlik tuyg'usining kuchayishi sezilgan

⁶ Қаранг: Абдунабиев А. Обновление: уроки прошлого. – Т., 1988. – С. 10-11.

bo'lsa, boshqa bir qismida mavjud vaziyatdan foydalanib, shaxsiy manfaatlarini qondirish uchun egallab turgan mansabini suiiste'mol qilish hollari kuzatildi. Bunday sharoitning vujudga kelganligi esa, o'z navbatida, boshqarish tizimini ham izdan chiqardi.

Iqtisodiy muammolarning hal qilinmaganligi, turmush darajasining pasayishi, millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi, boshqaruvning izdan chiqishi, qonuniylikning buzilishi va boshqalar jamiyat turli tabaqalarining o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida norasmiy, mavjud qonunlarda ko'rsatilmagan yoki man qilingan jamoalar va harakatlarga birlashishga majbur qildi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy hayotning siyoslashuviga olib keldi. Bu jarayon, ayniqsa, 1998-yildan boshlab avj oldi. O'zbekistonda dastlab «Birlik», keyinchalik «Erk», «Interdvijeniye» harakatlari, yoshlar hamda ayollarning turli jamiyatlari vujudga keldi. Bunday ijtimoiy harakatlar va jamiyatlarning boshlang'ich faoliyatida mehnatkashlar siyosiy ongini o'stirish borasida ba'zi bir ijobiy natijalarga erishildi, desak xato bo'lmaydi.

Ushbu jamoat tashkilotlari o'zbek tilining mavqei, tarixiy qadriyatlar va vijdon erkinligini tiklash hamda respublikaning mustaqillikka erishuviga muayyan hissa qo'shdilar. Lekin keyinchalik rasmiy rahbariyatga qarshi turishni o'zlarining asosiy quroliga aylantirib, ehtirosga berilib, o'z maqsadlaridan og'ib ketdilar. Ko'pchilik muammolar ijobiy hal bo'lganiga qaramay, fuqarolarni mitingbozlik va tartibbuzarlikka chaqirdilar. Ba'zi hollarda jinoiy ishlarga qo'l urishga ham jur'at qilganliklari sababli, xalqning e'tiboridan qoldilar va xalq ishonchini yo'qotdilar.

Ana shunday og'ir vaziyatda xalq manfaatlarini va respublikaning kelajagini o'ylaydigan sofdil hamda adolatparvar rahbarlar ham topildi. Ular endi Markaz vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirishga mutlaqo layoqatsiz ekanligiga ishonch hosil qildilar, shuning uchun ham respublikaning mustaqilligini ta'minlash yo'llarini va choralarni izlab topa boshladilar. 1989 - yilning iyunida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimiga I. A. Karimov saylanib, uning rahbarligida bunday ishlar tobora izchillik bilan amalga oshirila boshladi. Bugungi kunda ba'zilarga mustaqillikka osonlikcha erishilgandek bo'linib ko'rinadi. Aslida, sobiq Kommunistik partiya hukmronlik qilib, butun repressiv apparatni o'z qo'lida ushlab turgan kezlarda respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy mustaqillikka intilayotganining ba'zi bir ko'rinishlari bilan bog'liq tadbirlarni ochiqdan-ochiq amalga oshirish o'ta mardlik, shijoat va qat'iyatni talab qilar edi. Bu damlarni sanab va eslab o'tishning o'zi ham mustaqillikning ba'zilar o'ylaganchalik oson qo'lga kiritilmaganligidan dalolat beradi. Masalan, 1989 - yilning 21- oktabrida o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi to'g'risida qonun qabul qilindi.

Bu tarixiy voqeaning mohiyati shundaki, u faqat milliy ma'naviyatni tiklashga qaratilgan bo'lib qolmay, o'sha paytda mahalliy aholining asosiy qismini tashkil qilgan, mustaqillikka intilayotgan o'zbeklarning siyosiy qarashlarini ham ifodalagan edi.

1989-yil 25-noyabrdagi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasi respublikaning o'zini o'zi boshqarishi va mablag' bilan ta'minlashi prinsipiga o'tishi chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozimligi to'g'risida qaror qabul qildi. Chunki Markaz respublikaga nisbatan o'z majburiyatlarini bajarmay qo'ygan edi.

1990 - yilning 24 - martida O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasi sobiq Ittifoqda birinchi bo‘lib respublikada Prezidentlik lavozimini ta’ sis etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Mustaqillikka erishish borasidagi kurashlarda jonbozlik ko‘rsatayotgan I. A. Karimov bir ovozdan ushbu lavozimga saylandi.

Ko‘p o‘tmay, 1990 - yil 18- iyun kuni XII chaqiriq respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasi ochildi. Deputatlarning taklifi bilan O‘zbekistonning Mustaqillik deklaratsiyasini qabul qilish masalasi sessiya kun tartibiga kiritildi. Oliy Kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik deklaratsiyasi matni sessiyada qizg‘in muhokama qilindi va 20- iyun kuni qabul qilindi. Mustaqillik deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo‘lib, ularda xalqimizning xohish-irodasiga to‘la mos keladigan quyidagi muhim tartib-qoidalar belgilab qo‘yildi:

O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi:

– o‘zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an‘analari;

– har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini ta’minlashdan iborat oliy maqsad haqi; – har bir kishining farovon hayot kechirishini ta’minlashni oliy maqsad deb bilgan holda;

– O‘zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas’uliyatni chuqur his etgan holda;

– xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qiladi“.

O‘zbekiston SSR ning davlat mustaqilligi:

• O‘zbekiston SSR demokratik davlatining o‘z hududida, barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir.

• O‘zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib, o‘zgartirilishi mumkin emas.

• SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston SSR Oliy Kengashitomonidan tasdiqlangandan keyingina O‘zbekiston hududida kuchga ega bo‘ladi.

• O‘zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O‘zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.

• O‘zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi, hurmat qiladi va hokazo.

Mustaqillikning asosiy belgisi hisoblanmish Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi mamlakatimizning tom ma’nodagi, haqiqiy mustaqillikka erishish yo‘lida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shundan e’tiboran mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal etila boshlandi. O‘zbekistonning mustaqillik sari intilayotgani uning yangi Ittifoq shartnomasini ishlab chiqish jarayoniga respublika manfaati nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, qat’iylik bilan yondashayotganida yaqqol namoyon bo‘ldi. Sobiq Ittifoqqa kiruvchi respublikalar rasman teng va suveren deb yuritilsa-da, amalda qaram edilar. Ular o‘z yerlari, suvlari, o‘rmonlari va yerosti boyliklariga, ko‘pdan ko‘p korxonalariga o‘zlari

egalik qilolmas edilar. 80- yillarning oxirlari, 90-yillarning boshlarida ko'pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o'zgartirish talablarini ilgari sura boshladilar. O'zbekiston Respublikasining rahbari I.A. Karimov 1989 - yil 20 - sentabrda



Moskvada bo'lib o'tgan KPSS MQ sining plenumida so'zlagan nutqida respublikalar bilan Ittifoq o'rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo'yishni ko'zda tutadigan yangi shartnoma ishlab chiqish zarurligi to'g'risida o'z fikrini bildirib: „ Biz Ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, respublikalar

mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz“, - degan edi. Biroq markaziy hokimiyat respublikalarga erkinlik berish haqidagi talab-takliflarni e'tiborga olishni istamas, to'g'rirog'i ularga erkinlik berishni xohlamas edi. Markazning qaysarligi hamda respublikalar jamoatchiligining ta'siri ostida markazdan ajralish harakati kuchayib bordi. 1990 - yil bahorida Boltiqbo'yidagi Latviya, Litva, Estoniya Respublikalari, keyinroq Gruziya va Ozarbayjon Respublikalari Ittifoq tarkibidan chiqqanligini e'lon qildilar. Ittifoq bo'yicha o'z milliy davlat tuzilmalaridan tashqarida yashayotgan 60 milliondan ortiq aholi milliy-etnik muammolar, mojarolarga duchor bo'ldi. Rossiya, Ukraina, Belarus parlamentlari davlat suvereniteti to'g'risida deklaratsiya qabul qildilar. Ittifoqdosh respublikalar ketidan RSFSR ga kiruvchi muxtor respublikalar ham suverenitet haqida deklaratsiyalar qabul qilishdi. Markazda va joylarda SSSR Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi yoki respublika Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi, degan masalada bahs va munozaralar kuchaydi. Markazdagilar „Kuchli markaz - kuchli respublikalar“ desa, joylardagilar „Kuchli respublikalar - kuchli markaz“ der edilar. Markaziy hokimiyat jamoatchilikning talabi ostida Ittifoq shartnomasini yangilash zarurligini e'tirof etishga majbur bo'ldi. SSSR Oliy Soveti mazkur masala bilan shug'ullanuvchi maxsus delegatsiya tuzdi va uning tarkibini tasdiqladi. 1990 - yil iyulda Moskvada markaz vakillari bilan respublikalar delegatsiyalari yangi shartnoma matnini tayyorlashga kirishdilar.

1990 - yil avgust oyida Ittifoqni yangilash dasturi ishlab chiqildi. Dasturda respublikalar o'z hududlaridagi butun milliy boyliklarga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan edi. Ammo shartnomaga bunday yondashuv markazdagilarga yoqmasdi. SSSR Oliy Soveti mazkur dasturni qabul qilmadi. SSSR Oliy Soveti respublikalarning istak va manfaatlarini batamom inkor etgan yangicha shartnoma loyihasini tuzib, respublikalarga tarqatdi. Respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston, markaz loyihasini qabul qilmadi. Shu tariqa, shartnoma loyihasini tuzish harakatining birinchi bosqichi natijasiz tugadi. 1991- yil fevral - mart oylarida Ittifoq shartnomasi loyihasi ustida ishlashning ikkinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Boltiqbo'yi respublikalari, Gruziya, Armaniston, Moldova vakillari qatnashmadi, Ozarbayjon kuzatuvchi bo'lib qatnashdi. Bu bosqichda Ittifoq bilan respublikalar vakolatlarini farqlab qo'yishga harakat qilindi. Nihoyat, Ittifoq va

respublikalar vakolatlari belgilab qo'yilgan yangi shartnoma loyihasi matbuotda e'lon qilindi. Respublikalarda mazkur loyiha muhokama qilindi. Respublikalar, jumladan, O'zbekiston, markaziy idoralar hali o'zining eskicha hukmron mavqeyini saqlash ruhi singdirilgan bu hujjatdan qanoatlanmaganliklarini bildirdilar. SSSR Oliy Soveti Ittifoq shartnomasini o'zgartirish, SSSRni teng huquqli suveren respublikalar Federatsiyasi sifatida yangi-lalash xususida xalqning fikrini bilish maqsadida 1991-yil 17 mart kuni Butunittifoq referendumini o'tkazishga qaror qildi.

1991- yil 20 fevralda O'zbekiston Oliy Kengashining Rayosati ham referendum o'tkazishni ma'qulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan byulleten bilan birga yana bitta qo'shimcha byulletenni ovozga qo'yishga qaror qildi. Qo'shimcha byulletenga „Siz O'zbekistonning mustaqil teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?“ degan savol qo'yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93 foizi bu savolga “Ha” deb javob berdilar. Demak, o'zbekistonliklar o'z mamlakatini mustaqil davlat sifatida Federativ Ittifoqda bo'lishini, O'zbekistonning suveren respublika sifatida rivojlanishini yoqlab ovoz bergan edilar. O'zbekiston rahbariyati referendum natijalariga asoslanib, respublikalarga to'la mustaqillik berishni ko'zlamaydigan shartnoma loyihasini rad etdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1991- yil 12 martda bo'lgan IV plenumida so'zlagan nutqida: “Ittifoq shartnomasini imzolash uchun eng qulay payt qo'ldan boy berib qo'yildi. Ikki yil muqaddam bu masalani ko'targan kishilarning ovozigacha hech kim quloq solmadi. Markaz 1922 - yildagi shartnomaga mahkam yopishib olib, oqilona takliflarni qabul etmadi, ishni paysalga soldi“, - degan edi. Bu fikrning to'g'riligini hayot to'la isbotladi. 1991- yil aprelda Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belarus, O'zbekiston, Qozog'iston Respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo'llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari ham imzolashga rozilik bildirdi. Markaz yon berishga majbur bo'ldi.

1991- yil aprelda Novo-Ogoryovoda SSSR Prezidenti M.S. Gorbachyovning 9 respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan “Mamlakatdagi vaziyatni bar-qarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choralar to'g'risida qo'shma Bayonot” imzolandi. Bu hujjat “9+1” (9 respublika + markaz) degan nomni oldi. Uning mazmuni



markazning yon berganini, Kiyevda bildirilgan fikr-mulohazalarga rozi bo'lganini ko'rsatadi. 1991- yil 3 iyunda Novo-Ogoryovoda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'ldi. Mulk, til va yangi shartnomani tasdiqlash tartibi to'g'risida keskin munozara bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Birinchi Prezidenti I.A. Karimov mavjud Ittifoq, uning tuzilmasi, markaz bilan respublikalar o'rtasida vakolatlar taqsimoti hech kimni qoniqtirmasligini keskin

qilib qo‘ydi, markazchilik nuqtayi nazarini o‘tkazishga urinuvchilarni qattiq tanqid qildi. Uchrashuvda ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosan inobatga olingan “Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g‘risida shartnoma” loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha barcha Respublikalar Oliy Kengashlariga muhokama uchun jo‘natildi. Mazkur shartnoma loyihasi O‘zbekiston Oliy Kengashida 1991- yil 14 iyunda muhokama qilindi. Kengash Federatsiya tamoyillari asosida Mustaqil davlatlar ittifoqini tuzish tarafdori ekanligini bildirdi. Shu bilan birga respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari surdi. 1991- yil iyul oyining oxirlarida Novo-Ogoryovoda yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil tayyorlash uchun markaz vakillari va respublika rahbarlarining uchrashuvi bo‘ldi. Markazni ham, respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan “Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g‘risida shartnoma” loyihasi tayyorlandi. Ammo hamma rozi bo‘lgani holda “Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma”ni imzolash 1991- yil 20 avgust kuniga qoldirildi. SSSR Prezidenti M.S. Gorbachyov Foros (Qrim)ga dam olish uchun jo‘nab ketdi. Markaziy hokimiyatni saqlab qolish, respublikalarga mustaqillikni bermaslik payida yurganlar uchun qandaydir bir “imkoniyat” vujudga kelgan edi. Moskvada markaziy hokimiyatni saqlab qolishga, respublikalar jilovini o‘z qo‘lida ushlab qolishga urinuvchilar tomonidan fitna tayyorlandi. Fitnachilar 1991- yil 18 avgust kuni tayyorlangan va 19 avgustda matbuotda e‘lon qilingan “Sovet rahbariyatining Bayonoti”da M.S. Gorbachyovning salomatligi yomonlashdi, shu sababli uning SSSR Prezidenti vazifalarini ijro etish imkoniyati yo‘q, degan soxta axborot bilan chiqdilar. Bayonotda Prezident vakolatlari vitse-prezident G.I. Yanayevga o‘tkazilganligi e‘lon qilindi. Aslida esa Prezident M.S. Gorbachyov sog‘-salomat edi, ammo o‘zini himoya qila olmadi. Fitnachilar uni mamlakatdan, xalqdan, dunyodan ajratib, barcha aloqa vositalarini uzib, 72 soat qamal qilib qo‘ygan edi. Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun quyidagi tarkibda sobiq Ittifoqda favqulodda holat davlat qo‘mitasi (FHDQ) tuzildi:



- O.D. Baklanov - SSSR Mudofaa Kengashi Raisining birinchi o‘rinbosari,
- V.A. Kryuchkov - SSSR Davlat xavfsizligi qo‘mitasining raisi,
- V.S. Pavlov - SSSR Bosh vaziri,
- B.K. Pugo - SSSR ichki ishlar vaziri,
- V.A. Starodubsev — SSSR dehqonlar uyushmasi raisi,
- Tizyakov - SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari hamda inshootlari uyushmasining Prezidenti,
- D.T. Yazov - SSSR mudofaa vaziri,
- G.I. Yanayev - SSSR Prezidenti vazifasini bajaruvchi.

Shu tarzda fitnachilar M.S. Gorbachyovni noqonuniy yo‘l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o‘zlari hokimiyatni egallab oldilar. Mazkur qo‘mita sovet rahbariyatining Bayonoti, sovet xalqiga murojaatnoma, davlatlar va hukumatlarning

boshliqlariga hamda BMT Bosh kotibiga murojaat va boshqa qarorlarni e'lon qildi. Butunittifoq doirasida mo'rtlashib qolgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi siyosiy kuchlar vaziyatga turlicha munosabat bildirdilar. Qaltis vaziyatda 1991- yil 19-avgustda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezident O'zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo'qligi, O'zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko'rsatmalar bajarilmasligini qat'iy ta'kidladi. 1991- yil 20 avgust kuni Toshkentda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilib Bayonot qabul qildi. Bayonotda O'zbekiston Respublikasi tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta'kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash, har qanday ig'vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtiroslarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O'zbekiston Davlat mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiya qoidalarini og'ishmay va izchil amalga oshirish yo'lidan boraveradi, deb ko'rsatildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov 1991- yil 20-avgust kuni respublika aholisiga o'zining murojaatini e'lon qildi: "Hozircha mamlakatning hokimiyat doiralari qanday yo'l bilan, nimalar orqali, qanday siyosat orqali bu maqsadlarga erishish mumkinligi haqida to'liq, hozircha batafsil ma'lumot berganicha yo'q. Bu ma'lumotlar bilan chuqur tanishganimizdan keyingina bo'layotgan o'zgarishlarga o'zimizning munosabatimizni albatta bildiramiz". Prezident xalqqa: „Biz birovning gapiga kirib ish tutmaymiz, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q. Ishonamanki, bu og'ir sinovlardan ham eson-omon o'tamiz“, - deb murojaat qildi. Xalqni og'ir sinovlardan o'tayotgan bir paytda sabr-toqatli, bardoshli va vazmin bo'lishga, tinchlikni saqlash maqsadida jiplashishga chaqirdi.



Davlat rahbari Islom Karimovning Respublika aholisiga murojaatidan. „Sovet O'zbekistoni“ gazetasi, 1991- yil, 21 avgust soni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1991- yil 21 avgustda o'z farmoni bilan O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so'zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo'ydi. Farmonda SSSR da favqulodda holat davlat qo'mitasining SSSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas, deb belgilab qo'yildi. Fitnachilarning qonunga

xilof ravishda urinishlari natijasida 1991- yil 19-21 avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro'y berdi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnani uyushtiruvchilar qamoqqa olindi. M.S. Gorbachyov Prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo'lib qoldi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi. I.A. Karimov Favqulodda holat davlat qo'mitasi faoliyatiga o'z munosabatini bildirmagan, qo'rqq va prinsipsiz mavqeda turgan KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosi va Kotibiyati yuz minglab kommunistlarning sha'ni va qadr-qimmatini zarba ostiga qo'yganini qoraladi. Buning ustiga respublika kommunistlarini chalg'itishga va davlat to'ntarishini qo'llab- quvvatlashga majbur qilishga urinish bo'lganini oshkora aytdi. I.A. Karimov bundan keyin KPSS Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosining tarkibida qola olmasligi to'g'risida bayonot berdi. Mazkur Bayonotni O'zbekiston Kompartiyasi MQ byurosi va Markaziy nazorat komissiyasi Rayosati ma'qulladi.

1991- yil 25 - avgustda O'zbekiston Prezidentining maxsus farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xoli qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengash Rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi. Respublika Oliy Kengashining Rayosati 1991- yil 26 avgust kuni O'zbekistonning Davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash haqida farmoyish chiqardi. 1991- yil 28 - avgustda O'zbekiston Oliy Kengashining Rayosati "Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasini 1991- yil 31 - avgust kuni chaqirish haqida qaror" qabul qildi va sessiyada O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi masalani muhokama qilish belgilab qo'yildi. 1991- yil 28 - avgust kuni O'zbekiston Kompartiyasi MQ va Markaziy nazorat komissiyasining qo'shma plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda Prezident I.A. Karimovning mamlakatda 19-21 avgust kunlari sodir bo'lgan voqealar va respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risidagi axboroti tinglandi va muhokama qilindi. Plenum Respublika Kompartiyasini KPSS MQ bilan har qanday aloqalarni to'xtatishga, KPSSning barcha tuzilmalaridan chiqishga, uning markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

2. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining e'lon qilinishi

Nihoyat uzoq kutilgan xalqimizning azaliy orzusi hisoblangan voqea 1991- yil 31 - avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to'ntarishiga antikonstitutsiyaviy urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular

O‘zbekiston taqdiriga, xalqimiz taqdiriga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Prezident I.A. Karimov O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e‘lon qildi va uni mustaqillik to‘g‘risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi. Sessiyada „O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash Bayonoti“ qabul qilindi. O‘tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni e‘tiborga olib, xalqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga asoslanib, O‘zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas‘uliyatni anglab, shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o‘rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to‘g‘risidagi Xelsinki shartnomalariga qat‘iy sadoqatini bayon etib, millati, diniy e‘tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat‘iy nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha‘ni va qadr-qimmatini ta‘minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib, Mustaqillik deklaratsiyasini amalga oshira borib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O‘zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e‘lon qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash Bayonotidan. O‘zbekiston Respublikasi, - deb ta‘kidlanadi Bayonotda, - to‘la davlat hokimiyatiga ega, xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, oldindan hech qanday shart qo‘ymagan holda barcha sheriklar bilan teng huquqli, o‘zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o‘zini ochiq deb e‘lon qiladi. Oliy Kengash sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida” Qaror qabul qilib, O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash Bayonotini tasdiqladi va respublikani bundan keyin O‘zbekiston Respublikasi deb atashni belgilab qo‘ydi.



1-sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991- yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e‘lon qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Qaroridan.

Oliy Kengash “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” Qonun qabul qildi. Bu qonun 17 moddadan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Qonunning birinchi moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir”, - deb qonunlashtirib qo‘yildi. Qonunda O‘zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va respublikada davlat hokimiyatining birdan bir sohibidir. U o‘z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi, deb belgilab qo‘yildi. Mustaqillik asoslari to‘g‘risidagi qonunda O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi, davlat chegarasi, hududi daxlsiz

va bo‘linmas bo‘lib, uning xalqi o‘z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o‘zgartirilishi mumkin emas, deb qat’iy qonunlashtirib qo‘yildi. Mazkur qonunda respublika hududidagi yer, yerosti boyliklari, suv va o‘rmonlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma’naviy boyliklari O‘zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi, deb belgilab berildi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o‘z oltin zaxirasini yaratadi, deyiladi bu qonunda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasi 1991- yil 30 sentabr kuni “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qildi. Qarorda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalariga zid kelgan hollarda mazkur qonunga amal qilinsin, deb belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991- yil noyabrda bo‘lgan VIII sessiyasi davlat mustaqilligi masalasi bo‘yicha referendum o‘tkazish haqidagi masalani ko‘rib chiqdi. Oliy Kengash sessiyasi 1991- yil 18 noyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida“ Qaror qabul qildi. Qarorda 1991- yil 29 dekabr, yakshanba kuni O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha referendum o‘tkazish belgilandi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma‘qullaysizmi?” Referendumda ovoz berish byulleteniga kiritilgan savol ana shunday ta‘riflangan edi. Referendumga puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Markaziy saylov komissiyasi, 13 saylov okrugi, 7 ming uchastka saylov komissiyasi tuzildi. 1991- yil 29 dekabr kuni bo‘lib o‘tgan referendumda 9 898 707 kishi yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi referendumda qo‘yilgan savolga “Ha”, ya‘ni, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma‘qullaymiz, deb ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi „O‘zbekiston Respublikasi referendumini to‘g‘risida“gi Qonunning 26 moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan ma‘qullandi, deb topdi.

Markaziy saylov komissiyasi bayonnomasidan. Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi ro‘yobga chiqdi. Mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy qaramlikdan, asoratdan qutuldi. Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi o‘zbek xalqining hayotida muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Mustaqillik xalqimizga o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zlari uchun munosib turmush yaratish erkinligini berdi. Tarixdan bizga ma‘lumki, qadim zamonlardan boshlab u yoki bu mintaqalarda yirik imperiyalar vujudga kelib, ko‘plab xalqlarni o‘z manfaatlariga bo‘ysundirgan, asoratga solgan. Biroq ularning barchasi mazlum xalqlarning ozodlik, mustaqillik uchun kurashlari natijasida parchalanib ketgan. Bu tarixiy jarayon XX asrda ham takrorlandi. Mazlum xalqlarning milliy-ozodlik harakati natijasida jahon mustamlakachilik tizimi barbod bo‘ldi, imperiyalar quladi. Dunyodagi yirik imperiyalardan biri bo‘lmish SSSRning parchalanishi ham ana shu tarixiy-qonuniy jarayonning natijasi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi ham qonuniy- tarixiy jarayon bo‘lib, xalqimizning

uzoq yillar davomidagi milliy istiqlol uchun olib borgan qahramonona kurashining natijasidir. 1991- yil 31 - avgustdan e'tiboran Vatanimiz tarixida yangi davr - milliy istiqlol davri boshlandi. O'zbekiston xalqi o'z taqdirini o'z qo'liga oldi, siyosiy, ma'naviy mutelikdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to'la huquqli, suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekiston xalqi va rahbariyatining donishmandligi, sabotliligi va qat'iyatliligi, uzoqni ko'ra bilishi natijasida uning davlat mustaqilligi tinch, demokratik, parlament yo'li bilan, ijtimoiy larzalarsiz, qurbonlar va vayronagarchiliksiz amalga oshdi. Mustaqil O'zbekiston dunyoga, jahonga yuz tutdi, qariyb yuz yildan ortiq vaqt davomida yopib qo'yilgan chegaralari ochildi. Jahon hamjamiyati O'zbekistonni quchoq ochib qabul qildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasini suveren davlat sifatida Turkiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Hindiston, Xitoy singari yirik davlatlar tan oldilar.

“Qadrli janob Prezident, mamlakatingizda yuz bergan tarixiy o'zgarishlarni va sobiq sovet Ittifoqi respublikalarini birlashtirib turgan Ittifoqning tugaganligini hisobga olib, Qo'shma Shtatlar hukumati O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida taniganligini Sizga xabar qilishdan mamnunman”.

AQSH Prezidenti Jorj Bushning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovga yo'llagan shaxsiy maktubidan.

3. Islom Karimov - O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti

Mustaqillikni qo'lga kiritilgandan keyingi asosiy vazifa O'zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, demokratik tizimini shakllantirish etib belgilandi. Demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekiston uchun tabiiy ravishda davlat boshlig'i - Prezidentning umumxalq tomonidan saylanishini ta'minlash zarur edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991- yil 18 noyabrda bo'lgan VIII sessiyasida „O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida“ Qonun qabul qilindi.

Qonunda quyidagilar keltirildi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston Prezidenti 7 yil muddatga saylanadi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonundan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991- yil 18 noyabrda bo'lgan VIII sessiyasida “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to'g'risida” Qaror qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi 1991- yil 29 dekabr, yakshanba kuniga belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari saylovini o'tkazuvchi Markaziy saylov komissiyasining zimmasiga yuklandi. Saylovga puxta tayyorgarlik ko'rildi. 13 ta okrug va qariyb 7 mingta uchastka saylov komissiyalari tuzildi. O'zbekiston Prezidenti saylovi respublikada birinchi bor o'tayotganligi inobatga olinib, bu tadbirni uyushqoqlik bilan o'tkazish

maqsadida saylov komissiyalari tarkibiga Xalq demokratik partiyasidan, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasidan, yozuvchilar uyushmasi va boshqa jamoat tashkilotlaridan ko‘pgina vakillar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi 1991- yil 22 - noyabrda O‘zbekiston Prezidentligiga O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi va kasaba uyushmalari Federatsiyasidan ko‘rsatilgan Islom Abdug‘aniyevich Karimov hamda “Erk” demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan Salay Madaminov nomzodlarini ro‘yxatga oldi va yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi. Markaziy saylov komissiyasi saylovga doir barcha hujjatlarni, 11 mln nusxadagi Prezident sayloviga doir byulletenlarni markazlashtirilgan tartibda tayyorladi hamda okrug va uchastka saylov komissiyalari ular bilan o‘z vaqtida ta‘minlandi. Prezidentlikka nomzodlar uchun saylovoldi kompaniyasida, ularning saylovchilar bilan uchrashuvlarida va o‘z dasturlarini ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilishlariga keng sharoit yaratildi. Saylovchilarning ro‘yxatlarini tuzish, binolarni ovoz berish uchun jihozlash ishlari amalga oshirildi. Prezident saylovi jarayonida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashkilotini ta‘sis etgan mustaqil mamlakatlardan, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Turkiya, Malayziya va boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kelgan kuzatuvchilar qatnashdi. Ular O‘zbekiston Prezidenti saylovi puxta tashkil etilganligini tasdiqladilar. 1991- yil 29 dekabrda demokratik me‘yor va tartiblarga mos ravishda, umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylash huquqi asosida tarixda birinchi marta O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga muqobillik asosida umumxalq saylovi bo‘lib o‘tdi. Saylovda 9 mln 900 ming 958 kishi yoki ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarning 94,2 foizi ishtirok etdi. Islom Abdug‘aniyevich Karimov nomzodi uchun 8 mln 514 ming 136 saylovchi yoki saylovda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. 1991- yil 30 dekabr kuni Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug‘aniyevich Karimovni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. 1992- yil 4-yanvarda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari IX sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti saylovi yakunlari haqidagi masala ko‘rib chiqildi va mazkur masala bo‘yicha Markaziy saylov komissiyasining qarori tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi qonunning 38-moddasiga muvofiq Islom Abdug‘aniyevich Karimov 1991- yil 31 - dekabrda boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishgan deb hisoblansin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qaroridan. 1992- yil 4-yanvar Oliy Majlisning mazkur sessiyasida Islom Karimov so‘zga chiqib, o‘ziga bildirilgan ishonch uchun butun respublika xalqiga samimiy minnatdorchilik bildirdi va qasamyod qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qasamyodi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekanman, respublikamiz xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat‘iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman.

1992-yil 4-yanvar Islom Abdugʻaniyevich Karimov Oʻzbekiston Respublikasining umumxalq saylagan birinchi Prezidenti boʻldi. Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimovning tarjimai holi:

Islom Abdugʻaniyevich Karimov – 1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tugʻilgan. Millati - oʻzbek. Oliy maʼlumotli, Oʻrta Osiyo politexnika va Toshkent xalq xoʻjaligi institutlarini tugatgan. Muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklariga ega. Mehnat faoliyatini 1960- yilda Toshkent qishloq xoʻjaligi mashinasozligi zavodida boshlagan. 1961- yildan 1966-yilgacha V.P. Chkalov nomidagi Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor boʻlib ishladi. 1966 yilda Oʻzbekiston SSR davlat reja komitetiga ishga oʻtib, bosh mutaxassislikdan Respublika davlat reja komiteti raisining birinchi oʻrinbosarigacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtdi. 1983 yilda I. Karimov Oʻzbekiston SSR Moliya vaziri, 1986 yilda Oʻzbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining oʻrinbosari, Respublika davlat reja komitetining raisi etib tayinlanadi. 1986-1989 - yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi, 1989-yilning iyunidan boshlab Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimlarida ishladi. 1990 - yil 24 - mart kuni Oʻzbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida I. Karimov Oʻzbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.



1991- yil 31 - avgust kuni I. Karimov tarixiy voqea - Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini eʼlon qildi. 1991- yil 29 dekabridan muqobillik asosida oʻtkazilgan umumxalq saylovida I. Karimov Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. 1995- yil 26 martida boʻlib oʻtgan umumxalq referendumini yakunlariga koʻra I. Karimovning Prezidentlik vakolati 2000 - yilga qadar uzaytirildi. 2000 - yil 9 yanvarda boʻlib oʻtgan saylovda I.A.Karimov Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylandi. 2002 - yil 27 yanvarda boʻlib oʻtgan referendumda uning prezidentlik vakolati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. 2007 yil 23 dekabrda boʻlib oʻtgan saylovda I.A. Karimov Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. I.A. Karimov Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1994-yil), oʻndan ortiq xorijiy mamlakatlar universitet, akademiyalarining faxriy fan doktori, professor va akademikligiga saylangan. I.Karimov “Oʻzbekiston Qahramoni” unvoni va “Oltin Yulduz” medali sohibi (1994-), “Mustaqillik” (1996-), “Amir Temur” (1998) ordenlari bilan mukofotlangan. I.Karimov xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tinchlikni mustahkamlash, maʼnaviyatni tiklash, sportni rivojlantirish sohasidagi xizmatlari uchun bir qator xalqaro tashkilotlar va nufuzli xorijiy davlatlarning orden va medallari bilan mukofotlangan. U oilali, ikki nafar farzandi, uch nabirasi bor. Rafiqasi T.A. Karimova - iqtisodchi ilmiy xodim. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 bobida Oʻzbekiston Prezidentining Konstitutsiyaviy maqomi aniq belgilab qoʻyilgan.

Konstitutsiyaning 89 moddasida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi, deb belgilab qo‘yilgan. Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi. Konstitutsiyaning 93 moddasida O‘zbekiston Prezidentining vazifalari, uning vakolatiga kiradigan masalalar doirasi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti:

- fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

- O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;

- mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;

- muzokaralar olib boradi hamda O‘zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning majburiyatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi;

- o‘z huzurida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

- respublika Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma‘ruzalar taqdim etadi;

- viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi;

- O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e‘lon qiladi, qonunga o‘z e‘tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli;

- Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

- O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

- O‘zbekiston Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vakolati tugashi munosabati bilan iste‘foga chiqqan Prezident umrbod Senat a‘zosi lavozimini egallaydi. 1995- yil 26 martda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997- yildan 2000 - yilgacha uzaytirish masalasi bo‘yicha umumxalq referendumini bo‘lib o‘tdi. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997- yildan 2000 - yilgacha uzaytirishga siz rozimisiz?” degan savolga 11 mln 199 ming 415 kishi, yoki ovoz berishda qatnashganlarning 99,6 foizi ijobiy javob berdi. Referendum natijalari Markaziy saylov komissiyasi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli qarori bilan mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999- yil 19-20 avgust kunlari bo‘lib o‘tgan XV

sessiyasi 2000 - yil 9 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazishga qaror qildi. Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi nomzodi Islom Abdug‘aniyevich Karimovni hamda O‘zbekiston xalq demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan Abdulhafiz Jalolovni Prezidentlikka nomzod etib ro‘yxatga oldi, yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi.

2000 - yil 9 yanvarda muqobillik va demokratik tamoyillar asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo‘lib o‘tdi. Saylovda ro‘yxatga olingan saylovchilarning 95,10 foizi, 12 mln 123 ming 199 saylovchi qatnashdi. Saylovda qatnashganlarning 91,90 foizi Islom Karimov uchun, 4,17 foizi A. Jalolov uchun ovoz berdi. 3,93 foiz byulleten haqiqiy emas deb topildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug‘aniyevich Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to‘g‘risida qaror qabul qildi.

I.A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi, uning mustaqillik yillarida yuritgan ichki va tashqi siyosatining umumxalq tomonidan ma‘qullanishi va qo‘llab-quvvatlanishi, mamlakat barcha aholisining unga bo‘lgan to‘la ishonchidan guvohlik beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 2007 yil dekabrda tugashi munosabati bilan O‘zR Prezidenti lavozimiga saylov o‘tkazishga puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan A.A. Rustamovni, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan D.G. Toshmuhamedovani, saylovchilar tashabbuskor guruhidan ko‘rsatilgan A.X. Saidovni, O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan I. A. Karimovni Prezidentlikka nomzod etib ro‘yxatga oldi va yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi. 2007 yil 23 dekabrda oshkoralik va ochiqlik, muqobillik va sog‘lom raqobat asosida bo‘lib o‘tgan saylovda ro‘yxatga olingan 16.297 000 nafar saylovchidan 90,6 foizi ovoz berishda qatnashdi. Saylovda ishtirok etganlarning 88,1 foizi Islom Abdug‘aniyevich Karimov nomzodini yoqlab ovoz berdi. 2007 yil 28 - dekabrda bo‘lib o‘tgan Markaziy saylov komissiyasining majlisi I.A. Karimovni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylandi, deb hisoblashga qaror qildi. Respublika fuqarolari O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishuvini, iqtisodiy mustaqilligini, mamlakat xavfsizligining mustahkamlanishi va jahon hamjamiyatida uning obro‘-e‘tiborining ortib borishini haqli ravishda I.A. Karimov faoliyati bilan bog‘laydilar.

Savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan ittifoqdosh respublikalar SSSR tarkibidan chiqa boshladilar?
2. SSSR o‘rniga qanday ittifoq tuzish masalasi ko‘tarildi, u qanday prinsipda tuzilishi kerak edi?
3. Referendumning ma‘nosini bilasizmi?
4. “9+1” deb nom olgan hujjat qachon imzolangan, uning mazmuni nima?
5. Qanday kuchlar, nima maqsadda Moskvada fitna uyushtirdilar?
6. O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning 1991- yil 20 avgustdagi Bayonotida nimalar deyilgan edi?
7. 1991- yil 25 - avgustda O‘zbekiston Prezidentining qanday farmoni e‘lon qilindi?

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991- yil 31 - avgustda bo‘lgan sessiyasida qanday hujjatlar qabul qilindi?

9. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash Bayonoti haqida so‘zlab bering.

10. Oliy Kengashning O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risidagi qarorining mazmunini bilasizmi?

11. „O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida“gi Konstitutsiyaviy qonunni kutubxonadan toping va daftaringizga yozib oling.

12. Mustaqillik to‘g‘risidagi referendum va uning natijalarini bilasizmi?

13. O‘zbekiston Davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?

14. O‘zbekiston Prezidenti saylovi qanday qonun asosida tashkil etiladi?

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga kimlar saylanishi mumkin?

16. Prezident saylovi kunini qaysi hokimiyat organi tayinlaydi?

17. Saylov okrugi va uchastkalari deganda nimalarni tushunasiz?

18. Saylov byulleteni nima?

19. O‘zbekiston Prezidentligiga birinchi umumxalq saylovi qachon bo‘ldi? Natijalarini bilasizmi?

20. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning tarjimai holini so‘zlab bering.

21. O‘zbekiston Prezidentining Konstitutsiyaviy maqomini bilasizmi?

22 -. O‘zbekiston Prezidentining vakolat muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi referendum qachon bo‘lib o‘tdi?

4-MAVZU. O‘ZBEKISTONNING O‘ZIGA XOS ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO‘LI

Reja:

1. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi. Taraqqiyotning “o‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari
2. Mustaqil O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratilishi
3. Davlat ramzalarining qabul qilinishi

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li, uning o‘ziga xos jihatlari, “o‘zbek modeli” va uning mohiyati, Konstitutsiyaning davlat rivojidadagi o‘rnini tushuntirib berish.

Tayanch iboralar: Konstitutsiya, “o‘zbek modeli”, besh tamoyil, konstitutsiyaviy kengash, konstitutsiyaviy qonun, gerb, bayroq, madhiya, davlat ramzlari, milliy valyuta.

1. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi. Taraqqiyotning “o‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Davlatimiz o‘z mustaqilligining qo‘lga kiritishi bilan Vatanimiz hayotida tarixiy burilish sodir bo‘ldi. Endi O‘zbekiston oldida boshqa davlatning qosh-qovog‘iga qaramasdan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyot masalalarini milliy manfaatlariga mos ravishda mustaqil hal qilish, jamiyatni yangilash, demokratik davlat qurish yo‘llarini ishlab chiqish kabi dolzarb va mas‘uliyatli vazifalar turardi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O‘zbekiston qanday taraqqiyot yo‘lidan boradi, qanday jamiyat, qanday davlat quradi, uning qiyofasi qanday bo‘ladi, degan savollar ko‘ndalang turardi.

Barchamizga ma‘lumki, 90-yillar boshlarida mustaqillikka erishgan ayrim davlatlarda eski tuzumni rad etib, uni buzib, demokratik jamiyat va bozor munosabatlari dasturini e‘lon qilib, birdaniga demokratik davlat quramiz, birpasda rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishamiz, deb jar solgan edilar. O‘sha paytdayoq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bunday shov-shuvlarga xomxayol, quruq gap deb baho bergan edi, amalda ham shunday bo‘lib chiqdi. Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq eski tuzum o‘z o‘rnini osonlikcha bermasligini, uning zaharli mafkurasi odamlar ongini tez va yengil o‘z iskanjasidan chiqarmasligini ta‘kidlagan edi. Eng muhimi, yangi ijtimoiy munosabatlarning zarur asosini, zaminini, poydevorini qurib olish uchun ma‘lum vaqt, jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta‘minlaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarni tayyorlash-tarbiyalash kerak edi.

Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo‘lgan bir xil taraqqiyot yo‘li, bir xil andaza bo‘lishi mumkin emas. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o‘z andazasini ishlab chiqishga intiladi. O‘zbekiston oldida ham nazariy-ilmiiy va amaliy jihatdan puxta asoslangan o‘ziga xos yo‘lni ishlab chiqish zarur edi.

Vatan, millat taqdiri hal bo'layotgan mustaqillikning dastlabki murakkab, mas'uliyatli pallasida Prezident Islom Karimov o'zining hayotiy tajribasi, boshidan kechirgan achchiq-chuchuk voqealardan olgan saboqlari va har bir voqeaga ilmiy



O'zbek modeli tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi. Jamiyatni isloq etishning besh tamoyili. Taraqqiyotning o'zbek modeli jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyusion-tadriijiy ravishda isloq etishdir.

asosda yondashish, kelajakni ko'ra bilish qobiliyatiga tayanib O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishga bosh-qosh bo'ldi. Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'qqizinchi sessiyasida (1992- yil 4- yanvarda) so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992- yil avgust oyida nashr etilgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonning taraqqiyot

yo'lini har tomonlama puxta asoslab berdi.

O'z yo'limiz qanday shart-sharoit va zaminlarga tayanadi?

O'zbekiston yo'li, **birinchidan**, bozor iqtisodiyoti asosida taraqqiy topgan davlatlarning tajribasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Bu biron-bir taraqqiyot yo'lini ko'r-ko'rona ko'chirib olishni emas, balki boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va bizning mamlakatimiz sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan foydalanish, degan ma'noni bildiradi.

Ikkinchidan, soxta inqilobiy sakrashsiz, ijtimoiy larzalarsiz, evolutsion yo'l bilan madaniyatli taraqqiyotga o'tish - tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir.

Uchinchidan, O'zbekiston yo'li o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, davlatchilik tajribasi, ma'naviy qadriyatlarini, Sharq madaniyatiga mansublik, ijtimoiy hamkorlik, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik kabi fazilatlarga mos ravishda belgilandi.

To'rtinchidan, o'z yo'limizni belgilashda islom dini, uning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni, musulmon davlatlar bilan o'zaro aloqalarni kengaytirishdagi ahamiyati hisobga olindi.

Beshinchidan, yangi yo'lni tanlashda O'zbekistonning geostrategik mavqeyi, mustaqillikka erishgan paytdagi iqtisodiy imkoniyatlari, shart-sharoitlari, tabiiy resurslari asos qilib olindi.

Oltinchidan, respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat, aholi va mehnat resurslarining tez o'sib borishi ham inobatga olindi.

Yettinchidan, odamlarning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi ham e'tiborga olindi. Negaki, sovetlar zamonida kishilarda shakllangan yaxshi ishlasa ham, yomon ishlasa ham davlat boqadi, degan boqimandalik, tayyorga ayyorlik, mulkka nisbatan bepisandlik ruhiyatini tezlik bilan o'zgartirib bo'lmas edi, buni hisobga olish zarur edi, albatta.

Mustaqilligimizning dastlabki kunidanoq chinakam Mustaqil O'zbekistonni barpo etish, har qanday "izm"lardan xoli xalqchil, adolatli jamiyat qurish bosh maqsad qilib qo'yildi. Davlatimiz ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari ana shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda belgilandi. "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. Bu - mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu - insonparvarlik qoidalariga

asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab boradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbayidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi" degan edi birinchi prezidentimiz I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li asarlarida.

Buyuk kelajakka ega O'zbekiston davlatining siyosati inson va jamiyatning erkinligini, fuqarolarning farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan. Yurtboshimiz o'zining mazkur asarida jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini insonga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini o'zi erkin tanlab olishini kafolatlaydigan darajada isloh etish, tubdan yangilash vazifalarini belgilab berdi.

Siyosiy sohada bu quyidagilarni anglatadi:

- xalq manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya tamoyillarini qaror toptirishni, xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq imkoniyatga ega bo'lishini;

- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etishni, jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarning tuzilmasini tubdan yangilashni, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlarini aniq belgilab qo'yish va adolatli qonunchilikni vujudga keltirishni;

- barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustuvorligini, jamiyat manfaatleri va aholi xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etishni;

- O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligidan va e'tiqodidan qat'iy nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir, degan insonparvarlik qoidasini ro'yobga chiqarishni;

- ozchilikdan iborat millatlarning manfaatleri va huquqlarini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatleri va an'analari saqlanishi hamda rivojlanishini kafolatli ta'minlashni;

- bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;

- chinakam demokratiyaning zarur va qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylikni amalda shakllantirishni bildiradi.

Iqtisodiy sohada:

- milliy boylikning ko'payishini, odamlarning turmush va ish sharoitlarini munosib ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;

- ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirishni, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishni;

- mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilinishini ta'minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;

- iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmaslik hamda yakka hokimlikka barham berish, korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirish, davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechishni;

- mehnat qilish, dam olish, ta'tilga chiqish, ishsiz bo'lib qolgan taqdirda ijtimoiy muhofazaga bo'lgan Konstitutsiyaviy huquqni ro'yobga chiqarishni;
- tabiiy resurslardan ayovsiz foydalanishga, atrof-muhitga, ekologik vaziyatga ziyon yetkazishga yo'l qo'ymaslikni bildiradi.

Ijtimoiy va ma'naviy sohada:

- umuminsoniy qadriyatlarga, insonparvarlik g'oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmatini, yashash joyini tanlash huquqini, inson huquqlariga doir xalqaro me'yorlarni qaror toptirishni;
- ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, fuqarolarning vatanparvarlik his-tuyg'ularini rivojlantirish, tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlashni;
- o'zbek tilini rivojlantirishni, bu tilning davlat maqomini to'liq ro'yobga chiqarishni;
- hurfiylikni, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirishni;
- ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari ya'ni keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlashni;
- hamma uchun ma'qul sifatli tibbiy xizmatni ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishni;
- yangi demokratik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, umumiy ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikni o'tishni erkin tanlashda barchaga baravar huquq berishni;
- ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilishni bildiradi. Mana shunday siyosiy, davlat va Konstitutsiyaviy tuzumga erishishning kaliti fuqarolarning tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni qaror toptirishdir.

Islom Karimovning keyingi asarlari ma'ruza va nutqlarida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li yangi ma'no-mazmun bilan to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. 1993 - yilda nashr etilgan „O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li“ nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning *besh tamoyilini* asoslab berdi.

1. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.

2. Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgartirishlarning tashabbuskori.

3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning barobarligi va hammaning qonunga bo'ysunishi.

4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o'tish, islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.

Demak shu tarzda, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Taraqqiyotning „o'zbek modeli“ bundan oldin yaratilgan va mavjud bo'lgan modellarning birontasini takrorlamagan holda o'z

mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modelidir. Bu yo‘l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning „o‘zbek modeli“ deb qabul qilindi.

Hukumat tomonidan tanlangan yo‘l yengil-yelpi yumush emas edi, u xalqimizdan matonatni, mashaqqatli va ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishni talab qilardi. Yangi jamiyat qurish ishlarini bir yo‘la, siltov yo‘li bilan bajarib bo‘lmasligi davlat rahbarlaridan boshlab oddiy fuqarolargacha hammaga tushunarli edi. Shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymasdan, tadrijiy yo‘l bilan keng qamrovli siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar o‘tkazish lozim edi.

Faqatgina O‘zbekistonga xos taraqqiyot yo‘lining nazariy, ilmiy, amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilishi bizning eng katta yutug‘imizdir. Tanlangan yo‘lning to‘g‘riligini xalqimiz, dunyodagi nufuzli davlat arboblari, siyosatchilar, iqtisodchi olimlar e‘tirof etdilar.

2. Mustaqil O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini yaratilishi

Deyarli asrlar mobaynida mustaqillikning ajralmas qismiga aylangan ramzlardan biri – konstitutsiyadir. Dunyoda suveren deb e‘tirof etilgan har bir mamlakat o‘zining Konstitutsiyasi, davlat ramzlari – gerbi, bayrog‘i, madhiyasiga ega. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o‘zining davlat ramzlarini yaratishga alohida e‘tibor bilan qaradi. Oliy Kengash Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi haqida qonun loyihalarini tayyorlash, Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga taqdim etish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Dastlab, Oliy Kengash Qo‘mitalari Konstitutsiya komissiyasi bilan hamkorlikda o‘zbek xalqining tarixi, ma‘naviy qadriyatlarini, mustaqil davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatiga mos davlat ramzlari variantlari tayyorlandi. Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, mustaqil demokratik, huquqiy davlatning tashkil topishi va rivojlanishining asosiy sharti Konstitutsiyaning mavjudligidir. Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, bir qator omillar respublika Konstitutsiyasini yaratishni zarur qilib qo‘ydi. Mamlakatimizda milliy huquqiy davlat qurish, demokratik jamiyat barpo etish, bozor munosabatlarini shakllantirish kabi dolzarb vazifalar mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishni taqozo etardi. Vujudga kelayotgan yangi siyosiy partiyalar, jamoat harakatlari, jamoat tashkilotlarining yuridik manfaatlari, jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, milliy totuvlikni ta‘minlash masalalari yangi Konstitutsiya qabul qilishga ehtiyoj tug‘dirdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquq subyektiga aylanishi, mustaqil davlat sifatida jahonga tanilishi ham Konstitutsiya qabul qilinishini talab qilardi. „Mustaqillik Deklaratsiyasi“ qabul qilingan O‘zbekiston Oliy Kengashining 1990 -yil 20-iyunda bo‘lgan ikkinchi sessiyasidayoq yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelingan edi. Sessiya O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo‘jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida qariyb 2,5 yil ishladi.

1991-yil 12-aprelda bo‘lib o‘tgan konstitutsiyaviy komissiyaning yig‘ilishida komissiya a‘zolari hamda yetakchi mutaxassislar va olimlardan iborat 32 kishilik ishchi guruhi tuzildi. Konstitutsiya bo‘limlarini tayyorlash bo‘yicha 50 kishidan iborat 6 ta kichik guruhlar tuzildi. 1991-yil 31 -avgustda O‘zbekiston davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi va „O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida“gi Qonunning qabul qilinishi, bu qonunga Konstitutsiyaviy maqom berilishi Konstitutsiyaviy komissiya mas‘uliyatini yanada kuchaytirdi.

Komissiya tomonidan Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o‘rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo‘lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g‘oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi. 1992-yil 26-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e‘lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e‘lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Konstitutsiyamiz xalqimizning siyosiy dahosi va tafakkurining mahsuli bo‘ldi. Prezident I.A. Karimov O‘zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o‘zining katta hissasini qo‘shdi. Oliy Kengashning 1992-yil dekabrda bo‘lgan XI sessiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish masalasini muhokama qildi. „Shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, – degan edi Prezident I.A. Karimov sessiyada so‘zlagan nutqida, – yangi Konstitutsiya loyihasini yaratishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning barcha e‘tirof etgan qoidalariga amal qilindi. Shuningdek, rivojlangan demokratiya mamlakatlari hisoblanmish Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniyaning hamda Sharq mamlakatlari Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining Konstitutsiya tajribasidan ijodiy foydalanildi“. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o‘zgartirish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, 1992-yil 8-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Mamlakat rahbari tomonidan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8- dekabr umumxalq bayrami – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e‘lon qilindi.

Yangi ishlab chiqilgan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 128 - moddadan iborat. U “Mustaqillik Deklaratsiyasi”, „O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida“gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirdi, ularni rivojlantirdi. O‘zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni, pasporti hisoblanuvchi Konstitutsiya sobiq Ittifoq davridagi barcha Konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. Biz buni quyidagi farqlarda ko‘rishimiz mumkin

Birinchidan, yangi qabul qilingan Konstitutsiya mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo‘lib, barcha moddalari haqiqiy mustaqillik

g'oyalari bilan sug'orilgan. Ilgarigi Konstitutsiyalar esa O'zbekistonning mustaqilligini ta'minlay olmaydigan, respublikaning „suveren“ ligi haqida quruq so'zlar yozilgan, huquqiy qoidalari qog'ozda qolib ketadigan, rasmiy bir hujjat edi.

Ikkinchidan, yangi Konstitutsiya ijodkor xalqimizning xohish-irodasi va dono fikr-mulohazalari asosida va jahonda to'plangan eng ilg'or Konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini va milliy davlatchiligimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqildi. Ilgarigi Konstitutsiyalar esa Markaziy hokimiyat tomonidan tayyorlangan Ittifoq Konstitutsiyasi nusxalaridan ko'chirib olinar edi. Shu boisdan ham yangi Asosiy qonunimiz mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Biz O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy tamoyillarini bilib olishga ahamiyat berishimiz zarur. Ular quyidagilar:

Birinchi tamoyil – davlat suverenitetidir. 1–6- moddalarda O'zbekiston – suveren demokratik respublika, davlat xalq manfaatlariga xizmat qiladi, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritadi, o'zbek tili davlat tilidir, deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyada davlatning “O'zbekiston Respublikasi” va “O'zbekiston” degan nomlari bir ma'noni anglatadi, deb belgilab qo'yilgan.

Ikkinchi tamoyil – xalq hokimiyatchiligidir. 7-14- moddalarda xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir, O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar uning fuqarolari tashkil etadi, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab amalga oshiradi, deb ko'rsatilgan.

Uchinchi tamoyil – davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishidir. O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi qonunlashtirildi. Uch hokimiyatdan har biri faoliyatda mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadi. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis, ijro etuvchi hokimiyat – Prezident rahbarligida faoliyat ko'rsatuvchi Vazirlar Mahkamasidir. Sud hokimiyati – Konstitutsiyaviy Sud, O'zbekiston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xo'jalik Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi va Oliy xo'jalik Sudi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar sudlari va xo'jalik sudlaridan iborat. Konstitutsiyaning 76-88- moddalarida Oliy Majlisning tuzilishi, vakolatlari, qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish qoidalari belgilab berilgan. 88-98- moddalarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanligi, uning vakolatlari va vazifalari, Vazirlar Mahkamasining faoliyat yuritish qoidalari qonunlashtirilgan.

To'rtinchi tamoyil – bu demokratiyaga sodiqlikdir. Konstitutsiyada demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat e'lon qilinadi hamda insonparvar demokratik-huquqiy davlat barpo etish nazarda tutiladi. Konstitutsiyada umuminsoniy demokratik tamoyillarning, xalqaro huquq sohasida umum e'tirof etilgan qoidalarning ustunligi tan olingan. O'zbekiston Konstitutsiyasida inson hayoti, erkinligi, or-nomusi, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan.

Beshinchi tamoyil – Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligidir. Konstitutsiyaning 15-moddasida „O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar“, deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 16-moddasida birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emasligi qayd etilgan.

Oltinchi tamoyil – xalqaro andazalar darajasida ifodalangan fuqarolar huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarining tengligi va daxlsizligidir. O'zbekiston fuqarolarining huquqlari muhim xalqaro hujjatlar – “Inson huquqlari butun jahon Deklaratsiyasi”, “Iqtisodiy, sotsial va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt”, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt” va boshqalar asosida bayon etilgan. Konstitutsiyaning 18-52- moddalari inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. O'zbekiston davlati tomonidan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida tan olingan va ular himoya qilinadi. Konstitutsiya bo'yicha har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi kafolatlanadi. Konstitutsiyada har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli ekanligi, O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etishi, barcha mulk shakllarining teng huquqli ekanligi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 21-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasining millati, elatidan qat'iy nazar barcha fuqarolari O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

Yettinchi tamoyil – qonuniylikdir. Qonuniylik jamiyatning bir maromda hayot kechirishini, davlat organlarining maromli faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rgandagina jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot bo'ladi. Mazkur tamoyil davlatga va uning organlariga, siyosiy partiyalar va jamoat uyushmalariga o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida amalga oshirishlarini talab qiluvchi Konstitutsiyaviy normadir. Konstitutsiyada siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining tuzilishi va faoliyatining huquqiy jihatlari asoslab berilgan.

Sakkizinchi tamoyil – O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalarini aniq belgilab qo'yilganligidadir. Konstitutsiyaning 17- moddasida: “O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi”, deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyada davlat xalqning manfaatlari va xavfsizligini ta'minlash maqsadida boshqa davlatlar bilan ittifoq va do'stona aloqalar o'rnatishi hamda davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkinligi qonunlashtirilgan.

To'qqizinchi tamoyil – mahalliy o'zini o'zi boshqarishdir. O'zbekistonda o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda mahalliy hokimiyat boshlig'i bo'lgan hokim instituti joriy etildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimiyatning vakillik organlari xalq deputatlari kengashlari bo'lib, ularga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladilar. Konstitutsiyaning 99-104-

moddalarida mahalliy davlat hokimiyati asoslari, hokimlarni tayinlash va tasdiqlash tartiblari, ularning vazifalari belgilab berilgan. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili bo'lgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish tartiblari belgilangan. 105- moddada: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi", deb belgilab qo'yilgan.

O'ninchi tamoyil – odil sudlov, sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligidir. Sudya faqat qonunga bo'ysunadi. Konstitutsiyaning 106-116- moddalarida O'zbekistonda sud tizimi va ularning vazifalari belgilab berilgan. Konstitutsiyada sudya deputatlikka saylana olmasligi, siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'la olmasligi qonuniylashtirilgan. Sud majlisi ochiq va oshkora olib boriladi, sud ishlari davlat tilida yuritiladi va zarur holda boshqa tilda yuritilishi ham mumkin. Sud hokimiyati davlat hokimiyatining muhim bir tarmog'i bo'lib, Konstitutsiyada sudning hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxs va fuqarolar uchun majburiy ekanligi qonunlashtirib qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasida Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi, O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlarning huquqiy asoslari belgilab berilgan.

Shuni tan olish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. U mamlakatimizda qonunchilikning rivojlanishi uchun, huquqiy islohotlar uchun asos bo'lib qoldi. Yuzlab qonunlar, kodekslar, milliy dasturlar ishlab chiqildi, umumxalq muhokamasidan o'tdi, qabul qilindi va hayotimizning barcha jabhalarida amal qilinmoqda. O'zbekiston Konstitutsiyasi davlatimiz suverenitetini ro'yobga chiqardi. O'zbekistonni dunyodagi barcha nufuzli davlatlar tan oldi, ular bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy, aloqalar o'rnatildi va rivojlantirib borilmoqda

3. Davlat ramzalarining qabul qilinishi

Mustaqillikning aosiy ramzlari hisoblanmish milliy bayroqning qabul qilinishi **“O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i to'g'risida”gi Qonun** 1991-yil 18- noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida qabul qilinishi bilan boshlandi. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i ramzi mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayroqlariga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublika tabiatiga xos xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy o'zligini ham aks ettiradi. Bayroqdagi moviy rang – mangu osmon va musaffo suv ramzidir. Yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhratga sadoqatni bildiruvchi moviyrang Sharqda azaldan qadrlanadi, o'z vaqtida buyuk Amir Temur ham o'z bayrog'iga bu rangni tanlagan. Oq rang – tinchlik va poklik timsolidir.



Yosh mustaqil davlat o‘z yo‘lida baland dovonlardan oshib o‘tishi kerak. Bayrog‘imizdagi oq rang yo‘limizning musaffo va charog‘on bo‘lishi uchun yaxshi niyat ramzidir. Qizil yo‘llar – bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzidir. Yashil rang – serne‘mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda, uning ramzi ham yashilrangdir. Yarim oy – O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik an‘analariga muvofiq keladi. Yarim oy va yulduzlar – musaffo osmonning va tinchlikning ramzlaridir. Bayrog‘imizda 12 yulduz tasviri bor, bu o‘lkamizda qadimdan buyon barkamollik, mukammallik timsoli hisoblanadi. Davlat bayrog‘i – bizning o‘tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzidir. O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i Nyu-York shahrida joylashgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorgohida dunyodagi suveren davlatlar bayroqlari qatorida turibdi. O‘zbekiston bayrog‘i xorijiy mamlakatlarda Prezidentimiz boshliq davlat delegatsiyasini qabul qilish marosimlarida, chet el davlat delegatsiyalarini O‘zbekistonda qabul qilish marosimlarida ko‘tariladi. O‘zbekiston bayrog‘i O‘zbekiston Prezidenti qarorgohi Oqsaroy binosi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi binosi tepasiga ilib qo‘yilgan. O‘zbekiston sportchilari jahon sport musobaqalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, shohsupaga ko‘tarilgan paytlarda ham O‘zbekiston bayrog‘i ko‘tariladi. Shu boisdan mamlakatimizda va jahon uzra O‘zbekiston bayrog‘ining ko‘tarilishi, bir tomondan, davlatimiz shon-shuhratini ko‘tarsa, ikkinchi tomondan, barchamizga quvonch, faxrlanish, g‘urur bag‘ishlaydi.

“O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonun 1992- yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qabul qilingan. Gerbning markazida tasvirlangan – qanotlarini keng yozib turgan Humo qushi – baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy Humo qushini barcha tirik mavjudotlar ichida eng saxovatlisi deb ta‘riflagan. Gerbning yuqori qismida respublikamizning sobit va barqarorligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. U “qutlug” degan ma‘noni anglatadi.




Uning ichida yarim oy va besh qirrali yulduz ifodalangan. Quyosh tasviri – davlatimizning yo‘li hamisha nurli bo‘lishi uchun bildirilgan yaxshi niyat timsoli. Ayni paytda u respublikamizning noyob iqlim sharoitini ham ko‘rsatib turadi. Boshhoqlar – rizq-ro‘zimiz bo‘lmish g‘allaning timsoli, oppoq bo‘lib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan g‘o‘za shoxlari – serquyosh

yurtimizning dong‘ini butun dunyoga taratgan asosiy boyligimizning ramzidir. Bug‘doy boshhoqlari va paxta chanoqlarining davlat bayrog‘iga o‘xshagan lenta bilan o‘rab qo‘yilganligi – bu respublikada yashayotgan xalqlar yakdilligining timsolidir. Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Humo qushi kumushrangda; quyosh, boshhoqlar, paxta chanog‘i va “O‘zbekiston” degan yozuv tillaranga; g‘o‘za shoxlari va barglari, vodiylar yashilrangda; tog‘lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oqrangda; O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta

to‘rt xil rangda berilgan. Gerb suveren davlatimiz ramzi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan bitim va shartnomalarida, davlatlararo aloqa va diplomatik hujjatlarda O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi tasviri tushirilgan bo‘ladi. Shuningdek, gerb davlat ahamiyatiga molik ichki hujjatlarda, davlat korxonalarini va muassasalarining muhrlarida, o‘zaro aloqa hujjatlarida ham gerb tasviri bo‘ladi. Milliy valutamiz – so‘mda ham davlat gerbi o‘z ifodasini topgan.

“O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi to‘g‘risida” gi Qonun 1992- yil 10- dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi. Shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan variant tasdiqlandi. Davlat madhiyasi O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi. Davlat madhiyasi davlat mustaqilligining timsoli bo‘lib, u O‘zbekiston fuqarosida vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otadi. O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi jamoatchilik oldida ijro etilganida ishtirokchilar uni tik turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib kuylaydilar va tinglaydilar.



Mustaqil, erkin davlatning asosiy belgisi, asl poydevori – milliy valyutadir. O‘z valyutasiga ega bo‘lmagan davlat o‘z manfaatlarini ko‘zlab mustaqil ravishda moliya-kredit, bank siyosatini yurita olmaydi, o‘z taqdirini, tashkilotlar, xo‘jaliklar va fuqarolar taqdirini belgilay olmaydi. Ichki bozorni naqd pul bilan ta‘minlash, pul chiqarish miqdori, uning xarid kuchi, kelajak istiqboli uchun sarmoya ajratish, kimga qarz berish va kimdan qarz olish, qarzni to‘lash va undirib olish, foiz stavkalarini belgilash kabi masalalarni mustaqil hal qila olmaydi. Pirovardida bunday davlat boshqa kuchli davlatlar ko‘rsatmalariga qaram bo‘lib qoladi, uni hech kim haqiqiy mustaqil davlat deb tan olmaydi. Shu boisdan milliy valutaga o‘tish O‘zbekiston uchun oliy maqsad edi. Biroq milliy valutaga o‘tish oson ko‘chmaydi, yangi valutani muomalaga kiritish inqilob bilan teng. Dunyo tajribasi ko‘rsatadiki, davlatlar o‘z milliy valyutasiga erishish uchun uzoq va mashaqqatli yo‘llar bosib o‘tgan, bor qudratini safarbar etgan. O‘zbekistonda milliy valutani muomalaga kiritish uchun ham ma‘lum vaqt, tajriba kerak edi. Avvalo, haqiqiy mustaqil iqtisodiyotga erishish lozim edi. Shu boisdan O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki payti 1991-1993 - yillarda sobiq Ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo‘lib turdi. Biroq sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi. 1993 - yil may oyi boshlarida 800-900 rublning qadri 1 AQSH dollari darajasiga tushib ketgan edi. Shu yili Rossiyada oldingi rubl kursiga tenglashtirilgan yangi namunadagi rubl chiqarildi.



Rossiya hukumati 1993 - yil 26- iyulda O‘zbekiston mutasaddi vakillarini Moskvaga taklif qilib, birgalikda rubl zonasida bo‘lamiz deb aytdi. Keyinroq Rossiya, O‘zbekiston va Qozog‘iston rahbarlari Moskvada uchrashib, rubl zonasini saqlashga, O‘zbekiston va Qozog‘istonni 1993 - yilgi yangi rubl namunasi bilan ta‘minlashga qaror qilindi. Biroq, amalda boshqacha yo‘l tutildi, to‘g‘rirog‘i Rossiya hukumati bu tadbirlardan o‘z manfaati yo‘lida foydalanmoqchi bo‘ldi. Rossiya hukumati O‘zbekiston oldiga o‘z shartlarini qo‘ydi. Birinchidan, kerakli rublni davlatlararo qarz sifatida, keyinchalik boylik yoki mahsulot bilan to‘lash sharti qo‘yildi. Ikkinchidan, rublni olishdan oldin uning 50 % miqdoridagi AQSH dollari yoki O‘zbekiston oltinini garovga qo‘yish talab qilindi. Uchinchidan, O‘zbekistonda muomalada bo‘lgan 1961-1992- yilgi namunadagi pulni (rubl) yangi 1993 - yil namunasi rublga uchga bir nisbati bilan almashtirish sharti qo‘yildi. To‘rtinchidan, birorta shart bajarilmay qolsa, tovon puli to‘lash majburiyati belgilandi. Beshinchidan, O‘zbekiston Markaziy Banki Rossiya Markaziy Bankiga hisobot berishi, ya‘ni tobe bo‘lishi kerak edi. O‘zbekiston bunday shartlarga rozi bo‘lolmas edi, rozi bo‘lmadi ham. Shu boisdan muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishildi. O‘zbekiston rahbariyati „katta og‘a“ ning o‘yinlariga qarshi oldindan chora-tadbirlar ko‘rib qo‘ygan edi. 1992- yildayoq muomalaga chiqarishga mo‘ljallangan so‘m-kupon nusxalari tayyorlab qo‘yilgan edi. Nihoyat, 1993 - yil 1 noyabrda O‘zbekistonda so‘m-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo‘lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. Shu yil noyabr oyi davomida aholi qo‘lidagi rubl namunasi pullarini jamg‘arma banklari orqali so‘m-kuponga almashtirish ta‘minlandi. So‘m-kupon joriy etilayotgan dastlabki paytlarda chetdan rubl oqib kelmoqda, degan mish-mishlar ko‘paydi. Bozorda narxlar osmonga chiqdi. Toshkent bozorlarida bir kg go‘sh 25 - ming so‘m-kupongacha ko‘tarildi. Hukumat buning oldini olish choralari ko‘rdi. Aholi ortiqcha tashvish, aziyat chekmadi, aksincha aholi, iqtisodiyot himoya qilindi. O‘zbekiston rahbariyati so‘m-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valutani joriy qilish tadbirlarini ko‘rdi. 1994 - yil 16- iyundagi „O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida“ gi Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 1994 - yil 1- iyuldan boshlab milliy valuta – so‘m muomalaga kiritildi. 1 so‘m kursi 1000 so‘m-kuponga tenglashtirilgan holda joriy qilindi.

Milliy valuta – so‘m O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 1,3,5,10,25 -,50,100 so‘m bo‘lgan bank qog‘oz pullari (banknotlar) holida muomalaga chiqarildi. Aholi qo‘lidagi so‘m-kuponlar jamg‘arma banklari orqali 1000 ga 1 qiymatda almashtirildi. Keyinroq 200, 500, 1000 so‘mlik qog‘oz pullari ham muomalaga kiritildi. Shuningdek, qiymati har xil miqdordagi tangalar ham naqd pul holida muomalaga chiqarildi. Milliy valutaning muomalaga kiritilishi mamlakatimiz hayotida muhim voqea bo‘ldi. O‘zbekistonning xalqaro maydonda mavqeyi oshdi, o‘zining pul-kredit, moliya siyosatini amalda



mustaqil yuritadigan bo'ldi. Bu iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun qulay imkoniyat yaratdi. 2003 - yil 15-oktabrdan boshlab, so'm qisman konvertatsiyalanadigan valyuta maqomiga ko'tarildi.

Savol va topshiriqlar

1. Vatanimiz hayotida tarixiy burilish sodir bo'ldi, deganda nimani tushunasiz?
2. Nima sababdan O'zbekiston oldida yangi yo'l tanlash zarur bo'lib qoldi?
3. Prezident Islom Karimovning „O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li“ nomli asarini o'qing va mazmunini qisqa qilib daftaringizga yozib qo'ying.
4. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda nimalar asos qilib olindi?
5. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat, deganda nimani tushunasiz?
6. Siyosiy sohada qanday vazifalar ilgari surildi?
7. Iqtisodiy sohada-chi?
8. Ijtimoiy va ma'naviy sohadagi vazifalarni bilasizmi?
9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish, qabul qilish jarayonini tushuntirib bering.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillarini bilasizmi?
11. Davlat ramzlari deganda nimalarni tushunasiz?
12. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'ini tasvirlab bering, u qanday hollarda ko'tariladi?
13. O'zbekiston Respublikasining davlat gerbini tasvirlang, undan qanday paytlarda foydalaniladi?
14. O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasini yoddan bilasizmi?
15. Milliy valyuta nima? Uni muomalaga kiritish zarurati-chi?
15. O'zbekiston Respublikasida milliy valyutani muomalaga kiritish jarayoni qanday bo'ldi?

5-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR.

Reja:

1. Milliy davlat boshqaruv hokimiyati tizimining shakllantirilishi.
2. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar.
3. O‘zbekistonda siyosiy islohotlarning boshlanishi. Ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi, jamoat tashkilotlari va ularning faoliyati.

***Darsning o‘quv maqsadi:** Talabalarga milliy davlat boshqaruv tizimi, hokimiyat va uning bo‘linish tamoyillari, parlament va professional parlament tizimini shakllanish bosqichlari, siyosiy islohotlar hamda ularning mohiyati bilan tanishtirish.*

***Tayanch iboralar:** ko‘ppartiyaviylik tizimi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, Oliy Kengash, Oliy Majlis, Senat, deputat, prezident lavozimi, saylov tizimi, jamoat tashkilotlari.*

1. Milliy davlat boshqaruv hokimiyati tizimining shakllantirilishi.

Davlat mustaqilligining dastlabki yillarida davlat boshqaruv hokimiyati tubdan isloh qilindi. Avvalo, sobiq Ittifoq davrida faoliyat yuritib kelgan O‘zbekiston davlat hokimiyatining ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi - Ministrlar Sovetining maqomi tamoman o‘zgartirildi. 1990 - yil 24 - martda O‘zbekistonda prezidentlik lavozimi ta’ sis etilgandan keyin hayotning o‘zi ijro etuvchi hokimiyat maqomini o‘zgartirishni talab qildi. 1990 - yil 15 noyabrda O‘zbekiston Prezidentining „O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida“ Farmoni chiqdi. Unga muvofiq O‘zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo‘ldi. Respublikada vitse-prezident lavozimi ta’ sis etilib, uning zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini uyushtirish vazifasi yuklandi. 1992- yil 4 yanvarda vitse-prezident lavozimi tugatildi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziri lavozimi ta’ sis etildi. Bosh vazir zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish, uning ishini tashkil etish vazifasi yuklandi. O‘zbekistonda davlat ijroiya hokimiyatini takomillashtirishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim omil bo‘ldi. Konstitutsiyaning 98-moddasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasining tarkibi O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri nomzodi Prezident taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi a‘zolari tarkibiga Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari raislari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi kiradi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining hukumati bo‘lib, ijro etuvchi hokimiyatdir.

Ijro etuvchi hokimiyatning quyidagi vazifalari mavjud:

- davlat budjetini ishlab chiqadi va Oliy Majlisga taqdim etadi hamda uning bajarilishini ta'minlaydi;
- Oliy Majlisga davlat budjetining bajarilishi haqida hisobot beradi; yagona moliya, kredit va pul siyosati yuritilishini ta'minlaydi;
- madaniyat, fan, maorif, ijtimoiy ta'minot, ekologiya sohasidagi yagona davlat siyosati yuritilishini ta'minlaydi;
- mamlakatni mudofaa qilish, davlat xavfsizligi, tashqi siyosatni amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xususiy mulk va jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyatiga rahbarlik qiladi;

• O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi;

• barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Islohotlar jarayonida Vazirlar Mahkamasining tarkibi tobora takomillashib, qisqartirib borildi. Agar 1990 - yil 30 martda Respublika ijroiya hokimiyati 41 kishidan iborat etib tuzilgan bo'lsa, 1995- yil 5 mayda Vazirlar Mahkamasi 35 kishidan iborat etib tuzildi. 2000 - yil 11 fevralda bo'lgan Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Prezident tavsiyasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tarkibini 34 kishidan - Bosh vazir, Bosh vazirning birinchi o'rinbosari, 8 nafar Bosh vazir o'rinbosarlari, 15 nafar vazir va 9 nafar



Davlat qo'mitalari raislaridan iborat etib tasdiqladi. 2003 - yil 24 -25 - aprel kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilingan „O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida“gi Qonunga muvofiq Vazirlar Mahkamasining tarkibi, uni tuzish va tasdiqlash tartibi o'zgartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 89- moddasining „O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi“ deyilgan qismi olib tashlandi. Vazirlar mahkamasi tarkibida Rais lavozimi bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri nomzodini avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari esa Bosh vazirning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Bu holat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirishga ko'maklashadi. Bosh vazirning, hukumat va butun hukumat tizimlarining vakolatlari oshdi, mas'uliyati kuchaydi. O'zbekistonda

boshqaruv tizimi butkul yangilandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlovchi, bozor munosabatlarining faoliyati uchun imkon beruvchi yangi boshqaruv tuzilmasi yaratildi. Markazlashtirilgan tartibda qayta taqsimlash mexanizmidan bozor mexanizmiga, qattiq mahkamachilik va ma'muriy-buyruqbozlikdan huquqiy boshqaruvga, iqtisodiy omillar orqali o'zini o'zi idora etishga o'tildi. Ma'muriy-buyruqbozlik, to'rachilik tizimining tayanchlari bo'lgan bir qator Davlat qo'mitalari, vazirliklar, ularning ma'muriy apparatlari tugatildi.

Yana bir katta o'zgarish bu - Davlat reja qo'mitasi o'rniga Iqtisodiyot vazirligi tuzilishi bo'ldi. Bu vazirlik iqtisodiyotni isloh qilish qoidalari va ustuvorliklari, ularni amalga oshirish mexanizmlari asosida islohotlarni tahlil etish, baho berish, takliflar ishlab chiqish, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish istiqbollari belgilash ishlari bilan shug'ullanmoqda. Taqsimot bo'yicha yakka hokim bo'lib olgan Davlat ta'minot qo'mitasi tugatilib, Respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi tuzildi. Uyushma tarkibiga respublika aksiyadorlik tovar-xomashyo birjasi, aksiyadorlik birja banki, hududiy aksiyadorlik tijoratchi vositachi kompaniyalar kiradi. Uyushma tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va tadbirkorlar uchun tovar resurslari bozorida erkin ishtirok etishga teng imkoniyatlar yaratish, ularga tijorat-vositachilik, savdo va marketing xizmatlar ko'rsatish ishlari bilan shug'ullanmoqda. Davlat narx qo'mitasi tugatilib, Moliya vazirligi tarkibida narxlarni nazorat qilish, narxlarni belgilashda yakkahokimlikka yo'l qo'ymaslik, raqobatchilik muhitini shakllantirish ishlariga ko'maklashuvchi maxsus boshqarma tuzildi. Respublikada moliya va bank tizimi tubdan o'zgardi. Moliya vazirligi respublika budjetini shakllantirish bilan bir qatorda, davlat soliq siyosatini, moliya siyosatini belgilamoqda, valuta ishlarini boshqarmoqda. Bank tizimi isloh etildi. Davlat banki va uning bo'linmalari tugatildi.

Iqtisodiy sohada xususan, bank sohadigi islohotlar Markaziy bank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik-tijorat banklari – **“O'zsanoatqurilishbank”**, **“Paxtabank”**, **“O'zjamg'armabank”**, **“G'allabank”**, **“Tadbirkorbank”**, **“Savdogarbank”**, xususiy banklar va boshqa banklar tuzilishidan iborat bo'ldi. Banklarning mustaqilligi va pul muomalasidagi ahvol uchun javobgarligi oshirildi. Davlat nazorati tizimi tartibga solindi. Davlat soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi tuzildi. Davlat nazorati qo'mitasi, uning joylardagi organlari tugatildi, Prezident devonida nazorat inspeksiyasi, hokimiyatlarda tegishli nazorat inspeksiyalari tuzildi. Davlat suverenitetini amalga oshiruvchi tuzilmalar - Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Oliy attestatsiya komissiyasi va boshqa hukumat organlari tashkil etildi. Islohotlarni chuqurlashtirish va muvofiqlashtirish maqsadida Prezident huzurida Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha idoralararo Kengash tuzildi. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqishda, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Qo'mita investitsiya fondlari, fond birjalari, ko'chmas mulk birjalari, auditorlik xizmatlari va boshqa bozor strukturasi tuzilmalarini tashkil etmoqda.

O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqasini yo‘lga qo‘yish maqsadida respublika tarixida birinchi marta Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi, vazirlik tovarlar va xizmatlar xalqaro bozorini tahlil qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi strategiyani ishlab chiqish, eksport-import bo‘yicha markazlashgan tartibda mahsulotlar yetkazib berish ishlarini tashkil etmoqda. Vazirliklar, idoralar, korxonalarda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar, tashkilotlar, firmalar tuzildi. Respublikada tashqi aloqalarni ta‘minlaydigan yaxlit tizim tarkib topdi. O‘zbekistonning ishlab chiqarish, transport bo‘yicha tarmoq vazirliklari tugatilib, ular o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta‘minlaydigan uyushmalarga, konsernlarga, korporatsiyalarga va boshqa xo‘jalik birlashmalariga aylantirildi. Avtomobil transportida, qurilishda boshqaruv tizimi qayta tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligining strukturasi, faoliyati va ish yuritish usullari tubdan o‘zgardi. Umummilliy ahamiyatga molik bo‘lgan tarmoqlarda, masalan, sayyohlik, transport, madaniyat, kino, televideniye va radio tizimi va boshqalarda iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan milliy kompaniyalar tashkil etildi. Shunday qilib, mustaqillik qo‘lga kiritilgandan beri o‘tgan qisqa tarixiy davrda huquqiy davlat, uning zamonaviy hokimiyat organlari barpo etildi, ixcham, ochiq rivojlanishga ega bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tizim yaratildi. Mahalliy davlat hokimiyati ham tubdan isloh qilindi. Islohotlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, „Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida“ gi Qonun (1993 - yil 2 sentabr), „Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to‘g‘risida“ gi Qonun (1994 - yil 5 may) asosida amalga oshirildi. Konstitutsiyaning 99- moddasida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlar, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar, deb belgilab qo‘yildi. Konstitutsiyada mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organga – vakillik va ijro hokimiyat organlariga bo‘linishi belgilandi. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunning 1-moddasida “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir”, deb aniqlik belgilab qo‘yildi.

Shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlarda vakillik organlari tuzilmaydi. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida” gi Qonunda vakillik organlariga 21 yoshga to‘lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko‘ppartiyaviylik, muqobillik asosida o‘tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tadan ko‘p bo‘lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 tadan ko‘p bo‘lmagan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi. Mustaqillik yillarida 1994 - yildan e‘tiboran har 5 yilda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga ko‘ppartiyaviylik, muqobillik asosida saylovlar bo‘lib o‘tdi. Jumladan, 1999- yilgi saylovda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga 6145 nafar deputat saylandi. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy ijroiya hokimiyati organi qayta tashkil etildi. Bu borada

milliy davlatchilik tarixi tajribasidan ijodiy foydalanildi. Jumladan, Amir Temur davridagi davlatchilikka nazar tashlasak, o'sha zamonlarda viloyatlar, shaharlar hokimlar tomonidan yakkaboshchilik asosida boshqarilganiga guvoh bo'lamiz. 1992-yil 4 yanvarda „O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida“ Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq respublikaning hamma hududida mahalliy ijro hokimiyati organi sifatida hokim lavozimi ta'sis etildi. Hokimlar faqatgina ijro hokimiyati organlarigagina emas, shuningdek, mahalliy vakillik organlariga ham rahbarlik qiladigan organ sifatida mustahkamlandi.

Hokimning vakolat muddati 5 yil bo'lib, u tegishli hududda vakillik organiga ham, ijro hokimiyatiga ham boshchilik qiladigan mansabdor shaxs hisoblanadi. Ijro organlarida bog'liqlikni ta'minlash maqsadida, viloyat hokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta'sis etildi, ularning apparati - hokimiyat tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi. 1992- yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 159 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati - hokimiyatlar tuzildi. Mahalliy hokimiyat organlari vakolatiga kiradigan masalalar va vazifalar Konstitutsiyaning 100 va 101 moddalarida aniq belgilab qo'yilgan.

Ular quyidagilardan iborat:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirish;
- xalq deputatlari quyi Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qilish, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashish.

Mustaqillik yillarida mahalliy hokimiyatni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida ijro hokimiyati bilan vakillik hokimiyati bir-biridan rasman ajratildi. Hokimlar xalq deputatlari Kengashlariga bo'ysunmaydi, ammo Kengash oldida hisob berib turadi. Shu bilan birga hokimlarni joylarda ham vakillik, ham ijro hokimiyati organlariga boshchilik qilish holatini vakillik organlari

hokimlarga bo'ysunadi, deb tushunmaslik kerak. Vakillik organlari hokimlarga bo'ysunmaydi, vakillik organlari ishini tashkil qilishga hokimlar boshchilik qiladilar. Hokim mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni fuqarolarning manfaatiga mos ravishda hal qilish bilan shug'ullanadi. Shu maqsadda barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi. Hokimlar o'zlari rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardir. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot tarixi guvohlik beradiki, ayrim hokimlar o'z faoliyatida jiddiy xatolarga yo'l qo'ymoqdalar. O'zlariga yuklatilgan mas'uliyatli vazifalarni bajarishni uddalay olmagan, o'z lavozimini suiiste'mol qiluvchi hokimlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda ular vakolat muddatidan oldin hokimlik lavozimidan chetlashtirilmogda. Shunday qilib, Mustaqillik yillarida markaziy, viloyat, shahar va tumanlar darajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv tartiblari tubdan yangi shaklda barpo etildi. Mahalliy davlat hokimiyatini shakllantirishda o'zbek milliy davlatchiligining tarixiy an'analari, rivojlangan davlatlarning zamonaviy tajribalari inobatga olindi.

2. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar.

Istiqlolning dastlabki yillarida O'zbekistonning siyosiy mustaqilligini mustahkamlashga, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirilgan chuqur siyosiy islohotlar o'tkazildi. Siyosiy hayotni tubdan o'zgartirish ishlarining ko'lamini anglash uchun sobiq Ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan qanday siyosiy meros qolganini yana bir karra eslash zarur bo'ladi. O'zbekiston keyingi 130 yil davomida siyosiy qaramlik, mustamlakachilik zulmini boshidan kechirdi. Xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum etilgan, o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilay olmas edi. Milliy davlatchiligimiz inkor etilib, mamlakatimiz, xalqning xohish-irodasiga qarshi o'laroq, sobiq Ittifoqning ma'muriy-hududiy qismiga aylantirilgan edi. Xalq o'z yurtboshisini tanlash, saylashdan mahrum edi. Respublika rahbari, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar boshliqlari, hatto viloyat rahbarlari ham markaz tomonidan tayinlanardi, unga to'la bo'ysundirilgan edi. Oddiy ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy masalalar ham markazning ruxsatisiz hal etilmas, mustaqil faoliyat yuritishga uringanlar hibsga olinar, quvg'in qilinardi. Sobiq Ittifoq poydevori ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv usuliga qurilgan, o'ta mafkuralashgan, xalqni yuvosh, itoatkor olomon deb biladigan totalitar tuzum bo'lib qolgan edi. Mustaqillik xalqimizga o'z taqdirini o'z qo'liga olish, o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilash, milliy davlatchilikni tiklash, demokratik-huquqiy davlat barpo etish, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish imkoniyatini yaratdi. Mustaqillik davlat boshlig'ini, hokimiyatning vakillik organlarini xalq tomonidan demokratik yo'l bilan erkin saylab qo'yilishini ta'minladi. Mustaqillik yaratgan imkoniyatlar sharofati bilan mamlakatimizda inson manfaatlari, tinchligi va farovonligiga xizmat qiluvchi erkin, ochiq ijtimoiy-siyosiy tuzum barpo etishni ta'minlovchi chuqur, keng qamrovli siyosiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

“Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo‘yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo‘ladi” . (Islom Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. 16- bet.)

O‘zbekistonda oliy davlat vakillik organi - parlamentni shakllantirishda xalqaro tan olingan huquqiy tamoyillarga va rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanildi. “Parlament” fransuzcha “parle” - gapirmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, rasmiy so‘zlashish joyi ma‘nosini anglatadi. Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Parlament qonun bo‘yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo‘lib, hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to‘lgan fuqarolardan saylanadi. Parlament tarixi asrlar bilan o‘lchanadi. Parlamentarizm g‘oyasi milodning birinchi ming yillik bo‘sag‘asida Rimda, Angliya, Fransiya, Ispaniyada xalq majlislari shaklida vujudga kelib, davlat hokimiyati darajasiga ko‘tarilgunga qadar yana bir necha taraqqiyot bosqichlaridan o‘tgan. Parlament Angliyada 1215-yilda qabul qilingan “Erkinlikning Buyuk Xartiyasi” dan boshlanadi va 1265-yilda davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida ta‘sis etiladi. XVII-XVIII asrlarda boshqa mamlakatlarda ham parlament vujudga keladi. Parlament xorijiy mamlakatlarda turlicha nom bilan yuritiladi. Masalan, AQSH va Lotin Amerikasi mamlakatlarida *Kongress*, Buyuk Britaniyada *Parlament*, Finlandiya va Polshada *Seym*, Germaniyada *Bundestag*, O‘zbekistonda *Oliy Majlis* va hokazo. O‘zbekiston mustaqilligi e‘lon qilingan paytda 1990 - yil fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi - Oliy Kengash faoliyat ko‘rsatmoqda edi. O‘zbekiston demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lidan borib, birdaniga Oliy Kengashni tarqatib yubormadi. U 1990 -1994 - yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyoti dastlab sobiq Ittifoq tuzumidan meros bo‘lib qolgan qonunlar doirasida boshlandi. Shu boisdan Oliy Kengash O‘zbekistonning mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlash, demokratik islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish yo‘lidan bordi va uni qadam-baqadam shakllantira boshladi. Oliy Kengash mamlakatimiz tarixida birinchi bor 1990 - yil 24 - mart kuni O‘zbekiston Prezidentini sayladi, Mustaqillik deklaratsiyasini, O‘zbekistonning davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qonunni va boshqa muhim hujjatlarni ishlab chiqdi va qabul qildi. 1990 -1994 -yillarda Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun va 500 dan ziyod qaror qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida demokratik tamoyillarga asoslangan yangi parlamentni shakllantirishning huquqiy asoslari belgilab berildi. Uning 76-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi”, - deb belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida bir palatali parlament - Oliy Majlisni shakllantirishga kirishildi.

Respublika Oliy Kengashining 1993 - yil 28 - dekabrda bo‘lib o‘tgan XIV sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”, 1994 -

yil 22 - sentabrda bo'lib o'tgan XVI sessiyada "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida" Qonunlar qabul qilindi. Ularda qonunchilik sohasida tub islohotlarni amalga oshirish zaruriyati kun tartibiga qo'yiladi. Negaki, birinchidan, sobiq Ittifoq davridan qolgan bir qator qonun va me'yoriy hujjatlar hamon amalda bo'lib, ular mazmun va mohiyati jihatidan yangilanayotgan davlat va jamiyat uchun mutlaqo mos kelmas edi, qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishga monelik qilardi. Ikkinchidan, har qanday mafkuraviy ta'sirdan xoli, xalqning o'ziga xos tarixiy, axloqiy-ma'naviy qadriyatlariga mos keladigan adolatli, demokratik-huquqiy davlat qurish, taraqqiyotning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo'ldan borish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga huquqiy asos bo'ladigan yangi qonunlar yaratish zarur edi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar qonunchilik tajribasidan foydalanish lozim edi. Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi, hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'lishi belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida" gi Qonunga muvofiq **Oliy Majlisning mutlaq vakolatlari jumlasiga:**

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlarini qabul qilish hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
- ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, O'zbekiston Respublikasining chegaralarini o'zgartirish;
- boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;
- davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish;
- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tizimini va vakolatlarini belgilash;
- xalqaro shartnomalarni va bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlash) va denonsatsiya (barvaqt to'xtatish) qilish;
- Oliy Majlisga va mahalliy vakillik organlariga saylov tayinlash, Markaziy saylov komissiyasini tuzish;
- vakolati tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov kunini tayinlash;
- Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlarini saylash;
- Vazirlar Mahkamasi a'zolarini, Bosh prokuror va uning o'rinbosarlarini tayinlash va lavozimidan ozod etish to'g'risidagi Prezident farmonlarini tasdiqlash hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish kiradi.

Saylov kunigacha 25 - yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari parlamentga saylanish huquqiga egadirlar. Bunda ularning kelib chiqishi, ijtimoiy va moddiy ahvoli, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, faoliyat turi bo'yicha hech qanday cheklashlarga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga,

“Oliy Majlisga saylovlar to‘g‘risida”gi Qonunda belgilanganidek, sudlangan, saylov tayinlangan kungacha o‘tgan 5 yil mobaynida O‘zbekiston hududida yashamagan, harbiy ixtisosli, diniy xizmatchi fuqarolar deputatlikka nomzodlar ro‘yxatiga olinmaydilar. Hokimiyatni taqsimlash tamoyilini amalda bajarish maqsadlaridan kelib chiqib, shu narsa belgilab qo‘yilganki, hukumat a‘zolari, sudyalar, prokuratura organlarining mansabdor shaxslari, vazirlik idoralari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslari (viloyat, tuman, shahar hokimlari bundan mustasno) Oliy Majlis deputati bo‘la olmaydilar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 - yil sentabrda bo‘lib o‘tgan XVI sessiyasi 1994 - yil 25 - dekabr kuni Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o‘tkazishga qaror qildi. 1994 - yil 14-15 noyabrda Toshkentda Oliy Majlisga saylov o‘tkazuvchi okrug saylov komissiyalari raislarining uch kunlik seminari bo‘lib o‘tdi. Seminarda respublikada saylov tizimini isloh qilish, saylovni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari muhokama etildi. Seminar-kengashda Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekistondagi vakili *Xolid Malik*, AQSHning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi *Genri Li Klark*, Rossiya elchisi *F.F.Sidorskiy*, Turkiya elchisi *Erdugan Aytun* va boshqalar ishtirok etib, saylovga taalluqli xalqaro tajribalar haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Jumladan, *Xolid Malik* seminar-kengashni tarixiy sana – saylovlar oldidan O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo qilish yo‘lida oldinga bosilgan qadam bo‘ldi, deb baholadi. Saylovlarni qonun talablari asosida o‘tkazish uchun Respublika bo‘yicha 250 okrug va 7192 uchastka saylov komissiyasi tuzildi. Ular tarkibiga mehnat jamoalarida obro‘-e‘tibor va hurmat qozongan, partiyasiz bo‘lgan munosib kishilar kiritildi. Saylovga nomzodlar qo‘yishda ko‘ppartiyaviylik va muqobillik ta‘minlandi.



O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga “Xalq demokratik partiyasi”dan, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan, hokimiyatning vakillik organlaridan, jami 700 nomzod ro‘yxatga olindi. Har bir saylov okrugida ikki-uch nomzod deputatlik uchun kurashdi. Saylovchilar birinchi marta nomzodlarni tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Ovoz berishda ro‘yxatga olingan 11 million 248 ming 464 saylovchining 93,6 foizi, ya‘ni 10 million 526 ming 654 kishi qatnashdi. 1994 - yil 25 - dekabr

kuni hamma joyda saylovlar qonun talablariga muvofiq umumiy, teng, to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tdi. Nomzodlardan birontasi ham yetarli ovoz ololmagan saylov okruglarida 1995- yil 8-va 25 - yanvar kunlari takroriy saylovlar bo‘ldi. Saylov okruglari va uchastkalarida jahonning 30 ga yaqin mamlakatlari va xalqaro tashkilotlardan 68 nafar vakil kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Shuningdek, “*Reyter*”, “*Interfaks*” agentliklari, “*Bi-Bi-Si*” radiokompaniyasi, „*Ostankino*“ telekompaniyasi va boshqa xorijiy matbuot vakillaridan 10 nafar vakil ishtirok etdi. Saylovchilar xalqning munosib farzandlari

uchun yakdillik bilan ovoz berdilar. Oliy Majlisga 250 deputat saylandi. Shu tariqa, mamlakatimizda ilk bor yangi parlamentga bo'lgan saylovlar muvaffaqiyatli yakunlandi. Bu demokratik yo'l bilan parlamentni shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi dastlabki tajribasi bo'ldi. 1995- yil 23-24 - fevral kunlari Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi va to'rt kishidan iborat Rais o'rinbosarlari saylandi. *E. H. Xalilov Oliy Majlis Raisi, B. I. Bugrov, B. A. Shodiyeva, A. Q. Qosimov*, Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili - Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi Raisi *U. Ashirbekov* Rais o'rinbosarlari qilib saylandilar, sessiyada Mandat komissiyasi tuzildi. Qonunlarni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda **Oliy Majlisning quyidagi 12 ta qo'mitasi tashkil etildi:**

- *Budjet, bank va moliyaviy masalalar bo'yicha.*
- *Iqtisodiy islohotlar va ishbilarmonlikni rivojlantirish bo'yicha.*
- *Qonunchilik va sud-huquq masalalari bo'yicha.*
- *Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar bo'yicha.*
- *Fan, ta'lim, madaniyat va sport bo'yicha.*
- *Sanoat, energetika, transport, aloqa va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha.*
- *Agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq-ovqat bo'yicha.*
- *Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha.*
- *Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha.*
- *Qurilish va uy-joy xo'jaligi bo'yicha.*
- *Matbuot va axborot bo'yicha.*
- *Mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha.*

O'zbekiston parlamenti Birinchi sessiyada hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tarkib topgan Xalq demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasini, 14 deputatdan iborat "Vatan taraqqiyoti" partiyasi fraksiyasini ro'yxatga oldi. Mazkur partiya fraksiyalari qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishda faol qatnashdilar. Shu tariqa, Oliy Majlis faoliyatida ko'ppartiyaviylik tamoyili qaror topdi. Sessiya qarori bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (*ombudsman*) instituti joriy etildi va vakil huzurida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi komissiyasini tuzish haqida qaror qabul qilindi. Birinchi sessiyada "O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi, Oliy Majlis Raisi rahbarligida „Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizom“ qabul qilindi. Parlamentning ishini tashkil etish uchun Oliy Majlis Raisi rahbarligida Oliy Majlis Kengashi tuzilib, uning tarkibiga Oliy Majlis Raisi o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari, Mandat komissiyasi raisi, parlamentdagi deputatlar bloki va fraksiyalarning rahbarlari kiritildi. Oliy Majlis birinchi sessiyasida qabul qilingan qonunlar va qarorlar parlament faoliyatini zamon talablari darajasida tashkil etish, uning ishini tashkiliy jihatdan puxta uyushtirish imkonini berdi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri - milliy parlamentimiz tashkil topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tuzilishi (1995-2004-yillar)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o‘zining shakllanishi, o‘z faoliyatini tashkil etish tartibotlari, ish yuritish mazmun-mohiyati bilan yangi, zamonaviy parlament bo‘lib, avvalgi Oliy Kengashdan butunlay farq qiladi. *Birinchi*dan, mustaqillikkacha bo‘lgan davrda Respublika Oliy Kengashi rasman O‘zbekiston davlat hokimiyatining oliy organi deb hisoblansa-da, u qonun chiqarishda mustaqil emasdi, markaz tomonidan qabul qilingan qonunlarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirar edi, xolos. Oliy Majlis esa mustaqil O‘zbekiston davlatining oliy vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni mustaqil amalga oshiradi. Oliy Majlis faoliyatida xorijiy davlatlarning parlamentlari bilan hamkorlik qilish yo‘lga qo‘yildi. *Ikkinchi*dan, mustaqillikdan oldin Oliy Kengash sayloviga hokimiyat organlari tomonidan yakka-yu yagona nomzod tavsiya etilardi va saylanardi. Oliy Majlisga esa deputatlar saylovi ko‘ppartiyaviylik va muqobillik asosida o‘tkaziladi. Oliy Majlis vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning jahonda e‘tirof etilgan demokratik tamoyillari asosida shakllandi. *Uchinchi*dan, avvalgi saylovlarda Oliy Kengashni shakllantirish jarayonida ishchilar, kolxozchi dehqonlar, ziyolilarning o‘rni va soni oldindan belgilab qo‘yilar edi. Oliy Majlisga saylovlarni tashkil qilishda sinfiy yondashuv nodemokratik tamoyil sifatida rad etildi. Oliy Majlis deputatlari turli partiya va harakatlarning vakillaridan iborat nomzodlar orasidan muqobillik asosida saylanadi. Respublika fuqarolari saylovlarda, nomzodlarning ijtimoiy kelib chiqishini emas, aksincha, ularning ishchanlik sifatlarini va saylovoldi dasturlarining mazmun-mohiyatini inobatga olib ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. *To‘rtinchi*dan, mustaqillikkacha bo‘lgan davrda Oliy Kengash professional parlament shaklida faoliyat yuritilmas edi. Uning vazifalarini Oliy Kengash Prezidiumiga saylangan kichik bir guruh deputatlarga doimiy ishlab amalga oshirardilar, xolos. Oliy Majlis faoliyatida esa deputatlarning bir qismi doimiy (professional) asosda ishlamaydi. Deputatlarning ko‘pchilik qismi esa oldingi xizmat vazifalarini deputatlik vakolati bilan qo‘shib olib boradi, saylovchilari bilan yaqindan aloqada va muloqotda bo‘ladi. Deputatlar saylovchilarga Oliy Majlisda qanday qonunlar muhokama qilinayotgani va qabul etilayotgani haqida xabardor qilib turadi, hayotning qaynoq nuqtalarida aholi bilan birga bo‘ladi. Shuningdek, Respublika ommaviy axborot vositalari ham Oliy Majlis faoliyati bilan aholini tanishtirib boradi. Butadbirlar xalqning huquqiy madaniyatini, siyosiy ongini yuksaltirishga, islohotlarning sobitqadamlik bilan amalga oshishiga, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Oliy Majlis sessiyalarida xorijiy mamlakatlar diplomatiya korpuslarining, xalqaro tashkilotlarning vakillari, chet el ommaviy axborot vositalarining O‘zbekistonda akkreditatsiya qilingan jurnalistlari hozir bo‘lish imkoniyati mavjud. Mustaqillik yillarida Oliy Majlisning xalqaro parlamentlar bilan aloqalari o‘rnatildi va chuqurlashdi.

O‘zbekiston Milliy parlamentida Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar bo‘yicha guruh tuzildi, respublikaning Parlamentlararo ittifoq, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Parlament assambleyasi va Yevroparlament bilan aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Oliy Majlis “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-1999-yillarga mo‘ljallangan faoliyat dasturi” ni ishlab chiqdi va respublika parlamenti

huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti tashkil etildi. Bu choratadbirlar Oliy Majlis faoliyatining barcha asosiy yo‘nalishlarini qamrab olishga, qonunchilikni yangi pog‘onaga ko‘tarishga ko‘maklashmoqda. O‘zbekiston parlamentining birinchi sessiyasida ta‘sis etilgan Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) instituti xalqaro amaliyotni o‘rganish asosida ishlab chiqilgan va Oliy Majlis Rayosati tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib boradi. Oliy Majlis vakili huzurida 1995- yilda tuzilgan Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha maxsus komissiyasi faoliyat yuritmoqda. Parlamentning sakkizinchi sessiyasida 1997- yil 24 - aprelda qabul qilingan “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida” gi Qonun muhim hujjatlardan biri. U respublikada insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, fuqarolarning ijtimoiy huquqlari himoya qilinishini huquqiy jihatdan ta‘minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83- moddasida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo‘lgan subyektlar aniq belgilab qo‘yilgan. Qonunchilik tashabbusi huquqiga O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, o‘z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Oliy Majlis deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Sudi, Oliy Sudi, Oliy xo‘jalik sudi va Bosh prokurori egadirlar. Qonunlar loyihalarini ko‘rib chiqish, tayyorlash jarayonida partiya fraksiyalari va deputatlar bloklari, Oliy Majlisning tegishli qo‘mita va komissiyalarining butun tarkibi faol qatnashadilar. Parlament sessiyalariga tayyorgarlik ko‘rish qanday borayotganligi ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib boriladi.

Qonunchilikda qonunlar loyihalarini nazariy va amaliy jihatdan mukammalroq, puxtaroq ishlab chiqish maqsadida ular haqida tegishli vazirliklar va idoralar, konsernlar, uyushmalar va mehnat jamoalarining xulosalari olinadi, xalqaro tashkilotlarning ekspertizasidan o‘tkaziladi. Sessiya muhokamasiga kiritiladigan barcha qonun loyihalari bo‘yicha bildirilgan takliflar, fikr-mulohazalar, ekspert xulosalarini Oliy Majlis Raisi va uning o‘rinbosarlari huzurida tegishli qo‘mitalar, partiya fraksiyalari rahbarlari va ekspertlar ishtirokida puxta va atroflicha muhokama etish yo‘lga qo‘yildi. Qonun loyahasini tayyorlashga bunday yondashuv, ularning puxta va sifatli bo‘lishiga ijobiy ta‘sir etmoqda. Sessiyalar ishida O‘zbekiston Prezidentining bevosita ishtiroki, uning qonunlarni ishlab chiqish jarayonini yanada yaxshilashga muttasil e‘tibor berishi O‘zbekiston parlamenti faoliyatining takomillashib borishida, qabul qilinayotgan qonunlarning samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-1999- yillarda 15 ta sessiya o‘tkazdi. Sessiyalarda 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qilindi. Amaldagi qonunlarga jami 216 ta qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritildi. Shuningdek, Oliy Majlis 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi (tasdiqladi), xalqaro konvensiyalarga qo‘shilish to‘g‘risida 58 ta qaror qabul qildi. Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yakunlovchi XV sessiyasida Prezident Islom Karimov ma‘ruza qilib, uning faoliyatiga yuksak baho berdi: “Eng muhimi, birinchi chaqiriq asosida tashkil topgan parlamentimiz faoliyatining asosiy mezonini shundan iboratki, o‘tgan davr mobaynida ko‘ppartiyaviylik shakllangan, turli harakatlar, jamoat birlashmalari

siyosat maydoniga chiqqan, turli ijtimoiy toifa va tabaqalar vujudga kela boshlagan murakkab bir sharoitda, Oliy Majlis hokimiyatning boshqa tarmoqlari bilan hamkorlikda jamiyatimizda siyosiy muvozanatni, tinchlik va barqarorlikni saqlab turishda ishonchli omil bo'ldi". (Islom Karimov. Vatan ozodligi - oliy saodat. Asarlar, 8- jild, 60- bet.)

1999- yil 19-20 - avgust kunlari birinchi chaqiriq respublika Oliy Majlisining bo'lib o'tgan o'n beshinchi sessiyasi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylovini 1999- yil 5 - dekabr kuniga belgilash to'g'risida qaror qabul qildi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovda 7 ta subyekt beshta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organi va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan jami 1010 nafar nomzod qatnashdi. 1999- yil 5- dekabr kuni bo'lgan saylovlarda nomzodlardan biron-tasi ham yetarli ovoz ololmagan 66 ta saylov okrugida 19 - dekabr kuni takroriy saylov tashkil etildi. Saylovlar aholining faol ishtiroki va yuqori siyosiy ko'tarinkiligi bilan o'tdi, jami 250 nafar vakil deputat etib saylandi. Natijalar O'zbekistondagi saylovlar xalqaro tan olingan demokratik saylov tizimi, uning huquqiy bazasiga to'la, mos ravishda, chinakamiga muqobillik asosida bo'lib o'tgan-ligidan dalolat beradi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 - yil 22 - yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi sessiyasining birinchi majlisida hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 111 kishidan iborat deputatlar bloki, Xalq-demokratik partiyasidan saylangan 48 kishidan, "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasidan saylangan 34 kishidan, "Vatan taraqqiyoti" partiyasidan saylangan 20 kishidan, "Adolat sotsial-demokratik" partiyasidan saylangan 11 kishidan va "Milliy tiklanish" partiyasidan saylangan 10 kishidan iborat deputatlar fraksiyalari, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan, 16 kishidan iborat deputatlar bloki ro'yxatga olindi. Bu holat Oliy Majlis tarkibida faoliyat yuritadigan partiya fraksiyalari va bloklari sonining ilgarigiga nisbatan ancha ko'payganligini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, Oliy Majlis faoliyatining yanada qizg'in o'tishi, xilma-xil fikrlar, qarashlar bildirilishi, qonunlarning yanada pishiq-puxta tayyorlanishi uchun imkoniyatlarni kengaytirdi. Mazkur sessiyada O'zbekiston Respublikasi **Oliy Majlisining quyidagi qo'mitalari va komissiyalari tashkil etildi:**

- *Budjet, bank va moliya masalalari qo'mitasi.*
- *Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi.*
- *Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi.*
- *Agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq-ovqat qo'mitasi.*
- *Sanoat, qurilish, transport va aloqa masalalari qo'mitasi.*
- *Iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlik masalalari qo'mitasi.*
- *Ijtimoiy masalalar va bandlik qo'mitasi.*
- *Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi.*
- *Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi.*
- *Matbuot va axborot qo'mitasi.*
- *Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi.*
- *Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi.*

• *Yoshlar ishlari komissiyasi (mazkur komissiya ikkinchichaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 - yil 30-31 - avgust kunlari bo‘lgan uchinchi sessiyasi qarori bilan “Yoshlar ishlari qo‘mitasi” shaklida qayta tuzildi).*

• *Reglament, odob va deputatlar faoliyatining ta‘minoti komissiyasi.*

• *Oila va ayollar muammolari komissiyasi.*

• *Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi.*

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o‘zining tarkibiy tuzilishi va unda faoliyat yuritayotgan partiya fraksiyalari va deputatlar uyushgan bloklar soni jihatidan birinchi chaqiriq Oliy Majlisga nisbatan anchagina yangilandi. Qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyati ham yanada mukammallashdi. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning tobora chuqurlashib borayotganligidan kelib chiqadigan tabiiy holdir. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis qo‘mitalari va komissiyalarining tarkibiy tuzilishi, uning faoliyatida 5 ta partiya fraksiyalari va 2 ta deputatlar blokining faol ishtiroki milliy parlamentni rivojlantirishda yangi bosqich bo‘ldi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatimiz aholisining yarmidan ziyodini tashkil etgan yoshlarning manfaatlari, intilishlari, muammolarining yechimlarini topishga yo‘naltirilgan “Yoshlar ishlari komissiyasi”ning tuzilishi va keyinroq uning “Yoshlar ishlari qo‘mitasi”ga aylantirilishi parlamentning bu dolzarb masalaga e‘tiborini, mas‘uliyatini oshirdi. Parlament tarkibida “Oila va ayollar muammolari komissiyasi”ning tuzilishi oilani mustahkamlash, xususan, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy mavqeyini ko‘tarish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning huquqiy yechimlarini topish va amalga oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Oliy Majlis tarkibida “*Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi*” ning tuzilishi va yangi qonunlar ishlab chiqishdagi faoliyati ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish jarayonini tezlashtirishga ko‘maklashdi. O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti davrida respublika bir palatali parlamenti yangi jamiyat qurishning ishonchli huquqiy asoslarini yaratuvchi 446 ta dan ortiq qonun, 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur va mingdan ortiq qarorlar qabul qildi. Yuqorida qayd etilgan raqamlardan ko‘rinib turibdiki, respublika parlamenti bir palatali bo‘lsa-da, qonun chiqarish jarayoni ancha jadallik bilan bordi. Birinchi galda hayotning o‘zi talab qilayotgan eng kerakli qonunlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Natijada, mustaqillik munosabati bilan dastlabki paytda vujudga kelgan huquqiy bo‘shliq tezroq to‘ldirildi. Respublika parlamenti jamiyatimizda siyosiy muvozanatni, tinchlik va barqarorlikni saqlab turishda ishonchli omil sifatida faoliyat yuritdi. Qabul qilingan qonunlar turkumini ularning mazmuniga ko‘ra besh yo‘nalishga bo‘lish mumkin. Birinchi yo‘nalishga – O‘zbekistonning Davlat mustaqilligini mustahkamlash, demokratik-huquqiy davlat asoslarini yaratish, davlat boshqaruv tizimini yangilashga doir qonunlar kiradi. Mazkur qonunlar jamiyatimizda xalq hokimiyati, qonun ustuvorligi tamoyillarining qaror topishiga, shaxs erkinligi va huquqlarining himoya qilinishiga xizmat qilmoqda. Yangi qonun hujjatlari, bir tomondan, mamlakatimizda ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining hukmronlik qilishiga chek qo‘yish, ikkinchi tomondan, milliy davlatchiligimizning eng yaxshi an‘analari, o‘zbek xalqining ma‘naviy-madaniy

qadriyatlarini tiklash, uchinchi tomondan, xalqaro huquq normalarini hamda umum e'tirof etilgan demokratik va insonparvarlik qadriyatlarini inobatga olish yo'lida rivoj topdi.

Respublika parlamenti jamiyatimizda siyosiy muvozanatni, tinchlik va barqarorlikni saqlab turishda ishonchli omil sifatida mustahkamlandi. Prezident Islom Karimov 2000 - yil 25 - may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasini ilgari surdi. Bu demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda respublika parlamentini ikki palatali asosda yanada takomillashtirishni nazarda tutgan g'oyadir. 2001- yil 6-7 - dekabr kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanib yetilganligini, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining ortganligini inobatga oldi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga keldi.

Ikki palatali parlamentning bir qator ijobiy tomonlari bor:

- populistik maqsadni, ayrim guruhlar manfaatini ko'zlovchi, mukammal bo'lmagan qonunlar qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi;
- mamlakat mintaqalari (viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi)ning manfaatlari to'laroq inobatga olinadi;
- milliy davlatchilik institutlari tizimi o'rtasida parlamentning nufuzi ortadi, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati o'rtasidagi munosabat mutanosiblashadi;
- parlament qabul qilayotgan qonunlarning sifatini yaxshilashga, xalqning xohish-irodasini to'laroq namoyon bo'lishiga imkon beradi;
- parlament ishida demokratik fikrlar xilma-xilligi ko'proq namoyon bo'ladi;
- jamiyatni liberallashtirishni tezlashtiradi;
- deputatlar faoliyatini professionallashtirishga, siyosatchilar tabaqasini shakllantirishga ko'proq imkoniyat yaratadi.

Oliy Majlis 2002 - yil 27 - yanvar kuni kelgusi chaqiriqda ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini



o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Referendumda ovoz berish byulleteniga „ Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?“ degan savol kiritildi. Referendum 2002 - yil 27 - yanvar kuni keng demokratik asosda, ochiq va oshkora, keng jamoat-chilik vakillari, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, ommaviy axborot

vositalari, fuqarolarning tashabbuskor guruhlari kuzatuvchilari ishtirokida bo'lib o'tdi. Referendumda ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan 13.266.602 nafar

fuqarolarning 12.113.070 nafari yoki 91,58 foizi ishtirok etdi. “Siz kelgusi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?” degan masala yuzasidan ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 11.344.242 nafari yoki 93,65 foizi yoqlab ovoz berdi. Saylovchilar ikki palatali parlament tuzish masalasini qo‘llab-quvvatladilar.

2002 - yil 4-5 - aprel kunlari bo‘lib o‘tgan ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”, Konstitutsiyaviy qonun va “2002 - yil 27 - yanvarda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari bo‘yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida” Qaror qabul qildi. Bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. 2002 - yil 12–13- dekabr kunlari bo‘lib o‘tgan Oliy Majlisning o‘ninchi sessiyasi xalqimizning xohish-irodasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida” Konstitutsiyaviy qonunlarni hamda ularni amalga kiritish to‘g‘risida qarorlarni qabul qildi. Shuningdek, 2003 - yil 24 - aprelda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunlar bo‘lg‘usi parlamentning ikkala palatasi vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi. Bundan keyin ham O‘zbekiston Respublikasining Oliy davlat vakillik organi - parlamentning nomi Oliy Majlis deb atalaveradi. Uning tarkibida ikkita palata tuziladi. Yuqori palata - Senat, quyi palata - Qonunchilik palatasi, deb ataladi. Ikkala palataning vakolat muddati - 5 yil etib belgilangan. 2004 - yil dekabr - 2005 - yil yanvar oylarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo‘lib o‘tdi. Quyi palataga saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida 120 ta deputat saylandi. Senatga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan teng miqdorda - 6 nafardan, jami 84 kishi saylandi. Senatning 16 nafar a‘zosi fan, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi.

Qonunchilik palatasining 2005 - yil 27 - yanvar kuni bo‘lib o‘tgan birinchi majlisida *E.H. Xalilov* Qonunchilik palatasining Spikeri etib saylandi. Shuningdek, Spiker o‘rinbosarlari, qo‘mita rahbarlari saylandi, siyosiy partiyalar fraksiyalari tashkil etilib ro‘yxatga olindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2005 - yil 27 - yanvar kuni bo‘lib o‘tgan birinchi majlisida *M. Sharifxo‘jayev* Senat Raisi etib saylandi. Shuningdek, Senat Raisi o‘rinbosarlari hamda Senat qo‘mitalari raislari saylandi. Shunday qilib, ikki palatali parlament tashkil etildi va o‘z faoliyatini boshladi. Ikki palatali parlamentning tashkil etilishi natijasida Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o‘rtasida vakolatlar yanada demokratik asosda qayta taqsimlandi. Parlamentning jamiyat hayotidagi mavqeyi o‘sdi. Qonun loyihalari dastlab Qonunchilik palatasida ko‘rib chiqiladi va qabul qilinadi. So‘ngra Senat tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Qonun Prezident tomonidan imzolanib, matbuotda e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Prezident vakolatlarining bir

qismi - davlat, sud tizimi va maxsus xizmatlarning rahbarlarini, chet ellar xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarni tayinlash va tasdiqlash Senat vakolatiga o'tkazildi va Senat tomonidan amalga oshirilmogda. Ikki palatali Oliy Majlis 2005 - 2009 - yillarda ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishida katta ahamiyatga ega bo'lgan 250 dan ziyod qonun qabul qildi.

Milliy davlatchilik institutlari tizimi o'rtasida parlamentimizning nufuzi yanada o'sdi. Qabul qilinayotgan qonunlarning sifati yaxshilandi. Deputatlar faoliyati professionallashib, siyosiy partiyalar fraksiyalarining faoliyati, fikrlar xilma-xilligi kuchaydi. Deputat va senatorlarning vakolat muddati tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2009 - yil 27 - dekabr kuni saylovlar - 2010 - yil 10 yanvar kuni takroriy saylovlar demokratiya, muqobillik va oshkoralik ruhida bo'lib o'tdi. Qonunchilik palatasida 135 deputat, O'zbekiston Ekologik harakatining konferensiyasida 15 nafar deputat, jami 150 nafar deputat saylandi. Senatga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan teng miqdorda - 6 nafardan, jami 84 senator saylandi. Senatning 16 nafar a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi. 2010 - yil 22 - yanvar kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisida Dilorom Toshmuhamedova Qonunchilik palatasi Spikeri etib saylandi. 2010 - yil 26 yanvar kuni Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida *Ilgizar Matyoqubovich Sobirov* Senat Raisi etib saylandi. Davlatimiz rahbari taqdimiga binoan Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri etib *Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni* tasdiqladi. O'zbekiston parlamenti mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, mamlakatni modernizatsiya qilish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda.

3. O'zbekistonda siyosiy islohotlarning boshlanishi. Ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi, jamoat tashkilotlari va ularning faoliyati.

Shuni yaxshi tushunish kerakki, jamiyatimiz tuzilmalarida muvozanatni saqlaydigan kuchli ommaviy, jamoat birlashmalari bo'lmas ekan, davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlarida o'zboshimchalik, valuntarizm, avtoritar tafakkur va boshqaruv apparatining korrupsiyasi singari illatlar paydo bo'lmasligiga jiddiy kafolat ham bo'lmaydi. (Islom Karimov. Asarlar. 5- jild, 121- bet.)

Barchaga ma'lumki, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, nodavlat va notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamiyatda fikrlar erkinligi va muxolifatni shakllantiradi, aholining siyosiy faolligi va siyosiy madaniyatining o'sib borishiga xizmat qiladi. Afsuski, sovetlar hukmronligi davrida XX asr boshlaridayoq Vatanimizda shakllana boshlagan siyosiy tashkilotlar va ularning rahbarlari yo'q qilib tashlandi, kommunistik partiyadan boshqa siyosiy partiyalar tuzish taqiqlandi. Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "*Jamoat tashkilotlari to'g'risida*"gi Qonunda jamoat birlashmalarining huquqiy maqomlari belgilab berildi. Konstitutsiyaning 56- moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba

uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmasi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekiston fuqarolari siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi (1996- yil 25 - dekabr) Qonunida siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari yanada rivojlantirildi va mustahkamlandi. **Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:**

- o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;

- qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, mahalliy vakillik hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

- partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan huquqlarga ham ega.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik jamiyatning qonuniy belgisi bo'lgan ko'p partiyaviylik shakllandi, jamoat tashkilotlari tubdan yangilandi. O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiya, 2 ta ijtimoiy harakat, faoliyat ko'rsatmoqda. Siyosiy partiyalar mamlakatimiz fuqarolarining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining, ayniqsa, saylov jarayonlarida xohish-irodasi va fikrini ifodalash vositasiga aylanib bormoqda. 2007 - yilda qabul qilingan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirdi. Bosh vazir lavozimiga nomzod bo'yicha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashish tartibi, uning parlament tomonidan tasdiqlanishi qat'iy belgilab qo'yildi. Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyalariga Bosh vazirni iste'foga chiqarish, mahalliy kengashlardagi partiya guruhlariga esa viloyat hokimlarini iste'foga chiqarish to'g'risida tashabbus bilan chiqish huquqlari berildi. Bularning barchasi siyosiy partiyalarning mamlakat hayotidagi o'rni va ta'siri ortib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston **Xalq demokratik partiyasi** 1991- yil 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tashkil topgan. Ushbu qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston XDP 1991- yil 15- noyabrda Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi. Partiyaning 218 viloyat, shahar va tuman kengashlari, 13665 boshlang'ich tashkiloti



faoliyat ko'rsatmoqda. 400 mingdan ko'proq a'zolari bor. Xalq demokratik partiyasi o'z Dasturida milliy mustaqillikni mustahkamlash, demokratik davlat, insonparvar, adolatli jamiyat qurish, O'zbekiston xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, fuqarolar totuvligini ta'minlash, har bir kishining munosib hayot kechirishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, fuqarolarning konstitutsiyaviy haq-huquqlarini kafolatlash maqsadini ilgari surdi. O'zbekiston XDP parlament partiyasidir. Partiya Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar vaqtida o'z nomzodlarini ko'rsatadi, saylovchilarning ko'proq ovozini olish uchun kurashadi, davlat hokimiyati organlarining barcha bo'g'inlarida ishtirok etadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2010 - yildagi qarori bilan XDPning 32 kishidan iborat deputatlari fraksiyasi ro'yxatga olingan. O'zbekiston XDPning "O'zbekiston ovozi", "Golos Uzbekistana" gazetalari va "Muloqot" jurnali nashr etilmoqda.

1995- yil 18 fevralda O'zbekiston "**Adolat**" **sotsial-demokratik partiyasi (ASDP)** tuzildi. Partiyaning Toshkentda I ta'sis qurultoyida uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Adliya vazirligi 1995- yil 18-fevralda "Adolat" SDPni ro'yxatga olgan. Partiyaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat qurish, Vatanga sodiq xizmat qilish, adolatli fuqaroviy jamiyat qurish, demokratiya talablarining hamda mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning orzu-umidlariga monand shart-sharoit yuzaga keltirishga hissa qo'shishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2010 - yildagi qarori bilan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining 19 kishidan iborat deputatlari fraksiyasi ro'yxatga olingan. Partiya fraksiyasi "Adolat" SDP majlislari, kengashlari va qurultoylari qarorlariga amal qilib, ular oldida o'z ishlari yuzasidan belgilangan tartibda hisobot beradi. O'zbekiston "Adolat" SDP safida 30 mingdan ortiq a'zo bor. Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlarda, shuningdek, 175 shahar va tumanlarda partiya Kengashlari tuzilgan. Joylarda 1000 dan ortiq boshlang'ich partiya tashkilotlari ish olib bormoqda. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining "Adolat" nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi nashr etilmoqda.



O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalardan yana biri - **O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidir (O'zMTDP)**. U 1995- yil 3 iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1995- yil 9 iyunda O'zMTDP ni ro'yxatga olgan. Partiya oliy maqsadi milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirish yo'lida o'z harakatining asosiy yo'nalishlarini quyidagicha belgilaydi: millatning ma'naviy birligi; Vatan - yagona oila; kuchli

demokratik davlat; milliy qadriyatlar; ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va umumjahon integratsiya; zamon kishisi; milliy istiqolol. O‘zbekiston MTDPning oliy organi 5 yilda chaqiriladigan qurultoy bo‘lib, unda rahbar organlar saylanadi. 1999- yil 28 - dekabrda O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi tashkil topdi. Partiyaning 1998-yil 28 - dekabrda ta’ sis konferensiyasida uning Dasturi va Nizomi tasdiqlangan. “Fidokorlar” partiyasining maqsadi kindik qoni to‘kilgan tuproq, ajdodlar merosi va qadriyatlari bilan faxrlanadigan, xalq g‘amini o‘z g‘ami deb bilib, har qanday tahdid, xavf-xavotir, qiyinchiliklar oldida bosh egmaydigan, tiz cho‘kmaydigan, Vatan, taraqqiyot, ijtimoiy adolat yo‘lida jonini ham fido qilishga tayyor, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan fidokor shaxslarni birlash-tirishdir. Partiya mulkdorlar daxlsiz-ligini ta’minlashga intiladi, fikrlar, g‘oyalar, qarashlar xilma-xilligiga asoslanadi.

Toshkentda 20-iyun (2008-y.) kuni O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi va O‘zbekiston “Milliy tiklanish” partiyasining birlashuv qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasini birlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Birlashgan partiyalarga “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi nomi berildi. Markaziy kengash, Markaziy nazorat-taftish komissiyasi a‘zolari saylandi, birlashgan partiyaning bosma organi tasdiqlandi. Partiya markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi raisi etib Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitasi raisi Axtam Tursunov saylandi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2010 - yil qarori bilan Milliy tiklanish demokratik partiyasining 31 - nafardan iborat deputatlar fraksiyasi ro‘yxatga olingan.


2003 - yil oxirlarida O‘zbekiston liberal demokratik partiyasi tashkil topdi. Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatini himoya qilish, jamiyat hayotini yanada erkinlashtirishdan iborat. O‘zLiDePning “XXI asr” haftalik gazetasi nashr etilmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi-ning 2010 - yil qarori bilan O‘zbekiston liberal demokratik partiyasining 53 kishidan iborat deputatlar fraksiyasi ro‘yxatga olingan. 1995- yil may oyida



jamoatchilikning tashabbusi bilan O‘zbekiston “Xalq birligi” harakati tashkil etildi va faoliyat ko‘rsatmoqda. Adliya vazirligi mazkur harakatni 1995- yil 9-iyunda ro‘yxatga oldi. Harakatning asosiy maqsadi O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlar va elatlarni jipslashtirish, ularning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan huquq va erkinliklarini kafolatlash, mamlakatda millatlararo totuvlik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashdan iborat. O‘zbekiston “Xalq birligi” harakatining oliy organi qurultoy bo‘lib, u 4 yilda bir marta chaqiriladi. Unda rahbar organlar saylanadi. O‘zbekiston “Xalq birligi” harakati tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, shahar va tuman kengashlari hamda boshlang‘ich tashkilotlari ish olib bormoqda. “Xalq birligi” harakati Respublika Baynalmilal madaniy markazi hamda 100 dan ortiq milliy-

madaniy markazlar bilan bahamjihat faoliyat yuritmoqdaki, bu turli millat va elat vakillari birligini mustahkamlashda ijobiy rol o'ynamoqda. O'zbekiston "Xalq birligi" harakatining "Birlik" va "Edinstvo" haftalik gazetalari nashr etilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining 1996-yil 17-apreldagi farmoniga muvofiq respublika yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi nodavlat xayriya jamoat birlashmasi sifatida tashkil topgan edi. "Kamolot" jamg'armasining vazifasi yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzish va davlat ko'magida hayotga tatbiq etishdan iborat edi. Ammo "Kamolot" yoshlar jamg'armasi bunday vazifalarni bajara olmadi, yoshlarning haqiqiy ma'nodagi yetakchisiga aylana olmadi. Prezident Islom Karimov 2001- yil 24 - yanvarda Toshkentda bo'lib o'tgan yoshlar masalasiga bag'ishlangan yig'ilishda yoshlarning chinakam suyanchi bo'la oladigan yangi tashkilot tuzish g'oyasini ilgari surdi.



2001- yil 25 - aprel kuni Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkiloti - **O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati** tuzildi va uning Dasturi, Nizomi tasdiqlandi. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish (14 yoshdan 28 - yoshgacha), sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rnini egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi uchun zarur shart-sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchisi bo'lishdan iboratdir. O'zbekistonda turli jamoat tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston kasaba uyushmalari turli kasb egalari bo'lgan xodimlarning jinsi, diniy e'tiqodlari, irqiy va milliy munosa-batlaridan qat'i nazar ixtiyoriy birlashtiruvchi mustaqil ommaviy jamoat tashkiloti sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Kasaba uyushmalarining tashkiliy tuzilishi jahon kasaba uyushmalari amaliyoti andozalariga mos keladigan federalizm, demokratiya, mustaqillik va ixtiyoriylik tamoyillari asosida isloh etildi. Kasaba uyushmalarining quyidan yuqorigacha barcha organlari uyushma a'zolari tomonidan saylangan vakillarning yig'ilishlari, konferensiyalari va qurultoylarida saylanadi va ular oldida hisob beradi. O'zbekiston kasaba uyushmalarining 1996- yilgi ma'lumotlariga ko'ra, 53 mingga yaqin boshlang'ich tashkilotlariga ixtiyoriy ravishda birlashgan 7 -5 milliondan ziyod a'zosi bor. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tarkibida 21 tarmoq kasaba uyushmalari, hududiy jihatdan esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat hamda Toshkent shahar kasaba uyushmalari Kengashlari mavjud. Ular xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish yo'lida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ayollarni, ko'p bolali onalarni har tomonlama muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, mehnatkash va ijodkor ayollarni bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq bo'lgan muamumolarni hal etishga keng safarbar etish, ilm-fan sohasidagi ayollarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish va ularni

qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining **1991- yil 1- martdagi O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi** to'g'risidagi farmoyishi bilan Xotin-qizlar qo'mitasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasining asosiy maqsadi jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, ularning ma'naviy va madaniy talablarini qondirish, ayollarga ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va psixologik yordam berish, oilani, onalik va bolalikni himoya qilish, tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun ayollarning ishtirok etishlarini ta'minlashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat xotin-qizlar qo'mitalari, Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitasi, 38 shahar, 170 tuman, 14 mingdan ortiq mehnat jamoalari va turar joylarda tashkil etilgan xotin-qizlar qo'mitalari faoliyat yuritmoqdalar. Qo'mita qoshida xotin-qizlar toifalariga qarab tuzilgan turli-tuman professional, ijodiy va boshqa uyushmalar ishlaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni ko'ra 1996-yil dekabrda **Faxriylar kengashi "Nuroni"** jamg'armasiga o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 - yil 16-martdagi "1941-1945- yillardagi urushda fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 50 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni nishonlash to'g'risida"gi Farmonida o'zbekistonliklarning urush yillaridagi jasoratini hamda qurbon bo'lganlar xotirasini abadiylashtirishga bag'ishlangan ko'p jildli "Xotira" kitobini nashr etish vazifasi qo'yildi, yetarli miqdorda mablag' ajratildi va barcha shart-sharoit yaratib berildi. Juda katta mehnat va mashaqqatli izlanishlar natijasida urushda halok bo'lgan va bedarak yo'qolgan 450 mingga yaqin o'zbekistonlik jangchilarning aziz nomlari zikr etilgan 34 jildlik "Xotira" kitobi 1995- yilda, g'alabaning 50 yilligi arafasida xalqimizga, sobiq jangchilarning xonadonlariga bepul yetkazib berildi. Shuningdek, u barcha muzeylarga, Toshkent shahri va viloyatlardagi faxriylar tashkilotlariga, kutubxonalarga, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tekshirish institutlariga, vazirlik va idoralarga, Davlat organlari, hokimliklar va jamoat tashkilotlariga hamda Moskva, Sankt-Peterburg, Kiyev, Minsk, Volgograd shaharlari muzeylariga yuborildi. "Xotira" kitobida katta tarix, achchiq hayot haqiqati tiklangan.



O'zbekistonda Mustaqillik yillarida aholining keng qatlamlarini birlashtiruvchi 5 mingdan ortiq jamoat birlashmalari, nodavlat va notijorat tashkilotlari shakllandi va faoliyat ko'rsatmoqda. Shular jumlasiga "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, "Sog'lom avlod uchun" va "Ekosan" xalqaro jamg'armalari, "Mahalla" va "Navro'z" xayriya jamg'armalari, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulug'bek" va "Iste'dod" jamg'armalari, "Mehr-shafqat va salomatlik", "Bolalar", "Amir Temur", "Alisher Navoiy", "Abdulla Qodiriy" jamg'armalari va boshqalar kiradi. Jamoat birlashmalarining turlari va maqsadlarini 16- chizmadan aniqroq bilib olishingiz mumkin. Ommaviy axborot vositalari xalqqa ilmiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy bilimlar, ma'lumotlar tarqatuvchi

manbadir. Ular tarkibiga gazeta va jurnallar, radio va televideniye hamda boshqa axborot tarqatuvchi vositalar kiradi. Sobiq Ittifoq davrida ommaviy axborot vositalari to'la davlat monopoliyasiga olingan bo'lib, kommunistik mafkura quroliga aylantirilgan, milliy zamindan uzilgan edi. Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalariga munosabat o'zgardi. Avvalo ularning huquqiy asoslarini yaratish tadbirlari ko'rildi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 67-moddasiga ko'ra, ommaviy axborot vositalari erkin va qonunga muvofiq ishlaydi. 29-moddasida esa har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno, deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida 1997 - yil 24 - aprelda **“Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida”** va **“Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida”**, 1997 - yil 26 - dekabrda **“Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”** Qonunlar qabul qilindi. Davlat organlari, muassasalar, tashkilotlarning mansabdor shaxslari senzurani amalga oshirganlik, jurnalistga tazyiq o'tkazganlik, uning professional faoliyatiga aralashganlik uchun javobgar bo'lishlari qonunan mustahkamlab qo'yildi. Ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishni ta'minlashga qaratilgan 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida tuzilgan Axborot markazi, Milliy matbuot klubi ommaviy axborot vositalariga moddiy jihatdan ko'maklashmoqda. Respublika Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra, 1996- yil avgust oyida ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etildi. Respublika Prezidentining 1997 - yil 7 - maydagi **“O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”** gi Farmoniga ko'ra O'zbekiston Davlat televideniye va radioeshittirish qo'mitasi O'zbekiston teleradiokompaniyasiga aylantirildi va uning joylarda hududiy bo'linmalari tuzildi. Bu tadbir o'zteleradiokompaniyaning aholi va jamiyatning xolisona, haqqoniy axborotlarga ehtiyojini o'rganish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va o'zgarishlar to'g'risida aholini, chet el jamoatchiligini keng xabardor qilish sohasidagi faoliyatini demokratlashtirish va rivojlantirishga salmoqli turtki berdi.

Shuningdek, Respublika ommaviy axborot vositalarining soni ko'paydi, sifati yaxshilandi. 1990 - yilda 376 nomda gazeta va jurnallar chop etilgan bo'lsa, 2010 - yilda ommaviy axborot vositalari va elektron ommaviy axborot vositalari soni 1200 taga yetdi. 4 ta axborot agentligi, 55 ta nashriyot, 100 ga yaqin davlat va nodavlat teleradiostudiyalari va uning hududiy bo'linmalari faoliyat ko'rsatdi. Ko'pmillatli O'zbekiston Respublikasida gazetalar, jurnallar, teleradio studiyasi 12 tilda - o'zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq va boshqa tillarda chop etiladi, eshittiriladi. 6 ta gazeta va 8 ta jurnalda o'zbek tili bilan birga ingliz, arab, turk, urdu, forsiy, hind tillaridan foydalaniladi. Ommaviy axborot vositalari, ularning muassislari, mazmuni va yo'nalishiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi. Bular davlat tomonidan nashr etiladigan; siyosiy partiya va jamoat tashkilotlari, tijorat va xususiy gazeta va jurnallardir. Shuningdek, diniy tashkilotlarning gazeta va jurnallari, adabiy-badiiy,

ixtisoslikka yo'naltirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy nashrlar mavjud.

Mamlakatimiz 1996-yilda AQSHda joylashgan "Internet" global tarmog'i bilan bog'landi va jahon yangiliklarini qabul qilib olish va axborotlar uzatish yo'lga qo'yildi. Internet tizimidan foydalanuvchilar safi kengayib bormoqda. 2003 - yilda mamlakatimizning yarim milliondan ortiq aholisi axborot xizmatining muhim turi hisoblanayotgan Internetdan foydalangan bo'lsa, 2010 - yilda ularning soni 6 milliondan oshdi. Shahar va tuman markazlarida Internet klublar, Internet kafelar soni, milliy axborot segmenti yildan yilga ko'payib bormoqda. 2004 - yil aprel oyida "uz" hududida ro'yxatga olingan WEB saytlar soni 2600 taga yetdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining WEB sayti (WWW. press-service. uz) Internet tarmog'ida mashhur bo'lib ketdi. Undan mamlakatimiz aholisi, shuningdek, jahondagi 100 dan ortiq mamlakat fuqarolari foydalanmoqdalar.

Savol va topshiriqlar

1. Vazirlar Mahkamasi qachon tuzildi?
2. Vazirlar Mahkamasi tarkibini kim tuzadi, u qanday organ tomonidan tasdiqlanadi?
3. Vazirlar Mahkamasi vazifalari nimalardan iborat?
4. O'zbekistonda qanday vazirliklar tuzildi?
5. O'zbekistonda qanday davlat qo'mitalari tuzildi?
6. O'zbekistonda qanday sudlar tuzildi?
7. Viloyat, tuman va shaharlardagi vakillik organlarining nomi nima, ular qanday shakllantiriladi?
8. Hokim lavozimi qachon ta'sis etildi? Hokimni kim tayinlaydi va qanday organ tasdiqlaydi?
9. Mahalliy davlat hokimiyat organlarining vazifalari nimalardan iborat?
10. O'zingiz yashayotgan viloyat, tuman yoki shaharda hokim kim, hokim qanday qarorlar qabul qilishi mumkin?
11. Mahalla deganda nimani tushunasiz?
12. Mahalla yig'ini nima?
13. Qanday joylarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladi?
14. "Mahalla" xayriya jamg'armasi qachon va nima maqsadda tuzilgan?
15. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga kimlar rahbarlik qiladi, ular qanday tartibda va necha yilga saylanadi?
16. Muhtoj, kam ta'minlangan oilalarga o'zini o'zi boshqarish organlarining g'amxo'rliqi haqida nimalarni bilasiz?
17. "Obod mahalla yili" dasturida qanday vazifalar qo'yilgan?
18. Mahallangiz tarixi to'g'risida referat yozing.
19. O'zingiz yashayotgan mahallaning nomi nima, uning rahbarlarini bilasizmi?
20. O'zbekistonga sobiq Ittifoq tuzumidan qanday siyosiy meros qolgan edi?
21. Mustaqillik siyosiy jihatdan qanday imkoniyatlar yaratdi?
22. Parlament nima? Oliy Majlis-chi?

23. O'zbekiston parlamentini shakllantirish bo'yicha qanday huquqiy asoslar yaratildi?
24. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining vakolatiga qanday vazifalar kiradi?
25. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida qanday qo'mita va komissiyalar tuzildi, ularning vazifalarini bilasizmi?
26. Ombudsman instituti nima, u qachon tuzildi?
27. Siz yashayotgan hududdan Oliy Majlisga kim deputat etib saylangan?
28. Partiya fraksiyalari nima?
29. Qanday hokimiyat organlari qonunchilik tashabbusi huquqiga ega?
- Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar qachon bo'lib o'tdi, ularda qanday subyektlar o'z nomzodlarini qo'ydilar?
30. Inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari haqida qanday kodeks va qonunlar qabul qilingan?
31. O'zbekistonning xalqaro munosabatlariga doir qanday qonunlar qabul qilingan?
32. Ikki palatali parlament tuzish haqida referendum qachon bo'lib o'tdi, uning natijalarini bilasizmi?
33. Oliy Majlis qanday palatalardan iborat bo'ladi?
34. Siyosiy partiya nima? U qanday prinsiplar asosida tuziladi va faoliyat yuritadi?
35. Siyosiy partiyalar qanday huquqlarga ega?
36. O'zbekistonda qanday siyosiy partiyalar faoliyat yuritmoqda?

6-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQOROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR

Reja:

1. O‘zbekistonda fuqorolik jamiyat asoslarining yuzaga kelishi.
2. O‘zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlar va ijtimoiy sherikchilik.
3. Mahalliy davlat hokimyatchiligi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini tashkil etilishi va saylov tizimi.
4. Sud-huquq tizimidagi islohotlar.

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga fuqarolik jamiyati asoslari haqida ma’lumot berish, O‘zbekistondagi nodavlat-notijorat tashkilotlar haqida, mahalliy davlat hokimyatchiligi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini tashkil etilishi va saylov tizimi to‘g‘risida atroflicha tushuntirish berish.

Tayanch iboralar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ombudsman”, Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, Mahalla instituti, sud-huquq tizimi.

1. O‘zbekistonda fuqorolik jamiyat asoslarining yuzaga kelishi.

Mustaqillik tufayli boshlangan mamlakatimizdagi keng qamrovli demokratik islohotlar insonlarning huquq va erkinliklarini izchil va uzluksiz takomillashtirishda yangi davrni boshlab berdi. Inson erkinliklari va manfaatlarini ifodalashga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli bir qator yutuqlarga erishilib, inson huquqlariga oid qonun hujjatlari tizimi izchil takomillashtirildi.

Inson huquqlarini ta’minlashning tom ma’nodagi huquqiy asosini 1992- yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yaratdi. Asosiy qonunning ikkinchi bo‘limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag‘ishlanib, 18-moddasida Respublikamizdagi barcha fuqarolar huquqlarining tengligi kafolatlandi.

Mamlakatimizda Ombudsman institutining shakllanishi esa huquqiy - demokratik davlat qurishda yangi bosqichni boshlab berdi. Avvalombor ushbu tuzilmaning shakllanishi va taraqqiyoti xususida so‘z yuritishdan oldin, uning mazmun hamda mohiyatiga to‘xtalish muhim. Umuman “**Ombudsman**” so‘zi shvedcha “*vakil*”, “*agent*”, “*delegat*”, “*advokat*” tushunchalariga hamohang, biror kishining vasiysi, biror kishining nomidan ish ko‘ruvchi ma’nolarini anglatadi.

Uning mohiyati quyidagicha: “*Ombudsman inson huquqlariga amal qilinishini nazorat qiladi. Agar prokuratura organlari inson huquqlariga amal qilinishini faqat qonun asosida nazorat qilsa, Ombudsmanlar maqsadga muvofiqlik, vijdonlilik, adolat nuqtayi nazaridan nazorat qiladi*”.



Oliy Majlisda Inson huquqlari bo'yicha vakillik (Ombudsman) institutini tashkil etish zarurati ilk bor 1995- yil 23-fevralda bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ilgari surildi. Shu tariqa mamlakatimiz mustaqillik yillari tarixida ilk bor 1995- yilning 23-fevralida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili tashkil etildi.

Inson huquqlari bo'yicha vakil zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali bajarishga ko'maklashish maqsadida 1995- yil 6-mayda Oliy Majlis tomonidan "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili huzurida Fuqarolarning konstutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi komissiyasini tuzish to'g'risida"gi 881-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra Inson huquqlari bo'yicha vakil huzurida jamoatchilik asosida faoliyat olib boruvchi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha 10 kishidan iborat komissiya tasdiqlandi.

Ombudsman instituti faoliyatining yanada takomillashuvida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1999- yil 14-aprelda Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi ma'ruzasidagi quyidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etdi: "Insoniy mezonlar, hukumatga qarashli bo'lmagan huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Respublika mintaqalarida Inson huquqlari bo'yicha vakil samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, Ombudsman institutining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash zarur".

1999-yilning 12-avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 7981-sonli "*Insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiyasi tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida*"gi qarori bilan komissiya tarkibiga yana 10 nafar komissiya qo'shilib, Ombudsmanning mintaqalardagi vakillik instituti vujudga kelishi uchun ilk "*tamal tosh*"i qo'yildi.

Parlament Vakil va Komissiyaning asosiy faoliyati esa Oliy Majlis Kengashi tomonidan 1995-yil 29-avgustda qabul qilingan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili to'g'risidagi nizom bilan tartibga solindi.

Shuningdek, Nizomda Vakilning saylanish tartibi, uning asosiy vazifalari, shikoyatlarni taqdim etish (Vakilga) va ko'rib chiqish tartibi, Vakilning va shikoyat etuvchining huquqlari hamda Inson huquqlari bo'yicha vakil huzurida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiyaning Vakilga o'z faoliyatini amalga oshirish jaryonidagi vakolatlari belgilandi.

Biroq shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, ushbu Nizom Ombudsman faoliyatining to'liq huquqiy asosini tashkil eta olmas edi. *Birinchi*dan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili to'g'risidagi Nizom qabul qilingan bo'lsa-da, ushbu Nizom qoidalari hali milliy qonunchiligimizda o'zining to'liq kafolatiga emas edi.

*Ikkinchi*dan, Nizomning 6-bandida vakil hokimiyat vakillik organlarining harakatlari va qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqmaydi degan qoidaning kiritilishi Ombudsmanning inson huquqlarini ta'minlashga doir vakolatlarini cheklar edi. Chunki bugungi kungacha ham Ombudsmanga kelib

tushayotgan murojaatlarda hokimiyat vakillik organlari faoliyatidan qoniqmaslikka doir arizalar anchani tashkil etmoqda.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili institutining, huquqparvar jamoat tashkilotlarining mavqei va maqomini ko'tarish zarur. Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi mavjud Ombudsman instituti, Jamoatchilik fikri instituti, Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti, Inson huquqlari milliy markaz singari tashkilotlarni rivojlantirish hamda boshqa yangi institutlarni tashkil etish lozim. Bir so'z bilan aytganda, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini boshqarish va nazorat qilishning yangi samarali mexanizmlarini barpo etish zarurati etildi".

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili to'g'risidagi qonunining loyihasi ustida 1996-yilda ish boshlandi. Unda Oliy Majlis deputatlari, respublikamizning huquqshunos olimlari, chet ellik ekspertlar ishtirok etdilar. Qonun loyihasini tayyorlashda chet el Ombudsmanlari tajribasi, shuningdek, 1996- yil sentabr' oyida Toshkent shahrida YYXHTning "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar" mavzusida o'tkazilgan seminar-kengashda chet ellik mutaxassislar bildirgan taklif va fikr-mulohazalar hisobga olindi. Inson huquqlari bo'yicha vakil to'g'risidagi Qonun loyihasi 1997 - yil 14-fevralda umumxalq muhokamasi uchun "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarida e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 - yil 24 - aprelda bo'lib o'tgan sakkizinchi sessiyasida esa "**Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida**"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 20 moddadan iborat bo'lib, qonun inson huquqlari bo'yicha vakilning huquqiy holatini tartibga soldi va uning asosiy faoliyat sohasi hamda tamoyillarini, lavozimga saylanish, lavozimdan ozod etilish tartibini, fuqarolar shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish bo'yicha vakolatlarini, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi huquq va majburiyatlarini, uning daxlsizligi va moliyaviy ta'minotlari masalasini belgiladi. Shuningdek, inson huquqlariga rioya etilishi sohasida parlament nazorati samaradorligini oshirish, inson huquqlari bo'yicha vakil bilan Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalarining o'zaro hamkorligi tizimini yaratish hamda nazorat asosiy faoliyatni muvofiqlashtirish maqsadida 2000 - yilda Ombudsman tomonidan o'zaro hamkorlik konsepsiyasi, shuningdek, Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalarining nazorat ishlarini hisobga olgan holda nazorat asosiy faoliyat rejasi ishlab chiqildi.

Mustaqil O'zbekiston tarixida ayniqsa, 2001-2010 - yillarni o'z ichiga olgan davr Ombudsman instituti faoliyati uchun muhim qadam bo'ldi. Mazkur bosqichda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili institutining oyoqqa turishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Vakil vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish mexanizmlari yanada takomillashtirildi.

Bosqichma-bosqich mustahkamlanib borayotgan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakil instituti dastlabki yillarda O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlanmagan edi. Ombudsmanga konstitutsiyaviy maqom berishning dolzarbligi va uning mohiyati masalasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili S.Rashidova tomonidan asoslab berilgan edi. 2003 - yil 24 - aprelda O'zbekiston parlamenti Konstitutsiyaga o'zgartirishlar va to'ldirishlar kiritish to'g'risida Qonun qabul qildi, unga ko'ra, Konstitutsiyaning 7 -8-moddasiga, Oliy

Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakilini Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylash to'g'risida 16-band kiritildi. Ushbu qoida Ombudsmanga konstitutsiyaviy maqom berilganligini ko'rsatadi.

Ancha urinishlardan so'ng nihoyat Oliy Majlisning 2004 - yil 27 - avgustdagi o'n beshinchi sessiyasida **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”**gi Qonun parlament Vakilini isloh qilishni hamda ijtimoiy hayotda erkinlashtirish va demokratlashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda yangi loyihada qabul qilindi. Yangi Qonun tuzilish jihatidan Muqaddima va 22 - moddadan tashkil topib, Qonunchilik palatasiga saylovlar va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining shakllanishi natijalari bo'yicha 2005 - yil yanvar oyida kuchga kirdi. Qonunda parlament palatalari maqomlari to'g'risidagi yangi qonunlar qoidalari, shuningdek, Ombudsman faoliyatining amaliyoti, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlariga oid xalqaro standartlar, Ombudsman maqomini huquqiy belgilash bo'yicha xorijiy tajribalar hisobga olindi.

O‘zbekistonda vakillik institutining taraqqiyoti va takomillashuvida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008- yil 1-mayda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlari to‘g‘risidagi” dasturi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu farmonda va uning ilovasida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy institutlar, jumladan, Ombudsman institutining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularning samarali ishlashi uchun zarur boshqa shart-sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonunni amalda tatbiq etilishini o‘rganish va zarur takliflarni ishlab chiqish vazifalari belgilab berildi.

Davlat rahbarining yuqoridagi farmondan kelib chiqqan holda, 2008- yil 30-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo‘shma **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) kotibiyati faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”**gi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari kompleksi to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilinib, unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili kotibiyatiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zahira jamg‘armasidan asoslangan hisob-kitoblar bo'yicha zarur zamonaviy ofis mebeli, avtotransport, kompyuter texnikasi, dasturiy vositalar va boshqa moddiy-texnika vositalari, Davlat byudjetidan Vakil va uning Kotibiyatining joriy ta'minoti, bosma materiallar chiqarish, axborot nashrlari va adabiyotlarga obuna bo'lish, xalqaro Ombudsman institutlariga a'zolik badallari to'lash, Vakil va uning Kotibiyati xodimlarining xalqaro forumlar ishida qatnashishi uchun har yili mablag'lar ajratilishini, shuningdek, Internet tarmog'i bilan ta'minlash masalalariga e'tibor qaratildi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritilib, 2008- yil 25 - noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, u 2009 - yilning 27 - martida Senat tomonidan ma‘qullandi va 2009 - yilning 10-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi.

Shunday qilib, mamlakatimizda Ombudsman institutining shakllanishi va faoliyati mamlakatimizda qonun va inson huquqlari ustivorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa fuqarolarning tengligi, erkinligi kabi tamoyillarning amalda to‘liq ta‘minlanishi uchun hamda fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlarida har tomonlama boshqa institutlarga nisbatan jamiyat a‘zolariga yaqinligi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga bo‘lgan zaruratni oshirishga imkoniyat yaratdi.

2. O‘zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlar va ijtimoiy sherikchilik

Rivojlanib kelayotgan mamlakatimizda keyingi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shuning uchun ham fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. Chunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o‘z iqtidorini ro‘yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta‘minlashga ko‘maklashmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanib borgan sari ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchaymoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta‘sirchanligi bois kishilar qalbi va ongida jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan tub ijobiy o‘zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrixohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o‘zagi sifatida dastavval O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tilga olish o‘rinlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini e‘tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifat shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. Asosiy qonunning 12-moddasida O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat

mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy prinsip o‘z ifodasini topgan.

Birlashishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga uyushishga bo‘lgan huquq o‘z ichiga fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarini tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki ulardan chiqish huquqini qamrab oladi.

Ma‘lum bir jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a‘zo bo‘lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to‘sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlilik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, mamlakatimizning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘ligi va ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi, faoliyati hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

Ayni paytda “O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilingan. Bu qonunning maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan fuqarolik jamiyati institutlarining nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan masalalardan biri - inson huquq va erkinliklarining samarali ta‘minlanishi masalasidir. Shu munosabat bilan Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish fursati yetganini ta‘kidlash navbatdagi taklif sifatida maydonga chiqadi. Ushbu dastur, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga alohida mas‘uliyat bilan yondashish lozimligini uqtirish bilan birga bu vazifaning qanday tarzda nazoratga olinishini ham ko‘rsatib beradi. Bunda tegishli organlarning inson huquqlari sohasida himoyani qanchalik yo‘lga qo‘yganini aniqlash maqsadida jamoatchilik monitoringining amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Dastur aynan ana shu sohadagi chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga olishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli normalar kiritilishi fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosi bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining quyidagi masalalar yuzasidan ham faol ishtirokining asoslarini koʻzda tutuvchi qonun hujjatlari majmuini ishlab chiqish koʻzda tutilmoqda: sogʻliqni saqlash masalalari; atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari; aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan taʼminlash masalalari; ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qoʻllab-quvvatlash masalalari; katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tabiatni muhofaza qilish borasidagi faoliyatini amalga oshirishda *ekologik nazorat* muhim oʻrin tutadi. Ekologik nazoratni amalga oshirish jamoat tashkilotlari ekologik funksiyasining tarkibiy qismidir. Ekologik-huquqiy mexanizmning ushbu funksiyasi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish borasida jamoat tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishning zaruriy elementi sifatida yuzaga kelgan.

Bizning jamiyatimiz fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekan, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jumladan, fondlarning ahamiyati ortib boraveradi. Soʻnggi yillarda **“Jamoat fondlari toʻgʻrisida”**gi qonun va **“Homiylilik toʻgʻrisida”**gi qonun, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining **“Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga koʻmaklashish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”**gi qarori va boshqa tegishli hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim rol oʻynamoqda.

Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining yanada jadal rivojlanishida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining **“Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”**gi qoʻshma qarori muhim ahamiyat kasb etdi.

1991-yilda qabul qilingan **“Oʻzbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari toʻgʻrisida”**gi jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi qonunning qabul qilinishi ushbu sohadagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi boʻldi. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy taʼrif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qoʻyilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida oʻn nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qoʻyildi.

3. Mahalliy davlat hokimiyatchiligi, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarini tashkil etilishi va saylov tizimi

Fuqarolik jamiyati qurish yoʻlidan ketayotgan Oʻzbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida koʻplab vazifalar belgilangan edi. Eng muhim vazifalaridan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan boʻlsa, ikkinchisi respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning oʻzqini oʻzi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi. Hozirgi amalda boʻlgan mahalliy vakillik organlari yangi organlar boʻlmasdan, xalq deputatlari Sovetlari negizida tashkil qilingan. Maʼlumki, sobiq sovetlar davrida amalda boʻlgan mahalliy xalq deputatlari Sovetlari aniq bir

hokimiyatga ega bo'lmay, ular huquqsizligining bosh sababi partiya organlari to'g'ridan - to'g'ri ularning ishiga aralashar va ularga saylanadigan deputatlar partiya organlari tomonidan tanlanar edi.



Ana shu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 1992- yil 4-yanvarda **“O‘zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi Qonun** qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi - vakillik va ijro organlari tizimiga boshchilik

qiladigan hokimlik va hokimlar lavozimi joriy etildi. 1992- yil 14-yanvarda ushbu qonunga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan Konstitutsiyaviy qonun maqomini berildi. 1992- yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 163 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati - hokimiyatlar tuzildi.

1992-yildan O‘zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish sohasida qator normativ - huquqiy hujjatlar qabul qilish borasida amaliy ishlar boshlandi. Bu hujjatlar orasida 1992- yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, **1993 - yil 2-sentabrda qabul qilingan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”i va “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlar**, 1994 - yil 5-mayda qabul qilingan “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to‘g‘risida”gi Qonun va boshqalar muhim o‘rin egallaydi.

Asosiy qonunimiz hisoblanmish konstitutsiyasining XXI bobi *“Mahalliy davlat hokimiyati asoslari”* deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, mavqei, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ko‘ra avvalgi mahalliy vakillik organlarining nomini Kengashlar deb o‘zgartildi. Ularning samarali ishlashini ta‘minlash uchun viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari Kengashlari vujudga keltirildi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, amaldagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinguncha mahalliy vakillik organlarining **uch bo‘g‘inli tizimi mavjud bo‘lib, ular:**

1) viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari (Sovetlari) – yuqori bo‘g‘in hisoblanardi.

2) tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari – o‘rta bo‘g‘in;

3) qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari – quyi bo‘g‘in;

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo‘g‘inli tizimini mustahkamladi, ya‘ni quyi bo‘g‘in olib tashlandi. Ular o‘rniga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tuziladigan bo‘ldi. Bu qoida “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda o‘z ifodasini topdi.

Shu tariqa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati hokimiyat organlari ikki mustaqil organlarga – vakillik va ijroiya hokimiyatiga bo‘lindi.

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida” gi Qonunda vakillik organlariga 21 yoshga to‘lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko‘ppartiyaviylik, muqobillik asosida o‘tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tadan ko‘p bo‘lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 tadan ko‘p bo‘lmagan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi.

Ijroiya hokimiyatiga – hokim va uning ijroiya apparati qiradi. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101 – moddasiga ko‘ra hokimlarning **vakolat muddati – besh yil**. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 102 – moddasiga ko‘ra, “Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi”.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlarga bo‘ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi”. Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta‘sis etildi, ularning apparati – hokimiyat tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi.

To‘g‘risini aytganda, mahalliy davlat hokimiyat organlarining faoliyati murakkab tuzilishga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, **“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”**gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bu organlar sud hokimiyati organlari, prokuratura, nazorati speksiyasi, ichki ishlar organlari, adliya singari huquqni muhofaza qilish organlari bilan o‘zaro hamkorlikda ish olib boradi.

Mahalliy davlat hokimiyat organlarini ikki toifaga bo‘lish mumkin:

1) mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo‘ysunuvchi organlar: ichki ishlar, nazorat inspeksiyasi va adliya organlari.

2) mahalliy davlat hokimiyati organlariga bo‘ysunmaydigan sud, prokuratura organlari.

Mazkur davlat hokimiyati organlari bu sohada o‘z vakolatlarini amalga oshirish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir xil munosabatda faoliyat ko‘rsatishi bilan birga ularning ishlarini muvofiqlashtirib turadi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari O‘zbekistonda azaldan o‘zini-o‘zi boshqarishning o‘ziga xos shakli sifatida shakllangan hamda uning mahalliy shart sharoitlar bilan bog‘liq o‘ziga xos vazifalari mavjud bo‘lgan. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bugungi kunda mahalla oqsoqoli tomonidan boshqariladi vam uning vazifalari jamoatchilik asosida olib boriladi. U o‘zining yozilmagan ichki

tartib qoidalariga ega bo'lib, ularga barcha birdek amal qiladi. Mazkur qonun qoidalar garchand majburiy xarakterga ega bo'lmasada, barcha ularga bo'ysunadilar.

Ancha yillar sovet tuzumi davrida faoliyati to'xtatilgan va uning mohiyati kommunistik mafkuraga bo'ysundirilgan mahallaning faoliyatini qayta tiklash maqsadida **1993 - yil 2-sentabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.** Chunki, har bir sohani isloh qilish uchun uning avvalombor huquqiy asosi bo'lishi lozim. Ushbu Qonunning qabul qilinishi uzoq yillar mobaynida faoliyati to'xtatilgan mahalla tizimining yana qayta tiklanishi uchun asos bo'ldi, o'zini o'zi boshqarish organlarining nufuzini ko'tardi hamda mas'uliyatini oshirdi. Qonunda mazkur tuzilma olib borilgan ishlar yuzasidan o'z hisobotlarini berib borishi belgilab qo'yildi. Bu borada ko'plab qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Hozirgi paytdagi jadal o'zgarishlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni mahalla, uning boshqaruv tizimi, ijtimoiy-huquqiy faoliyatini yangicha mezonlar asosida tahlil etishni, bugungi zamon talablariga javob beradigan o'zini o'zi boshqarish organining yangicha tuzilmasini shakllantirishni, uning ish yuritish tizimini samarali tashkil etishni taqazo etmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidentining 2017 - yil 3-fevraldagi yangi tahrirda qabul qilingan **"Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni** bu yo'lda muhim qadam bo'ldi.

Uning oldingi qabul qilingan Qonun va me'yoriy hujjatlardan farqi quyidagilardir:

–*birinchidan*, Farmonga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika Kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari tashkil etilishi belgilandi;

–*ikkinchidan*, Respublika Kengashi va hududiy kengashlar huzurida yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari lavozimi;

–*uchinchidan*, Respublika Kengashi va fuqarolar yig'inlari kengashlari huzurida keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlari joriy etiladigan bo'ldi.

Eng ahamiyatlisi, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasida** mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini, joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirishga katta ahamiyat berilganligi bejiz emas.

Mamlakatimiz mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari republikamizning barcha shahar va qishloqlarida yana o'zining azaliy nomi, "*mahalla*" atamasi bilan yuritiladigan bo'ldi. Ko'p asrlik tajribaga ega bo'lgan mahalla o'zining butun tarixi mobaynida o'z o'rnini saqlab qoldi. U o'zini-o'zi rivojlantirish borasida boy tajribaga egaligi va demokratik boshqarishning eng maqbul shakli ekanligi bois, mustabid tuzum yillarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. "O'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga xos bo'lgan usuli - mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda. Ular amalda o'z

vakolatlaridagi barcha ishlar uchun mas'uldirlar. Zero, mahallaning qo'ldan kelmaydigan ishning o'zi yo'q".

Xalqimiz hayotida amalga oshirilayotgan jadal o'zgarishlar natijasida barcha shahar, qishloq, va ovullarda yangidan o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni mahallalar tashkil etilib, ularning soni ortib, nufuzi yanada oshmoqda. Xususan, 2009 - yilgacha O'zbekistonda 9 mingdan ortiq mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari majud bo'lgan bo'lsa, ularning soni 2018- yilgacha 10 mingga yaqinni tashkil etmoqda. Ularning har birida o'rtacha uch mingdan o'n ming nafargacha aholi istiqomat qiladi.

2001- yilda respublikada 67 -90 ta mahallalardagi **“Yarashtirish komissiya”** lari tarkibidagi 49932 nafar a'zolar yordamida 17939 ta oila-turmush doirasidagi mojarolar yechilgan. Agar ushbu ko'rsatkichlarni Toshkent shahri misolida olib qaraydigan bo'lsak, oila va mahalladagi umumiy holat 2013- yilda, 2012- yildagiga nisbatan ijobiy tomonga o'zgargan. Masalan, noqobil, notinch, spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan oilalar soni 2013- yilda, 2012- yilga nisbatan 49 taga (857 -808), xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 481 taga (25 -12-2031 -), jinoyat sodir etgan xotin qizlar soni 318 taga (2300 -1982), jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar soni 58 nafarga (564- 506), xorijiy davlatlardan deportatsiya qilingan ayollar soni 22 - taga (27 -5), suiqasd holatlari 18 taga (140-122), onalar o'limi 1 taga (9-8), bolalar o'limi 2 taga, (212-210), 15-16 yoshlilar tug'rug'i 7 taga (18-11), abortlar soni 48 taga (7 -24 -67 -6) kamaygan.

2017 - yilning ikkinchi yarmida Respublikamiz miqyosida 2304 nafar ajralish ostonasida turgan oilalar mahallalardagi **“Yarashtirish komissiyasi”**, jamoatchilik va mahallalarning aralashuvi bilan saqlab qolingan. 2017 - yil davomida **“Yarashtirish komissiyalari”** ning bevosita aralashuvi, oqilona tadbirlar samarasi tufayli 42 ming 837 - ta oiladagi munosabatlar barqarorlashtirilib, ajrimlarning oldi olingan. Shu yili ularga fuqarolardan 85 ming 708 ta murojaat kelib tushgan. Ulardan 57 - ming 448 tasi er-xotin, 11 ming 142 tasi qarindoshlar, 11 ming 265 tasi esa qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar tufayli sodir bo'lgan. Yana bir qancha sabablar bilan shunday salbiy holatlar sodir bo'lish ko'rsatkichlari quyidagicha. Yoki 1039 holatda erkakning spirtli ichimlik iste'mol qilishi, 114 holatda giyohvandlik moddasiga ruju qo'yishi, 6338 holatda esa, oilaviy hayotga qaynona, qaynota va boshqa shaxslarning aralashuvi sabab bo'lgan.

Shuningdek, **“Yarashtirish komissiyalari”** tomonidan 9 ming 339 ta murojaat asosida qarindoshlar, 8 ming 883 ta holatda qo'ni-qo'shnilar murosaga keltirib, yarashtirilgan. 3477 nafar fuqaro ichki ishlar bo'limlari tomonidan profilaktik hisobga olingan bo'lsa, 13 ming 661 nafar fuqaro esa yig'inlar mutasaddilari nazoratida turibdi.

2019-yil 1-fevralgacha respublika mahallalarida 12 mingdan ziyod notinch oilalarning muammolari o'rganilgan. Sa'yi-harakatlar natijasida ajralish arafasida turgan oilalarning 25 - mingdan ziyodi yarashtirilgan, 4 mingga yaqin kishilar FXDYO va suddan arizalarini qaytarib oldi. Respublikadagi 986 ta mahallada bironta ajralish holati qayd qilinmagan. 2019-yilda ushbu yig'inlarning oilalar bilan ishlash bo'yicha tajribasini boshqa viloyatlarga ham joriy qilish maqsadga muvofiq.

Umuman 2018- yilda respublika bo'yicha 350485 ta qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilaning muammolari tahlil qilindi, 3 ming 500 ta oila nochorlikdan chiqarilgan.

Biroq, hamon mahallalarda yoshlar tarbiyasi bilan ishlash masalasida kamchiliklar talaygina. Xususan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh kelin-kuyovlar o'rtasidagi salbiy munosbatlar va ajirimlarni oldini olish, oila va mahalla hamkorligini ta'minlash, oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridagi "Yarashtirish komissiyalari" ning o'ziga xos o'rni bo'lishi lozim.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim bo'g'ini sifatida mahalliy davlat hokimiyati bobida o'rin oldi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar faoliyatining, ularga berilgan vakolatlarning demokratik, qonuniy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi⁷, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonun hamda Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatining muhim asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'zini-o'zi boshqarish organlarini shakllantirishning huquqiy asoslari o'z ifodasini topdi. Konstitutsiyaning 105-moddasida "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylanishi", belgilab qo'yilgan.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini rivojlantirishda 1999- yilda tashkil etilgan Respublika "**Mahalla ziyosi**" o'quv-uslubiy markazi muhim rol o'ynadi. Shu yili mazkur dargohda 450 rais o'z malakasini oshirgan bo'lsa, 2000 - yilda ushbu o'quv markazida 25 -00 yig'in raislari, 445 ta xotin-qizlar masalalari bo'yicha komissiya a'zolari o'z malakalarini oshirganlar. 2013- yil 10 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning o'zini o'z boshqarish organlari xodimlari malakasini oshirishlarini tashkil etish to'g'risida" gi qaroriga muvofiq shu yildan boshlab rais, kotib, diniy ma'rifiy, ma'naviy axloqiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari hamda "**Mahalla posboni**" jamoat tuzilmasi o'z malakalarini oshiradigan bo'ldilar.

"Xalq bilan muloqot" shiori ostidagi islohotlar mevasi sifatida 2016- yilning 24 - sentabridan boshlab tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonalari o'z faoliyatlarini boshladilar. Unga muvofiq Prezidentning Virtual qabulxonasiga 2017 - yilning fevral oyigacha fuqarolardan 509122 ta murojaat kelib tushgan va ularning 436408 tasi ko'rib chiqilgan bo'lsa⁸, 2018- yil oxirigacha 2 million 500 ming nafardan ziyod kishi o'zini qiynab kelayotgan muammolarga yechim topganlar. Bu aholining eng dolzarb muammolarini hal etish imkonini berdi, davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

⁷Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., 2017. 105-модда. 60-бет.

⁸2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили" да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. Т., 2017. 66-бет

organlari bilan fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmini yaratishga asos bo'ldi.

Xalq qabulxonalarining aholi murojaatlari bilan ishlash bo'yicha amaldagi tizimi bilan bir qatorda, Xalq qabulxonalarining muammolarini uyma-uy yurish orqali aniqlash va hal qilishni, davlat organlarining aholi bilan ishlashini nazarda tutuvchi yangi tizim joriy qilish maqsadida 2019-yil 1-fevraldan boshlab Prezidentning "Aholi muammolari bilan ishlash yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzolandi.

Aytish joizki, so'nggi yillarda mahalla institutini yanada takomillashtirish yuzasida ko'rilgan chora-tadbirlar barcha sohalarida ijobiy siljishlarda o'z aksini topmoqda. Jumladan, bu borada mamlakatimiz Prezidentining 2017 - yil 3 - fevraldagi yangi tahrirda qabul qilingan «**Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**» gi Farmoni hamda 2018- yil 15 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori qabul qilinishi muhim qadam bo'ldi.

4. Sud-huquq tizimidagi islohotlar

Uchinchi hokimiyat tarmog'i sifatida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yurituvchi organ bu **sud hokimiyati** hisoblanadi. Sud tuzimi 5 yil muddatga saylanadi. Sud faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu tizimni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va 1993 - yil 2-sentabrda qabul qilingan "**Sudlar to'g'risida**"gi qonun asosida sud islohotlari o'tkazildi.

Shunday islohotlardan biri sifatida sud-huquq tizimini yangi asosda barpo etishning dastlabki yillaridan inson huquqlarini himoya qilishning kafolati sifatida advokatura instituti va advokatlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Shunday qilib, mustaqillikka erishish arafasida va mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotini demokratik jihatdan yanada yangilashga va sud-huquq tizimini isloh qilishga kirishildi. Sudlarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Toshkent shahar, tuman, shahar sudlariga bo'linadi.

Aslini olganda amaldagi qonunlarga muvofiq mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uch oy ichida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi⁹."

2007 - yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanini belgilaydigan normaning

⁹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.. 2018.

chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqealardan biri bo'ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi" degan qoida belgilab qo'yilgan¹⁰.

Demokratik davlat qurilishida sud hokimiyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Sud hokimiyati demokratik davlatda mustaqil hokimiyat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasi.)

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993 - yil 2-sentabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida" gi Qonun asosida sud islohotlari o'tkazildi. O'zbekiston tarixida birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi tuzildi. Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislardan tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi quyidagi vakolatlar doirasida ish ko'radi:

- qonunlarning, Prezident farmonlarining, hukumat va davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi sud tizimining boshqa tarmoqlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati 2000 - yil 14-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi „Sudlar to'g'risida“ va 2001- yil 29-avgustda qabul qilingan "Jinoiy jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslari hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida" gi Qonunlar asosida yanada takomillashib bormoqda. Sud ishlarida qonuniylikka amal qilishga, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining sud himoyasi huquqi bilan ta'minlanishiga, fuqarolar huquq va erkinliklarining himoyalashiga e'tibor tobora yaxshilanib bormoqda. Sud hokimiyati qonunning ustunligini, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlash yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda sudlar ixtisoslashtirildi, fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha alohida sudlar tashkil etildi. Sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'zlariga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilindi. 2008- yil 1-yanvardan mamlakatda o'lim jazosi bekor qilindi, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokuraturadan sudlarga o'tkazildi. Demak,

¹⁰ Ўша жойда.

mamlakatimizda jinoiy jazolashning eng insonparvar huquqiy tizimi tashkil etildi. Muxtasar aytganda, O‘zbekiston Respublikasida prezidentlik-respublika boshqaruv tizimi qaror topdi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari bir-biriga daxlsiz holda faoliyat yuritmoqda.



2000 - yil yangi tahrirda **“Sudlar to‘g‘risida”** qonun qabul qilindi. Konstitutsiyaning 106-moddasiga binoan Sudlar har qanday hokimiyat organlaridan mustaqil holda o‘z faoliyatini olib boradi.

Mustaqil O‘zbekistonda sud tizimi islohotlari 2 davrga bo‘linadi:

1) 1991-2016- yillar

2) 2017 - yildan keyingi davr

Birinchi davrda sudyalari vakolati 5 yil bo‘lgan bo‘lsa, 2017 - yil 21-oktabrdagi Sh. Mirziyoyev farmoniga binoan sudyalarni vakolat muddati birinchi marta 5 yil, 2-marotaba tayinlanishda 10 yil, uchinchi marta tayinlanganda umrbod deb belgilandi.

2017 - yil 21 fevralda Shavkat Mirziyoyevning **“Sud tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorlogini oshirish chora-tadbirlari”** to‘g‘risida farmonlari chiqadi. Farmonga binoan:

a) Oliy Sud va Oliy xo‘jalik sudi yagona *Oliy Sudga* birlashtirildi

b) Harbiy sudlari Qurolli Kuchlar tarkibidan Oliy Sud tizimiga o‘tkazildi

2017 - yil prezident **2700** mahkumni (956 tasi jazoni ijro etuvchi koloniyalardan) afv etdi

Savol va topshiriqlar.

1. Mahalla deganda nimani tushunasiz?
2. Mahalla yig‘ini nima?
3. Qanday joylarda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tuziladi?
4. “Mahalla” xayriya jamg‘armasi qachon va nima maqsadda tuzilgan?
5. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga kimlar rahbarlik qiladi, ular qanday tartibda va necha yilga saylanadi?
6. Muhtoj, kam ta‘minlangan oilalarga o‘zini o‘zi boshqarish organlarining g‘amxo‘rligi haqida nimalarni bilasiz?
7. “Obod mahalla yili” dasturida qanday vazifalar qo‘yilgan?
8. Mahallangiz tarixi to‘g‘risida referat yozing.
9. O‘zingiz yashayotgan mahallaning nomi nima, uning rahbarlarini bilasizmi?
10. Inson huquqlari va erkinliklariga doir qanday xalqaro deklaratsiya, pakt va konvensiyalarni bilasiz?
11. Nima uchun inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat deb tan olingan?
12. Shaxsiy huquq va erkinliklaringizni bilasizmi?
13. O‘zbekiston fuqarolari qanday siyosiy huquqlarga ega? Ular qanday qonunlar bilan kafolatlangan?
14. Inson qanday iqtisodiy huquqlarga ega, ular qanday kafolatlangan?

15. Inson qanday ijtimoiy huquqlarga ega, ular qanday kafolatlangan?
16. O‘zbekiston fuqarolari zimmasiga qanday burch, majburiyatlar yuklatilgan?
17. O‘zR Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) lavozimi qachon ta‘sis etilgan, uning vazifalarini bilasizmi?
18. Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz qachon tuzilgan, u qanday ishlar bilan shug‘ullanadi?
21. O‘zbekistonda saylov qanday prinsiplar asosida o‘tkazilmoqda?
23. Nima uchun va qanday tartibda takroriy saylov o‘tkaziladi?
24. “Yoshlar ittifoqi” qachon tuzilgan, maqsadi nima?
25. Jamoat birlashmalari nima?
26. Jamoat birlashmalari qanday maqsadlarda tuziladi?
27. Ommaviy axborot vositalari nima?
28. Siz qanday gazeta va jurnallarni qiziqish bilan o‘qiysiz?
29. Fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik darajasi nima bilan belgilanadi?
30. Qanday hujjatlarda jamoat birlashmalarining huquqiy asoslari belgilab berilgan?

7–MAVZU. IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI. O‘ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI.

Reja:

1. Bozor iqtisodiga o‘tishning asosiy tamoyillari. O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish yo‘lini tanlashi.
2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, mamlakatimizdagi iqtisodiy o‘tish.
3. O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining o‘rni. Agrar islohotlar.
4. O‘zbekiston xalq xo‘jaligining yangi istiqbollari

***Darsning o‘quv maqsadi:** Talabalarga bozor iqtisodiga o‘tishning asosiy tamoyillari haqida ma’lumot berish, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, iqtisodiy o‘tish, mamlakat hayotida qishloq xo‘jaligining o‘rni hamda agrar islohotlar to‘g‘risida atroflicha tushuntirish berish.*

***Tayanch iboralar:** ma’muriy-boshqaruv tizimi, “O‘zbek modeli”, rekonstruksiya va modernizatsiya, bozor iqtisodiyoti, “O‘zbekiston - bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” nomli asar, ko‘p ukladli iqtisodiyot, xususiy mulkchilik, agrar islohotlar.*

1. Bozor iqtisodiga o‘tishning asosiy tamoyillari. O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish yo‘lini tanlashi.

Butun dunyodagi rivojlangan davlatlar iqtisodining asosini bozor iqtisodiyoti tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida ishlaydigan iqtisoddir. Bozor iqtisodiyoti qadim zamonlardan boshlab ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelmoqda. Iqtisodiy taraqqiyotda bozor munosabatlari ikki xil shaklda namoyon bo‘ldi. Birinchisi, tartibsiz, stixiyali faoliyat yurituvchi bozor iqtisodiyoti. Bunda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar tarqoq, o‘zibo‘larchilik asosida, maqsadi va harakati oldindan kelishilmagan holda faoliyat yuritadilar. Ikkinchisi, davlat, iqtisodiy qonunlar va iqtisodiy vositalar bilan tartibga solinadigan, boshqariladigan bozor iqtisodiyoti. **Uning quyidagi xususiyatlari mavjud:**

- tovar ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy erkin bo‘ladilar;
- kishilar mulk egasi bo‘ladi, o‘zi ishlab chiqargan mahsulot egasi bo‘lib, uni o‘zi xohlaganicha sotishi va sotmay turishi mumkin;
- tovar oldi-sotdisi sotuvchi bilan xaridorning erkin va ixtiyoriy munosabatiga asoslanadi;
- tovar ishlab chiqaruvchilar bozorda erkin raqobatda bo‘ladilar;
- bozorda ishlab chiqaruvchi emas, iste’molchi o‘z shartini qo‘yadi, chunki pul uning qo‘lida bo‘ladi;
- bozorda nimaga talab oshsa, shu narsani ishlab chiqarish foydali bo‘ladi;
- jamiyat a’zolari o‘z daromadiga ko‘ra tabaqalanadi.

Jahon tarixi tajribasi guvohlik beradiki, insoniyat birdaniga tartibga solinuvchi bozor iqtisodiyotini yaratolmagan, necha ming yillar davomida stixiyali bozor iqtisodiyoti sharoitida yashab, vaqt-vaqti bilan iqtisodiy larzalarni, chuqur iqtisodiy

inqirozlarni boshidan kechirgan. XX asrda jahon sivilizatsiyasi insoniyat manfaatlarini yoʻlida yanada jadal taraqqiy etdi. Bu jarayon iqtisodiy tafakkurga ijobiy taʼsir etib, tartibga solinuvchi bozor iqtisodiyoti gʻoyasini keltirib chiqardi. Unga amal qilgan davlatlarda iqtisodiyot jadal oʻsa boshladi, aholi turmushi, farovonligi yaxshilanib bordi. Shu tariqa dunyoda tartibga solinadigan bozor munosabatlari iqtisodiyotning yetakchi shakliga aylanib bordi.

Sobiq Ittifoq hukmronligi davrida esa hokimiyat tepasida turgan kommunistlar mulkini yoppasiga davlat ixtiyoriga olish, resurslarni markazlashtirilgan tarzda maʼmuriy-buyruqbozlik, rejalashtirish asosida boshqarish va taqsimlash yoʻli bilan ijtimoiy adolatni qaror toptirish va xalq farovonligini oshirishga urinib koʻrdi. 70 yil davom etgan bu sinov oʻzini oqlamadi, ijtimoiy adolat ham qaror topmadi, xalq uchun farovon turmush ham yaratilmadi.

Aksincha, millionlab odamlar qancha-qancha balo-qazolarga uchradi, bunday gʻayritabiiy yoʻlga qarshi chiqqanlarning umri xazon boʻldi. Oxir-oqibatda maʼmuriy buyruqbozlik asosida boshqariladigan oʻta siyosiydashgan, mafkuralashgan iqtisodiyot tanazzulga uchradi. Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston iqtisodiyotidagi yangilanish, tub oʻzgarishlarni oʻrganishga kirishar ekanmiz, avvalo, mustabid sovet tuzumidan bizga qanday iqtisodiyot meros boʻlib qolganini tushunib, chuqur anglab yetishimiz lozim. Oʻzbekiston qaramlik davrida oʻz tabiiy boyliklariga, yer-suv, oʻrmon va boshqa resurslariga oʻzi egalik qila olmasdi, iqtisodiy taraqqiyot yoʻlini oʻzi belgilay olmasdi. Respublika hududida qurilgan va faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar markazga, uning manfaatlariga boʻysundirilgan edi. Oʻzbekiston rahbariyati, xalqi oʻz hududida qancha mahsulot ishlab chiqarilayotganini, ular qayerda realizatsiya qilinayotganini va qancha daromad keltirayotganidan bexabar edi.

Mustaqillikni qoʻlga kiritgan Oʻzbekiston moliya-kredit, bank siyosati yuritishda qaram edi, oʻzining milliy valyutasiga, valuta jamgʻarmasiga ega emasdi. Sobiq Ittifoqdan moʻrt, zaif xomashyo yetishtirishga yoʻnaltirilgan, yaʼni arzon xomashyo va strategik mineral resurslar tayyorlanadigan iqtisodiyot meros boʻlib qolgan edi. Respublika iqtisodiyotida boy mineral xomashyo resurslaridan ayovsiz, nazoratsiz foydalanish hukmronlik qilardi. Umri tugagan sovet tuzumidan iqtisodiy boshqaruvning maʼmuriy-buyruqbozlik usuli, „Qayta qurish“ davrida batamom barbod boʻlgan iqtisodiyot, izdan chiqqan moliyaviy narx-navo tizimi, baqiriq-chaqiriq, oʻgʻrilik, buzuqlik avj olgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit meros boʻlib qolgan edi. Respublika korxonalari sobiq Ittifoq boʻyicha boshqa korxonalar bilan bogʻlangan boʻlib, endi ular oʻrtasidagi aloqalar uzilib, xoʻjalik yuritish murakkablashib qolgan edi. Mavjud korxonalar chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar va butlovchi qismlarga butunlay qaram edi. Oʻzbekiston yoqilgʻi va oziq-ovqat masalasida markazga qaram edi. Ekin ekiladigan yerlarning paxta maydonlariga aylantirilishi, paxta yakka hokimligining oʻrnatilishi natijasida



O‘zbekiston un, go‘sh, sut mahsulotlari va boshqa eng muhim oziq-ovqat mollari, xalq iste‘moli tovarlari, tayyor mahsulotlarni chetdan keltirishga mahkum etilgan edi. Paxta, oltin, rangli metallar, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa materiallar tashib ketilar, ularni sotishdan keladigan daromad O‘zbekiston xazinasiga tushmas edi. O‘ziga qarashli bo‘lgan mablag‘ni markaz-dan dotatsiya sifatida so‘rab, yolvorib olishga majbur edi. Aholi turmush darajasi bo‘yicha nochorlik, sobiq Ittifoq miqyosida eng oxirgi o‘rinlardan biri meros bo‘lib qoldi.

Ittifoqdan mustaqil bo‘lgan Rossiya, Ukraina va Belorusiyadan farqli o‘laroq, O‘zbekiston aholisining deyarli uchdan ikki qismi qo‘l uchida tirikchilik qilardi. Eski mustabid tuzumdan o‘tkir ijtimoiy, ekologik muammolar meros bo‘lib qolgan edi. Aholi yerning nihoyat darajada sho‘rlanishi, havoning va suv zaxiralarining ifloslanganligi, radioaktiv ifloslanish, Orol dengizining qurib borishi oqibatida juda katta ekologik xavfga duch kelib qolgan edi. Mutaxassislarining ma‘lumotlariga ko‘ra, birgina Orolning qurib qolgan tubidan yiliga bo‘ron tufayli 1575 million tonna chang-to‘zon ko‘tarilib, uzunligi 400 km va eni 40 km maydonni ifloslantirardi, aholini turli-tuman kasalliklarga muhtalo qilardi. „Bugun o‘sha davr to‘g‘risidagi haqiqatni xolisona aytadigan bo‘lsak, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O‘zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga - markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo‘lgan yarimmustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi“. (*Islom Karimov. "O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda". T., "O‘zbekiston", 1999-, 6- bet.*)

Iqtisodiy mustaqillikning imkoniyatlari. Iqtisodiy mustaqillik xalqimizni iqtisodiy zug‘um, mutelikdan ozod etdi, o‘z yeri, yer osti boyliklari, suv, o‘sim-lik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralarga to‘la egalik qilish huquqini berdi. O‘z hududimizdagi barcha mulk, korxonalar O‘zbekiston tasarrufiga olindi, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish, o‘z iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini o‘zi belgilash erkinligi qo‘lga kiritildi. Iqtisodiy mustaqillik mamlakatimizga mustaqil moliya-kredit, bank siyosatini yuritish, o‘z davlat budjetini yaratish va unga to‘la egalik qilish, milliy valuta, oltin zaxirasi va valuta jamg‘armasini tashkil etish va ulardan xalqimiz farovonligi, yurtimiz obodonligi yo‘lida mustaqil foydalanish imkoniyatini yaratdi. Iqtisodiy mustaqillik tufayli ishlab chiqarish munosabatlarini ma‘muriy buyruqbozlik, markaziy rejalashtiruvchi mexanizmdan erkin, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga o‘tkazish, jahon xo‘jaligi aloqalari tizimiga kirish mumkin bo‘ldi. Davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgach, O‘zbekiston umumbashariy, jahon sivilizatsiyasining katta yo‘liga tushib oldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy an‘analarga asoslangan o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Chunki turli mamlakatlardagi bozor iqtisodiyoti, u xoh Amerika yoki Germaniyada bo‘lsin, xoh Yaponiya yoki Janubiy Koreyada bo‘lsin, baribir umumiy qonunlar bo‘yicha rivojlanib borgan holda har biri o‘zining o‘ziga xos xususiyatlariga ham ega bo‘lgan. Bu xususiyatlar xo‘jalikning tuzilishi va shart-sharoitlari, tabiati va iqlimi, milliy rasm-rusumlari, an‘analari va milliy xarakteri orqali belgilanadi. O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li ishlab chiqildi. Bu yo‘lning asosiy qoidalari Prezident Islom Karimovning **“O‘zbekiston - bozor**

munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli asarida, Respublika parlamentida qilgan ma'ruza va nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda bayon etib berilgan. Bu yo'lga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, respublikamiz xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi. Davlat qurilishi dasturining va O'zbekiston iqtisodini isloh etishning butun o'zagini mamlakat Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh asosiy tamoyil tashkil etdi. **Ushbu tamoyil asosini quyidagilar tashkil etadi:**

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan batamom xoli qilish. Iqtisodiyot siyosatdan ustun turmog'i lozim. Aynan iqtisodiyot, uni yanada rivojlantirish muammolari davlat siyosatining asosiy mazmuniga aylandi.

Ikkinchidan, davlatning o'zi eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish davrida bosh islohotchisi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotining yetakchi yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro'yobga chiqarishi kerak.

Uchinchidan, Qonunning ustuvorligi, yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i zarur. Iqtisodiy o'zgarishlar amaliy kuchga ega bo'lgan qonunga tayangandagina sezilarli natija berishi mumkin.

To'rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tishda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, davlatning aholini ijtimoiy nochor guruhlarini qo'llab-quvvatlash borasida mas'ul bo'lishidir. Iqtisodiy islohotlarning barcha bosqichlarida demografiya sohasidagi real ahvolni, aholini mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish kerak. Ijtimoiy himoyalash mexanizmi mavjud bo'lganidagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash mumkin.

Beshinchidan, islohotlarni, bozor munosabatlarini shakllantirishni puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. "Bu yo'l va andaza iqtisodiyoti bozor munosabatlari asosiga qurilgan rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasiga, shuningdek, O'zbekiston xalqining milliy-tarixiy merosi, turmush tarzi, an'analari va ruhiyati xususiyatlariga tayanishi lozim". (*Islom Karimov. "O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li". T., "O'zbekiston", 1993 -, 5- bet.*)

Ushbu beshta tamoyilning har biri demokratik va iqtisodiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli isloh qilib borishda birday muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili alohida e'tiborga loyiq. Bu yetakchi tamoyillardan biridir. Bu iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantiqini, rivojlanib borishi va xarakterini belgilab beradi, belgilangan maqsadlarga erishish uchun mavjud kuchlarni va imkoniyatlarni mujassam etish, eng muhim va birinchi o'rindagi vazifalarni aniqlash va ularni islohotlar muvaffaqiyati yo'lida xizmat qildirishga sharoit yaratadi. Bu tamoyil bozor munosabatlarini qadam-baqadam shakllantirishni, bir bosqichini oxiriga yetkazib va tegishli asos, zamin yaratib, keyin yangi bosqichga o'tishni taqozo etadi. **O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning uzoqni ko'zlagan quyidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:**

–milliy boyliklarning o‘shini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitni ta’minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi tizim yaratish;

–ko‘p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish, kishining mulkdan begonalashuvini bartaraf etish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har taraflama o‘shishi uchun asos bo‘ladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlash;

–korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo‘jalik ishlariga davlatning to‘g‘ridan to‘g‘ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodni boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik usullarini yo‘q qilish, iqtisodiy vositalar va rag‘batlantirishlarni keng qo‘llash;

–moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni, jahon iqtisodiyot tizimiga kirib borishni ta’minlaydigan chuqur iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;

–kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga o‘z mehnatini qo‘llash sohalari va shakllarini o‘zi mustaqil belgilab olishi uchun imkoniyat yaratish.

Strategik maqsadlar asosida iqtisodiy-islohotlarning asosiy va muhim tomonlari aniq belgilab olindi. Eng avvalo, birmuncha o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yaqin vaqtlar ichida hal etishga yordam beradigan asosiy tarmoqlarni rivojlantirishga e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi:

- mulkiy islohotlar;
- institutsional (muassasalar) va moliya-kredit islohotlari;
- agrar islohotlar;
- tashqi iqtisodiy faoliyat islohotlari;
- ijtimoiy sohadagi islohotlar.

Islohotlar jarayonini huquqiy jihatdan ta’minlash, qonuniy asoslarini yaratishga alohida e’tibor berildi.

“Iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat”. (*Islom Karimov. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. T., “O‘zbekiston”, 1995-, 29- bet.*)

Davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgach, O‘zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirishni, milliy an‘analarga asoslangan o‘z yo‘lini tanlab oldi. Bu yo‘lning asosiy qoidalari Prezident Islom Karimovning “O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” nomli asarida asoslab berildi (besh tamoyil).

Birinchiidan, iqtisodiyotni mafkuradan batamom xoli qilish, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Bu yo‘lda xalqaro tajriba asos qilib olindi, xo‘jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan muammolar hisobga olindi.

Ikkinchiidan, davlatning o‘zi eski tuzumdan yangi tuzumga o‘tish davrida bosh islohotchi bo‘lishi zarur.

Uchinchidan, qonunning ustuvorligi, yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog‘i zarur.

To‘rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tishda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga

oshirish.

Beshinchidan, islohotlarni, bozor munosabatlarini shakllantirishni puxta oylab, bosqichma-bosqich amalga oshirish.

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning quyidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

➤ kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;

➤ ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish;

➤ xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta‘minlash;

➤ korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish;

➤ iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;

➤ jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilib borish;

➤ kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish;

➤ iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratish;

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratishga yo‘naltirilgan 400 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi va joriy etildi.

Ularni bir necha yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin:

1. Mulkchilik munosabatlari va ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo‘nalish doirasida mulkchilik to‘g‘risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida, ijara to‘g‘risida, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Xo‘jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya‘ni xususiy korxonalar to‘g‘risida, kooperatsiya to‘g‘risida, dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida, shirkat xo‘jaligi to‘g‘risida qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi, banklar va bank faoliyati to‘g‘risida, pul tizimi to‘g‘risida, tadbirkorlik to‘g‘risida, sug‘urta to‘g‘risida, birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida, qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxonalar bilan davlat o‘rtasidagi, korxonalar o‘rtasidagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yuvchi qonunlar, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarining bankrot bo‘lishi haqida qonunlar qabul qilindi, Xo‘jalik protsessual kodeksi ishlab chiqildi, Xo‘jalik sudi tuzildi.

3. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlar, ularning O‘zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi. Respublika iqtisodiyotining huquqiy asoslari Prezident farmonlarida, hukumat qarorlari va boshqa me‘yoriy hujjatlarda yanada takomillashtirib borildi. Qabul qilingan qonunlar amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. Iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bozor infratuzilmasini yaratishdan iboratdir.

“Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhimsiz - tovar, pul bozorlarida va mehnat resurslari bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida o‘zaro aloqani

ta'minlashi kerak bo'lgan bozor infrastrukturasisiz tasavvur etib bo'lmaydi". (*Islom Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., "O'zbekiston", 1995-, 97 - bet.*)

Bozor infratuzilmasi deganda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, ularni samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi muassasa, tashkilot va korxonalar majmuasi tushuniladi.

Respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo'g'inlari - turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi yaratildi. Avvalambor, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi transport, aloqa, suv va energetika ta'minoti, yo'l va ombor xo'jaligi tuzilmalari yaratildi. Bozor munosabatlarini shakllantirishda birjalar alohida o'ringa ega.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidayoq "Respublika ko'chmas mulk birjasi", "Tovar xomashyo birjasi", "Toshkent fond birjasi" tashkil etildi. Bu tarmoq yanada rivojlantirildi. 1991-2000 - yillarda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun xizmat qiluvchi 58 ta tovarlar va xomashyo birjalari, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi. Bozor munosabatlarini rivojlantirishda axborot infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma - yangi bank tizimi, o'z-o'zini kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish idoralari, pul jamg'armalari yaratildi. Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi bank-moliya tizimi yaratildi. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarda banklarning maqomi va faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berildi. Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qiluvchi maqomga ega. Tijorat banklari ixtisoslashtirildi.

Mustaqillikning dastlabki yilida 6 ta bank faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2010 -yilda 31 ta tijorat banklari, ularning 810 ta filiali aholiga xizmat ko'rsatdi. Viloyat, shahar va tumanlarda aholiga xizmat qiluvchi minibanklar ochildi. Minibanklar soni 2011-yil boshlarida 4000 dan oshdi. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari qo'yish va chet el sarmoyalarini jalb qilishda banklar faol qatnashmoqdalar. Tijorat banklarining iqtisodiyotning real sektoriga kreditlar berish imkoniyati, moliya bozoridagi ishtiroki yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. To'lovlarni naqd pulsiz plastik kartochkalar vositasida amalga oshirish tizimi yaratildi. So'mdagi plastik kartochkalar 1996- yilda paydo bo'ldi. 2011- yilda muomaladagi bank plastik kartochkalari soni 8 million donani tashkil etdi. Savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida plastik kartochkalariga xizmat ko'rsatadigan terminallar soni 86 mingtaga yetdi.



Respublikamizda tadbirkorlar va aholini ehtimoli bo'lgan turli zararlardan himoya qiluvchi sug'urta bozori vujudga keldi.

Davlat ishtirokida bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi "Kafolat", "Agrosug'urta", "O'zbekinvest" kabi uchta yirik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi. Ko'plab xususiy sug'urta kompaniyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan qo'shma sug'urta kompaniyalari ham vujudga keldi. 2002 - yilda sug'urta kompaniyalarining soni 28 - taga yetdi, ular moliya bozorida mamlakatimiz fuqarolari va tashkilotlariga 150 turdan ortiq yo'nalish bo'yicha sug'urta xizmati ko'rsatmoqdalar. **"Sug'urta faoliyati to'g'risida"**gi Qonunning qabul qilinishi (2002), Prezident farmoni bilan 2002 - yil 1- fevralidan boshlab sug'urta tashkilotlarining 3 yil muddatga daromad solig'idan ozod qilinishi mamlakatimizda sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ish bilan bandlik masalasi jiddiy muammoga aylanadi. Negaki, iqtisodiy tizim o'zgarayotgan paytda malakasiz kishilargagina emas, ma'lum ixtisosga ega bo'lgan xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar toifasi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlari ko'rildi.

Keyinchalik Respublika "Mehnat birjasi" va joylardagi 225 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi tashkil etildi. Ishsizlarni ro'yxatga olish, ularni kasbini o'zgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash yo'lga qo'yildi. Yangi ish o'rinlarini tashkil etishga e'tibor berildi. 1993 - yilda Respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 185,1 ming yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, 1998 yilda bu ko'rsatkich 345,9 mingni tashkil etdi yoki 1,8 marta ko'p yangi ish o'rinlari yaratildi. 2000 - yilda faqat kichik va o'rta biznes rivoji hisobiga 192,5 mingta, 2001- yilda esa 372 mingta, 2002 - yilda 370 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq, narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki, davlat turli kompensatsiya jamg'armalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafaqalar va stipendiyalar muntazam suratda oshirib borildi. Narxni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog'liq. 1992- yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasining "Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida" gi Qonuni kuchga kiritildi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vazirligi tizimida tuzilgan Antimonopol va narx-navo siyosatini o'tkazish bosh boshqarmasi monopol mavqeyidagi korxonalarini belgilab, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turibdi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi va unga amal qilinmoqda. Bozor munosabatlarini shakllantiruvchi va unga xizmat qiluvchi huquqiy negizlar hamda bozor infratuzilmasi yaratildi.

2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, mamlakatimizdagi iqtisodiy o‘sinh.

Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida mamlakatimizning birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil taraqqiyot yo‘li xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning **“O‘zbek modeli”** deb qabul qilindi. O‘zbek modeli ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo‘jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan muammolar hisobga olindi.

Barchaga ma‘lumki, taraqqiyotning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo‘lini tanlagan O‘zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo‘tadillashtirishga yordam beradigan o‘rta mulkdorlar tabaqasining paydo bo‘lishi demakdir. Bu borada qator qonunlar qabul qilindi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, dastlabki kezlarda, **kichik biznes faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi dastlabki normativ-huquqiy normalari va qonun hujjatlari qabul qilindi.** Bu borada ayniqsa 1991- yil 18-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Mulknini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida” gi qonuni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unga ko‘ra mulkchilik shakllarini o‘zgartirish sohasidagi ishlar respublika hamda hududiy maqsadga bosqichma-bosqich ishlab chiqiladigan va tasdiqlangan maxsus dastur asosida amalga oshirilishi qat‘iy belgilab qo‘yildi. Albatta, ushbu qonunning qabul qilinishi sohani bosqichma-bosqich rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, xalq xo‘jaligidagi barcha soha tarmoqlarini ommaviy xususiylashtirish uchun keng imkoniyat yaratildi, bu boradagi cheklashlar olib tashlandi. Birgina 1992-1996- yillarda davlat mulki ob‘ektlarini xususiylashtirish tufayli 1 million 7 -4 ming kishi turar-joy egasi, 2 million kishi xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalari, paylarining egalari, qishloq joylarida esa, 3 million kishi yordamchi xo‘jalik, 19 ming kishi ko‘chmas mulk egasi bo‘lib qoldilar. Bu raqamlar, shubhasiz jamiyatda mulkdorlar sinfini shakllantirish yo‘lidagi muhim qadamlar qo‘yilganligini anglatar edi. Amalga oshirilgan dastlabki islohotlar natijasida 1991-1996- yillar mobaynida iqtisodiy islohotlarning barcha yo‘nalishlarida salmoqli institutsional o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, turar joylar, savdo xizmat ko‘rsatish sohalari, matlubot jamiyati ob‘ektlari va turli tarmoqlarning mayda korxonalarini xususiylashtirish amalda tugallandi, o‘rta va yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni jadal davom ettirildi. Bu borada mulknini davlat tasarrufidan chiqarish va hususiylashtirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo qilish, qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirish, agrar munosabatlarning yangi tipini yaratish jarayonlari amalga oshirildi. Bu tadbirlarning natijasi o‘laroq iqtisodiyotda tub sifati o‘zgarishlari vujudga keldi. Davlatga qarashli bo‘lmagan, nodavlat, ya‘ni xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushi keskin oshdi. Bu sektor 1995- yilda sanoat mahsulotlarning 44 foizini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining esa 97 foizini berdi. Barcha kapital mablag‘larning 44 foizdan ortiqrog‘i uning hissasiga to‘g‘ri keldi.

2000 - yilgacha xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 64 foizi ana shu sektorda mehnat qilgan. Bu esa o'sha kezlarda bozor munosabatlariga o'tish muammolarini sinchkovlik bilan o'rganib, ularni hal etishda ehtiyotkorlik bilan yondashishga e'tibor qaratishni taqoza etar edi. Ayniqsa endigina bozor psixologiyasi odamlar ongida shakllanib kelayotgan bir sharoitda respublikada birinchi navbatda maishiy xizmat, umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq, mahsulotni qayta ishlovchi kichik korxonalarni ochish zarur edi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillarida, kichik biznesga ko'maklashish maqsadida respublika va hududiy miqyosda faoliyat olib boruvchi – Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznes fond, 1995-yil iyul), «Madad» sug'urta agentligi (1995- yil 26 -iyun), O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi (1996- yil mart) hamda ularning hududiy bo'limlari tashkil etildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi, "Hunarmand" uyushmasi, Tadbirkor ayollar uyushmasi tashkil etildi.

Ammo o'sha paytlarda sohada qator muammolar ham mavjud bo'lib, ularning mavjud holati bir necha yillar taraqqiyotga to'siq bo'lib keldi. Xususan, 1999- yil 1-iyunga qadar ro'yxatdan o'tgan korxonalar tarkibida kichik va o'rta korxonalar salmog'i kommunal xo'jalikda 42,9%, maishiy xizmat sohasida 85,0%, qurilishda 89,3%, qishloq xo'jaligida 89,9%, sanoatda 93,5%, savdoda 95,3%, umumiy tijoratda 96,6%ni tashkil etgan bo'lsada, **amalda esa ro'yxatdan o'tib, o'z faoliyatini davom ettirayotgan korxonalar ulushi 20% ni tashkil etgan xolos. Qolganlari** esa turli sabalar bilan yopilib ketgan bo'lib, buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi.

Statistik ma'lumotlarga murojaat qilinsa, respublika bo'yicha 1996- yilda tashkil qilingan 7 -400 kichik korxonadan 20%, 1998 yili esa 37 -00 ta korxonadan 7 -0% tugatilib ketgan. **Shu boisdan ko'pgina tadbirkorlar faoliyat bilan shug'ullanishdan sekin-sekin uzoqlashganlar yoki ish boshlab qo'yib, uni oxirigacha etkazmasdan, javobgarlikni davlatga tashlab qo'yganlar. Masalan, 2000 - yilning o'zida faqat Toshkent shahar bo'yicha tugatish jarayonida turgan kichik biznes sub'ektlari 4666 ta bo'lib, ulardan 54,7 -% yoki 25 -52 tasida ta'sischi bo'lmagan. Tugatilish holida turgan jami korxonalardan tugatilganlari 25 -,6% ni tashkil qilgan yoki 1194 ta bo'lgan.**

Ushbu muammolarni to'g'ri anglagan va unga tanqidiy asosda yondoshgan Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 - yil 22 - dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Yurtimizda tadbirkorlik nima uchun kutilgan darajada rivojlanmayapti? Chunki bu soha vakillarini asossiz ravishda tekshirish holatlari ko'p. Ochig'ini aytganda tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga o'zimiz, davlat idoralari yo'l qo'ymayapmiz. Hech kimga kerak bo'lmagan tartib-tamoyillar hamon saqlanib qolmoqda, joylarda ko'pgina amaldorlar faqat o'z shaxsiy manfaatini o'ylab ish ko'rmoqda. Bundan buyon bu sohani qo'llab-quvvatlash, biznes sub'ektlarini jadal barqaror rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'riladi", deya qayd qilganligi bejiz emas, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1998- yil 9- apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. 2001- yil 22 - avgustda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazib va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorga binoan kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojtirishni rag'batlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi tashkil etildi. Kichik va o'rta biznes sub'ektlariga Respublika tovar-xomashyo birjasi, Agrosanoat birjasi, "O'zulgurjisavdo" orqali moddiy-texnika resurslari sotildi.

Mustaqillik yillarida soha rivoji tahliliga ko'ra yana raqamlarga murojaat etilsa, 2003 - yili yurtimizdagi 5 ming 630 ta aholi yashash manzilgohlarida ko'plab kichik va o'rta biznes korxonalarini tashkil etilib, qariyb 155 mingta yangi ish o'rinlari yaratilgan. Dastur doirasida aholiga 2003 - yilda 1 milliard 200 million so'mlik xayriya yordami ko'rsatilgan. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan 400 mingdan ziyod ayolga davlat tomonidan nafaqa puli tayinlangan. 180 ming kam ta'minlangan oilaga qariyb 4 milliard so'm miqdorida moddiy ko'maklar berilgan. 2003 - yilda 25 - mingdan ziyod yolg'iz pensioner va nogironlarga 630 million so'mlik moddiy yordamlar ko'rsatilgan.

So'ngi yillarda joylarda kichik korxonalar ochish va fermer xo'jaliklarida ish bilan band aholi soni ham yil sayin ortib, 2007 - yildagi 2094,2 ming kishidan 2011-yilda 2338,4 ming kishiga yoki 11,6 foizga ko'paygan. Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bois, bu sohada ish bilan band bo'lgan aholi soni yil sayin ortib bormoqda. 2007 -2011- yillarda respublika bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, lekin litsenziyaga ega tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 140,8 ming kishidan 698,4 ming kishiga yoki 4,96 marta ko'paygan.

Mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoati

Mustaqillik mashinasozlik sanoati jadal rivojlanishi uchun ham zamin yaratdi. 1994 -yilda barpo etilgan O'zbekiston-Isroil "O'zIsmash" qo'shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontal shpindelli yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutuqi, deb e'tirof etildi.

1992-yilda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaga barpo etishga kelishib olindi. 1993 -1996-yillarda Asaka shahrida "UZ-DAEWOOavto" zavodi barpo etildi va "Damas", "Tico", "Nexia" rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1996-yilda 25 -,3 ming, 1997 - yilda 64.9 ming, 1998-yilda 54,4 ming, 1999-yilda 58,4 ming, 2004 -yilda 7 -0 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. "UZ-DAEWOO" zavodida 1999-2003 -yillarda "Matiz", "Lacetti" rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakatga aylandi. "UZ-DAEWOOavto" zavodi 10 yil (1996-2006-yil iyun) davomida 571580 ta avtomobil tayyorladi, ularning 198609 tasi



xorijga eksport qilindi.

Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “SamKochavto” zavodi qurildi va 1999-yilda ishga tushirildi. 2000 -yilda “SamKochavto” zavodi 483 ta avtobus, 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqardi.

Respublikamizda avtomobillarga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o‘nlab yangi korxonalar bunyod etildi. Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida avtomobillarga butlovchi qismlar tayyorlaydigan 61 ta qo‘shma korxonalar qurilib ishga tushirildi. Hozirgi paytda “Uz-DAEWOO” zavodi uchun zarur bo‘lgan butlovchi qismlarning 60 foizi O‘zbekistonda ishlab chiqarilmoqda.

2007 -yilda “O‘zavtosanoat” uyushmasi bilan AQSHning General Motors kompaniyasi o‘rtasida GM-Uzbekistan qo‘shma korxonasi tashkil etildi. 2012-yilning 20-mart kuni “GM-Uzbekistan” qo‘shma korxonasida ishlab chiqarilgan “Chevrolet Malibu” avtomobillarining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

2009-yildan Germaniyaning “MAN Nutzfahrzeuge AG” konserni hamkorligida “MAN Avto-Uzbekistan” qo‘shma korxonasi tashkil etilib, “MAN” yuk mashinalari ishlab chiqilmoqda. Samarqandda barpo etilgan va ishga tushirilgan “SamKochavto” zavodida avtobus va yuk avtomobillari ishlab chiqarilmoqda.

Mashinasozlik sanoatining yirik korxonalari — Toshkent traktor zavodi, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi va boshqa korxonalar mustaqillikning dastlabki yillarida uchragan qiyinchiliklarni yengib o‘tdi. Birgina Toshkent traktor zavodida 2000 -yilda 954 ta, 2001-yilda 1002 ta traktor ishlab chiqarilgan bo‘lsa, hozirgi paytda yiliga 3,5-4 ming donagacha traktor, minglab tirkamalar ishlab chiqarilmoqda.

1995-yil oktabr oyida O‘zbekiston bilan AQSHning “ABB Lummus Global” kompaniyasi o‘rtasida Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasini qurish bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Qurilish ishlari 1997 -2001- yillarda amalga oshirildi, majmua qurilishiga 1 mlrd AQSH dollari hajmida sarmoya o‘zlashirildi. 2001-yil dekabrda Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Sanoatning yengil va to‘qimachilik kabi turlari tez sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Janubiy Korea ishtirokida paxtani qayta ishlovchi “Qabul-O‘zbekKO”, “Kosonsoy-Tekmen”, “Papfen”, “Asnam tekstil”, “Karakulteks”, “Chinoz to‘qimachi”, “Qabul-FerganaKO”, “Oqsaroy to‘qimachi” qo‘shma korxonlari barpo etildi. Faqat 2004 -yilda 17 ta yengil sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq iste‘mol mollari ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi. Agar 1991-yili respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2004 -yilda bu ko‘rsatkich 28 - foizga yetdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmi ancha oshdi.

Mustaqillik yillarida “Zarafshan-Newmont” korxonasi, Qizilqum fosforit kombinati, Qo‘ng‘irot soda zavodi, Quvasoy kvarts zavodi, Yangiyo‘l va Andijon spirt zavodlari, Toshloq ip yigiruv fabrikasi va boshqa ko‘plab korxonalar bunyod etildi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyot tarkibidagi tub o'zgarishlar, yangi korxonlarning bunyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi. 1991-2002 -yillarda 1872 korxon va boshqa ishlab chiqarish muassasalari qurildi, mahsulotning 9,5 mingdan ortiq yangi turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 1990 -yilda respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini 100 foiz deb olsak, undan keyingi yillarda kamayib bordi. 1995-yilga kelib ***makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi*** va 1995-yildan boshlab ***barqaror o'sish*** ta'minlandi. 1990-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 100 foiz deb olsak, 2000 -yilda 123,6 foizga, 2010 -yilda 3 martaga o'sdi. Un va un mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, shakar va qand mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi, iste'mol buyumlari importi kamaydi.

Dastlab, Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 1991-1995-yillarda pasayib bordi, 1996-yildan boshlab o'sish boshlandi. Natijada O'zbekistonda 2000 -yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (xarid qobilyati pariteti bo'yicha) 1990-yilga nisbatan 1,3 marta, 2010-yo'lda esa 3,4 marta o'sishiga erishildi.

O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib iqtisodiy barqarorlikka erishgan, iqtisodiy ko'rsatkichlari izchil o'sib borayotgan mamlakatdir. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'atlari so'nggi 11 yil - 2005 - 2015-yillar davomida 8 foiz- dan yuqori bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonning umumiy eksport hajmida tayyor mahsulot va xizmatlar ulushi oshdi, tashqi savdoda ijobiy saldog'a erishildi.

Istiqlol yillarida olib borilgan islohotlar natijasida shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o'zgarib, aholi turmush saviyasi o'sib bordi. Yirik inshootlar, korxonlarning bunyod etilishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari odamlarning moddiy va ijtimoiy hayotini, farovonligini yildan yilga yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Aholini tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi salmoqli darajada o'sdi. Birgina 1999-yilda 4,5 ming kilometr gaz tarmog'i (shundan 4,3 ming kilometri qishloq joylarida), 2 ming kilometr dan ziyod ichimlik suv tarmog'i (shundan 1,9 ming kilometri qishloq joylarida) ishga tushirildi.

Transport sohasida ham jahon standartlariga qiyosan jahondagi yetakchi kompaniyalarning havo kemalari bilan ta'minlangan O'zbekiston Havo yo'llari aviakompaniyasi dunyoning 25 - mamlakati bilan havo aloqalarini o'rnatgan, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining faol qo'llab quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2000 - yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 - foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2008- yilda bu ko'rsatkich 48,2 foizni, 2009 - yilda 50,1 foizni, 2010 - yilda 52,5 foizni, 2011- yilda esa 54 foizni tashkil etdi yoki 2000 - yilga nisbatan 23 foizga o'sgan. 2010 -2016- yillar davomida respublikada tadbirkorlik orqali tashkil etilgan ish o'rinlari soni 3,9 foizga ortgan. 2017 - yilda esa dasturga muvofiq sanoatni (5440 ta loyihada 131 - mingta ish o'rni bilan), qishloq xo'jaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish o'rni bilan) va xizmat ko'rsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish o'rni bilan) rivojlantirish bo'yicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining

faoliyati kuchaytirildi. Kelajakda mamlakatda 25 - mingga yaqin investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga, 25 -6, 4 mingdan ortiq ish o‘rinlari tashkil etishga erishiladi.

3. O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining o‘rni. Agrar islohotlar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach qishloq xo‘jaligida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat xo‘jaliklari tugatilib, jamoa, shirkat xo‘jaliklariga aylantirildi, chorvachilik, aksariyat xo‘jaliklarning qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi, dehqon va chorvachilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklari tashkil etila boshlandi. Agar mamlaktimizda fermerlik harakatining shakllanish tarixi va rivojlanishiga murojaat qilinsa, fermerlikni shakllantirish chorvachilik sohasi islohotlaridan boshlangan edi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga e‘tibor berildi. Xo‘jaliklar ekin ekish sohasida mustaqil bo‘ldilar. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklash yo‘li izchillik bilan amalga oshirildi. Paxta ekiladigan maydonlar qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog‘i 1991-yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2000 -yilda 42 foizga o‘tdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Respublikamizda don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash yo‘li izchillik bilan amalga oshirildi. Agar 1991-yilda mamlakatimizda 1,9 mln tonna don tayyorlagan bo‘lsa, 2012-yilda 7 -,5 mln tonna don yetishtirildi. 2014-yilda 8 mln 50 ming tonnalik g‘alla xirmoni tayyorlandi.

Yaqin tariximizda chorvachilik sohasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 - yil 15 martdagi “Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi, 1994 - yil 23 fevralda “Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xujaliklari va xususiylashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish choralari to‘g‘risida”, 1995- yil 24 - martdagi “Chorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab – quvvatlash chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qarorlarga ko‘ra, 1995- yilda jamoa xo‘jaliklarining zarar bilan ishlayotgan 1499 qoramolchilik fermalari xususiylashtirildi. Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go‘sh va sutning 7 -5% ni xususiy sektor bera boshladi.

Ushbu davrda agrar soha fermerlik yo‘nalishining shakllanishida davlat tasarrufidagi qo‘y, echki, qoramollar, yiliqi, tuya kabi hayvonlarni fermerlarga bo‘lib berish, davlat mulkchiligini tugatish, ularni xususiylashtirishga katta e‘tibor qaratildi. Natijada 1990 - yilda respublikada bironta ham fermer xo‘jaligi faoliyat yuritmagan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining xo‘jalik shakllari bo‘yicha taqsimlanishiga e‘tibor qaratilib, 2000 - yilga kelib ular tasarrufidagi erlar 632,2 ming gektarga, 2010 - yilga kelib esa 3 mln 143 ming gektarga etgan. Vaholanki 1990 - yilda O‘zbekistonda sovxozlar, kolxozlar, yordamchi xo‘jaliklar maxsus shirkatlar, qorako‘lchilik fermalariga tegishli er maydonlari 3 mln 974 ming gektar bo‘lgan bo‘lsa, 2000 - yilga kelib ularning erlari fermer xo‘jaliklariga bo‘lib berilib, o‘sha

qishloq xo‘jalik korxonalarining yirklashtirilishi natijasida 2010 - yilda umumiy er maydonlari qisqartirilib, zarar bilan ishlayotgan yoki dotatsiyaga tushgan xo‘jaliklar erlari 93 ming 900 gektarga kamaytirilgan edi.

2000 - yillardan boshlab agrar sohada fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi barqaror va muntazam tus oldi. Fermer xo‘jaligining yuzaga kelish asoslari Vazirlar Mahkamasining 2002 - yil 5 yanvardagi 8-sonli “Qishloq xo‘jaligi korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori va 2003 - yil 27 - oktabrdagi “2004 -2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Farmonida batafsil yoritib berilgan.

Agar 2001- yilda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklarining soni 55445 birlikdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 2006 yilga kelib 189235 birlikka etgan, yoki 3,4 baravar oshgan. Xo‘jaliklar sonining tahlil davridagi o‘rtacha yillik o‘sishi 40,2 foizni tashkil etgan. Jami 428 - ta shirkat xo‘jaligi negizida 22 - mingdan ortiq fermer xo‘jaliklari tashkil etiladi.

Respublikamizda fermerlikning kelgusidagi rivojlanishi va yangi imkoniyatlaridagi o‘zgarishlar 2000 - yillar oxiriga to‘g‘ri keladi. Puxta o‘ylangan dastur asosida 2008-2010 - yillar davomida o‘tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko‘ra fermer xo‘jaliklarining er maydonlari hajmi kamaytirildi. Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2011- yil yakuniga ko‘ra, Respublikamizdagi fermer xo‘jaliklarining soni 215776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko‘paytirishga erishildi. O‘rtacha bir fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydonini tarmoqlar bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich o‘sha davrda paxtachilik va g‘allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog‘dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo‘lgan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda agrar islohotlarga ustuvorlik berib kelinmoqda. Chunki, Respublika aholisining 62% qishloqda yashaydi, qishloq xo‘jaligida YaIMning 30 foizi, mamlakat valuta tushumlarining 55 foizi shakllanardi. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligida davlat tasarrufidagi mulk xususiyashtirildi. Qishloq xo‘jaligida nodavlat sektorining ulushi qariyb 100 foizni tashkil qilmoqda.

Islohot yillarida odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo‘shimcha ravishda 550 ming gektar sug‘oriladigan yer ajratildi va shaxsiy tomorqa uchun berilgan yer maydoni 700 ming gektarga yetdi, 9 milliondan ortiq odam ana shu yer hosilidan foydalanmoqda.

Istiqlol yillarida qishloqda xo‘jalik yuritishning maqbul shakllarini yaratishga alohida e‘tibor berildi. Agrar islohotlarning dastlabki yillarida sovxoz va kolxozlar jamoa xo‘jaliklariga aylantirilgan edi. Ammo ular xo‘jalik yuritishda o‘zlarini to‘la-to‘kis oqlamaganliklari tufayli mulk paylari asosida shirkatlarga aylantirildi. 1999- yilda 898 ta, 2000 -yilda 856 ta qishloq xo‘jaligi korxonalari shirkatlarga aylantirildi. Ularning umumiy soni 2002 -yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, ruspublika bo‘yicha 1900 taga yetdi, ularda 1 mln 400 ming kishi shirkat a‘zosi sifatida mehnat qildi. Biroq shirkat xo‘jaliklari ham o‘zini oqlamadi. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2003-yil 24-martdagi **“Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘grisida”**gi Farmonida agrar islohotlarining yangi yo‘nalishlari belgilab berildi. Farmonga binoan 2003 -2007 -yillar- da shirkat xo‘jaliklari tugatildi, ularning negizida fermer xo‘jaliklari tashkil etildi. 2007 -2008-yillarda paxtachilik, sabzavotchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining yer maydonlari qariyb 2,5 baravarga kengaytirildi. Fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchining asosiy shakliga aylandi. Qishloqlarda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar dehqon xo‘jaliklari sifatida qayta shakllantirildi. Dehqon xo‘jaligi - bu oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, tomorqa yer uchastkasi oila boshlig‘iga umrbod meros qilib berildi, mahsulotlar oila a‘zolarining shaxsiy mehnat asosida yetishtiriladi va sotiladi. 2004 -yil boshlarida mamlakatimizda 3,5 millionga yaqin dehqon xo‘jaliklari yuridik va jismoniy shaxs maqomida faoliyat yuritdi, ularda 8 milliondan ortiq ishga yaroqli kishilar mehnat bilan band bo‘ldi. Dehqon va fermer xo‘jaliklari O‘zbekistonda asosiy ishlab chiqarish subektlariga aylandi. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning qariyb 100 foizi dehqon va fermer xo‘jaliklarida yetishtirilmoqda.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida qishloq hayoti yangilandi, dehqon va fermerning mehnatga munosabati, dunyoqarashi o‘zgardi. Ular yerning haqiqiy egasiga, o‘z mehnati evaziga yetishtirgan mahsulotning egasiga aylandi.

4. O‘zbekiston xalq xo‘jaligining yangi istiqbollari

Mamlakat rahbari tomonidan 2019- yil O‘zbekistonda **“Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”**, deb e‘lon qilindi. Bu borada Davlat Dasturiga muvofiq, mamlakatda biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalalari keng o‘rin olganligi istiqbolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada taraqqiy ettirish vazifasini qo‘ymoqda. 2017 - yilda ko‘zlangan rejaga muvofiq sanoatni (5440 ta loyihada 131 - mingta ish o‘rni bilan), qishloq xo‘jaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish o‘rni bilan) va xizmat ko‘rsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish o‘rni bilan) rivojlantirish bo‘yicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyati kuchaytirildi. Kelajakda mamlakatda qishloq xo‘jalik sohasi bilan bog‘liq 25 mingga yaqin investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga, 256, 4 mingdan ortiq ish o‘rinlari tashkil etishga erishilishi ko‘zlangan .

Vaholanki, mamlakatda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoyillarini qisqartirish hamda soddalashtirish maqsadida 2018- yil 1-avgustda **“O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”** gi Prezident Farmoni e‘lon qilindi. Farmonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investitsiyalarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga asosiy urg‘u

berilgan. Unda shuningdek, qator yillar mobaynida sohadagi dolzarb muammolar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular orasida ayniqsa joylarda, investorlarning qo'llab-quvvatlanmasligi, bu borada tegishli vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq byurokratik to'siq va g'ovlar hali ham mavjudligi, soliq yukini kamaytirish va investorlar uchun soliqqa tortish tizimidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalar belgilangan.

Agar raqamlarga murojaat qilsak, 2017 - yilgacha 90 dan ziyod mamlakatning xorij mablag'lari ishtirokidagi 4 mingdan ziyod korxonalari faoliyat yuritgan edi. Har yili jalb qilinayotgan investitsiyalarning 20 foizini xorij investitsiyalari va kreditlari tashkil etgan. Masalan, mamlakatimizning investitsion loyihalarni amalga oshiruvchi asosiy chet el hamkorlariga "Djeneral motors", "Boing", "Xonevell", "Eyrbas", "MAN", "Klaas", "Knauf", "Lemken", "Nestle", "Teknip", "ABB", "Maksam", "Isuzu", "Itochu", "Mitsibisu", "Xitachi", "Marubeni", "Xyunday", "Samsung", "Eldji", "Lotte kemikal", "Xuavey", "Si En Pi Si", "SITIK" va boshqa ko'plab kompaniyalar kiradi.

2017 - yilgacha O'zbekiston iqtisodiyoti deyarli olti martaga, aholining real daromadlari esa to'qqiz martaga yaqin o'sdi. Aholi jon boshiga ichki yalpi mahsulot ulushi 6,9 martagacha ortdi, bu esa, O'zbekistonga o'rta darajadagi daromadli davlatlar qatoriga kirish imkonini berdi.

O'shanda jahon banki reytingiga binoan iqtisodiy darajasiga ko'ra, O'zbekiston 190 mamlakat orasida 63 o'rinni egalladi. Butunjahon iqtisodiy forum bahosiga ko'ra, 2014 va 2015 yakuni va 2016-2017 - yillar o'sish prognozlarini bo'yicha O'zbekiston dunyoda eng tez rivojlanayotgan beshta davlatdan biri hisoblanishi qayd qilingan. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari aholi o'rtasida daromadlarni nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanishini ta'minlagan edi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, 2002 - yilgacha respublikaga 12 mlrd AQSH dollaridan ortiq investitsiya kiritilgan. Yoki xorijlik fuqarolar va tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan qo'shma korxonalariga jalb qilingan investitsiyalar ulushi 2000 - yildagi 6,9 % dan 2001- yilda 26,0 % ga, ya'ni 3,7 - baravar oshgan. Respublika bo'yicha 2007 -2011- yillarda umumiy investitsiyalar hamjmda xorijiy investitsiyalar ulushi 22 -25 -% ni tashkil qildi.

Lekin hali ham xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ko'ngilagidek, deb bo'lmaydi. Agar mustaqillik yillaridagi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsa, jumladan, 2002 - yilgacha respublikaning 31 - tumanida xorijiy investitsiyalar ishtirokida birorta ham korxonalar tashkil etilmagan. Agar 2000 - yilning boshida 143,5 ming korxonalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2002 - yilda yurtimizda 240 mingta o'rta va kichik korxonalar faoliyat ko'rsatgan. Shulardan 85 mingtasi fermer xo'jaliklaridir. Xususiy sektor aholining 30% ni ish bilan ta'minladi. Xususiy korxonalarini YAIMdagi ulushi 35% bo'lgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli esa bu borada oshib bormoqda. Jamg'arma tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatilgan. O'zaro tuzilgan shartnomalar asosida 2015-yili qiymati 840 million dollardan ziyod

tovarlar eksport qilingan¹¹. Jamg'arma ko'magida 2016- yilda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzilgan.



Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonning bugungi imkoniyatlari nuqtai nazaridan olib qarganda albatta past. Shu boisdan, Prezident o'zining "Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi

kerak" nomli kitobida muhim vazifalardan biri sifatida – "O'z tadbirkoreksport" va "O'z sanoateksport" aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, Milliy bank huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi yo'nalishi bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksporti bilan bog'liq kamida 1 milliard 500 million dollarlik eksportni ta'minlashi kerakligini uqdirgan edi¹².

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining o'sishi o'rtacha 67 foizdan kam bo'lmagan. Birgina 2015 yilda dalalardan 7.3 million tonnadan ortiq don, 12,8 mln tonnadan ziyod sabzavot va kartoshka, salkam ikki million tonna poliz mahsulotlari, qariyb 2,8 million tonna meva, 1,5 million tonnadan ziyod uzum mahsulotlari yig'ishtirib olindi. Go'sht ishlab chiqarish hajmi 2014 yilga nisbatan 106,7 -, sut ishlab chiqarish 107 -,1 tuxum ishlab chiqarish 111,1 foizni tashkil etdi. Bu qishloq mehnatkashlari, soha mutaxassisleri va mutasaddilarining qilgan mehnatlari samarasidir. 2017 - yilgacha yurtimizda 160 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 36 mingdan ortig'i ko'p tarmoqli yirik subyektlarga aylandi. Buning quvonarli jihati shundaki, ayni paytda ular faqatgina dehqonchilik yoki chorvachilik bilan cheklanib qolmasdan, balki zamonaviy texnologiyalar, ixcham qayta ishlash uskunalari jalb etgan holda, qo'shimcha tarmoqlarni o'zlashtirishga harakat qilishyapti.

O'zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavotlariga bo'lgan talab dunyo miqiyosida talab ortib bormoqda. Shu bois ham, hukumat tomonidan istiqbolda oziq ovqat ekinlari maydonlarini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Prezidentning 2015-yil 29 dekabrda "2016-2020- yillar davrida qishloq xo'jaligini qayta shakllantirish va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi muhim dasturilamaldir. Chunki, bu hujjatda tuproq unumdorligi nisbatan past, suv ta'minoti og'ir, kam rentabelli ekin maydonlariga paxta va g'alla o'rniga meva sabzavot, kartoshka, moyli, ozuqabop ekinlar ekish vazifasi belgilab berildi. Ularning amalga oshirilishi natijasida yaqin besh yilda boshqoli don yetishtirish hajmini 8,5 mln tonnaga etkazish, kartoshka yetishtirishni 35% ga, sabzavotlarni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foizga, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 43,7 - foizga, tuxum yetishtirishni 74,5 foizga ko'paytirish, baliq etishtirishni 2,5 martaga oshirish mo'ljallanmoqda. Mamlakatimizda ishlab

¹¹ Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 25 йиллиги байрами муносабати билан "Мустақиллик дарслари" машғулотларини ўтказиш бўйича ўқув қўлланма. Т., 2016. 52-бет.

¹² Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик -ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т., "Ўзбекистон". 2017.

chiqarilayotgan yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotining 40 foizdan ortig‘ini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

Chorvachilik sohasida ham erkin bozor mexanizmlari shakllantirilgani, ko‘plab imtiyozlar berilayotgani natijasida chorva mollari bosh soni va chorvachilik ishlab chiqarish hajmi muttasil ortib boryapti. Chorvachilik fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, ularda naslli qoramollar podasini ko‘paytirish maqsadida keyingi 10 yil mobaynida Polsha, Avstriya, Gollandiya, Germaniya kabi mamlakatlardan 60 mingdan ko‘proq naslli qoramollar olib kelindi.

Bugungi kunda agrar sohada salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasi ham muhim hisoblanadi va hali bu borada qator muammolar borligi barchaga ayon.

Agrar sohada zamonaviy fan texnikani puxta biladigan trener-o‘qituvchilarni tayyorlovchi maxsus kurslarning muttasil ishlab turganligiga qaramay, yuqorida ko‘rsatilgan o‘qitish tizimlarida mahoratli, bilimli pedagog kadrlarning etishmasligi ham dolzarb muammolardan biridir.

Shu boisdan yoshlarning agrar sohada biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish va qo‘llab-quvvatlash, band bo‘lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko‘nikmalariga o‘qitish, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta‘minlashga qaratilgan **“Yoshlar – kelajagimiz”** Davlat dasturi qabul qilindi. Shuningdek, **“Har bir oila – tadbirkor”** dasturi doirasida ularning oila a‘zolariga issiqxona tashkil etish, qoramol, parranda sotib olish va tadbirkorlik faoliyati uchun 3 yillik muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, yillik 7 % stavkasi miqdorida kreditlar ajratilishi o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyoti nima?
2. Mustabid sovet tuzumidan mustaqil O‘zbekistonga qanday iqtisodiyot meros bo‘lib qolgan edi?
3. Mustaqillik iqtisodiyot sohasida qanday imkoniyatlar yaratdi?
4. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda qanday tamoyillarga tayanildi?
5. Islohotlarning strategik maqsadlarini bilasizmi?
6. Iqtisodiy islohotlar qanday yo‘nalishlarda olib borildi?
7. Bozor munosabatlarini shakllantiruvchi qanday qonunlar qabul qilindi?
8. Bozor infratuzilmasi nima?
9. O‘zbekistonda bozor infratuzilmasining yaratilishi haqida so‘zlab bering.
10. Aholini ish bilan band etish muammosi qanday hal qilinmoqda?

8-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIIY O‘ZGARISHLAR

Reja:

1. Aholining kam ta‘minlagan qatlamini qo‘llab-quvvatlash va sog‘liqni soqlash tizimidagi islohotlar. Kuchli ijtimoiy siyosatning xususiyatlari va ustuvor yo‘nalishlari.

2. O‘zbekistonda ijtimoiy islohotlarining yangi bosqichiga ko‘tarilishi.

3. Korrupsiyaga qarshi kurash.

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga mamlakatning kam ta‘minlagan qatlamini qo‘llab-quvvatlash va sog‘liqni soqlash tizimidagi islohotlari, shuningdek ijtimoiy siyosatning xususiyatlari va ustuvor yo‘nalishlari haqida ma‘lumot berish, korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida atroflicha tushuntirish berishdan iborat.

Tayanch iboralar: Narxlarni erkinlashtirish, Sog‘lom ona va bola, Davlat sanitariyasi, “Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risida“, Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati, “Xarakatlar strategiyasi”, “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida qonun”

1.Aholining kam ta‘minlagan qatlamini qo‘llab-quvvatlash va sog‘liqni soqlash tizimidagi islohotlar. Kuchli ijtimoiy siyosatning xususiyatlari va ustuvor yo‘nalishlari.

Mustaqil O‘zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki paytdayoq, uning asl maqsadi insonlarga munosib turmush va ish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat, deb belgilandi. Buning sababi shundaki, odamlarning ijtimoiy muammolariga e‘tibor bermaslik barqarorlikka va milliy xavfsizlikka katta xavf tug‘diradi. Bozor munosabatlariga o‘tishning hamma bosqichlarida aholini oldindan ijtimoiy himoyalash davlat siyosatida ustuvor yo‘nalish mavqeyini egalladi.

“O‘zbekistonning o‘z yangilanish va taraqqiyot yo‘liga asos bo‘lgan eng muhim qoidalaridan biri bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o‘tkazishdir”. (I. A. Karimov. *O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild, 322 -bet.*)

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichlari mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, narxlarni erkinlashtirish, ish haqining kamayishi, nochor aholi qatlamining vujudga kelishi kabi holatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan O‘zbekistonda aholi daromadlari darajasini saqlashga alohida e‘tibor berildi. Birinchi navbatda, xalq iste‘moli mahsulotlari narxining o‘zgarishi va pulning keskin qadrsizlanishi sharoitida aholi daromadlari darajasini saqlash tadbirlari ko‘rildi. Shu maqsadda 1993 - yil yanvar oyida ish haqi to‘lashning yagona tarif setkasi joriy etildi. Bu tadbir, xodimlarning ish haqi miqdorini tarif koeffitsiyentlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita bog‘lash imkonini berdi. Eng kam ish haqini muntazam oshirish orqali aholining o‘rtacha ish haqi, pul daromadlari ham oshib bordi. 1994 - yilda mazkur tarif setkasiga muvofiq eng kam ish haqi 150 so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 1995- yilda 250 so‘m, 2009 - yil 1 dekabrda 37 680 so‘m, 2010 - yil 1-dekabrda 49735 so‘m, 2012- yil 1- avgustdan 7 2355 so‘mga yetdi. Eng kam ish haqidan kelib

chiqqan holda davlat budjetidagi tashkilot va muassasalari xodimlarining oylik maoshi tarif setkasida ular uchun belgilangan koeffitsiyentlarga mos ravishda oshirib borildi.

Davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalarda, masalan, sanoat, transport, aloqa, qurilish, axborot-hisoblash tarmoqlaridagi ishchi-xizmatchilarning maoshi yanada yuqoriroq darajada o'sib bordi. Pensiya, nafaqa, talabalarga to'lanadigan stirendiyalar miqdori ham eng kam ish haqining oshishiga mos ravishda o'sib bordi. Mamlakatimizning 2 mln 640 ming fuqarosi pensiya oladi, nogironlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga davlat nafaqasi berilmoqda. Bunday to'lovlar 2000 - yilda 187,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Oliy o'quv yurtlari talabalariga beriladigan stirendiyalar miqdori 1998 - 2000 - yillarda 3,8 baravar ortdi. 2000 - yilda oliy o'quv yurtlarining 142 ming talabasi 6 mlrd 600 mln so'm stirendiya oldi. Davlat tomonidan amalga oshirilgan bu tadbirlar natijasida aholi daromadlari darajasining keskin pasayishining oldi olindi. Aholining turmush darajasi ichki iste'mol bozoriga, oziq-ovqat mahsulotlari va uy-ro'zg'or buyumlari narx-navosiga bog'liq, albatta. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida amalga oshirilgan narxlarni erkinlashtirish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash, ichki iste'mol bozorini davlat tomonidan nazorat qilish choralari ko'rildi. Narxlar 1992- yil yanvaridan boshlab bosqichma-bosqich, aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan choralarni oldindan ko'rib qo'ygan holda erkinlashtirila boshlandi. Vazirlar Mahkamasining "Narxlarni erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaroriga muvofiq 1992- yil 10 yanvardan boshlab O'zbekistonda keng doiradagi ishlab chiqarilayotgan sanoat mollari, texnika vositalari ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan (erkin) narxlari va tariflariga o'tildi. Hukumat aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasini, ko'rsatiladigan ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflarini belgilab qo'ydi. Shu munosabat bilan don, bug'doy yetishtirish uchun, un va boshqa oziq-ovqat mollarini ishlabchiqarishga sarflanadigan xarajatlarning bir qismi respublika budjetidan to'landi. O'quvchi va talabalarga bepul nonushta va imtiyozli ovqat berishdan ko'rilgan zarar davlat hisobidan qoplandi, bolalarga mo'ljallangan ayrim turdagi tovarlarni, dori-darmonlarni ishlab chiqarishda korxonalar davlat dotatsiyasi berildi. 1993 - yilda qat'iy belgilangan va tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxati ancha qisqardi. Kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. 1994 - yilning oktabr-noyabr oylarida xalq iste'moli mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning tariflari oshirildi. Lekin aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida non va unning narxlari, uy-joy, kommunal xo'jaligi, shahar umumiy transporti xizmatlarining haqi to'la aholi zimmasiga yuklanmadi, bunday xizmat ko'rsatuvchi korxonalar xarajatlarning bir qismi davlat tomonidan beriladigan dotatsiya bilan qoplandi. Narxlarni erkinlashtirish jarayoni ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki, davlat ichki iste'mol bozorini nazorat qilib turdi. Davlat turli kompensatsiya jamg'armalarini tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, aholiga kompensatsiya to'lovlari tarzidagi pul to'lovlarini keng qo'lladi.

Korxonalarining o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi xarajatlaridan bir qismi budjet mablag'lari hisobidan qoplanib turildi. Keng iste'mol mollari va xizmatlarining ko'pgina turlari narxlaridagi tafovutlarning o'rni davlat budjeti hisobidan qoqlandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat, barcha maktab o'quvchilari va talabalar uchun ovqatning arzonlashtirilishi kabi imtiyozlar amal qildi. Ayrim toifadagi fuqarolarga uy-joy bepul xususiy mulk qilib berildi. Islohotlarning birinchi bosqichi davomida ijtimoiy himoyalash xarajatlari respublika budjetining salkam uchdan bir qismini tashkil etdi. Davlat budjeti hisobidan aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi. Bular jumlasiga pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar kiradi. 1991-1994 - yillarda respublika budjeti hisobidan 30 ta soha va yo'nalishlar bo'yicha ijtimoiy himoya, moddiy yordam amalga oshirildi. Maktab muallimlari, bolalar uylari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar tarbiyachilari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy, ijodiy va tibbiyot xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat kvartiralari ularga tekin berildi, kvartira haqi va kommunal to'lovlar sohasida imtiyozlar berildi. Yolg'iz pensionerlar turar joy va kommunal xizmatlar uchun haq to'lashdan ozod etildi, dori-darmonlar va eng zarur mollarni belgilangan me'yorda bepul olish va jamoat transportida tekin yurish imkoniyati yaratildi.

O'quvchi va talaba yoshlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida ovqat narxining bir qismini qoplaydigan qo'shimcha to'lovlar, maktab oshxonalari va tamaddixonalari xarajatlarining bir qismi budjet mablag'lari hisobidan qoqlandi, jamoat transportida arzon haq to'lab yurish va boshqa yengilliklar joriy etildi. Nikohdan o'tayotgan kelin-kuyovlar uchun mebel va gilam mahsulotlari sotib olishning imtiyozli tartibi qo'llanildi. 1994 - yil 24 - avgustda **“Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida”** Prezident farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra, 1994 - yil oktabrdan aholini ijtimoiy himoyalash siyosatining asosiy yo'nalishlariga tuzatishlar kiritildi. Negaki, ilgari faqat respublika budjeti yo'li bilangina 30 ta turli soha va yo'nalishlar bo'yicha ijtimoiy himoya amalga oshirilardi, bu mablag'larning sochilib ketishiga olib keldi. 1992-1994 - yillarda ko'rilgan chora-tadbirlar yalpi ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan bo'lib, yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashda to'la samara bermayotgan edi. 1994 - yilda ijtimoiy himoyaning asossiz tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o'tildi. Mahalla orqali bolalar, keksalar va kam daromadli oilalarga moddiy yordam beriladigan bo'ldi. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, bola boquvchi oilalarga bolasi 2 yoshga to'lgunga qadar, shuningdek, 16 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga yagona nafaqalar berish joriy etildi. Mahallalarda respublika va mahalliy budjet mablag'lari, shuningdek, korxonalar va tashkilotlarning, tadbirkorlik tizimlari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy ravishda o'tkazgan mablag'lari hisobidan maxsus jamg'armalar tuzildi. 1995- yilda 500 mingga yaqin ehtiyojmand oilalarga mahalla qo'mitalari orqali 6 mlrd so'm nafaqa berildi. Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatilayotgan yordam miqdori yildan yilga o'sib bormoqda. Faqat 2000 - yilning o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga

mahallalar orqali 54,3 mlrd so‘m miqdorida nafaqa, ko‘mak va boshqa turdagi yordamlar berildi. O‘zbekistonda yuritilayotgan ijtimoiy siyosat jamiyatning negizi bo‘lgan oilani mustahkamlash va tinch-totuvligini ta‘minlash, oilada ayolning mavqeyini ko‘tarish maqsadi bilan uyg‘unlashgan.

Shu maqsadda mamlakatimizda *1997 -yil –“Inson manfaatlarini yili”, 1998 yil – “Oila yili”, 1999-yil “Ayollar yili”, 2000 - yil - “Sog‘lom avlod yili”, 2001- yil – “Onalar va bolalar yili”, 2002 - yil – “Qariyalarni qadrlash yili”, 2003 - yil – “Obod mahalla yili”, 2004 - yil – “Mehr va muruvvat yili”, 2005 - yil –“Sihat-salomatlik yili”, 2006 yil –“Homiylar va shifokorlar yili”, 2007 - yil - “Ijtimoiy himoya yili”, 2008- yil –“Yoshlar yili”, 2009 - yil – “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”, 2010 - yil – “Barkamol avlod yili”, 2011- yil – “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”, 2012- yil – “Mustahkam oila yili”, 2013- yil – “Obod turmush yili” 2014 yil – “Sog‘lom bola yili” 2015 yil – “Keksalarni e‘zozlash yili”, 2016- yil – “Sog‘lom ona va bola”* deb e‘lon qilinib, bu yillarda oilani mustahkamlash, ayollarning jamiyatdagi o‘rnini ko‘tarish, sog‘lom, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish, qariyalarni e‘zozlash, go‘zal diyorumizdagi barcha mahallalar faoliyatini yanada jonlantirish yo‘lida xayrli tadbirlar amalga oshirildi. Aholi jamg‘armalarini himoya qilish choralari ham amalga oshirildi. Prezidentning 1995- yil 20 dekabrda “Aholining omonatlardagi va davlat sug‘urta bo‘yicha pul mablag‘larini indeksatsiya qilish to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan, 1992- yil yanvariga qadar jamg‘arma bankiga pul qo‘ygan 3 milliondan ortiq omonatchilarning 35 mlrd so‘mga teng bo‘lgan, qadrsizlanib qolgan omonatlari indeksatsiya qilindi. 1996- yildan boshlab jamg‘arma bankiga pul qo‘ygan odamlar o‘z pullarini qaytarib olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Xulosa qilib aytganda, tanlangan kuchli ijtimoiy siyosat tufayli islohotlar arafasida eng noqulay boshlang‘ich shart-sharoitlarga, ijtimoiy ziddiyatlarga ega bo‘lgan O‘zbekiston ijtimoiy mojarolarini chetlab o‘tishga muvaffaq bo‘ldi. Oldindan ko‘rilgan oqilona ijtimoiy chora-tadbirlar mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minladi. Mustaqillik sharofati bilan aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi rivoj topdi. Maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarini to‘liq xususiy lashtirildi, maishiy xizmat bozori vujudga keldi.

2002 - yil 1 -avgust holatiga ko‘ra respublikamizda 63 mingdan ortiq xususiy-maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari vujudga keldi. Ularda 135 ming xizmatchi aholiga maishiy xizmat ko‘rsatmoqda. Buyurtmachilarning takliflariga binoan ularning uylariga borib xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta‘minlash dasturi ishlab chiqildi. Dasturni amalga oshirish borasida ko‘rilgan tadbirlar natijasida 1991-2007 - yillarda 36 ming kilometr suv quvurlari va 7 -2 ming kilometr gaz tarmoqlari ishga tushirildi. Bu ko‘rsatkichlar 1991- yilga qadar erishilgan natijalarga nisbatan tegishli ravishda 2 va 4 baravar ko‘p demakdir. Istiqloq yillarida qishloq aholisining tabiiy gaz bilan ta‘minlanishi darajasi 17 - foizdan 7 -8 foizgacha, ichimlik suvi bilan ta‘minlanishi esa 52 foizdan 7 -7 - foizgacha o‘tdi. Aholi uchun uy-joylar qurish ham rivojlandi. 1991-2000 - yillarda 7 -0 million m² turar joy binolari qurilib, foydalanishga topshirildi. Aholi salomatligiga g‘amxo‘rlik qilish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat-ning tarkibiy qismidir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “**OITS bilan kasallanishning oldini olish to‘g‘risida**” (1991- yil), “**Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida**” (1992- yil), “**Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risida**” (1996- yil 29 avgust), “**Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida**”gi (1997 - yil) Qonunlari aholi salomatligini saqlashning huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida tibbiyot muassasalarini xususiylashtirish tadbirlari amalga oshirildi. 1991-1996- yillarda 249 ta tish protezlash muassasalari va stomatologik poliklinikalar, 28 ta xo‘jalik hisobidagi tibbiy ko‘rik poliklinikalar, jami 342 ta tibbiyot muassasalari, 1999-2001- yilda 154 ta tibbiyot subyektlari xususiylashtirildi. Shaxsiy tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar ham vujudga keldi. 2001- yilda Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan faoliyat yuritish uchun litsenziya (ruxsatnoma) olgan nodavlat muassasalar va firmalar soni 1700 taga, shaxsiy tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni 4000 taga yetdi. Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish ishlariga respublika Sog‘liqni saqlash vazirligi, uning viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, shahar va tumanlari bo‘limlari bosh-qosh bo‘lmoqdalar. O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, Qizil Yarimoy jamiyati, “Sog‘lom avlod uchun”, “Mehr-shafqat”, “Sog‘lomlashtirish va sport”, nogironlar respublika jamg‘armalari sog‘liqni saqlash tarmoqlarini rivojlantirishga ko‘maklashmoqdalar. Respublikamizda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishga alohida e‘tibor berilmoqda.



Hukumat topshirig‘i bilan “**Homilador ayollarni va bolalar salomatligini mustahkamlash bo‘yicha Milliy dastur**”, “**Yosh avlodni sog‘lomlashtirish kompleks dasturi**” ishlab chiqildi. Ularning hayotga tatbiq etilishi ijobiy natijalar berdi. Barcha shahar va tumanlarda “Ona va bola” markazlari tashkil etildi. Nukus, Namangan, Qarshi, Jizzax shaharlarida Respublika akusherlik va ginekologiya ilmiy tekshirish institutining filiallari ochildi. Minglab bolalar poliklinikalari, akusherlik-ginekologiya kabinetlari, tug‘uruqxonalar, “Nikoh va oila” hamda tibbiy-genetik konsultatsiya punktlari onalar va bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatmoqdalar. Yosh oilalarni mustahkamlash maqsadida 311646 ta yosh oila tibbiy patronaj nazoratiga olindi, 102390 nafar turmush qurayotgan yoshlar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi, 89125 nafar yoshlar oila va nikoh asoslari bo‘yicha o‘qitildi. Onalar va bolalarga ko‘rsatilgan g‘amxo‘rlik natijasida tug‘ilish jarayonida bolalar va onalar o‘limi keskin kamaydi. 1991- yilda bolalar o‘limi har 1000 ta tug‘ilgan bolaga 51,4 tani tashkil etgan bo‘lsa, 1999- yilda bu ko‘rsatkich 20,2 taga yoki 2,5 baravarga kamaydi. Shu yillarda onalar o‘limi har 100 ming tirik bolaga nisbatan 65,3 tadan 31 taga yoki 2,1 marta kamaydi. Yetim bolalar va farzandsiz oilalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik “**Kinderdorf**” (bolalar mahallalari) Avstriya loyihasining O‘zbekistondagi sa‘y-harakatlari natijasida yetim bolalar va farzandsiz oilalarning ko‘pchiligi uy-joyli va bus-butun oila bo‘lib yashash baxtiga muvassar bo‘lmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni va mazkur farmonning ijrosini ta‘minlash yuzasidan qabul qilingan hukumat

qarori aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Belgilangan Davlat dasturini hayotga tatbiq etish borasida katta tadbirlar amalga oshirildi. 2001- yil mart oyida Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli 1-klinik shifoxona negizida Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish ilmiy markazi barpo etildi. Qurilish ishlariga 4 mlrd so'm sarflandi. Markazda 760 o'rinli 8 ta jarrohlik markazi aholiga kecha-kunduz shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. Davlat dasturiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazining filiallari, 171 ta tuman markaziy shifoxonalarida bo'limlar tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqdalar. Markaz va uning filiallari rivojlangan mamlakatlarda tayyorlangan eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Ularni sotib olish uchun Ispaniya hukumati tomonidan 10 mln yevro kredit, Yaponiya hukumati tomonidan 7 - mln dollar grant berildi. Shuningdek, Germaniya, AQSh, Isroil davlatlari ham kreditlar va grantlar ajratmoqdalar. AQSH, Germaniya va boshqa davlatlar tibbiyot uskunolari, dori-darmonlar bilan beg'araz yordam bermoqdalar.

Mustaqillik yillarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlangan tizimi bunyod etildi. 1991- - 2001- yillarda 19,5 ming o'rinli shifoxonalar, 95,7 - ming tashrifli poliklinikalar qurilib, foydalanishga topshirildi. 1991- yilda shifoxonalar soni 1300 tani tashkil etgan bo'lsa, 2001- yilda ularning soni 1500 tadan ortdi. Ambulatoriya-poliklinikalarning soni esa 1990 - yilda 3139 tani tashkil etgan bo'lsa, 2010 - yilda qariyb 2 baravar ko'payib, 5886 taga yetdi. 2000 -2010 - yillarda qishloq joylarida 3208 ta qishloq vrachlik punkti tashkil etildi. Respublikamizda shifokorlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga, yosh shifokorlarni tayyorlash ishlariga alohida e'tibor berildi. Bu borada 7 - ta oliy tibbiy o'quv yurtlari, o'rta tibbiy bilim yurtlari va kollejlari faoliyat ko'rsatmoqda. Aholiga turli ixtisosliklar bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis-shifokorlar soni ming nafarga ko'paydi. O'zbekistonda bir shifokorga o'rta hisobda 300 ga yaqin kishi to'g'ri keladi, bu ko'rsatkich ko'pgina mamlakatlarga nisbatan ancha yuqoridir. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini dori-darmon bilan ta'minlashda katta qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ikkitagina korxonalar dori-darmon ishlab chiqarar edi. Ular aholining dori-darmon vositalariga bo'lgan ehtiyojini 1-1,5 foizgagina qondirardi, xolos. Shu boisdan farmatsevtika sanoatini tez sur'atlar bilan rivojlantirish dolzarb vazifalardan edi.



1993 - yilda Prezident I.A. Karimov farmoni bilan "**O'zfarmosanoat**" davlat aksionerlik konserni tuzildi, unga aholini o'zimizda ishlab chiqarilgan dori-darmonlar bilan ta'minlash vazifasi yuklandi. 1994 -2002 - yillarda farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish uchun 50 mln AQSh dollari jalb qilindi. Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya,

Chexiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar sarmoyadorlari ishtirokida qo'shma korxonalar barpo etildi. 2002 - yilda respublikada dori-darmon ishlab

chiqaruvchi korxonalar va qo'shma korxonalar soni 61 taga yetdi. Farmatsevtika korxonalari 1994 - yilda 47 -,2 mln so'mlik 34 xil mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, 2001- yilda 12 mlrd so'mlik 340 xil mahsulot ishlab chiqardi. 1994 - yilda aholining dori-darmonga bo'lgan ehtiyoji respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga bor-yo'g'i 4,5 foizga qondirilgan bo'lsa, 2001- yilda bu ko'rsatkich 25 foizgacha o'sdi. 50 dan ortiq davlatdan dori-darmon keltirilmogda. 2001- yildan boshlab chetdan dori vositalari keltiruvchi tashkilotlar qo'shimcha qiymat solig'idan ozod etilgan. Aholini dori-darmonlar bilan ta'minlashda dorixonalarining o'rni kattadir. 1994 - yilda "Dori-darmon" davlat aksionerlik uyushmasi tashkil etildi. Davlat tasarrufidagi 25 -25 - ta dorixonalarining ko'pchiligi xususiylashtirildi. 2001- yilda xususiy dorixonalar soni 27 -22 - taga yetdi. Dorixona muassasalari soni 1990 - yilda 835 tani tashkil etgan bo'lsa, 2010 - yilda 4837 - taga yetdi, qariyb olti baravar ko'paydi. Istiqlol yillarida aholining keng qatlamlariga tibbiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi, tibbiy xizmat ko'rsatish sifati oshdi.

Davlatimiz rahbari qurilish va obodonlashtirish ishlarini izchil davom ettirish, shahar qiyofasini yanada yaxshilash, aholining dam olishi uchun bundanda ko'proq qulayliklar yaratish bo'yicha zarur tavsiyalar berdi. Jamiyatning mahalliy shart-sharoitlari hamda milliy o'ziga xosligidan kelib chiqib, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu maqsadda 1994 - yil 28 - avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida **"Kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"** gi Nizom qabul qilinadi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga eng muhtoj qatlamlaridan biri – bu kam ta'minlangan oilalardir. Kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash maqsadida qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 - yil 24 - avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 434-sonli qarori muhim ahamiyat kasb qildi. Bu borada minglab oilalar davlatdan ijtimoiy yordamlar olgan. Ammo ijtimoiy himoya mexanizimining amal qilish tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniqlandiki, bu tizimda ko'pgina muammolar, jumladan, qurilish, obodonlashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, aholini toza ichimlik suvi, elektr toki, tabiiy gaz bilan ta'minlash kabi sohalarda ko'plab muamolarga duch kelingan. Ayniqsa, aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Masalan, 1996- yilda Moliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijasida respublika bo'yicha 26 mahallada 262 ming so'm mablag' qing'ir yo'llar bilan boshqa maqsadlarga o'zlashtirilgani aniqlangan.

1998 yildagi tekshirishlar esa shuni ko'rsatganki, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga nafaqa belgilash va to'lash tizimida quyidagi kamchiliklar eng ko'p uchragan. Haqiqatdan ham muhtoj oilalarga moddiy yordam ko'rsatishni asossiz rad etish va aksincha, nafaqa olishga asosi bo'lmagan oilalarga qarindoshlik belgisi, fuqarolar o'z o'zini boshqarish yig'inlarida egallagan mansabi yoki boshqa sabablarga ko'ra nafaqa belgilash va to'lashda lavozimini suiiste'mol qilish (bu

ko'rsatkich respublika bo'yicha 0,3 1,4% darajasida); muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun ajratilgan mablag'larning ko'zda tutilgan boshqa maqsadlarida (talabalar stipendiyasi, sug'urta to'lovlari, hatto jamoat binolarining qurilishiga) ishlatilishi va hokazolar shular jumlasidandir.

Shunday qilib, 1997 -1998 yillarda kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar tayinlash bo'yicha Qashqadaryo viloyatida 629 ta oilaga 2 mln. so'm, Buxoro viloyatida 567 - ta oilaga 1,5 mln so'm, Samarqand viloyatida 194 oilaga 992 ming so'm, Namanganda 24 -9 ta oilaga 423 ming so'm, Xorazm viloyatida 82 ta oilaga 304,6 ming so'm pul mablag'lari moddiy yordam tariqasida noqonuniy to'langan.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlashni tashkil etish Boshqarmasi hisobotida davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning o'z egalariga etkazilishi 1997 - yilda 93,1 % ga, 1998 yilda 98,3 % ga, 2001- yilda esa 99,0 % ga bajarilgan, deb ko'rsatilgan¹³.

Shubhasiz, o'sha kezlarda ayrim yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tanqidiy tahlil asosida ko'rib chiqilib, muammolarni ro'y rost aytish vaqti kelganligi ko'p bora takidlanmoqda. Zero, Yurtboshimiz o'z chiqishlarida va ma'ruzalarida, rahbarlar, xalq faollari, deputatlar yoki oddiy xalq bilan bo'layotgan uchrashuvlarda, qarsakbozliklar davri endi o'tdi, biz "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan tamoyilni amalda qaror toptirishimiz lozimligini uqdirmoqdalar.

Bugungi kunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ijtimoiy nafaqalar tayinlash va to'lashning manzilliligini oshirish maqsadida **quyidagilar amalga oshirilmoqda:**

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining taqdimnomalariga ko'ra nafaqalar va moddiy yordam olish uchun oila a'zolarining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirilmoqda;

- Respublika "Mahalla" jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda aholi o'rtasida ehtiyojmand oilalarga nafaqa va moddiy yordam tayinlash uchun o'rtacha oylikning jami daromad miqdorini hisoblab chiqish tartibi to'g'risida keng tushuntirish ishlarini amalga oshirmoqda.

Bundan tashqari, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish va manzilli yordamni kuchaytirishga **quyidagilar hisobidan erishish rejalashtirilgan:**

- amal qilayotgan imtiyozlar va nafaqa to'lovlari tizimini tartibga solish, manzilli xarakterga ega bo'lmagan imtiyozlarni, avvalambor, ayrim professional guruhlarga taqdim etiladigan imtiyozlarni bosqichma-bosqich kamaytirib borish va shuning hisobidan ko'proq ehtiyoj sezayotgan oilalarga imtiyozlar hajmini oshirish;

¹³ 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили" да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. Т., 2017. 167-бет.

- natural ko‘rinishda beriladigan imtiyozlarni tegishli pul to‘lovlari bilan almashtirish jarayonini tugallash;

- norasmiy sektorda tadbirkorlik faoliyatidan, shuningdek pul o‘tkazmalari hisobidan daromad olayotgan oilalarni chiqarib tashlash yo‘li bilan moddiy yordamga muhtojlik sezayotgan oilalarni aniqlash usulini takomillashtirish. Tejab qolingan mablag‘lar eng muhtoj oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish uchun qayta yo‘naltiriladi;

- joylarda muhtojlarga qo‘shimcha yordam ko‘rsatish, shuningdek, mablag‘larni ijtimoiy himoyaning ayrim moddalari o‘rtasida qayta taqsimlash bo‘yicha qarorlar qabul qilishda davlat organlari mustaqilligini kengaytirish;

- o‘zini o‘zi boshqarish organlarida kam ta‘minlangan oilalarga nafaqa to‘lovlari to‘lashni tashkil qilish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish;

- aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun byudjetdan tashqari mablag‘lar, jumladan, xayriya tashkilotlari va homiylarning mablag‘larini jalb qilish, bu kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy to‘lovlar hajmi va qamrovini oshirishga imkon beradi;

- ayrim nafaqa to‘lovlari va imtiyozlarni tugatish natijasida bo‘shagan mablag‘larni muhtoj oilalarga manzilli nafaqa to‘lovlarni moliyalashtirish hajmini oshirishga yo‘naltirish;

- minimal ijtimoiy standartlarni, jumladan, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda, hisob-kitob qilish usulini takomillashtirish;

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun aholining ijtimoiy zaif guruhlari, avvalambor, talab qilinmagan mehnat salohiyatiga ega, kam ta‘minlangan oilalarni kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan mikromoliyalashtirish institutlarini kengaytirish.

Aholi farovonligini oshirishda bandlik masalasining o‘rni katta. Bugungi kunda mehnatga layoqatli aholining bandligini ta‘minlash maqsadida yangi ish o‘rinlari yaratayotgan ish beruvchilar rag‘batlantirilmoqda, ularga soliq, kredit va boshqa masalalarda imtiyozlar berilmoqda; mehnat bozorida ishchi kuchi sifati va raqobatdoshligini oshirish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda; aholini ish bilan ta‘minlashning eng samarali vositalari bo‘lgan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, xizmat ko‘rsatish va servis sohasi yanada jadal sur‘atlarda rivojlantirilmoqda; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan toifalari moddiy qo‘llab-quvvatlanmoqda, ular uchun ish o‘rinlarini kvotalash tartibi yo‘lga qo‘yildi; davlat va mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan vaqtinchalik va jamoat ishlari tashkil etilmoqda; tashqi va ichki migratsiyani tartibga solishga e‘tibor kuchaytirilmoqda. Mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholi bandligini ta‘minlash maqsadida har yili yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Jumladan, 2013- yilda 97 -2,7 - mingta yangi ish o‘rni tashkil etilgan. Bu ish o‘rinlari yangi yirik sanoat obyektlarini ishga tushirish, ishlab turgan korxonalarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish, kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni, xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirishni bundan buyon ham rag‘batlantirish, kasanachilik imkoniyatlarini, shu jumladan, yirik korxonalar bilan kooperatsiyalashgan kasanachilik imkoniyatlarini

kuchaytirish hisobidan tashkil etiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ishlab chiqarish va ijtimoiy soha yetarli darajada rivojlanmagan, ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan tog'li, chegara hududlarda joylashgan 28 - ta olis tumanga alohida e'tibor berildi. 2013- yilda bu hududlarda kamida 126 mingta yangi ish o'rni yoki 2012- yildagidan besh foiz ko'p ish o'rni tashkil etilgan.

2. O'zbekistonda ijtimoiy islohotlarining yangi bosqichiga ko'tarilishi.

O'zbekiston tarixida 2016-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan Prezident saylovlarida Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining yangi Prezidenti etib saylandi. Ushbu siyosiy voqea davlatimiz tarixida yangi davrni boshlab berdi. O'zbekiston va uning xalqi demokratik, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishning mutlaqo yangi davriga qadam qo'ydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z rahbarlik faoliyatini xalq bilan muloqot va inson manfaatlariga e'tibor berishdan boshladi. Ayniqsa uzoq yillar mobaynida etilib



qolgan ko'plab muammolarni hal qilish, xususan korrupsiya, rahbarlar faoliyatiga tanqidiy tahlil asosida yondashish, har bir rahbarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, xalqning dard-u tashvishlari bilan yashash, oddiy insonlar murojaatlari bilan ishlash tizimini shakllantirish, inson omiliga e'tibor masalalari shular

jumlasidandir. Ayniqsa, joylarda xalq bilan ishlashning eng ta'sirchan mexanizmi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq qabulxonalari", "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonalari" tashkil etildi. 2017 - yil mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili", deb e'lon qilindi.

"Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya kundalik ish mezonimizga aylandi¹⁴.



2017 - yilning 7 - fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni imzolandi. Farmonda belgilangan strategiya loyihasi va unda ko'zda tutilgan muhim strategik masalalar respublikamiz ekspertlari hamda keng jamoatchilik muhokamasidan o'tdi.

Strategiya loyihasi o'ta dolzarb, ya'ni aholining turmush tarzini yanada yaxshilash masalalarini kompleks o'rganish, davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, mamlakatda qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan edi. Harakatlar

¹⁴ Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т., 2017 й.

strategiyasini kelajakda beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirish ko‘zda tutildi.

Ular quyidagilar:

Birinchi ustuvor yo‘nalishda davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish, xususan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;

Ikkinchi ustuvor yo‘nalishda qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

Uchinchi ustuvor yo‘nalishda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalishda mamlakatda ijtimoiy sohani rivojlantirish;

Beshinchi ustuvor yo‘nalishda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi muhim vazifalar belgilandi.

Ma‘lumki so‘ngi yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Mamlakt rahbari tomonidan inson va uning manfaatlarini ko‘zlab ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasining **birinchi ustuvor yo‘nalishi** bu, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ya‘ni davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirishga e‘tibor qaratdi. Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo‘naltirilgan dastur bu **ikkinchi yo‘nalish** hisoblanadi. Ya‘ni sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish belgilab berildi. Uning muhimligi shuningdek sud tizimini isloh qilish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilashga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Uchinchi ustuvor yo‘nalish, strategik dasturning yana muhim ustuvor jabhasi bu, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirishni ko‘zlaydi. Strategiyada xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini

rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalalari ham keng o'rin olgan.

To'rtinchi muhim ustuvor yo'nalish etib belgilangan keyingi masalalar ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilganligi aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish inson manfaatlariga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Unda barcha ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohaslarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ham belgilandi.

Beshinchi ustuvor yo'nalish bu, davlatimiz xavfsizlik tizimi, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash beshinchi ustuvor yo'nalishda belgilab berildi.

2017 - yildan e'tiboran barcha sohalarda davlatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. **Barcha sohalarda keng ko'lamli qayta qurish va islohotlarning yangi davri boshlandi.** O'zbekiston tubdan yangilana boshladi. Barcha rahbarlar faoliyati qaytadan ko'rib chiqildi, tanqidiy tahlil qilindi, ularga xalq oldida shaxsiy javobgarlik yuklandi. Asosiy e'tibor ancha yillar mobaynida etilib qolgan masalalarni hal qilish, xalq manfaatlari va muammolarini hal qilishga qaratildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi yangicha islohotlar va taraqqiyot omillari.

2017 - yildan boshlab O'zbekiston islohotlar va taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi. Chunki, bu davr yutuqlarni sarhisob qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qilish hamda mamlakat taraqqiyotining strategik omillarini belgilab bergan davr sifatida tarixga kirdi. Agar raqamlarga murojaat qilinsa, **2017 - yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"** deb e'lon qilinishi natijasida, shu yilning iyul-dekabr oylari davomida Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy etilgan xalq bilan faol muloqot olib borish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida respublikamiz shahar va qishloqlariga **"Sayyor qabullar"** uyushtirilgan. Ochiq muloqotlarda 58 mingdan ortiq fuqaro va tadbirkorlardan turli masalalarga oid 32176 shikoyat, ariza va takliflar o'rganilgan. E'tiborli tomoni shundaki, murojaatlarning eng ko'pi, ya'ni 8 mingdan ziyodi, yoki 25 % asosan tadbirkorlarning bank kreditlari bilan bog'liq muammolardir. Huquqni muhofaza qilish sohasi bilan bog'liq muammolar 7 mingdan ortiq 22 %, bandlik va ish haqi to'lovlari 3973 ta-12 %, tadbirkorlik faoliyatiga to'siq bo'layotgan muammolar 3 ming 350 ta-10%, odamlarga uchastka va uy joy ajratish 2 ming 47 -3 ta-8 % ni tashkil etgan.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan yurtimizda 2018- yilning **“Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oya va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash”** deb e‘lon qilinishi natijasida mamlakat farovonligi va taraqqiyotining asosi bo‘lgan tadbirkorlik sohalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, hozirgacha tadbirkorlarga tegishli murojatlarning 96 foizi, ya‘ni 30876 tasi hal etilgan. Ulardan 8326 tasi sohalar faoliyatiga oid taklif va tavsiyalardan iborat.

Masalan, mamlakat miqyosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo‘nalishlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2017 - yilning 1 aprel holatida 4,6 trln so‘mni tashkil etmoqda va bu ko‘rsatkich 2016- yilning xuddi shu davriga nisbatan 1,3 barobar ko‘p. Uning 1 trln so‘mini mikrokreditlar tashkil etadi, bu ko‘rsatkich ham o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobar ko‘p bo‘lgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, xizmat ko‘rsatish sohalarini traqqiy ettirish, fermerlikni qo‘llab quvvatlash va rivojlantirish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat‘iy oldini olish masalalari 2017 -2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ko‘rsatib berilganligi ushbu sohalar rivojiga davlat ahamiyati darajasida e‘tibor qaratilayotganligining tasdig‘idir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan mamlakatda **“Obod qishloq” dasturi** to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra uzoq yillar og‘ir ahvolga tushib qolgan, hatto yashash uchun oddiy sharoitlar ham bo‘lmagan qishloqlarni tubdan yangilashga kirishildi. Xususan, 2018- yil fevraldan boshlab Jizzax viloyati, Dstlik tumanidagi “Manas”, Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi, “Xovosobod”, Samraqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “Jom” qishloq fuqarolar yig‘inlarida keng ko‘lamli yangitadan qurilish va bunyodkorlik ishlari tufayli aholiga topshirildi. Ular namunali qishloqlar sifatida yangilangandan so‘ng, ushbu tajriba respublikaning har bir tumanida har yili 2 va 3 tadan qishloqlar “Obod qishloq dasturi” asosida yangilandi. Ushbu tajriba asosida 2018- yil iyun oyidan e‘tiboran “Obod mahalla dasturi” Toshkent shahri misolida ommalashtirila boshlandi.

“Obod qishloq dasturi” doirasida 2018- yilda mamlakatimizning 17 -4 ta tumanidagi 368 ta mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini kompleks ravishda yangilash ko‘zda tutilgan. Belgilangan ishlarga 3 trillion 40 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltiriladi. Shu yilning 1 apreldan boshlab har bir tumanda 2 tadan, 2019 yildan esa 3 tadan mahalla tubdan yangilanadi.

2018- yil 1 aprelegacha Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika **“Jamoatchilik nazorati ishchi guruhi”** vakillari joylarda ijtimoiy holatni o‘rganish maqsadida Namangan viloyati Pop, Kosonsoy tumanlarida, Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on va Sariosiyo tumanlarida, Farg‘ona shahri va Quva tumanida, Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanida, Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari va Jizzax shaharlarida bo‘lishib, aholini qiynayotgan va “Xalq qabulxona”lariga kelib tushayotgan shikoyatlar yechimi yuzasidan sayyor reydlar uyushtirilib ko‘pgina muammolar o‘sha yerlarning o‘zida hal etilgan.

2017 - yilda esa respublikada 789,5 mingta ish o'zni yaratish ko'zda tutilgan bo'lsada, bu borada hali echimini kutayotgan muammolar mavjudligi Prezident Shavkat Mirziyoyevning **“Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”** nomli risolada o‘z aksini topdi. Unda qayd etilishicha yurtimizda yiliga 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo‘lsa-da, 2016- yili Bandlikka ko‘maklashish markazlari atigi 248 ming kishini yoki 16,5 foizini ishga joylashtirgan. Buning asosiy sabablari ish faoliyatidagi eskirgan shakl va usullar hamda bandlik muammolarini hal etishdagi rasmiyatchilik bilan bog‘liq bo‘lgan deya uqdiradi Prezident.

Qayd etib o‘tilgan ijtimoiy himoyaga oid masalalar orasida aholini uy-joy bilan ta‘minlash ham dolzarb masalalar sifatida e’tirof etiladi. Shu boisdan Prezident Shavkat Mirziyoyev **“... faqat raqamlar ortidan quvish oqibatida bu boradagi ishlarni ham hali ko‘ngildagidek, deb bo‘lmaydi, deya qayd etadi. Aholimizni, ayniqsa, byudjet sohasi xodimlarini, kam ta‘minlangan oilalarni uy-joy muammosi ko‘pdan buyon qiynab kelardi. Bu og‘ir ijtimoiy muammoga biz deyarli e’tibor bermay kelganimiz ham bor gap. Xalqimizning talab va istaklarini inobatga olib, biz joriy yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurishloyhasini amalga oshirishga kirishdik”**, deydi. SHahar va qishloqlarimizda jami 3,5 million kvadrat metrdan ziyod namunaviy uylar va ko‘p qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu raqamni avvalgi yillarga taqqoslaydigan bo‘lsak, 2007 - yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlangan 2010 - yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014 yilga nisbatan esa 2 barobar ko‘p uy-joy qurilganini ko‘ramiz.

2017 - yil 22 - dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek **“biz keyingi 25 - yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo‘lgan ko‘pqavatli uy-joylar qurishni boshladik. 2017 - yilning o‘zida 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana Shunday uy-joylar qurib foydalanishga topshirildi. Birgina Toshkent shahrining o‘zida joriy yilda 420 ming kvadrat metr ko‘pqavatli uy-joy fondi foydalanishga topshirildi. Bu o‘tgan yilga nisbatan qariyb 3 barobar ko‘pdir. Aholi, ayniqsa, yosh oilalar, eski uylarda yashayotgan va boshqa toifadagi fuqarolarning ehtiyojini hisobga olib, biz arzon va sifatli uy-joylar qurish bo‘yicha ishlarni izchil davom ettiramiz, deya o‘z fikrini bayon etadi Prezident. Shu maqsadda 2018- yilda namunaviy va arzon uy-joylar qurish ko‘lamini joriy yilga nisbatan 1,5 barobar ko‘paytirish bo‘yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan”**¹⁵. Demak, bu borada joylardagi o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z navbatida yosh oilalar bilan ishlash tizimini kuchaytirishlari maqsadga muvofiq.



¹⁵Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи”. 2017 йил. 23 декабр.

Mahalliy hokimliklar huzurida “Obod qishloq” maqsadli jamg‘armalari tuzilib, byudjet, tarmoq korxonalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar grantlari, tashabbuskor tadbirkorlar mablag‘lari, xasharlar va xayriya tadbirlari aynan Shunga yo‘naltiriladi. **“Obod mahalla”** dasturi doirasida 2018- yil barcha manbalar hisobidan 3 trillion 40 milliarda so‘mdan ziyod mablag‘ ishonchli va muntazam rashishda yo‘naltirilgan. Ushbu loyihalarning me‘moriy va texnik jihatdan puxta ishlab chiqilishini ta‘minlash maqsadida 190 ga yaqin tajribali va malakali loyiha institutlar jalb etilishi belgilanib, arzon, sifatli qurilish materiaallari, ishlab chiqaruvchilar uchun elektr energiyasi va gaz etkazib berishda preferensiyalar nazarda tutildi¹⁶.

Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasini tubdan isloh qilish borasida Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018- yil 28 - dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd qilganidek, “Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy himoya o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ularni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda “...endi bironta fuqaro qalbaki dalillar, tuhmat va bo‘htonlar asosida javobgarlikka tortilmasligi shart. Konstitutsiya va qonun normalari so‘zsiz ishlashi uchun ishonchli kafolatlar yaratishimiz zarur”¹⁷.

Prezidentimiz sud, milliy xavfsizlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar ishiga faqat va faqat xalqimizning o‘zi baho berishini, ular uchun yagona va eng qattiq talab – bu fuqarolarning qonuniy manfaatlariga xizmat qilish va ularning huquqlarini har qanday holatda ham himoya qilishdan iboratligi aytiladi. Eng asosiysi, biz bir idora qo‘lida barcha vakolat va resurslar to‘planib qolishiga, o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati prinsipi buzilishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarurligi uqdirildi. Inson omiliga e‘tibor, ularning huquqlarini ta‘minlash borasida birgina Inson omiliga e‘tibor, ularning huquqlarini ta‘minlash borasida **2017 - yilda yurtimizda yashab kelayotgan, lekin fuqaroligi bo‘lmagan 1100 dan ortiq shaxsga O‘zbekiston fuqaroligi berildi, mamlakatimizning so‘ngi 26 yillik tarixida ilk bor 27 -00 ga yaqin fuqarolar Prezidentimiz Farmoniga muvofiq avf etildi.**

2017 - yilning 22 - dekabrda Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parlamentga qilgan Murojaatnomada, biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g‘oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylandi.

Davlat xodimlari, avvalo, birinchi rahbarlar faqat kabinetda o‘tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilayotgan eng dolzarb muammolarning amaliy yechimi bilan shug‘ullanishi zarur. Shu ma‘noda 2017 - yil xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo‘yicha yangi tizim yaratilgan yil bo‘ldi. Bu tizimning asosi bo‘lgan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi** fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning o‘ziga xos demokratik instituti sifatida

¹⁶ Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Т., 2017 й.

¹⁷ Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрда Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Т., 2018 йил

amalda o'zini oqlamoqda, degan edi Prezidentimiz. Yurtimizda so'nggi yillarda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu o'zgarishlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, odil sudlovga erishish, huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. 2018- yilda ushbu yo'nalishda ko'pgina ishlar qilindi. Jumladan, soha xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish maqsadida profilaktika inspektorlari uchun 6 yarim mingdan ziyod xizmat uylari, 1 ming 100 ta shaxsiy uy-joy, 7 - mingta shaxsiy avtomobil berildi. Shu bilan birga, Milliy gvardiya xodimlari uchun ham 1 ming 800 ta uy-joy quriladi. 2018- yilda 3 ming 205 ta mahallada bironta ham jinoyat sodir etilmagan, deya qayd qiladi Prezidentimiz 2018- yil 28 - dekabrda qilgan Oliy Majlisga Murojaatnomasida.

So'ngi uch yil ichida Mahalla va Fuqarolar yig'inlari tizimida ham ulkan islohotlar boshlandi. Ayniqsa ushbu tuzilmalar 2018- yildan e'tiboran o'z faoliyatining yangi davriga qadam qo'ydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, mahallaning fuqarolik jamiyati qurish sharoitidagi o'rni, Shubhasiz uning jamoatchilik tuzilmalari bilan faol hamkorligidir. **2018- yil 15-fevralda Hukumatning "Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga** ko'ra endilikda mahalla fuqarolari yig'inlari huzuridagi "Yarashtirish komissiyasi" ga O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston mumsulmonlari idorasi, "Ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya"sga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Madaniyat vazirligi biriktirildi.

Mahalla fuqarolar yig'inlarining "Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash komissiyasi"ga Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari hamda Moliya vazirligi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, "Nuroniy" jamg'armasi, "Xotin-qizlar bilan ishlash komissiyasi"ga O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, "Voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya"ga O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, Ichki ishlar va Xalq ta'limi vazirliklari, jismoniy tarbiya va sport Davlat qo'mitasi, "Tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiyasi" ga Savdo sanoat palatasi, Adliya vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi hamda tijorat banklari, "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyasiga" Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston ekologiya harakati, "Jamoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiyasi" O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi yaqindan ko'mak beradi.

Fuqarolar yig'inlari tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha maslahat kengashiga Savdo sanoat palatasi, Adliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, "Hunarmand uyushmasi" va tijorat banklari biriktirilgan. "Ota-onalar universiteti" ga O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Sog'liqni saqlash vazirligi, "Nuroniy" jamoatchilik kengashi" ga

Respublika “Nuroniylar jamg‘armasi, “Qaynonalar kengashi” ga O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasiga ichki ishlar vazirligi amaliy ko‘mak berishi belgilangan.

Bugungi demokratik jamiyat qurish sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni ham katta bo‘lmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. 2017 - yilda “Nuroniylar jamg‘armasi, Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi, o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi.

Mamlakatimiz prezidenti yoshlarni kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimini kuchaytirish, “Ta‘lim oluvchi”, “Davomat” kabi tezkor tadbirlar, “Futbolimiz kelajagi”, “Ota onam va men-sportchilar oilasi” kabi tadbirlar, “Har bir oila tadbirkor” tamoyilini keng joriy etish borasida ham talay muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etishda ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 - yil 12 yanvardagi **“Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” gi farmoyishi va 2017 - yil 13 sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi qarori** xalqimiz, ayniqsa yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qildi¹⁸. Shu maqsadda dastlab mahallalarda, so‘ngra tuman va viloyatlar miqyosida “Men sevib o‘qigan kitob”, “Eng yaxshi kitobxon” tanlovlari o‘tkazildi. Buning uchun byudjetdan tashqari mablag‘lar va xayriya mablag‘lari hisobidan 160 million so‘m ajratish ko‘zda tutildi¹⁹. Aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual va ma‘naviy ehtiyojlarini yanada to‘laroq qondirish maqsadida Respublika “Kitob bayrami” o‘tkazila boshlandi.

3. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash va “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida qonun”

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi va u 2017 - yil 4 yanvardan boshlab kuchga kirdi. Mazkur Qonundan ko‘zlangan asosiy maqsad korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘ldi. Unda “korrupsiya”, “korrupsion huquqbuzarlik” va “manfaatlar to‘qnaShuvi” kabi tushunchalarga izohlar berildi.

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, Т., 2017 январ, сентябр.

¹⁹ 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. Т., 2017. 349-бет.

Qonunning 3-moddasida korrupsiyaga doir asosiy tushunchalarga doir quyidagi ta'riflar ifodalandi:

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi Shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida **quyidagilar belgilab qo'yildi:**

❖ aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;

❖ davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha choralarni amalga oshirish;

❖ korrupsion huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ular oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tadbiiq etish²⁰.

Qonunning **5-moddasiga binoan**, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagicha belgilandi:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

Qonunning **7 -moddasiga binoan** korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga quyidagilar kiritildi:

- Bosh prokuratura;
- Davlat xavfsizlik xizmati;
- Ichki ishlar vazirligi;
- Adliya vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish

²⁰ O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 - y., 1-son, 2-modda.

departamenti; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Mazkur Qonunning **12, 16, 18 va 20-moddalari** bevosita ta'lim tizimi jarayonida qo'llanilishi mo'ljallandi. Qonunning 16-moddasiga asosan davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rib borishlari lozim.

Shuningdek, Qonunda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

- davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining mas'uliyatini kuchaytirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2017 - yil 7 - fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan "2017 -2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatda korupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Uning 2-yo'nalishi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini o'z ichiga olib, uning 4-bandida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish vazifalari qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 mayda qabul qilingan farmonini ijro etish maqsadida Bosh prokuratura huzurida fuqarolarning, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining murojaatlarini kechayu kunduz qabul qiladigan elektron tizim yaratildi va samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Murojaatlarni ko'rib chiqish tezligini ta'minlash maqsadida ushbu tizimga 34 ta idora, prokuratura organlarining viloyat va tuman bo'linmalari ulandi. Har bir murojaatning o'z vaqtida ko'rib chiqilishi on-layn rejimda nazorat qilinmoqda.

2016- yilning so'nggi choragidan boshlab mamlakatda korrupsiyaga barham berish sohasida katta ishlar amalga oshirildi. 2017 - yil 2 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-27 -52-sonli qarori mamlakatda korrupsiyaga barham berish va unga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etdi.

"2017 -2018- yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiyaning asosiy vazifalari sifatida **quyidagilar belgilandi:**



- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, Shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016- yilning oxiridan boshlab davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashining tizimli faoliyatini yo'lga qo'yilishi, uning tashabbusi bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi, prokratura va sud-huquq tizimini isloh etilishi, Prezident va Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojatlarni tahlil etib borish qoidalarini o'rnatilishi, mansabdorlar xizmatini oxirgi natijalariga qarab baholanishi qoidalarini o'rnatilishi kabi chora-tadbirlar o'z natijasini bera boshladi.

2017 - yilning birinchi yarmida 1566 ta mansabdor shaxsga nisbatan 1130 ta jinoyat ish qo'g'atilib, ulardan 954 tasi (84,4 foizi) sudga oshirilgan. Lekin, bu davrda 2016- yilning birinchi yarmiga nisbatan sudga oshirilgan jinoyatlar 22 - foizga kamaydi. Korrupsiyaviy faoliyat tufayli keltirilgan zararining 7 - 7 - foizi undirildi. 37 - 4 ta guruhlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar ochib tashlandi, 1330 ta korrupsiyaviy jinoyatlar aniqlandi.

2018- yil 19-fevralda O'zbekiston ichki ishlar vazirining bergan ma'lumotlariga binoan 2017 - yilda 1426 ta korrupsiyaviy jinoyatlar fosh etilib, undan 17 - 1 tasi poraxo'rlik, 109 tasi tovlamachilik, 517 - tasi firibgarlik, 125 - tasi noqonuniy valyuta aylanmasini amalga oshirish, 19 tasi soxta pullarni ishlab chiqish, 190 tasi davlat mulkini o'g'irlash va unga kamomad keltirish kabi jinoyat turlarini tashkil etdi. 2017 - yilda jinoyat harakat qilganligi uchun 230 ta ichki ishlar organlari xodimlari ustidan jinoyat ish qo'zg'atildi, 8000 ta xodim intizomiy javobgarlikka tortildi. Lekin, 2017 - yilda 73.692 ta jinoyat ishlar fosh etilib, bu 2016- yilga nisbatan 15,7 - foizga kamaygani ham qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, o'tgan salkam ikki yil ichida O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning zamonaviy huquqiy asoslari ishlab chiqildi, ular amaliyotda qo'llana boshlandi. Muhimi, aholining Prezident va Xalq qabulxonalari vositasida yuz berayotgan korrupsiyaviy jinoyatlarni davlat hokimiyati organlariga to'g'ridan-to'g'ri etkazish imkoniyati yaratildi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosatida ustuvor yo'nalish deb belgilandi?
2. Aholi daromadlari darajasini saqlash maqsadida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
3. Narxlar qanday tartibda erkinlashtirildi?
4. Kam ta'minlangan oilalar 1991-1994 -yillarda qanday himoyalandi?
5. 1994 - yilda kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda qanday o'zgarish yuz berdi?
6. O'zbekistonda oila, bolalar, ayollarga qanday g'amxo'rlik ko'rsatildi?
7. Aholi jamg'armalarini himoya qilish yo'lida qanday tadbir amalga oshirildi?
8. Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash tizimida qanday islohotlar amalga oshirildi?
9. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida qonun" qachon qabul qilingan?
10. Qonunning mohiyati asosan nimalardan iborat?

9-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

Reja:

1. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning qayta tiklanishi
2. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlarimiz xotirasiga bo‘lgan e’tibor va tarixiy shaharlarimiz yubileylarining xalqaro miqyosda nishonlanishi
3. Madaniyat va san’at sohasining rivojlanishi
4. Mustaqillik yillarida sport sohasi taraqqiyoti
5. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo davlat siyosati

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning qayta tiklanishi, mustaqillik yillarida buyuk ajdodlarimiz xotirasiga bo‘lgan e’tibor va tarixiy shaharlarimiz yubileylarining xalqaro miqyosda nishonlanishi, madaniyat va san’at sohasining rivojlanishi, mustaqillik yillarida sport sohasi taraqqiyoti O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo davlat siyosati haqida ma’lumot berishdan iborat.

Tayanch iboralar: „Navro‘z“ bayrami, Amir Temur“ ordeni, „Shahidlar xotirasi“ yodgorlik majmuyi „Qatag‘on qurbonlari xotirasi“ muzeyi „Turkiston“ san’at saroyi

1. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning qayta tiklanishi

Barchamizga ma’lumki, jamiyat ma’naviyati - mamlakat barqarorligi taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Biron-bir mamlakat o‘z ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg‘otmay va mustahkamlamay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi. Ma’naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli kuchdir. Tarix guvohlik beradiki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo‘lgan, qaramlik zulmi ostida qolgan davrlar ham bo‘ldi. Buning oqibatida xalqimizning boy ma’naviy merosi, urf-odatlarini qadrsizlantirishga urinishlar bo‘ldi. Ayniqsa, so‘nggi mustamlakachilik, sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoqosti qilindi. Ona tilimiz, boy ma’naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko‘plab masjid-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. Avlodlarimiz yetishtirgan allomalarimiz idealist degan yorliq bilan qoralandi, asarlarini unutish, yo‘qotish siyosati yuritildi. Islom dini qadriyatlari, musulmonlarning e’tiqodlari oyoqosti qilindi, ruhoniylar quvg‘in ostiga olindi. Mustabid tuzum hukmdorlari madaniy inqilob shiori ostida o‘zbek xalqining yuzlab iqtidorli, milliy-ozodlik uchun kurashgan vatanparvar ziyolilarini, istiqlolchi farzandlarini siyosiy qatag‘on qildi, ularning nomlarini xalqimiz xotirasidan o‘chirib tashlashga harakat qilar edi.

O‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy qadriyatlari bor. Milliy qadriyat deganda millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlari, an’analari, marosimlarini tuShunamiz. O‘zbek xalqining shakllanishi qancha uzoq tarixiy jarayonda sodir

bo'lgan bo'lsa, uning milliy qadriyatlari ham Shuncha uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan. Qadriyatlar dastlab mahalliy mazmunda, ya'ni Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va hokazo hududlarda yashovchi elatlarga xos urf-odatlar, rasmlar, marosimlar tarzida shakllanadi. So'ngra ularning eng yaxshilari asrlar davomida saralanib umummilliy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. O'rli mamlakatlarga xos eng yaxshi qadriyatlar saralanib umuminsoniy qadriyatlarga aylanadi. Shu boisdan ham har bir inson uchun o'z milliy qadriyatlarini, Shuningdek umuminsoniy qadriyatlarni bilish ham farz, ham qarzdur.

O'zbek xalqiga xos quyidagi jihatlar uning milliy qadriyatlari sifatida boshqa xalqlar tomonidan **e'tirof etilgan:**

- tug'ilgan makon va ona yurtiga ehtirom;
- avlodlar xotirasiga sadoqat;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;
- mehmondo'stlik;
- bolajonlik;
- ma'naviyat-axloq-odob-ma'rifat;
- muomalada mulozamat, hayo, andishalilik;
- og'ir kunlarda vazminlik, sabr-toqat va hokazo.

Mustaqillik yillarida xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish yo'lida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi.

Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri „Navro'z“ bayramidir. Qaramlik davrida mana Shu ardoqli bayramni nishonlash ham taqiqlangan edi. 1991-yildan boshlab O'zbekiston hukumatining qarori bilan 21- Mart „Navro'z“ milliy xalq bayrami kuni



sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e'lon qilindi. Xalqimiz Navro'z kunlarida hasharlar uyushtirib, dalalarga ko'chatlar ekish, ko'chalarni tozalash tadbirlarini, turli ommaviy o'yinlar, poyga musobaqalari, sayllar uyushtiradilar, yetim-yesirlarga va nogironlarga yordam berib, marhumlar qabrlarini ziyorat qiladilar.

1994 - yil 23- apreldagi Prezident farmoni asosida tashkil etilgan Respublika

“Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazi o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan g'oyalarni yuzaga chiqarish, yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yo'naltirishga qaratilgan muhim tadbirlar, anjumanlar, ko'rgazmalar tashkil etishni yo'lga qo'ydi. Markaz tomonidan aholi orasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, so'rovlar asosida ishlab chiqilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar jamoat birlashmalari, ilmiyijodiy muassasa va tashkilotlar, ommaviy-axborot vositalarining ma'naviy-tarbiyaviy faoliyati saviyasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi. 1996- yil 9- sentabrda qabul qilingan “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazi ishini yanada takomillashtirish to'g'risida“ gi Prezident farmoni jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. 1996- yil yanvarda Respublika

“Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi huzurida „Oltin meros“ xalqaro xayriya jamg‘armasi tuzildi. 1996- yil 27 - sentabrda Respublika Vazirlar Mahkamasining “Oltin meros” xayriya jamg‘armasini qo‘llabquvvatlash to‘g‘risida“ gi qaroriga binoan mazkur jamg‘arma davlat tomonidan moddiy jihatdan qo‘llabquvvatlandi. „Oltin meros“ xayriya jamg‘armasi “Xalq merosi durdonalari” ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi amaliy san‘at namunalari, yodgorliklarini tahlil qilish, ko‘rik tanlovlar o‘tkazish bilan shug‘ullanmoqda. 1996-2002 - yillarda “Oltin meros” jamg‘armasi sa’y-harakatlari natijasida buyuk allomalarimiz yaratgan ko‘plab madaniy-ma’naviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorijiy davlatlardan izlab topildi, jamlandi hamda kutubxona va muzeylarga joylashtirildi. Shuningdek, u xalqimizning rasm-rusumlarini, urf-odatlarini, marosimlarini o‘rganish, tiklash, xalqimizga qaytarish, ularning ma’no-mohiyatini, hozirgi kundagi ahamiyatini keng ommaga tushuntirish ishiga katta hissa qo‘shmoqda.

2. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlarimiz xotirasiga bo‘lgan e’tibor va tarixiy shaharlarimiz yubileylarining xalqaro miqyosda nishonlanishi

Mustaqillik sabab milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk bobokalonlarimizning ma’naviy merosi qaytadan o‘rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo‘lishga muyassar bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida xalqimiz ma’naviyatining yulduzlari bo‘lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan sanalari **YUNESCO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi:**

- 1991-yil — Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;
- 1992-yil — Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi;
- 1993 -yil — Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi;
- 1994 -yil — Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi;
- 1996-yil — Amir Temur tavalludining 660 yilligi;
- 1997-yil — Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon tavalludining 100 yilligi;
- 1998-yil — Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi;
- 1999-yil — „Alpomish“ dostonining 1000 yilligi;
- 2000 -yil — Burhoniddin Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi;
- 2000 -yil — Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi;
- 2001-yil — „Avesto“ yaratilganligining 27 00 yilligi.

Buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz yubileylari munosabati bilan ularning o‘nlab nodir va noyob asarlari o‘zbek, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa tillarda nashr etildi, haykallar o‘rnatildi, ziyoratgoh maydonlari, bog‘lar yaratildi.



1991-yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Shu yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi. Yubiley yilida

“Lison ut-tayr”, “Sab’ayi sayyor”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Hayrat-ul Abror” asarlari nashr qilindi, kinofilmlar va sahna asarlari yaratildi. 1991- yil 28 - sentabr kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy haykali va Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

1994-yil oktabr oyida Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yillik yubileyi tantanalari bo‘lib o‘tdi. Ulug‘bek madrasasi, Ulug‘bek yashagan davrdagi astronomik asboblari, Toshkentdagi Ulug‘bek haykali aks ettirilgan pochta markalari muomalaga chiqarildi. Shu yil 24 - oktabrda Parijda YUNESCONing majlislar zalida “Ulug‘bek va temuriylar davri” mavzusida Xalqaro konferensiya hamda “Ulug‘bek va an’anaviy san’at” ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Bu tadbirlar Mirzo Ulug‘bek qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanishiga ko‘maklashdi.

1998- yil 23- oktabrda Farg‘ona shahrida buyuk alloma Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yillik yubileyi nishonlandi. Uning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. Farg‘ona shahrida Al-Farg‘oniy nomi bilan bog‘ yaratildi va buyuk allomaga haykal o‘rnatildi.

Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning, milliy-axloqiy qadriyat hamda an’analarning, muqaddas dinimizning o‘rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o‘z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma’naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o‘z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu boisdan mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalqimiz tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o‘quv maskanlarida Vatan tarixini o‘qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida 1996-yilda “O‘zbekistonning yangi tarix markazi” tashkil etildi. O‘zbek xalqi va O‘zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I. A. Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo‘lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix



instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida belgilab berildi. Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o‘rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yonda Shuvlaridan, hukmron kommunistik mafkuraga xizmatkor bo‘lishdan xalos etildi. Necha 10 yillar davomida buzib ko‘rsatilgan yoki so‘z ochilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o‘quv adabiyotlari

yaratildi. Mamlakatimiz Xitoy, Hindiston, Eron, Misr kabi qadimiy davlatlar qatorida turadi. Milliy davlatchiligimiz qadimiy, diyorumiz yirik davlat arboblari bilan mashhur. Bobomiz Amir Temur mamlakatimizni jahondagi eng qudratli davlat darajasiga ko‘targan. Sobiq Ittifoq davrida ko‘hna tariximizning ana Shu qirralari berkitilgan bo‘lsa, mustaqillik davrida o‘zining asl bahosini oldi. Milliy davlatchiligimiz tajribasi, Amir Temur tuzuklari, Forobiy, Alisher Navoiylarning odil davlat qurish haqidagi dono fikr-mulohazalari mustaqillik davrida demokratik huquqiy davlat qurilishida katta madad berdi. Prezident Farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e‘lon qilindi. Shu yili mashhur davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi mamlakatimizda va jahon miqyosida Amir Temur yili sifatida keng nishonlandi. YUNESCO qarori bilan 1996-yil aprelda Parijda mashhur davlat arbobi Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan bir haftalik xalqaro tantanalar bo‘lib o‘tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal o‘rnatildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Amir Temurning shaxsi butun ma‘rifiy insoniyatning boyligi ekanligi tan olindi.

Amir Temur yubileyi munosabati bilan Samarqand va Shahrisabzda o‘nlab tarixiy obidalar ta‘mirlanib, qayta tiklandi, yangi inshootlar qurildi, bog‘lar yaratildi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari markazida ko‘rkam Amir Temur maydoni barpo



etildi va ulug‘vor haykal o‘rnatildi. Bu shaharlarga „Amir Temur“ ordeni topshirildi.

Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o‘z joyiga qo‘yildi, asarlari nashr etildi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrining Bo‘zsuv kanali bo‘yida qatag‘on davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida “Shahidlar xotirasi”

yodgorlik majmuyi bunyod etildi va uning ochilish marosimi

2000 - yil 12- may kuni bo‘lib o‘tdi. Mazkur majmua qoshida “Qatag‘on qurbonlari xotirasi“ muzeyi qurilib, 2002-yil 27 -avgust kuni foydalanishga topshirildi. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi, “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyining tarixiy, siyosiy ahamiyati Shundaki, u bugungi va kelgusi avlodlar uchun qaramlik davrida xalqimiz qanday ayanchli kunlarni boshidan kechirgani, mustaqillik tufayli yurtimizda adolat, shahid ketganlarning xotirasi tiklanganligi to‘g‘risida tarixiy xotira, saboq bo‘lib xizmat qiladi.

1999-yilda Toshkent shahrida Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi Vatan ozodligi uchun jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida “Xotira maydoni” majmuasi barpo etildi va Shu yili 9-May kuni uning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Respublika “Nuroni” jamg‘armasi tashabbusi bilan janglarda halok bo‘lgan 400 mingga yaqin vatandoshlarimiz haqida 34 jildlik “Xotira” kitobi tayyorlandi va nashr etildi. Har yili 9 - May kuni “Xotira va qadrlash kuni” sifatida nishonlanmoqda. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bu tadbirlar xalqimizning o‘zligini anglashiga, tarixiy xotirasini tiklashga xizmat qilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g‘ururni ko‘tarishga hamda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongida milliy istiqloq g‘oyalarini shakllantirishga ko‘maklashmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning e‘tibori bilan el-u yurtga mehnati singgan insonlarning hurmatini joyiga qo‘yish an‘anasi davom ettirilmoqda. 2017 -yilning o‘zida bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Toshkent va Samarqandda Islom Karimov (2018-yil Qarshida), Namangan viloyatida Is‘hoqxon Ibrat, Xorazm viloyatida Komiljon Otaniyozov, Qoraqalpog‘istonda Ibroyim Yusupov, Farg‘onada Erkin Vohidov, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Andijonda Muhammad Yusuf xotiralarini abadiylashtirish bo‘yicha yirik tadbirlar o‘tkazildi. Ularning nomi bilan ataladigan markazlar, ijodiy maktablar tashkil etildi. Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuasi ochildi. Yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi nishonlanishi xalqimizni quvontirdi. O‘zbekiston Prezidentining 2017 -yil 27 -martdagi “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori asosida 2017 -yil 6-noyabr – Sharof Rashidov tug‘ilgan kuni Jizzaxda tantanali tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Jizzax shahridagi tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so‘zladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, Islom Karimov haykallari O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahriga, Islom Karimov tug‘ilib o‘sgan Samarqand shahriga va Islom Karimov birinchi rahbar bo‘lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahriga o‘rnatildi. Bundan tashqari, 2018-yilda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va rahnamoligida Samarqand shahrida, Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasi barpo etildi. Islom Karimov ko‘p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohida Islom

Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifi y yodgorlik majmuasi tashkil etildi. Shuningdek, bir qator ko'chalar va yirik ob'yektlarga Islom Karimov nomi berildi. Prezident farmoni bilan 2018-yil 30-yanvarda Islom Karimov tavalludining 80 yilligi keng nishonlandi, 24 -martda esa Samarqandda xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Mustaqillik yillarimizda yurtimizdagi qadimiy shaharlarning yubileylari respublika va xalqaro doirada keng miqyosda nishonlanadi. Bu shaharlarda ulkan obodonlashtirish ishlari olib boriladi.

- 1997 -yil Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik yubileyi nishonlandi.
- 2002 yil – Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi nishonlandi.
- 2002 -yil – Shahrisabz shahrining 2700 yilligi nishonlandi.
- 2003 - yil – Nukus shahrining 70 yilligi nishonlandi va shahar “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.
- 2006-yil – Qarshi shahrining 27 -00 yilligi nishonlandi.
- 2006-yil – Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi.
- 2007 -yil – Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi o'tkazildi.
- 2007 -yil – Marg'ilon shahrining 2000 - yillik yubileyi o'tkazildi.
- 2009 -yil – O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi.

3. Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi


Mustaqillik tufayli badiiy ijodiyot, badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqida hukmronligidan, illatlardan ozod bo'ldi. Badiiy adabiyotda milliylik, mingyillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Ijodiy faoliyatda mustaqillikni asrab-avaylash, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash, yurtdoshlarimiz ongida milliy istiqloq g'oyalarini shakllantirish kabi masalalar bosh mavzu sifatida o'rin egalladi. Jadidchilik harakati namoyandalarining, sovet davrida qatag'on qilingan millatparvar yozuvchi va shoirlarning asarlari, Qur'on va hadislar nashr etildi va keng kitobxonlarga yetib bordi. Milliy adabiyot rivojiga H. S. Karomatovning “Qur'on va o'zbek adabiyoti”, O. Sharafiddinovning “Cho'lponni anglash”, B. Qosimovning “Maslakdoshlar” asarlari ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron, O'ra Mirzo kabi ijodkorlarimizning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz, sohibqiron Amir Oemur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa buyuk zotlar siymolari yangicha badiiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritildi. Shukrulloning “Kafansiz ko'milganlar” romanida, To'lepbergen Qayipbergenovning “U dunyoga, bobomga xat” asarida, Nazar Eshonqulovning “Qora kitob” povestida, O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida, Xudoyberdi To'xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi” romanida, Oygul Muhammad qizining “Jannat qushi” romanida, Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida mustabid sovet davrida yuritilgan shovinistik siyosatning qatag'onlik, zo'ravonlikka asoslangan mohiyati, xalq boshiga solingan tashvish-u kulfatlar, g'am-g'ussa alamlari tasvirlangan. Tohir Malikning “Shaytanat” (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning “Tutash

olamlar” asarlarida insonni iymon va vijddan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafratlanish tuyg‘ulari o‘z aksini topgan. Omon Muxtorning “To‘rt tomon qibla” nomli trilogiyasi, Barat Boyqobulovning “O‘zbeknoma” tarixiy-falsafiy va ma’naviy-ma’rifiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning “Biz kim, o‘zbeklar” asari, Azim Suyunning “Oq va qora”, A. Qutbiddinning “Izohsiz lug‘at” she‘rlari zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin ifodasidir. O‘zbekiston Prezidenti, respublika hukumati ijod ahliga katta g‘amxo‘rlik qilmoqda. Iste’dodli adiblar faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlanmoqda. Abdulla Oripov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov, To‘lepbergen Qayipbergenovlar mamlakatimizning oliy mukofoti — “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandilar. Ko‘plab shoir va yozuvchilar yuksak saviyadagi badiiy asarlar uchun o‘tkazilgan tanlovlarning sovrindorlari bo‘ldilar.



Istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayonida **teatr san’ati** ham rivojlandi. 1993 -yilda foydalanishga topshirilgan “Turkiston” san’at saroyi Vatanimizning va xorijlik atoqli teatr arboblarning, ijodiy guruhlarning sahna asarlari namoyish etiladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, Abbas Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. Respublika Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 1998- yil 26- martdagi “O‘zbekistonda teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo‘llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma’naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg‘otuvchi spektakllar yaratishda, iste’dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko‘maklashdi. “O‘zbekteatr” birlashmasi va barcha teatrlar 5 yilga barcha turdagi soliqlardan ozod qilindi. Murakkab o‘tish davri qiyinchiliklariga qaramasdan bironta teatrning yopilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Teatr binolari ta’mirlandi, ichki jihozlari yangilandi. Alisher Navoiy nomli davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995-yilda bepul ajratilgan 47 mln iyen (1500 ming AQSH dollari) qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda 36 ta professional teatr faoliyat ko‘rsatmoqda. Har bir viloyatda qo‘g‘irchoq teatrlari bolalarga xizmat ko‘rsatmoqda.



1996-yilda Toshkentda Koreya drama va estrada milliy teatri tashkil etildi va Shu yilning dekabr oyida o'z faoliyatini boshladi. Davlat akademik rus drama teatri 1999-yilda hozirgi zamon talablari darajasida tubdan qayta qurilgan muhtasham binoga ko'chirildi va o'zining 64 teatr mavsumini yangi binoda boshladi. 2001-yilda respublika teatr san'atida muhim tarixiy voqea sodir bo'ldi. Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunalari va mebellar bilan jihozlandi. 2001- yil 21- sentabrda Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi, O'zbekiston Milliy akademik drama teatri deb ataldi. Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e'tibor berdilar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari "Sohibqiron", Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri "Jaloliddin Manguberdi", Abror Hidoyatov nomli O'zbek davlat teatri "Buyuk ipak yo'li" kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo'ydi. O'zbekistonda Respublika va xalqaro teatr festivallari bo'lib o'tdi. 1992-yil mart-aprel oylarida bo'lib o'tgan "Navro'z" mintaqaviy festivalda Markaziy Osiyo mamlakatlari teatrlarining eng yaxshi sahna asarlari namoyish etildi. 1997 -yil oktabrda Toshkentda bo'lib o'tgan "Teatr: Sharq-G'arb" xalqaro festivalda Yaponiya, Hindiston, Syangan, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san'atkorlarining chiqishlari bo'ldi. Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan festivalda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy sahna asarlari namoyish etildi. O'zbekiston teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSH, Belgiya, Misr, Rossiya teatr festivallarida qiziqarli spektakllar bilan ishtirok etdilar. Teatr san'atining rivojiga, iste'dodli aktyorlarni izlab topishiga talabalarning "Nihol" respublika festivali, "aktyor mahorati" festivallari, yoshlar teatrlarining "Humo" festivallari ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Muxtasar aytganda, respublikamiz teatr san'ati xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, ular ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdira borish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish, axloqiy, estetik tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.




Shuningdek, O'zbekistonda mustaqillik yillarida **kino san'ati** ham rivojlandi. Kino san'atining ijodkor ustalari — Shuhrat Abbosov, Yo'ldosh A'zamov, Elyor Eshmuhamedov, Ali Hamrayev, Rashid Malikov, Jahongir Fayziyev, Sharof Boshbekov va boshqalar zamonaviy kinofilmlar yaratish ishlarida peshqadamlik qildilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy kinostudiyalar vujudga keldi. 1992-yil fevralda Latif Fayziyevning dastlabki xususiy kinostudiyasi "Fayzifilm" ro'yxatga olindi. 1996- yilda "O'zbekfilm" tasarrufida 8 ta studiya, Shuningdek 30 ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996-yil 29- aprelda e'lon qilingan "O'zbekkino davlat aksionerlik kompaniyasini tuzish to'g'risida"gi Prezident farmoni milliy kino san'atining rivojida muhim bosqich bo'ldi. Farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi "O'zbekkino" davlat aksionerlik kompaniyasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorga binoan "O'zbekkino" davlat aksionerlik kompaniyasi tuzildi. Mazkur kompaniya Davlat mulk qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki tomonidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. „O'zbekkino“ kompaniyasi qoshida Respublika kino arboblari ijodiy assotsiatsiyasi ta'sis etildi. Kino tarmog'i tashkilotlariga davlat budjetidan ajratiladigan har yillik dotatsiyalar 2000 -yilgacha saqlab qolindi. Kino sohasining iqtidorli yoshlari uchun xorijiy kino akademiyalari va o'quv markazlarida o'qish, malakasini oshirish ishlari amalga oshirildi. 1991-2002 - yillarda O'zbekiston kinostudiyalarida 60 ga yaqin badiiy filmlar suratga olindi. "Temir xotin", "Ko'zlarim yo'lingda", "Dallo", "Sharif va Ma'rif", "Tilla bola", "Buyuk Amir Temur", "Yulduzingni ber, osmon", "Kenja singil", "Voiz", "O'tgan kunlar", "Piyoda odam" va boshqa filmlarda milliylik va yangi, zamonaviy ijodiy erkinlikning an'anaviy badiiy uslub bilan uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ldi. 1997 -yilning 22 -29-may kunlari Toshkentda jahonning 32 ta davlati va 8 ta xalqaro tashkilotning madaniyat va san'at arboblari ishtirokidagi "Umuminsoniy qadriyatlar va milliy taraqqiyot" shiori ostida XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo'lib o'tdi. "Buyuk Amir Temur" filmini yaratishdagi operatorlik mahorati uchun Rifqat Ibrohimovga xalqaro jyurining maxsus mukofoti -"Neksiya" avtomashinasi berildi. Mustaqillik yillarida o'nlab hujjatli kinofilmlar yaratildi. "O'zbekiston bahori" (rej. Sh.Qurbonboyev, E.Xachaturov), "Mustaqillikning besh yilligi" ("O'zbekiston havo yo'llari" milliy kompaniyasining faoliyati haqida), "Ulkan odim" ("O'zDAEWOOavto" zavodi haqida) shular jumlasidandir. Milliy ma'naviyat, ma'rifat namoyandalari faoliyatiga bag'ishlangan "Istiqlol fidoyilari" ruknidagi hujjatli filmlar, XX asrning 20-yillarida Germaniyada ta'lim olgan iste'dodli yoshlarimizga bag'ishlangan "Ular Germaniyada o'qigan edilar" filmlari yaratildi. Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" nomli asari asosida yaratilgan beshta videofilm, "O'zbekiston Qahramonlari" ruknidagi kinocherklar,

“Umid qaldirg‘ochlari” hujjatli filmi va boshqalar bugungi hayotimizni, istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimizni teran anglab olishga ko‘maklashmoqda.

Istiqlol yillarida **tasviriy san‘at** sohasi ham anchayin yuksaldi, rassomchilik yangi ma‘no-mazmun bilan boyidi. 1997 - yilda Prezident farmoniga muvofiq O‘zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil etilishi va “Tasviriy oyina” respublika ijodiy uyushmasining tuzilishi, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi tasviriy san‘at rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Iste‘dodli yoshlarni izlab topish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiyeu, Bahodir Jalolov, qobiliyatli mo‘yqalam sohibi Zayniddin Faxriddinov va boshqalar xalqimiz ongida milliy g‘urur, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otuvchi qator san‘at asarlarini yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, fan va ma‘naviy-ma‘rifiy sohada dunyoga mashhur bobokalonlarimizning portretlari yaratildi. Tasviriy san‘at ustalarining sa‘y-harakatlari bilan Vatanimizda qadimdan shakllangan nafis san‘at maktablarining noyob an‘analari, tasviriy va miniatura san‘atining nodir durdonalari qaytadan o‘rganildi, boyitildi, dunyo uzra namoyish qilindi. AQSh, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda o‘zbek rassomlarining ko‘rgazmalari bo‘lib o‘tdi. Yetakchi rassom-dizaynerlar — L. Sadriddinov, F. Toshmuhamedov, K. Tursunov, T. Turg‘unov, T. Qo‘ziyev o‘z asarlari bilan Hindiston, Xitoy, Portugaliya, Bolgariya, Gretsiya, Avstraliya kabi mamlakatlarda o‘tkazilgan badiiy ko‘rgazmalarida qatnashdilar. 1999-yil avgust oyida Badiiy akademiyaning Markaziy ko‘rgazma zalida O‘zbekiston mustaqilligining 8 yilligiga bag‘ishlab “Eng ulug‘, eng aziz“ mavzusida o‘tkazilgan respublika badiiy ko‘rgazmada Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg‘ona vodiysi va boshqa viloyatlar san‘at ustalarining 600 dan ortiq rasmlari, grafiklari (bo‘yoqsiz rasm), dizaynlari, haykaltaroshlik asarlari, xalq hunarmandchiligi va amaliydekorativ san‘at namunalari namoyish etildi. Shahar ko‘chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o‘rnatildi, muhtasham binolarning devorlari nAQShlar bilan bezatildiki, bular odamlarga huzur-halovat, zavq bag‘ishlaydi.

1992- yilda **“O‘zbekdavlatsirk”** respublika birlashmasining tashkil etilishi sirk san‘atining rivojlanishida, yosh iste‘dodli ijrochilarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Toshkent sirki zamonaviy talablar asosida qayta ta‘mirlandi, unga dorbozlar sulolasi asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiyev nomi berildi. An‘anaviy sirk san‘atining unutilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Iste‘dodli yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida 1996- yilda estrada-sirk kolleji ochildi.




Respublika shaharlarida faoliyat yuritayotgan sirk guruhlarini soni ko‘paydi. Agar 1990 -yilda 7 ta an‘anaviy sirk guruhi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2001-yilda ularning soni 20 tadan oshdi, sirkchilarning ijrochilik mahoratlari o‘tdi. O‘zbekiston sirk ustalarining chet ellarga gastrol safarlari uyushtirildi. Misr, Iordaniya, Falastin, Pokiston, Malayziya, Hindiston, Xitoy, Suriya, Livan, Eron, Birlashgan Arab Amirligida gastrol

safarlarida bo‘lgan respublikamiz sirk ustalari O‘zbek milliy sirk san‘atini namoyish etdilar. Olimjon Toshkenboyev rahbarligidagi “O‘zbekiston dorbozlari” guruhi 1996-yildan boshlab Yevropa mamlakatlarida gastrol safarida bo‘lib, 2000 dan ziyod tomosha ko‘rsatdilar. 15 yoshli Karima Zaripova 1997 -yil yanvarda Parijdagi Buglion sirkida bo‘lgan yosh sirk artistlarining xalqaro festivalida qatnashib “Plastik etyud” (besuyak o‘yini) janrida festivalning eng oliy mukofoti - oltin medalni qo‘lga kiritdi. 1998-yilda Toshkent sirkida Karima Zaripova rahbarligida iste’dodli yoshlarga ko‘maklaShuvchi bolalar studiyasi ochildi. Studiya bolalarga sirk sirlarini o‘rgatib, katta maneja yo‘llaydi. O‘zbek sirkchilari 1999-yilda Birlashgan Arab Amirligining Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro festivalda, 1999-yilda Saratov shahrida bo‘lib o‘tgan Butunrossiya sirk festivalida, 2000 -yilda Xitoyning Uxan shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro sirk festivalida, 2001-yil yanvarda Belgiyaning Lyej shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa sirkklarining 10-festivalida muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinli o‘rinlarni egalladilar. Sirkchilarimizning sa’yharakatlari natijasida o‘zbek sirkiga xos turli nomer va attraksionlar xalqaro sirk dasturlaridan o‘rin egalladi. 1993 -yilda Toshkentda yangi “Hayvonot bog‘i” ochildi.

Mustaqillik yillarida **milliy musiqa va qo‘shiqchilik san‘ati** yangi yuksalish bosqichiga kirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Respublika Madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan “Xalq ijodi va madaniy-ma’rifiy ishlar respublika markazi”, markazning viloyatlardagi bo‘limlari musiqa va qo‘shiqchilik san‘atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko‘rik-tanlovlar, festivallar tashkil etmoqda. 1992-yilda Toshkentda “Asrlarga tengdosh navolar” va “Boqiy ovozlari”, Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, Qo‘qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazdi. 1994 -yil may oyida Parijda bo‘lib o‘tgan “Sharq musiqasi” festivalida Munojot Yo‘lchiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib, o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san‘atini jahonga namoyish etdilar. 1996-yil aprel oyida Turkiston saroyi, Bahor majmuasi va boshqa ijodiy konsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi xalq orasidan iste’dodli qo‘shiqchilarni izlab topish va ko‘rik-tanlovlarga jalb etish, musiqa va qo‘shiqchilik san‘ati bo‘yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlarni amalga oshirdi. Musiqa-raqs san‘atini rivojlantirish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.


O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-dekabrdagi “O‘zbekiston - Vatanim manim” qo‘shiqlar bayrami to‘g‘risida”gi farmoni qo‘shiqchilik san‘atini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 1996-yil ko‘rik tanlovini o‘tkazish barcha viloyat, shahar va tumanlarida “O‘zbekiston – Vatanim manim” qo‘shiq tanlovining birinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi, unda 54 mingdan ziyod qo‘shiqchilar qatnashdi. Tanlovning yakunlovchi bosqichi avgust oyida o‘tdi. 700 ta qo‘shiqchi qatnashdi, ulardan 10 tasi mukofotlandi. O‘zbekiston Prezidentining 1996-

yil 27 -avgustdagi farmoni bilan bunday ko‘rik tanlov har yili avgust oyida o‘tkaziladigan bo‘ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni “O‘zbekiston – Vatanim manim” qo‘shiq bayrami



kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida yuzlab Vatan, mustaqillikni e'zozlovchi yangi qo'shiqlar yaratildi. "O'zbekiston – Vatanim manim", "Men seni sevaman – O'zbekiston", "Vatan yagonadir", "Mustaqillik gullari", "Ona yurtim", "O'zbekiston askarlari" qo'shiqlari Shular jumlasidandir. 1997 - yil 11- martda qabul qilingan Respublika hukumatining "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturulamal bo'lib xizmat qildi. 1997 - yil 25 - avgust – 2- sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan „Sharq taronalari“ birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'atShunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdilar, festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy-qo'shiqlari jahon uzra aks-sado berdi. Ozarbayjonlik Simara Imonova oliy mukofot – Granpriga sazovor bo'ldi. 1- o'rin Munojot Yo'lchiyeva va hindistonlik Shainu Khulanaga nasib etdi. Har ikki yilda Samarqandda "Sharq taronalari" Xalqaro festivalini o'tkazish an'anaga aylandi.

Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi. 1992-yilda Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, 1993 - yilda Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olimi Hadicha Sulaymonova muzeyi, O'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi, Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho'pon, ikki marta Mehnat Qahramoni Jaboy Bashmanov muzeyi, 1994 - yilda Toshkentda xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov muzeyi, 1996- yilda O'zbekiston Gidrometeorologiya muzeyi, 1997 - yilda Buxoroda mashhur zarb qiluvchi Salim Hamidov muzeyi, Shuningdek oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi. 1996- yil 1- sentabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-Shuhrat muzeyi ochildi. Bu muzey o'zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalaridagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport harakatining rivojini rag'batlantiradigan markaz bo'lib qoldi.



1996- yil 18- oktabrda Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Muzey temuriylar davri ruhini aks ettiruvchi o'sha davrga xos tarixiy jihozlar, qurol-aslahalar, lashkarboshilar va oddiy jangchilarning kiyim-boshlari, oltindan yasalgan uy-buyum ashyolari, musiqa asboblari, Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa 2000 - dan ortiqroq tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jihozlangan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy ishlar, ilmiy tafakkur markaziga aylandi.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi yangi binoga ko‘chirildi hamda ajdodlarimizning ko‘p ming yillik hayoti va madaniyatini ilmiy, xolisona aks ettiruvchi yangi eksponatlar bilan qayta jihozlandi. O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi Yaponiya hukumati tomonidan beg‘araz ajratilgan 38,8 mln iyen pul mablag‘i hisobiga ta‘mirlandi, yangi muzey jihozlari, asbob-uskunalari bilan yanada boyidi. O‘zbekiston Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni va uning bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan respublika hukumatining “Muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollari belgilab berdi. Madaniyat ishlari vazirligi, “Oltin meros” jamg‘armasi, Badiiy akademiya, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi muzeylar rahbariyati bilan hamkorlikda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta‘minoti bo‘yicha dastur ishlab chiqildi. Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta‘mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat budjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatish, moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda **“O‘zbekmuzey”** Respublika jamg‘armasi tuzildi.

Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko‘maklashuvchi “Moziydan sado” jurnali ta‘sis etildi va u 1999-yildan boshlab o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. 1999- yilda muzeylarning asosiy fondi 7544 ta tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi. O‘zbekistonda umumiy maydoni 137 -150 kv m ni tashkil etadigan 510 ta muzey faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda 1,3 milliondan ortiq ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir buyumlar-eksponatlar saqlanmoqda va aholiga namoyish etilmoqda. Mamlakatimizning me‘moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro‘yxatiga kiritilgan. 2500 ta me‘moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san‘at asari davlat muhofazasiga olingan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-qo‘riqxonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me‘moriy obidalar, monumental san‘at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e‘tirof etilgan. Mustaqillik sharofati bilan Samarqand muzey-qo‘riqxonasining Registon maydoni yodgorliklari, Shohizinda, Bibixonim me‘moriy majmuasi, Amir Temur maqbarasi, Afrosiyob muzeyi, Ruhobod majmuasi, Buxorodagi Kalon minorasi va masjidi, Mir-Arab madrasasi, Savdo gumbazlari, Sitorayi Mohi Xosa ansambli, Bahouddin Naqshband majmuasi, Xivaning Ichan qal‘asidagi Ko‘hna ark, Muhammad Aminxon madrasasi va masjidi, Islomxo‘ja minorasi, Toshhovli saroyi, Jome masjidi, Shahrisabzdagi Dor-us-saodat, Dor-ustilovat ansambllari, Amir Temurning Oq saroyi, Termizdagi Hakim at-Termiziy, Imom Termiziy, Sulton Saodat, Qirqqiz me‘moriy yodgorlik majmualari qayta ta‘mirlandi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabzdagi betakror me‘moriy yodgorliklar Jahon xalqaro madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan.

4. Mustaqillik yillarida sport sohasi taraqqiyoti

Davlatimizning birinchi prezidenti tomonidan chiqarilgan bir qator farmon va farmoyishlar natijasida mustaqillik yillarida sport O‘zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirildi. Sport aholini, xususan yoshlarni jismoniy va

axloqiy tarbiyalashning, xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omilidir. 1992- yil 5- fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. 46 mingdan ortiq sport inshootlari – sport sog'lomlashtirish klublari, bolalar, o'smirlar sport maktablari, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari, oliy sport mahorati maktablari, o'yingohlar, sport zallari, maydonlari, hovuzlar barpo etildi va ta'mirlandi. Ularda 7 - mln kishi jismoniy tarbiya va sport bilan Shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1992-yil yanvarda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tuzildi va 1993 - yil sentabrda xalqaro olimpiya qo'mitasining 101 sessiyasida rasmiy e'tirof etildi. 1996-yil 14-avgustda Toshkentda olimpiya muzeyi ochildi. 1992-yili Barselonada o'tkazilgan olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari 3 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar. Sportning boks turi jadal o'sdi. Artur Grigoryan, Muhammadqodir Abdullayev kabi o'zbekistonlik bokschilarning nomi jahonga mashhurdir.

1999-yil avgust oyida Amerikaning Xyuston shahrida o'tkazilgan X Jahon chempionatida O'zbekiston boks komandasi 83 mamlakat o'rtasida AQSH va Kuba komandalaridan keyin faxrli uchinchi o'rinni egalladi. Bokschilarimiz M. Abdullayev va O'. Haydarovlar oltin, T. Turg'unov kumush medali sohibi bo'lishdi. 2000-yili Avstraliyaning Sidney shahrida o'tkazilgan 27-yozgi Olimpiada o'yinlarida bokschilar M. Abdullayev oltin, Sergey Mixaylov va Rustam Saidovlar bronza medallarini, kurashchi Artur Taymazov kumush medalni qo'lga kiritib, O'zbekiston bokschilari Shuhratini olamga namoyon qildilar. O'zbek bokschisi Ruslan Chagayev 2007 - yil 14- aprel kuni Germaniyaning Shtutgart shahrida professional boksning WBA yo'nalishi bo'yicha jahon chempioni N. Valuyev bilan bo'lgan bellashuvda g'alaba qozonib, o'ta og'ir vazn toifasi bo'yicha jahon chempioni unvonini qo'lga kiritdi.

Sportning eng mashhur turlaridan biri hisoblangan tennis mustaqillik yillarida yangi bir pog'onaga ko'tarildi. 168 ta tennis korti, eng zamonaviy Yunusobod tennis majmuasi barpo etildi. Yunusobod tennis saroyida 1994-2002-yillarda O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun 9 marta xalqaro tennis musobaqalari o'tkazildi. 1999-yilning iyul oyida Londonda o'tgan tennis bo'yicha yoshlar xalqaro turnirida toshkentlik sportchi Iroda To'laganova Uimblon turnirida g'olib chiqib, kumush kubokning kichraytirilgan nusxasini qo'lga kiritdi. Shu bilan bir qatorda 1998- yil may oyida mamlakatimiz alpinistlari Himolay tog'ining eng baland "Everest" cho'qqisiga chiqib,



O'zbekiston dovrug'ini dunyoga taratdilar. 1994 -yilda Xirosimada o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida o'zbekistonlik yengil atletikachilar, merganlar, kurashchilar, dzyudochilar, bokschilar, futbolchilar jami 40 ta, jumladan, 10 ta oltin medal sohibi bo'ldilar. 1999-yilda Germaniyada yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan karate bo'yicha xalqaro turnirda 200 mamlakatdan 900 nafar sportchilar qatnashdi. Unda ishtirok

etgan O‘zbekiston komandasi faxrli uchinchi o‘rinni egalladi. 2002-yil 29-sentabr 14-oktabr kunlari Janubiy Koreyaning Pusan shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida o‘zbekistonlik sportchilar sportning 24-turi bo‘yicha muvaffaqiyat bilan qatnashib, 15 ta oltin, 12 ta kumush, 24-ta bronza medallarini qo‘lga kiritib, qirqdan ortiq mamlakatlar orasida faxrli beshinchi o‘rinni egalladilar. Mustaqillik sharofati bilan milliy o‘zbek kurashi tiklandi. 1992-yilda Termiz va Shahrisabz shaharlarida dastlabki milliy kurash bo‘yicha xalqaro musobaqa o‘tkazildi. Milliy kurashimizning nazariy jihatlari va qoidalari ishlab chiqildi va xalqaro ekspertlar tomonidan e‘tirof etildi, xalqaro sport turlari qatoridan o‘rin oldi.

1999-yil may oyida Toshkentda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlardan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionati bo‘lib o‘tdi. Unda o‘zbekistonlik kurashchilar 3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo‘lga kiritdilar. Akobir polvon, Kamol polvon, Toshtemir polvonlar nomi butun jahonga taraldi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi, uning faxriy Prezidenti etib Islom Karimov saylandi. 2000-2002- yillarda Bedford shahrida 3 marta Islom Karimov nomi bilan ataluvchi xalqaro turnir bo‘lib o‘tdi. 2002-yil oktabrda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federatsiyasi a‘zoliciga qabul qilindi. O‘zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida butun dunyoda e‘tirof etildi. 2004- yilda Liviya poytaxti Tripoli shahrida bo‘lib o‘tgan shaxmat bo‘yicha jahon chempionatida 56 mamlakatdan 128 - nafar shaxmatchi qatnashdi. Ular orasida hamyurtimiz, xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov ham bor edi. Rustam Qosimjonov barcha da‘vog‘arlar ustidan g‘alaba qozonib, jahon chempioni degan yuksak unvonni qo‘lga kiritdi. Bu g‘alaba butun xalqimizga cheksiz quvonch va g‘urur-iftixor bag‘ishladi

2016-yilgi Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo‘lib o‘tgan XXXI yozgi Olimpiada mamlakatimiz tarixidagi eng sermahsul musobaqa bo‘ldi. Ushbu Olimpiadada eng ko‘p medalni bokschilarimiz qo‘lga kiritishdi. Charm qo‘lqop ustalarimizning 7 nafari Riordan medal bilan qaytishga muvaffaq bo‘ldilar. Ular: Hasanboy Do‘stmatov, Shahobiddin Zoirov, Fazliddin G‘oyibnazarov (oltin), Shahram G‘iyosov, Bektemir Meliqo‘ziyev (kumush), Rustam To‘laganov (bronza), Murodjon Ahmadaliyev (bronza). Ushbu natija Olimpiyadadagi boks musobaqalaridagi eng yuqori natijadir. Sportning ushbu turida medal jamg‘arish bo‘yicha ular Kuba, Qozog‘iston va Rossiyadan tashrif buyurgan raqiblarini ortda qoldirib, mazkur sport turida birinchilikka erishdilar. Og‘ir atletikachimiz Ruslan Nuriddinov Olimpiada rekordini qayd etgan holda, oltin medal sohibiga aylandi.



Mustaqillik yillarida sportning eng ommaviy turi – futbolga e‘tibor davlat siyosatiga ko‘tarildi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekistonda ommaviy va professional futbolni yanada rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, futbolchilarning yangi avlodini tayyorlash va tarbiyalash, Vatanimiz futbolining xalqaro nufuzini oshirish maqsadida 1993 -yilda “O‘zbekiston Respublikasi futbolni yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 1996-yilda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2006-yilda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Dunyoga O'zbekiston sportchilarining salohiyati va qudratini namoyon etayotgan o'zbek hakami Ravshan Ermatov O'zbekiston futbol federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami, 2003 -yildan FIFA hakami statusini olgan. 2008-, 2009 -, 2010 -, 2011- va 2014-yillarda besh marotaba Osiyoning eng yaxshi hakami deb e'tirof etildi. Xalqaro futbol uyushmalari federatsiyasi uni 2011-yilda "Dunyoning eng yaxshi hakami" sifatida tan oldi. U o'z faoliyati davomida futbol bo'yicha jahon chempionatlari final bosqichida eng ko'p – 9 uchrashuvni boshqarib (2014-yilga qadar), dunyo rekordini o'rnatdi. Ravshan Ermatov Prezident farmonlariga muvofiq 2010-yili "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni, 2014-yilda "El-yurt hurmati" ordeni, Shuningdek, 2015-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni, hamda "Malibu" avtomobili bilan mukofotlandi. O'zbekiston futbol terma jamoasi xalqaro turnirlarda uch marta bosh mukofotni qo'lga kiritgan. Birinchisi, 1994 -yilgi Osiyo o'yinlarida olimpiya terma jamoasi, 2012-yil 17 - yoshgacha bo'lgan o'smirlar Osiyo chempionati g'olibi, 2018-yilda 23 yoshgacha bo'lgan olimpiya terma jamoasi Osiyo chempioni unvoniga sazavor bo'ldi. 2018-yil Xitoyda o'tkazilgan 23-yoshgacha bo'lganlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning topshirig'i bilan Osiyo chempionatida zafar quchgan O'zbekiston olimpiya terma jamoasi a'zolarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Qit'a chempionlarining har biriga Prezident sovg'asi – bittadan yangi Chevrolet Malibu avtomobili topshirildi.

5. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo davlat siyosati

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 138 ta milliy-madaniy markazlar millatlararo totuvlik g'oyasini hayotga tatbiq etmoqda. Ruslarning "Maslennitsa", tatar-boshqirdlarining "Sabanto'y", uyg'urlarning "Sayil" bayramlari, xitoylarning "Chunuze" yangi yili, koreyslarning "Soller" va "Ovol - tano" bayramlari nishonlanmoqda. Har yili res-publikamiz miqyosida "Biz yagona oila farzandlarimiz", "Vatan yagonadir, Vatan bittadir", "O'zbekiston umumiy uyimiz" shiori ostidagi festivallar o'tkazilmoqda. O'zbekiston aholisining 80 % ini o'zbek, 4,9 % ini tojik, 3,8 % ini rus, 3,6 % ini qozoq va 7-,7 % ini boshqa turli millatlarga mansub kishilar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'min-laydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy-madaniy markazlari (MMM) faoliyat yuritadi. Dastlabki milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989 -yilda tashkil etilgan. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. Bu davrda ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar

yaratildi. Natijada ularning soni yil sayin ortib bordi. Agar 1992-yilda 10 ta milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo'lsa, hozirga kelib esa, mamlakatda 138 ta milliy-madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. 1992-yil tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi esa ushbu milliy madaniyat markazlar faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga tashkiliy va uslubiy yordam ko'rsatib keldi.

Bugungi kunda respublikadagi barcha oliy o'quv yurtlarida turli millatga mansub talabalar tahsil oladi. Dunyoning kamdan-kam mamlakatlarida kuzatiladigan yana bir holat Shuki, O'zbekistonda ta'lim 7 ta tilda olib boriladi. Bular sirasiga o'zbek va qoraqalpoq tillaridan tashqari rus, qozoq, turkman, tojik va qirg'iz tillarini kiritish mumkin. Teleradio ko'rsatuv va eshittirishlar 12 ta tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 10 ta dan ortiq tillarda chop etilmoqda. Bu O'zbekistonda millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda tinchlikni yanada mustahkamlash, millatlararo barqarorlikni yuksaltirish maqsadida 2017-yil 19-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, Baynalmilal madaniyat markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar hamda do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishida davlat idoralari Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar hamda do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishida davlat idoralari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirishda mustahkam tayanch bo'ladi.

O'zbekiston hali sovetlar qaramog'ida turgan og'ir kunlarda Islom Karimov xalq xohish-irodasiga quloq tutib, unutilmas tarixiy hujjatga imzo chekdi. 1990-yil 2-iyun kuni "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida"gi farmonini e'lon qildi. Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko'rildi. Jumladan, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. 1992-yil 27-martda O'zbekiston Prezidentining "Ro'za hayitini dam olish kuni, deb e'lon qilish to'g'risida" farmoniga ko'ra, musulmonlar hayotidagi qutlug' sanalar – Qurbon va Ramazon hayit kunlarini doimiy ravishda bayram qilish va ularni dam olish kunlari, deb e'lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko'nglidagi ish bo'ldi.

SSSR davrida O'zbekistonda 89 masjid, 2 ta madrasa bo'lgan, 2017 -yilga qadar esa 2033 ta masjid, Islom universiteti, Islom instituti, 16 ta diniy konfessiyalar faoliyat yuritib keldi. O'zbekiston aholisining 88 foizi islom diniga, 10 foizidan ziyodi boshqa dinlarga e'tiqod qiladi, 1,8 foizi hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydi. Ramazon hayiti,

Qurbon hayiti respublika miqyosida nishonlanyapti, diniy jurnal va gazetalar nashr etilib, televideniye va radioda diniy mavzularda maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar olib borilyapti. O'zbekistonda din davlatdan, siyosatdan ajratilgan, ammo xalqdan ajratilgan emas. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Din ishlari bo'yicha qo'mita" dindorlar ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashib kelmoqda. 2007-yilda Islom Hamkorligi tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalar bo'yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan "Toshkent – Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilindi. Bu O'zbekiston davlatini dinga bo'lgan munosabatining natijasidir. Aholisi ko'p millatli bo'lgan O'zbekistonda islomdan tashqari xristianlik, yahudiylik, buddaviylik va boshqa konfessiyalarga e'tiqod qiluvchi kishilar ham bor. Ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatda millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan izchil davlat siyosati turli millat hamda barcha diniy konfessiya vakillarining emin-erkin yashashlari uchun mustahkam asos yaratdi. 1991-yil davlatning vijdon erkinligi va dinga oid siyosatini belgilab beruvchi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Uning qabul qilinishi islom diniga va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi fuqarolarning hayotida muhim o'rin egalladi.

1992-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Qo'mita tarkibida diniy konfessiyalar bilan ishlash uchun maxsus tashkil etilgan sho'ba ish boshlaganidan so'ng, respublika hududida joylashgan va diniy faoliyat yuritayotgan barcha tashkilotlar haqida ma'lumotlar to'plana boshlandi. 1998-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur qonunda fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligi bilan bog'liq huquq hamda burchlari aniq-ravshan belgilab qo'yildi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga muvofiq, "Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llabquvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), Shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar". O'zbekiston kabi ko'p konfessiyali davlatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Zero, diniy bag'rikenglik mamlakatda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, 16 diniy konfessiya o'zaro totuvlikda faoliyat ko'rsatmoqda.

Ilmiy manbalar o'lkamizda qadim zamonlardan oq zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi murakkab ideologik tizimga ega dinlar tinch-totuv faoliyat olib borganliklaridan dalolat beradi. Bunday holatni hozirgi O'zbekistondagi islom, xristian, yahudiy dinlari va boshqa konfessiyalarning o'zaro munosabatlari misolida ham ko'rish mumkin. Umuman, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan noislomik konfessiyalari turli e'tiqodda bo'lgan fuqarolar o'rtasida totuvlik va do'stlik rishtalarini mustahkamlashda muayyan mavqega ega. Ayni paytda O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda pravoslavlar, baptistlar, yahudiylar, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, krishnaitlar, buddistlar, pyatidesyatniklar, Iegova xudosi

shohidlari, yangi havvoriylar, xristian-nresvitorianlar singari bir qancha din va mazhablar mavjud. Ulardan har birining o'ziga xos mafkurasi, talab va ehtiyojlari mavjud. O'rta Osiyodagi musulmon va boshqa konfessiyalarga mansublar o'rtasidagi munosabatlar ham siyosiy, ham maishiy darajada ikki asosiy xususiyatga asoslangan, bular o'zaro hurmat va bag'rikenglikdir. Bu munosabat har xil dinlar vakillarining murakkab tarixiy jarayonlar sinovlarini mardonavor yengib o'tishlari natijasida shakllangan. Mamlakatda tinchlik, taraqqiyot va farovonlik bo'lishidan barcha din vakillari manfaatdor bo'lib, ba'zi konfessiyalar vakillari O'zbekistonda va xorijda tashkil etilayotgan ma'naviy va ma'rifiy tadbirlardagi ma'ruzalarida respublikada diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashlarini bildirmoqdalar. Bunday munosabat davlat tomonidan ham taqdirlanmoqda. Mitropolit Vladimirning "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangani buning yorqin dalilidir. Respublikada diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda konfessiyalarning ham muayyan o'rni bor. Birinchidan, ular o'z faoliyatlari davomida aholida diniy bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo'lida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etib keladilar. Ikkinchidan, mamlakatda dinlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash hamda turli nizo va murakkabliklarni keltirib chiqaruvchi missionerlik kabi xatti-harakatlarga qarshi amalga oshirilayotgan tadbirlarda faol qatnashadilar.

Mustaqillik sharofati bilan "Islom nuri" haftanomasi, "Hidoyat" jurnali dunyoga keldi, ko'plab diniy-axloqiy adabiyotlar chop etila boshlandi. Jumladan, Imom Buxoriyning to'rt jildidan iborat, Imom Termiziyning bir jildli hadis kitoblari, boshqa allomalarning qator asarlari yuz minglab nusxalarda chop etildi. Qur'oni Karim sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi. Bu muqaddas kitob yurtimizda ilk bor 1992-yil Alouddin Mansur tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va uch marta, jami 300 ming nusxada bosmadan chiqarildi. 2004 -yili esa Toshkent Islom universitetida Qur'oni Karimning shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida izohli nashri tayyorlandi hamda chop etildi. O'zbekiston musulmonlari erkinlik va imkoniyatlarga ega bo'lmoqdalar. Ular bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas haj va umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdilar. Agar sovet davrida mamlakatimiz fuqarolaridan 3-4 kishigina haj safarini ado etgan bo'lsa, 2016-yilga qadar har yili 5000 dan ortiq fuqarolarimiz hoji bo'lib qaytishdi. Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarining tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. "Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, "Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining hijriy sana bo'yicha 910 yilligini nishonlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari fikrimizning yaqqol isbotidir. 2003-yili esa Naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan aholi sonining va so'nggi yillarda haj ziyoratiga borish istagini bildirganlar sonining oshib borayotgani e'tiborga olinib, 2017 -yildan o'zbekistonlik fuqarolar uchun haj kvotasi soni 5200 dan 7200 nafarga ko'paytirildi.



Agar siz diniy ta'lim olmoqchi bo'lsangiz, bugun respublikada 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2238 ta diniy tashkilot – Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti, pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat olib bormoqda. Ularda talabalar diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni olish imkoniyatiga ham ega.

1999-yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Toshkent islom universitetiga asos solindi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 7 -2-sessiyasidagi nutqi nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo va butun dunyoda hamjihatlikka erishish, dinlararo totuvlik, tinchlikni saqlash yo'lida muhim dasturilamal bo'layotganini, bu jihatlar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham o'z aksini topganini e'tirof etdi. Prezidentning 2017 -yil 27 – martdagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qaroriga muvofiq Samarqandda ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Uning tarkibida hadisshunoslik oliy maktabi, hadis, kalom va qiroat ilmini o'rganishga mo'ljallangan xonalar, qo'lyozmalar kutubxonasi, muzey tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori asosida Toshkentda Islom madaniyati markazi hamda Prezidentning 2017-yil 15-dekabrda farmoni asosida O'zbekiston Islom akademiyasi tashkil etildi.

Savol va topshiriqlar

1. Jamiyat ma'naviyati deganda nimalarni tushunasiz?
2. Ma'naviy meros nima?
3. Nima sababdan ma'naviy merosni tiklash, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish ustuvor vazifa etib belgilandi?
4. Xalqimiz ma'naviyati yulduzlaridan kimlarning tavallud topgan kunlari nishonlandi?
5. Buyuk davlat arbobi Amir Temur nomini tiklash va o'z o'rniga qo'yilishi haqida so'zlab bering.
6. Qadimiy shaharlarimiz yubileylari haqida nimalarni bilasiz?
- 7 . “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuyining barpo etilishi haqida so'zlab bering.
8. “Qatag'on qurbonlari xotirasi” muzeyida nimalar o'z aksini topgan?
9. “Xotira maydoni” majmuasi qachon va nima uchun barpo etildi?
10. Diniy qadriyatlarni tiklash yo'lida qanday ishlar amalga oshirildi?
11. O'zbek tili mavqeyining mustahkamlanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?

12. Milliy istiqlol g'oyasining maqsadlari haqida so'zlab bering.
13. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
14. Islom Karimovning „Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori“ mavzusidagi ma'ruzasida ko'tarilgan g'oyalar, vazifalar haqida so'zlab bering.
15. Ta'lim sohasidagi davlatimiz siyosatining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
16. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi nima?
17. Milliy dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari va vazifalari haqida so'zlab bering.
18. Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari qurilishi haqida so'zlab bering.
19. Oliy ta'lim ravnaqi haqida nimalarni bilasiz?
20. Ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi to'g'risida nimalarni bilasiz?

10-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR.

Reja:

1. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimi islohotlari. Ta'limning asosiy turlari. Ta'lim tizimini isloh qilish zaruriyati.
2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Ta'lim sohasini qayta shakllantirish.
3. Ta'lim sohasidagi izchil islohotlar.

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga Mustaqillik yillarida ta'lim tizimi islohotlari, ta'limning asosiy turlar, ta'lim tizimini isloh qilish zaruriyati, kadrlar tayyorlash milliy modeli, ta'lim sohasini qayta shakllantirish, ta'lim sohasidagi izchil islohotlar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Tayanch iboralar: Kadrlar tayyorlash milliy modeli, “Sog‘lom avlod uchun”, “Iqtisodiy ta’lim”, “Qishloq maktabi”, “Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tiklash”, “Ulug‘bek”, “Umid”, Respublika bolalar fondi, “Kamolot”, “Sog‘lom avlod uchun”, “Iste’dod” jamg‘armasi.

1. Mustaqillik yillarida ta'lim tizimi islohotlari. Ta'limning asosiy turlari. Ta'lim tizimini isloh qilish zaruriyati.

Har bir zamonda ta'lim sohasi taraqqiyotning asosiy omili hisoblangan. Maorif va madaniyat barkamol insonni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Shu boisdan ham mustaqil O‘zbekistonda maorif va madaniyat ishlarini eng muhim va dolzarb soha sifatida rivojlantirishga alohida e’tibor berildi. 1992- yil 2 iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni hamda 1991-1996-yillarda e‘lon qilingan 30 dan ziyod Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ta’lim sohasida qator o‘zgarishlar amalga oshirildi.

- Maktabgacha ta’lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog‘chalari hamda “bolalar bog‘chasi-maktab” majmuyi tarmog‘i rivojlandi. Bolalarga chet el tillarini, xoreografiya, tasviriy va musiqa san’ati, kompyuter savodxonligi asoslarini o‘rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etildi.

- Yangi tipdagi maktablar va umumta’lim o‘quv yurtlari tarmog‘i rivojlantirildi. 1992-1996-yillarda 238 litsey va 136 gimnaziya ochildi va faoliyat ko‘rsatdi.

- “Sog‘lom avlod uchun”, “Iqtisodiy ta’lim”, “Qishloq maktabi”, “Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tiklash” va boshqa tarmoq dasturlari ishlab chiqildi hamda ta’lim sohasida tatbiq etila bordi.

- Mehnat bozorini, eng avvalo, qishloq joylarida mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta’limini qayta tashkil etish ishlari amalga oshirildi. Bu tizimda jami 221 ming kishini ta’lim bilan qamrab olgan 442 o‘quv maskani, Shu jumladan, 209 kasb-hunar maktabi, 180 litsey va 53 biznes-maktab ishladi.

- Toshkent, Samarqand, Urganch, To‘rtko‘l, Andijon bank kollejlari, Toshkent ayollar kolleji tashkil etildi. Respublikada 1996-1997-o‘quv yilida 258 o‘rta kasb-hunar ta’limi o‘quv yurti ishladi. Ularda qariyb 16 ming o‘qituvchi va muhandis-pedagog xodimlar 197 - ming o‘quvchiga kasb-hunar o‘rgatish bilan Shug‘ullandi.

- Oliy ta'lim sohasida ham qator yangi o'quv yurtlari ochildi. 1992- yil 28 - fevraldagi Prezident farmoni bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi. Eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha yangi oliy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent moliya instituti, Navoiy konchilik instituti, Samarqand davlat chet el tillari instituti, Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti, Jizzax politexnika instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti hamda viloyatlarda yirik universitetlarning filiallari tashkil etildi. 1997-yil boshlarida Respublika Oliy ta'lim tizimida 58 ta oliy o'quv yurti, Shu jumladan, 16 ta universitet va 42 ta institut faoliyat ko'rsatdi. Ularda 164 ming talaba o'qidi, 18,5 ming professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi.

- Abituriyentlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg'or usullari joriy etildi.

- Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar sifatiga bo'lgan talablarning oshgani bois aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash kengaydi. Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etildi.

- Iqtidorli bolalar va qizlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish bo'yicha maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda o'qitish va stajirovkadan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

- Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ulug'bek", "Umid", Respublika bolalar fondi, "Kamolot", "Sog'lom avlod uchun", "Iste'dod" jamg'armalari tashkil etildi.

- O'zbekiston ta'lim sohasida AKSELS, AYREKS, Amerika Kollejlari Konsorsiumi, Tinchlik Korpusi (AQSh), Konrad Adenauer Fondi (Germaniya), Britaniya Kengashi (Buyuk Britaniya) kabi xalqaro tashkilotlar va boshqa nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Ta'lim tizimida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilsa-da, hali bu sohada jiddiy kamchiliklar mavjud edi. Ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash jamiyatda bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, bozor islohotlari talablari bilan bog'lanmagan edi. O'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi qoniqarsiz ahvolda edi. Ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv adabiyotlari va didaktik materiallar yetishmasdi. Yuqori malakali pedagoglar yetishmasdi, ishlab turgan murabbiy-o'qituvchilar kattagina qismining bilim va kasb saviyasi yetarli darajada emas edi. Maktab o'quvchilarida mustaqil fikr shakllantirilmayotgan edi. Ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida hamkorlik, integratsiya o'rnatilmagan edi. Oliy malakali mutaxassislardan foydalanishda, ta'lim xizmati ko'rsatishda kamchiliklar bartaraf etilmagandi, kadrlar tayyorlashda marketing mavjud emas edi. Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar tufayli amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy, taraqqiy topgan davlatlar darajasidan ancha orqada edi. Shu boisdan ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalasi ko'ndalang bo'lib qoldi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi.

Islom Karimov 1997-yil 29-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida **“Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”** mavzusida ma’ruza qildi. Ma’ruzada oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizni ro‘yobga chiqarish taqdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi asoslab berildi va quyidagi vazifalar ilgari surildi:

– eski sovet davridan qolgan ta’lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan, sarqitlardan qutulish;

– milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, jahon andozalari darajasiga ko‘tarish;

– uzluksiz ta’lim tizimini tashkil qilish;

– ta’lim muassasalarining moddiy bazasini zamon talablari darajasiga ko‘tarish;

– bolalarimizga zamonaviy bilim berish, buning uchun, avvalo, o‘qituvchi-murabbiylar bilimining saviyasini ko‘tarish;

– zamonaviy o‘quv dasturlari, darsliklar yaratish;

– xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga katta ahamiyat berish;

– bitiruvchilarni emas, maktab ta’limi va tarbiyasini ko‘rgan shaxslarni tayyorlash;

– o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish, ularni erkin fikrlaydigan etib tarbiyalash;

– respublika oliy o‘quv yurtlarining xorijiy davlatlardagi oliy o‘quv yurtlari bilan aloqasini o‘rnatish va mustahkamlash, yoshlarimizni, professor-o‘qituvchilarni taraqqiy topgan davlatlardagi o‘quv markazlariga borib o‘qishini, malakasini oshirishini tashkil etish.

2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Ta'lim sohasini qayta shakllantirish

1997 - yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi yangi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi.

Ularda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy prinsiplari belgilab berildi:

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o‘rta, Shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi belgilandi:

- maktabgacha ta’lim;

- umumiy o‘rta ta’lim;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy modelini yaratishdan iboratdir. Milliy dasturda, hayotimizning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarga monand ravishda, ta’lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan. Birinchi bosqich (1997-2001-yillar)da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish vazifalari ro‘yobga chiqariladi. Ikkinchi bosqich (2001-2005-yillar)da Milliy dastur to‘liq ro‘yobga chiqadi, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritiladi. Uchinchi bosqich (2005 - va undan keyingi yillar)da to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umum-xalq, umummillat ishiga aylandi. Islohotlarga mos ravishda maktabgacha ta’lim faoliyati tubdan o‘zgardi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari: “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida nizom”, “Davlatga qarashli bo‘lgan bolalar muassasalari to‘g‘risida nizom”, “Uchinchi mingyillikning bolasi”, bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash dasturi ishlab chiqildi hamda hayotga tatbiq etilmoqda. Besh mingga yaqin maktabgacha ta’lim muassasalari hukumat qarori bilan ta’lim tizimi tasarrufiga o‘tkazildi. Xususi va xonadon bog‘chalar tarmog‘i kengaydi. Respublika bo‘yicha 84 % maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta’lim muassasalarida, xo‘jalik hisobidagi qisqa muddatli guruhlarda, maktablar qoshidagi tayyorlov guruhlari, savodxonlik va boshqa turdagi markazlarda amalga oshirilmoqda. 16 % esa oilalarda maktabga tayyorlanmoqda. 2001-2003 - yillarda respublikamizda 6842 ta maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatdi, ularda 608500 nafar o‘g‘il-qizlar tarbiyalandi, 65862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar xizmatda bo‘ldi. O‘zbekiston hukumati ta’limni rivojlantirish uchun katta mablag‘ ajratmoqda. Birgina 2001- yilda ta’lim xarajatlari davlat budjeti sarf-xarajatlarining 36 %ni tashkil etdi. Ular yangi ta’lim binolari barpo etish, ularni eng zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari va o‘quv mebellari bilan jihozlash uchun sarflandi. 848398 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan 2244 ta yangi umumta’lim maktab binolari qurilib, foydalanishga topshirildi. Umumta’lim maktablari uchun davlat ta’lim standartlari, ularga asoslangan o‘quv dasturlari, darsliklar yaratilib, ta’lim jarayoniga joriy etildi. Ta’lim mazmun va mohiyat jihatidan yangilandi. O‘quv

amaliyotiga “Vatan tuyg‘usi”, “Odobnoma”, “Ma’naviyat asoslari”, “Milliy istiqlol g‘oyasi”, “Dunyo dinlar tarixi”, “Huquqshunoslik”, “Sog‘lom oila va nikoh”, “Iqtisodiy bilim asoslari” kabi bir qator yangi fanlar kiritildi, ular bo‘yicha o‘quv dasturlari va darsliklar yaratildi. 2002-2003 - o‘quv yiliga kelib umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida, ya‘ni 1-9 sinflarda o‘qitish to‘laligicha lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida olib borildi. Hukumat o‘quvchilarni darsliklar bilan ta‘minlashga g‘amxo‘rlik qilmoqda. Shu maqsadda “Maktab kutubxona jamg‘armasi” tashkil etilib, o‘quvchilar ijara usulida darsliklar bilan ta‘minlanmoqda. 2001-yilda davlat budjeti hisobidan “Maktab kutubxona jamg‘armasi”ga 1923 mln so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2002 - yilda 6520 mln so‘m ajratildi. Har yili 600 ming nafardan ziyod birinchi sinf o‘quvchilari Prezident sovg‘asi sifatida o‘quv qurollari, darsliklar bilan bepul ta‘minlanadi. Prezident farmoni (2004 - yil 19- fevral) va Vazirlar Mahkamasining qarori (2004 - yil 9 -iyul) asosida maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi ishlab chiqildi. Dasturga binoan 2004 -2009 - yillarda buzib tashlanadigan umumta‘lim maktablari o‘rniga yangi maktablar qurish, maktablarni kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta‘mirlash tadbirlari ishlab chiqildi. Shuningdek, dasturda umumta‘lim maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, maktablarni zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ularning mehnatini rag‘batlantirishni kuchaytirish tadbirlari aniq belgilab berildi.



2003 -yil 19-fevraldagi Prezident Farmoni va 2004 -yil 9-iyuldagi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi ishlab chiqarildi. Dasturga binoan 2004 - 2013-yillarda 9 7 -65 maktabning 4 147 -tasida qurilish-ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi va 3 225 ta maktab rekonstruksiya qilindi. 424 yangi maktab, sport zallari qurildi. Ayni paytda, maktablarni o‘quv laboratoriya jihozlari, mebellar, kompyuter texnikasi bilan ta‘mirlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘quvchilar darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta‘minlanmoqda. 1-sinfga qabul qilingan o‘quvchilarga Prezident sovg‘asi sifatida 12 nomdagi o‘quv qurollari va o‘quvchi sumkasidan iborat sovg‘alar topshirilmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining eng muhim, O‘zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3 yillik o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi tizimini yaratishdir. 1997 - 2012-yillar davomida zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan 1 537 ta akademik litsey va kasb-hunar kolleji barpo etildi. Davlat ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, amaliyotga kiritildi va darsliklar yaratildi.

2005-2010 - yillarda 7-800 tadan ziyod umumta‘lim maktablari yangidan qurildi va kapital ta‘mirlandi, bolalar sport inshootlari qurilib, foydalanishga topshirildi. 2009-2010-o‘quv yilida respublikamizda 9860 ta umumta‘lim maktablarida 450

mingga yaqin o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi, 5 millionga yaqin o'quvchi ta'lim-tarbiya oldi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining eng muhim O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirilmoqda. 1997-2010-yillarda 1536 dan ortiq akademik litsey va kasb-hunar kolleji barpo etildi. Kollej va litseylar uchun o'qitiladigan barcha fanlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, tajriba-sinovdan o'tkazildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi, darsliklar yaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat dasturining ijrosi amalda nihoyasiga yetkazildi. 9 yillik umumta'lim maktab bosqichini va 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi. Oliy ta'lim ikki bosqichdan: bakalavriat va magistraturadan iborat etib qayta tashkil etildi. 1999-yilda Toshkent islom universiteti tashkil etildi. 2009-2010-o'quv yilida 66 ta oliy o'quv yurti, Shu jumladan, 6 ta xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallari faoliyat ko'rsatdi. Oliy o'quv yurtida 850 yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha 300 mingga yaqin bo'lajak bakalavr va magistrantlar ta'lim-tarbiya olmoqda. 18486 nafar professor-o'qituvchi talabalarga ta'lim-tarbiya bermoqda, ularning 1462 nafari fan doktori, 7 -201 nafari fan nomzodidir. 1998-2001- yillarda 131 - ta bakalavriat yo'nalishi, 664 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bakalavr va magistrantlar uchun qo'yiladigan talablarni o'zida mujassamlashtirgan Davlat ta'lim standartlari, ularga mos o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari yaratildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi. Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati olib borilmoqda. Bu borada xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish Milliy dasturda belgilangan muhim vazifalardan biridir.

1997 - yilda tashkil etilgan **“Umid”** jamg'armasi yo'llanmasi bilan 1997 -2001-yillarda 785 nafar yigit-qiz rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlariga o'qish uchun jo'natildi. Ulardan 519 nafari o'qishlarini bitirib keldi va Prezident farmoyishi bilan tashkil etilgan Maxsus ishchi guruhi yo'llanmasi bilan vazirliklar, idoralar, tashkilot va korxonalarda ishlamoqdalar. Toshkentda 2002 - yil iyulda Xalqaro Vestminster universiteti, 2006-yilda Moskva davlat universitetining filiali, 2007 - yilda Moskva neft-gaz universitetining filiali, 2008- yilda Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, 2009 - yilda Turin politexnika universiteti tashkil etildi. Ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jamg'armasi, Germaniyadagi Texnika hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAIKA - Xalqaro hamkorlik agentligi, Koreyaning KOIKA - Xalqaro hamkorlik agentligi, UNESCO, Jahon banki, TESIS-TEMPUS ochiq jamiyat instituti, AQSH, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Daniya, Xitoy, Gollandiya Oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorligi kengayib bormoqda. Ta'lim ravnaqi uchun 150 mln AQSH dollari hajmida chet el investitsiyalari jalb etildi. Oliy o'quv yurtlarining yuzlab professor-o'qituvchilari „Ustoz“ jamg'armasi yo'llanmasi bilan xorijiy oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishda bo'lib qaytdilar. O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo miqyosida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Moskvadagi Oliy ta'lim Xalqaro Fanlar akademiyasi Prezidenti V.Shukshinov Prezidentimiz Islom Karimovga **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”**ning tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida mazkur akademiyaning faxriy a'zosi diplomini topshirar ekan, O'zbekistonda ishlab chiqilgan bu Milliy dasturni mazmun-

mohiyati jihatidan tengi yo‘q hujjat, deb ta’rifladi. Ko‘pgina mamlakatlar tomonidan ham O‘zbekistonda yaratilgan ta’lim tizimi “Ta’limning o‘zbek modeli” deb e’tirof etildi. Mustaqil respublikamizda fan taraqqiyotiga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8- iyuldagi “Ilm-fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining mazkur farmonning ijrosini ta’minlashga yo‘naltirilgan qarori ilm-fan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Respublika Fanlar akademiyasi qoshida Ilmiy ishlanmalarni ichki va tashqi bozorda targ‘ib etuvchi va tarqatuvchi innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi. 1997-yilda Prezident farmoni bilan Xorazm Fanlar akademiyasi qayta tiklandi. Bugungi kunda Respublika ilmiy-tadqiqot majmuasi 362 ta akademik, oliy o‘quv yurtlari va tarmoq muassasalaridan iborat. Ularning 101 tasi ilmiy-tadqiqot instituti, 55 tasi oliy o‘quv yurtlari tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot laboratoriya va bo‘limlari, 32 tasi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va eksperimental korxonalari, 30 tasi axborot-hisoblash markazlaridir. Fan sohasida 46 mingga yaqin kishi, jumladan, 2,8 ming fan doktori va 16,1 ming fan nomzodi tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanmoqda. O‘zbekistonlik olimlarning matematika, ehtimollar nazariyasi, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish, informatika va hisoblash texnikasi, astronomiya, geologiya, seysmologiya, genetika, biotexnologiya, kimyo, fizika, ekologiya, tarix, arxeologiya yo‘nalishlari bo‘yicha yaratgan ilmiy maktablari, tadqiqot natijasida erishilgan nazariy va amaliy yutuqlari jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan tan olindi. Respublika olimlari ta’lim muassasalari uchun zamonaviy darslik, o‘quv adabiyotlari yaratishdek dolzarb sohada fidokorona mehnat qilmoqdalar. Mustaqillik sharofati bilan badiiy ijodiyot, badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqida hukmronligidan, illatlardan ozod bo‘ldi. Badiiy adabiyotda milliylik, mingyillik tarixiy ijodiy an’analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Ijodiy faoliyatda mustaqillikni asrab-avaylash, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash, milliy o‘zlikni anglash, yurtdoshlarimiz ongida milliy istiqlol g‘oyalarini shakllantirish kabi masalalar bosh mavzu sifatida o‘rin egalladi.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan etuk insonlar bo‘lib voyaga etishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

2003-yilda mamlakatda 9702 umumta’lim maktablarida 6 mln. 272000 o‘quvchiga 500 ming dan ortiq pedagog o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya bergan bo‘lsa, 51 ta akademik litseylarda 30620 o‘quvchi 419 kasb-hunar kollejlari esa 285.685 yigit-qizlar hunar egallaganlar. 1991- yili O‘zbekistonda 52 oliygoh bo‘lgan bo‘lsa, 2010 - yilda ularning soni 63 taga etgan. 2014 yilda esa hammasi bo‘lib 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilangan. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so‘m sarflangan. Ushbu mablag‘larning

120 milliard soʻmdan ortigʻi taʼlim muassasalarini oʻquv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan taʼminlash uchun ajra tildi-deya qayd etadi Prezident. 2015-2020-yillar oraligʻida esa 500 ta umumtaʼlim maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital taʼmirlash, jumladan, 101 ta yangi maktab barpo etish va 810 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseylarni kapital taʼmirlash rejalashtirilganligi xususida ham mazkur kitobda qayd etiladi. Ushbu amalga oshirilayotgan islohotlardan oliy taʼlim tizimi ham mustasno emas, albatta. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek “2011-2016-yillarda oliy taʼlim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy taʼlim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital taʼmirlash va jihozlash boʻyicha qiymati 230 milliard soʻmlik ishlar bajarildi.

Taʼlimga eʼtibor, bu madaniyat va taʼlimga eʼtibordir. “Mamlakatimizda taʼlim sohasini rivojlantirish va isloh, etishga yunaltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu sohaning davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ziyod ekani, bun- day koʻrsatkichlarni dunyoning boshqa davlatlarida kamdan-kam uchratish mumkinligi bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNISEF, YUNESCO va boshqa nufuzli xalkaro tashkilotlar tomonidan eʼtirof etilmoqda”.

3. Taʼlim sohasidagi izchil islohotlar.

Oʻzbekistonda taʼlim sohasidagi islohotlarni Oʻzbekiston respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M tomonidan qabul qilingan 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, taʼlim va ilm-fan sohasini rivojlantirish borasida bir qator vazifalarni belgilab berdi. Hujjatda taʼlim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi taʼlim muassasalarini qurish, taʼmirlash va kapital taʼmirlash barobarida ularni zamonaviy oʻquv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va oʻquv-metodik qoʻllanmalar bilan taʼminlash nazarda tutilgan.

2017-2021-yillarda Oʻzbekistonda taʼlim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, oʻquv dasturlarini yanada takomillashtirish, pullik xizmatlar koʻrsatish va moliyalashtirishning qoʻshimcha manbalarini izlashda oliy oʻquv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yoʻli bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirilib boriladi. Oʻtgan vaqt davomida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining taʼlimga oid etmishga yaqin qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu tom maʼnoda taʼlim tizimidagi oʻzgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi. 2017 -yil umumtaʼlim va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi tizimida tub islohotlar yili boʻldi. Xalq qabulxonalari va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, Shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrovnoma natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “9+3”, yaʼni 12-yillik majburiy taʼlimdan 11-yillik taʼlimga qaytildi. 2017-yilning oʻzida 10-sinf oʻquvchilari uchun 9 mln. nusxa darsliklar chop etildi va 10 mingga yaqin umumtaʼlim maktabida 11 yillik taʼlimga oʻtilgan holda oʻqitish tizimi yoʻlga qoʻyildi. Prezidentimiz sohada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada

takomillashtirish bo'yicha ota-onalar va o'quvchilarning fikrlarini inobatga olish, ular bilan "ochiq eshiklar" kunlari kabi tadbirlar tashkil qilib, uchrashuvlar o'tkazish kerakligini alohida ta'kidladi. 2016-2017 - o'quv yilida 466 mingdan ortiq o'quvchilar umumta'lim maktablarini tamomlagan bo'lib, Shundan 170 mingdan ziyodi kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirgan. 288 ming, ya'ni oltmish %dan ortig'i 10 sinflarda o'qishlarini davom ettirmoqda. Yig'ilishda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar muhokama qilinar ekan, yoshlarning kasb-hunar egalashi, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrda **"Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"**gi farmonni imzoladi.

Unga ko'ra, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahri maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlarning maktabgacha ta'lim boshqarmalari va ularning shahar va tumanlardagi bo'limlari kiradi. 2017-yilga kelib O'zbekistonda 4916 ta maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Bunda yoshlarning ulug' ajdodlarimiz merosini o'rganishi, ularga mos etuk kadrlar bo'lib voyaga etishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ulug' ajdodimiz Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilishi ham aynan ana shu vazifani amalga oshirishdagi ilk qadam bo'ldi. Mazkur maktabning tashkil etilishi kadrlarni yoshligidanoq tayyorlab borish, sohada yetuk hamda zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga zamin yaratadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatini va "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan Astronomiya instituti qoshida matematika, astronomiya, fizika va informatika fanlarini chuqur o'rgatishga ixtisoslashtirilgan Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati tashkil etiladi.

Maktablar oldiga qo'yilayotgan talablardan biri - yuqori malakali, sohasining bilimdoni bo'lgan o'qituvchi-pedagoglar bazasini shakllantirish bilan birgalikda, maktabda chet tilini xam o'qitishdir. Bu kabi ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilayotgani yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi alohida ta'kidlandi. 2020-yildan boshlab mamlakatimizda 8-9 sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish masalasi ham alohida ko'rib chiqilmoqda. Bu ta'limning keyingi bosqichida o'quvchilarning hunar egallashida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Endilikda umumta'lim maktablari bitiruvchilarini elikka yaqin kasbga o'rgatish



yo'lga qo'yiladi. Buning uchun kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari negizida zamonaviy jihozlangan o'quv ishlab chiqarish markazlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ba'zi kasb-hunar kollejlari tegishli vazirlik va idoralarga korxonalar va tashkilotlarga birlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 14 martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim omil bo'lmoqda. Bu kadrlar tayyorlashda mazkur muassasalarning ulushini oshirish va kafolatlangan ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

2017 - yil tibbiyot sohasida bakalavriat muddati 7 - yildan 6 yilga, tibbiyot profilaktika yo'nalishida esa 6 yildan 5 yilga tushiriladi

2017 - yil 16 noyabrda "***Oliy ta'lim bakalavriatga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida***" prezident qarori chiqarildi

2017 - yil yurtimizda **80 dan ortiq** oliy o'quv yurti bor. Shulardan:

- 19 tasi universitet;
- 37 tasi institut;
- 6 tasi akademiya
- 1 tasi konservatoriya
- 1 tasi raqs va xareografiya oliy maktabi
- 13 tasi OTM filiallari
- 7 tasi xorijiy davlatlardagi OTM lari filiallari

Davlat statistika qo'mitasining 2017 - yilgacha bo'lgan ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda 25 va undan katta yoshli aholining har 1000 nafaridan 163 nafari oliy ma'lumotlidir. Umumiy aholining soniga nisbatan mamlakatimiz aholisining bor yo'g'i 12% oliy ma'lumotga ega ekan. Investitsiyalar davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 18,5 million o'rta va oliy ma'lumotli kadr bor. Bu ko'rsatkichlar oliy ta'lim qamrovi tor ekanidan dalolatdir.

2018- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, 32 milliondan ortiq aholi uchun 81 ta oliy ta'lim muassasasi, 15 ta hududiy filial, xorijiy universitetlarning 7 - ta filiali faoliyat yuritgan. 2018- yil birinchi choragiga muvofiq ulardagi talabalar umumiy soni 260 ming 905 tani tashkil etgan xolos. Ushbu raqamlar 2018- yilgacha bo'lgan davrda oliy ta'lim qamrovi bo'yicha ko'rsatkichlarmiz anchagina past ekanligini, aholini, ayniqsa yoshlarni o'qishga ko'proq jalb etish zuratini tug'dirmoqda. Qachonki fuqaro biror mutaxassislikka ega bo'lsagina ish o'rni haqida o'ylashi mumkin. Darhaqiqat, o'qishga kira olmagan yoshlar qanday qilib mahallada ish topa olishi mumkin ?. Bu savol barchani o'ylantirish shubhasiz. Shu bois mamlakatimizda so'ngi yillarda oliy ta'lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi qator Prezident Farmonlari va Qarorlari qabul qilindi. Ayniqsa "2018-2019 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish to'g'risida" Prezident Qarorida sirtqi va kechki ta'lim yo'nalishlarini ochish, ular uchun umumiy kvotaning 30 % gacha belgilanishi, bakalvriat bosqichiga ayrim yo'nalishlarida 3 yillik ta'limning joriy etilishi va magistratura ayrim yo'nalishlarida 1 yillik ta'limning joriy etilganligi ulkan islohotlardan biri bo'ldi. 2019 yil 1-sentabriga kelib O'zbekistonda oliy o'quv yurtlari soni 113 taga yetdi.

Savol va topshiriqlar

1. Islom Karimovning “Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” mavzusidagi ma’ruzasida ko‘tarilgan g‘oyalar, vazifalar haqida so‘zlab bering.
2. Ta’lim sohasidagi davlatimiz siyosatining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi nima?
4. Milliy dasturni ro‘yobga chiqarish bosqichlari va vazifalari haqida so‘zlab bering.
5. Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari qurilishi haqida so‘zlab bering.
6. Oliy ta’lim ravnaqi haqida nimalarni bilasiz?
7. Ta’lim muassasalarining xalqaro hamkorligi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

11-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI.

Reja:

1. Mustaqil Qoraqalpog‘iston Respublikasining tashkil topishi va undagi davlat boshqaruvi
2. O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy holati.
3. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyoti
4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘naviy-madaniy va ta‘lim sohadagi yangilanishlar.
5. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.

***Darsning asosiy maqsadi:** Talabalarga mustaqil Qoraqalpog‘iston Respublikasining tashkil topishi va undagi davlat boshqaruvi, O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy holati, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati haqida asosiy tushunchalarni yetkazish.*

***Tayanch iboralar:** Qoraqalpog‘iston. Jo‘qorg‘i kengesi. Nukus. To‘rtlo‘l. Chimboy. Xo‘jayli. Orol fojiasi.*

1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar.

1990 -yil 14-dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining XV sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risidagi” Deklaratsiyani qabul kildi. Mazkur Deklaratsiya 1991-yil 31 -avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi” qonunda ham o‘zining huquqiy asosini topib, 1 va 17 - moddalarida Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e‘tirof etildi. Har ikki respublika o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida (70-75 moddalar) ham o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi maqomi alohida bobda mustahkamlangan (XVII bob). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida “Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi» deyiladi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida “Qoraqalpog‘iston - O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikadir” deb mustahkamlangan.

Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun xalq bayrami sifatida e‘lon qilindi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati **quyidagilarda o‘z aksini topgan:**

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kirishi hamda ular O‘rtasidagi O‘zaro dO‘stona munosabatlarning huquqiy asosi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘z davlat ramzlariga ega ekanligini belgilaydi;
- suveren hamda mustaqil davlat ekanligining kafili;
- davlat va ma'muriy hududiy tuzilish masalalarini mustaqil hal qilishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasining 15-bandida “O‘zbekiston Respublikasining Oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hujjatlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga muvofiqligi haqida O‘zbekiston Konstitutsiyaviy sudiga taklif kiritish” huquqi belgilangan. 81-moddasida esa “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisining vakolatlari jumlasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini hayotga tatbiq etishni tashkil qiladi” deyilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy normalardan xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari amalda bo‘ladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyalari va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston fuqarolari uchun majburiy bo‘lgan qonunlar uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog‘iston hududida ham majburiydir.



Qoraqalpog‘iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini uning o‘zi ko‘rib chiqadi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv tizimini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73-moddasida **“Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligisiz o‘zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi”**. Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlardan, shaharlardan, shaharchalardan, ovullardan iborat. O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatiga mos holda o‘z siyosatini yurgizadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi bo‘linmas va daxlsizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘z Konstitutsiyasiga ega bo‘lishligi, uning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo‘lmasligi ko‘rsatilgan. Shuni ta'kidlash joizki sobiq Ittifoq davrida Avtonom Respublikalarning Konstitutsiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo‘lsa o‘sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan tasdiqlanishi shart edi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo‘ydi. Qoraqalpog‘iston suveren Respublikasi bilan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining bir-butun yaxlitligi mustahkamlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining XII sessiyasida (1993 -yil 9-aprelda) **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasini** qabul qildi. Qoraqalpog‘iston milliy davlatchiligi o‘z taraqqiyoti tarixida birinchi marta insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo‘ldi. Ayni paytda u suveren respublikaning barcha atributlariga ega. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Majlisining 1992-

yil 14-dekabrda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida Qoraqalpog‘iston Davlat bayrog‘i, 1993 -yil 9-aprelda bo‘lib o‘tgan XII sessiyasida Davlat gerbi, 1993 -yil 4-dekabrda bo‘lib o‘tgan XIV sessiyasida Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi parlamenti - Jo‘qorg‘i Kengesi hisoblanadi. 86 deputatdan iborat. Xususan, Jo‘qorg‘i Kengesda 1991-1992-yillarda Dauletbay Shamshetov, 1992-1997 -yillarda Ubbiniyaz Ashirbekov, 1997 -2002 -yillarda Timur Kamalov hamda 2002 -yil 2-maydan 2020-yil 31-iyulgacha bu lavozimda Musa Tajetdinovich Erniyozov rais sifatida faoliyat olib bordi. Avvalgi Oliy Kengashdan farqi Jo‘qorg‘i Kengashga saylov ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkaziladi. Avvalgi saylovlarda Oliy Kengashni shakllantirish jarayonida ishchilar sinfi, kolxozchi dehqonlar, xalq ziyolilarining o‘rni va soni oldindan belgilab qo‘yilar edi. Buning ustiga Parlamentda vazifasi bo‘yicha albatta deputat bo‘luvchi o‘rinlar xam mavjud edi. Keyingi saylovlarda bunday yondoshuvdan voz kechildi. Deputatlarning o‘z saylovchilari bilan kundalik munosabati, yaqin muloqoti yo‘lga qo‘yildi. Avvalgi parlamentda bu masalaga uncha e‘tibor berilmagan edi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘z Konstitutsiyaviy nazorat organiga ega bo‘lib, uni Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasi amalga oshiradi. Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan tarkibi saylanadi. Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasiga saylangan sudyalarning vakolat muddati 5 yildir. Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasiga saylangan shaxslar o‘z vazifalarini bajarishda daxilsizdirlar va faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo‘ysunadilar. Uni tashkil etish va ish tartibini belgilash Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasi to‘g‘risida”gi qonuni bilan belgilangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy Sudi, Xo‘jalik sudi, Shu muddatga tayinlanadigan tuman, shahar sudlaridan iborat. Ular O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq o‘z faoliyatini olib boradilar. Ushbu qonunda jumladan, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi faoliyat ko‘rsatadi” deb belgilangan. ular faoliyatining tashkil etilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga kirib unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti roziligi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi JO‘qorg‘i Kengesda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi raisi va a'zolari, Shuningdek, tuman, shahar sudlarining sudyalari, lavozimlariga nomzodlarni tavsiya qiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudi jinoiy, fuqaroviy va ma'muriy sud ishlarini yuritish borasida, sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Tuman, shahar sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazoratni olib boradi.

Ijroiya organi -Vazirlar Ministrlar Kengashi hisoblanadi. Quyidagi davlat arboblari Ministrlar Kengashi raislari bo‘lib ishladi: Amin Tojiev (1989 -1992-), Radjabboy Yo‘ldashev (1992-1995-), Baxram Jumaniyazov (1995-1996-), Saparbay Avezmatov (1996-1998), Amin Tojiev (1998-2002 -), Tursunbay Tangirbergenov (2002 -2006). Hozirgi kunda Ministrlar Kengashi raisi bo‘lib Baxadir Yangibaev ishlaydi.

2. O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy holati.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi maqomi alohida bobda mustahkamlangan (XVII bob). O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida **“Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi”** deyiladi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida **“Qoraqalpog‘iston - O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikadir”** deb mustahkamlangan. **1992- yil 9- yanvarda** Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashkil topdi hamda **1993 -yil 9-aprelda** O‘zining Konstitutsiyasini qabul qildi. Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun xalq bayrami sifatida e‘lon qilindi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati quyidagilarda o‘z aksini topgan:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kirishi hamda ular O‘rtasidagi O‘zaro do‘stona munosabatlarning huquqiy asosi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘z davlat ramzlariga ega ekanligini belgilaydi;
- suveren hamda mustaqil davlat ekanligining kafili;
- davlat va ma'muriy hududiy tuzilish masalalarini mustaqil hal qilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7 -1-moddasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘z konstitutsiyasiga ega bo‘lishligi, uning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo‘lmasligi ko‘rsatilgan. Shuni ta’kidlash joizki sobiq Ittifoq davrida Avtonom Respublikalarning Konstitutsiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo‘lsa o‘sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan tasdiqlanishi shart edi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo‘ydi. Qoraqalpog‘iston suveren Respublikasi bilan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining bir-butun yaxlitligi mustahkamlangan.^{1[30]}

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasining 15-bandida **“O‘zbekiston Respublikasining Oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hujjatlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga muvofiqligi haqida**



O‘zbekiston Konstitutsiyaviy sudiga taklif kiritish” huquqi belgilangan. 81-moddasida esa **“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisining vakolatlari jumlasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini hayotga tatbiq etishni tashkil qiladi”** deyilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy normalardan xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelsa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari amalda bo‘ladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyalari va

qonunlarining ustunligi soʻzsiz tan olinadi. Oʻzbekiston fuqarolari uchun majburiy boʻlgan qonunlar uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpogʻiston hududida ham majburiydir.^{2[31 -]}

Qoraqalpogʻiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy tuzilishini uning oʻzi koʻrib chiqadi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv tizimini belgilaydi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 73-moddasida **“Qoraqalpogʻiston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligisiz oʻzgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpogʻiston Respublikasi oʻz maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi”**. Qoraqalpogʻiston Respublikasi tumanlardan, shaharlardan, shaharchalardan, ovullardan iborat. Oʻzbekiston Respublikasi davlat siyosatiga mos holda oʻz siyosatini yurgizadi. Qoraqalpogʻiston Respublikasining hududi boʻlinmas va daxlsizdir.

Qoraqalpogʻistonda davlat tili - qoraqalpoq va oʻzbek tillardir. Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va ellatlarning tillari, urf-odatlar va anʼanalari hurmat qilinishi taʼminlanadi hamda davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida javobgar ekanligi qayd etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-4-moddasida Qoraqalpogʻiston Respublikasi uchun gʻoyat muhim siyosiy mazmun kasb etadi demokratik qoida belgilangan. Unda **“Qoraqalpogʻiston Respublikasi Oʻzbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpogʻiston Respublikasi xalqining umumiy referendumida asosida ajralib chiqish huquqiga ega”**ligi mustahkamlangan. Bu konstitutsiyaviy norma Qoraqalpogʻiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida: **“Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga, yaʼni referendumga qoʻyiladi. Referendum oʻtkazish tartibi qonun bilan belgilanadi”** deb koʻrsatilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-5-moddasida va Qoraqalpogʻiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasining 2-bandida ular oʻrtasidagi munosabatlar mustahkamlangan boʻlib, unda jumladan Shunday deyiladi: **“Oʻzbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpogʻiston Respublikasining oʻzaro munosabatlari Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida va ular oʻrtasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar orqali”** tartibga solinadi. Hozirgi kunda dolzarb boʻlib turgan masalalardan biri Oʻzbekiston bilan Qoraqalpogʻiston Respublikalari oʻrtasidagi turli sohalarida ayniqsa iqtisodiy masalalarda oʻzaro munosabatlarni keng tarmoqli rivojlantirishga erishishdir. Oʻzbek xalqi bilan qoraqalpoq xalqi azaldan doʻst, birodar, qon-qarindosh va muruvatlidir. Ularning maʼnaviyat birligi va xoʻjalik yuritish usul va shakllarining yakdilligi, har ikki xalq oʻrtasida qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamladi va bu holat oʻzining konstitutsiyaviy ifodasini topdi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 21-moddasining 3-bandiga koʻra Qoraqalpogʻiston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda Oʻzbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi, 68-moddasida esa Qoraqalpogʻiston Respublikasi Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy, hududiy birliklari qatoriga kiritilishi, bu ikki xalqning munosabatlari doʻstona rishtalarga asoslanganligini anglatadi. Qoraqalpogʻiston Respublikasida fuqarolarning huquq va

erkinliklariga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustivorligini tan oladi. Bu birinchi navbatda Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasi va qonunlarini tamoyil va moddalari mos kelishi kerakligini anglatadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos kelishi O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston o‘rtasidagi davlat-huquqiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ham amal qilishi majburiydir. Qoraqalpog‘iston xalqini, millatidan qat’iy nazar, Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Qoraqalpog‘iston xalqi nomidan faqat u saylagan Oliy hokimiyat organi Jo‘qorg‘i Kengesi ish olib boradi. Uning davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalarining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar.

3. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyoti

Hozirgi kunda O‘zbekiston markaziy byudjetidan Qoraqalpog‘istonga berilayotgan subvensiya, ya’ni moliyaviy yordam miqdori 9 milliarddan oshiq so‘mni, yoki butun Qoraqalpog‘iston byudjeti xarajatlarining 7-5 %ni tashkil etmoqda. O‘zbekiston hukumatining amaliy yordami qoraqalpoq xalqining fidoiy mehnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpog‘istonda aholi turmush sharoitini yaxshilash, tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjihatlik bilan yurt istiqboli yo‘lida mehnat kilishga sharoit yaratildi.

Respublikada mulkchilikning yangi shakllari paydo bo‘la boshladi. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida nodavlat sektorning xissasi oshib bordi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va savdoda nodavlat sektori xissasi 80-90 %ni tashkil etmoqda. Respublika iqtisodiyotining boshqa yo‘nalishlarida ham islohotlar izchil amalga oshirila boshlandi. Jumladan, bank tizimida xam jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bu yerda davlat banklar bilan birga tijorat va xususiy banklari ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Agrosanoat banki va sanoat-qurilish banki ixtisoslashtirilgan hissadorlik tijorat banklariga aylantirildi. “Tadbirkorbank”, “Asakabank”, “Aloqabank”, “Sabzavotbank”, “Zaminbank”, “Turanbank”, “Savdogarbank”, “G‘allabank” kabilarning Qoraqalpog‘iston bo‘limlari tashkil etildi.

Qoraqalpog‘iston tarixida birinchi marta Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi. Qoraqalpog‘istonda ulgurji va birja savdosi bilan Shug‘ullanuvchi xissadorlik uyushmalari keng faoliyat ko‘rsatmoqda. Tovar ishlab chiqaruvchilar, iste‘molchilar va ishbilarmonlarning butun imkoniyatlarini ishga solish maqsadida ularning erkinligi va teng huquqligini ta‘minlash choralari ko‘rildi.

Qoraqalpog‘istonda 51 ta mayda ulgurji tizim, Shu jumladan 4 ta savdo uyi, 35 ta mayda ulgurji savdo do‘konlari va omborlar, 32 ta ko‘tara savdo bazasi xamda O‘zbekiston tovar xomashyo birjasining Qoraqalpog‘iston bo‘limi, 19 ta supermarket

do'konlari faoliyati yo'lga qo'yildi. 1999-yilning 1-yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning umumiy xajmi 650 million so'mni tashkil etdi. Uning 20% respublika ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50% esa tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. Shu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 13,8 million so'm kredit ajratdi. 2000 -yilga kelib 2932 ta sanoat korxonasi xususiylashtirildi. Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi. 2000-yilga kelib respublika fond birjalari filiallarida 958 million so'mlik aksiyalar sotildi. Respublikada 7807 - ta kichik va o'rta ishbiarmon korxonalari, 8977 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar ro'yxatga olindi. 1996-yil yakunlariga ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi 10 mlrd 355,7 mln so'mni tashkil etdi. Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90% ga o'sdi. Respublikada 1996-yilda amaldagi narxlarda 10 mlrd 7 54,4 mln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chikarildi. 1991-2010 -yillarda hududda gaz va gaz kondensati, shisha, kungaboqar yog'i, kalsiylashtirilgan soda, vermikulit konsentrat, talkomagnezit, glitserzin ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, iste'mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarish ko'paydi. Yigma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o'simlik yog'i, uzum vinosi, salqin ichimliklar, osh tuzi ishlab chiqarish sohaları o'sdi. Sanoatda bir qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1995-yilda Xo'jayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. 1996-yilda Qo'ng'irotda "Urga" gaz sanoati korxonasida gaz kondensati va tabiiy gaz qazib chiqarilishi boshlab yuborildi. Aholini gaz bilan ta'minlash darajasi 83% ga etdi. "Qoraqalpoqqurilish" aksionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli jihozlari bilan ta'minlangan, yiliga 60 ming kv.m. marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi mramor sexi ochildi. "Nukusun" zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi sexi qurildi. Yengil sanoat ishlab chiqarishning bazasi kengaya bordi. 1993-yili Nukusda "Kateks" to'qimachilik majmuasi, 1995-yili Ellikqal'a tumanida "Elteks" to'qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi.

Nukus va Qo'ng'irotda un kombinatlari, To'rtko'lda 3 mln shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikkal'a tumanida esa Shunday quvvatga ega konserva sexi foydalanishga topshirildi. 1995-yilda Qo'ng'irotda tumanida Markaziy Osiyoda yagona 600 mln dollarga qiymatga ega yiliga 190 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilishi boshlandi. Zavod tarkibida kimyoviy yo'l bilan ekologik toza va energiya sarflanmaydigan kaustik soda ishlab chiqarish ham ko'zda tutilgan edi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida yengil sanoatni rivojlantirish, jumladan, paxta yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni, madaniy o'simliklarning yangi navlarini sohaga joriy etish asosida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotir. 2016-yilda bu yo'nalishda uchta yangi korxonalar tashkil etilib, to'rttasi modernizatsiya qilinadi. 2000 -yili Nukus shahrini Xo'jayli tumani bilan bog'laydigan ulkan ko'priklar, 2001-yilda 345 kilometrlik Nukus-Sultonuvaystog'-

Miskin-Uchquduq-Tinchlik-Navoiy temir yo‘li ishga tushirildi. Yuzlab kilometr avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilindi. Bu ravon yo‘llarning uzunligi 4 ming 100 kilometr dan oshib ketdi. Bu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Yer osti boyliklarini izlash, qazib olish va ulardan samarali foydalanishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xorijlik sheriklar bilan “Jel”, “G‘arbiy Orol” kabi istiqbolli konlar ochildi. “Ustyurt va Orol dengizi atroflarida geofizika ishlarini amalga oshirishni kuchaytirish” dasturi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, Ustyurt kengliklarida seysmik tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Ayniqsa, “O‘zbekgeofizika” aksiyadorlik jamiyatining “Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi” filiali jamoasining sa‘y-harakatlari tahsinga munosib. Hozir kuniga 45 ming kubometr gaz berayotgan “Tillali”, “Sayxun”, “In‘om”, “Arslon” singari yangi konlar ana Shu ekspeditsiya izlanishlarining samarasidir. Bugun dunyo xalqlarining e‘tiborini tortayotgan, havasli, hayratli nigohlariga sabab bo‘layotgan Ustyurt gaz-kimy o majmuasi Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etildi. Asrlar osha qaqrab yotgan bepoyon dashtda ulkan ishlab chiqarish quvvati qad rostladi. Korxonalar jahonning nufuzli nashrlari tomonidan 2012-yilning eng yaxshi loyihasi, deb topildi. 2014-yili nufuzli “Infrastructure Journal” xalqaro nashri mazkur loyiha qurilishini “2014-yilning neft-gaz sohasidagi eng yirik bitimi”, deb e‘lon qildi. Umumiy qiymati 4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bu mashhur loyiha amalga oshirilishi mamlakatimiz sanoati rivojini yangi bosqichga ko‘tarishi shubhasiz. Hozir bu yerda yiliga 4,5 milliard kub metr gaz qayta ishlanmoqda. Buning samarasida xalqimiz ehtiyoji va eksport uchun 3,7 milliard kub metr gaz, 387 ming tonna polietilen, 83 ming tonna polipropilen, 102 ming tonna piroliz distillyati va boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Qoraqalpog‘istonda 1991-2000-yillar orasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida 144 ta sanoat korxonasidan 113 tasi mulkchilikning turli shakllariga o‘tib ishlay boshladi. Lekin ko‘p sanoat korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari (dastgohlar, mexanizmlar) holati eskirganligi sezilib qoldi. Ularning eskirish darajasi 35 % dan yuqori edi. Eng avvalo, yigiruv-tikuv fabrikalari, go‘sh-tut va oziq-ovqat sanoati korxonalari (konserva zavodi, vino zavodi) ishlab chiqarish parklarini yangilash talab etildi.

Qoraqalpog‘istonda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqda istiqomat qiladi. Agrar sektorda ham iqtisodiy qayta qurish, bozor munosabatlariga o‘tish ro‘y berdi. Xususan, 1997-yil 1-yanvar holatiga respublikada 263 ta qishloq xo‘jalik korxonasi faoliyat ko‘rsatardi. Nodavlat sektorning jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3% ni tashkil etdi. Paxta yetishtirishda nodavlat korxonalarining xissasi 97 -,8% ni, donchilikda 98,1% ni, kartoshkachilikda 99,7 - % ni, sabzavotchilikda 98,8% ni, polizchilikda 95,1% ni, bog‘dorchilikda 98,5% ni, pillachilikda 100% ni, go‘sh yetishtirishda 98,9% ni, sut va tuxum ishlab chiqarishda 99,4% ni, qoraqul teri va jun yetishtirishda 100% ni tashkil etdi.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘istonda dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi o‘zgardi. G‘alla maydonlari ekin maydonlarining 35,8% ni tashkil etdi. Bug‘doy va kartoshka yetishtirish 3 marta, uzum etishtirish 4 martaga ko‘paydi. Qoraqalpog‘istonda dehqon fermer xo‘jaliklari tashkil etish bo‘yicha yetarli tajriba

to'plandi. 1998-yilga kelib 1686 ta fermer shirkatlar uyushmalari tashkil etildi. Ellikqal'a tumanida mavjud 14 ta jamoa xo'jaliklari dehqon-fermer xo'jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan yerlar uzoq muddatga ijaraga berildi. Lekin Qoraqalpog'istonda ana Shu tajribani ommalashtirishga mutlaqo e'tibor berilmadi.

1992-yili Qoraqalpog'iston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi. 1992-2000 -yillarda Jahon Banki, Yevropa Taraqqiyot Banki va boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan 100 ortiq shartnomalar tuzildi. Respublikada 303dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklari Rossiya, AQSH, Janubiy Koreya, Shveysariya, Niderlandiya hisoblanadi. Asosan paxta tolasi, toladan olinadigan mahsulotlar, qayta ishlangan neft mahsulotlari sotiladi. Eksport qilingan tovarlar hajmi 1996-yilda 122 - ,9 mln dollarga teng bo'ldi. G'arb mamlakatlariga eksport qilingan xom ashyo 113,6 mln dollarni tashkil etdi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95% ni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasida importning salmog'i 1996-yilda 46,2% ni tashkil kildi. Import mahsulotlari tarkibiga asosan xalq iste'mol mollari, qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Yaqin xorijiy mamlakatlardan asosan shakar, bug'doy, mashina va jihozlar, agregatlar va ularning ehtiyot qismlari, quvurlar, avtomashinalar, ishlab chiqarishni komplektlovchi materiallar keltirildi. Lekin respublikaning imkoniyatlaridan to'la foydalanilmayapti. Masalan, 1999-yili respublika hududida 70 ga yaqin foydali qazilma konlari aniqlandi.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonda ijtimoiy sohalar rivojlanishiga e'tibor kuchaydi. Respublika aholisi 1,5 mln kishiga ko'paydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yili 2-sentabrda "Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy va ekologik muammolarni yechishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 405-sonli qarorini qabul qildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi punktlarini elektrlashtirish to'la hal qilindi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 59,5% ga etdi. 1992-1996- yillarda Tuyamo'yin suv omboridan respublika aholi punktlariga 2 ming 885 km vodoprovod tarmog'i olib kelindi. 4057,5 km gaz tarmoqlari yetkizildi va tabiiy gaz bilan ta'minlash 85,4% ni, Shu jumladan, shaharda 99,4% ni, qishloqda 72,4% ni tashkil etdi. Ko'plab sog'liqni saqlash ob'ektlari, kasalxonalar, poliklinikalar, tug'ruqxonalar va turar-joy binolari qurildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning shimoliy mintaqasi – Qoraqalpog'iston Respublikasida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan alohida e'tibor yuksak samaralar berdi. Puxta o'ylangan, boqichma-bosqich amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tufayli Qoraqalpog'iston Respublikasi oddiy agrar o'lkadan zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi, transport-kommunikatsiya tarmoqlari rivojlangan mintaqaga aylandi. Mustaqillik yillarida bu zaminda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ro'y bergan o'zgarish va yangilanishlar haqida uzoq gapirish mumkin. Markaziy Osiyoda yagona, sahro bag'ridagi mo'jiza –Qo'ng'irotda soda zavodi, Xo'jayli shisha zavodi, "Markaziy Osiyo bezak toshlari" qo'shma korxonasi, Qo'ng'irotda karbid, Nukus marmar va kabel

zavodlari, O'rga gaz koni, "Elteks" va "Kateks" kabi zamonaviy ishlab chiqarish obyektlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Nukus filiali, Olimpiya zaxiralari kolleji binolari, o'nlab umumta'lim maktablari, litsey va kollejlari, bolalar sporti, bolalar musiqa va san'at maktablari... Bunday muhtasham inshootlar istiqlol sharofati tufayli barpo bo'ldi.

Istiqlolning dastlabki yilidayoq minglab aholini ichimlik suvi bilan ta'minlagan 243 kilometrlik Tuyamo'yin-Nukus-Chimboy-Taxtakopir suv tarmog'i ishga tushirildi. 1991-2010 -yillarda hududda gaz va gaz kondensati, shisha, kungaboqar yog'i, kalsiyashtirilgan soda, vermikulit konsentrat, talkomagnezit, glitserzin ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Xalqimizning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilish borasida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari eng savobli ishlardan bo'ldi. Bu sohada ham islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun, uning manfaatlarini uchun degan ezgu g'oya doimiy ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda. 2000 -yili Nukus shahrini Xo'jayli tumani bilan bog'laydigan ulkan ko'priki, 2001-yilda 345 kilometrlik Nukus-Sultonuvaystog'-Miskin-Uchquduq-Tinchlik-Navoiy temir yo'li ishga tushirildi. Yuzlab kilometr avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilindi. Bu ravon yo'llarning uzunligi 4 ming 100 kilometr dan oshib ketdi. Bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Yer osti boyliklarini izlash, qazib olish va ulardan samarali foydalanishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijlik sheriklar bilan "Jel", "G'arbiy Orol" kabi istiqbolli konlar ochildi. "Ustyurt va Orol dengizi atroflarida geofizika ishlarini amalga oshirishni kuchaytirish" dasturi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, Ustyurt kengliklarida seysmik tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Ayniqsa, "O'zbekgeofizika" aksiyadorlik jamiyatining "Ustyurt geofizika ekspeditsiyasi" filiali jamoasining sa'y-harakatlari tahsinga munosib. Hozir kuniga 45 ming kubometr gaz berayotgan "Tillali", "Sayxun", "In'om", "Arslon" singari yangi konlar ana Shu ekspeditsiya izlanishlarining samarasidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida yengil sanoatni rivojlantirish, jumladan, paxta yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni, madaniy o'simliklarning yangi navlarini sohaga joriy etish asosida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotir. 2016-yilda bu yo'nalishda uchta yangi korxonalar tashkil etilib, to'rttasi modernizatsiya qilinadi.

Shu yilning ikkinchi choragida momiq ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Bunyodbek-Xo'jayli" oilaviy korxonasi foydalanishga topshiriladi. Yil oxirigacha "Yoqubova Gavhar" fermer xo'jaligi kalava ip ishlab chiqara boshlaydi. Ellikqal'ada "Global national-tex" sho'ba korxonasida jinsi mato ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Amudaryo tumanidagi "Kameks-KK" korxonasida momiq, Kegeyli tumanidagi "Avto Qayip mayshi" mas'uliyati cheklangan jamiyatida oyiga 50 ming juft paypoq ishlab chiqariladi. "To'rtko'l omad tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyatida zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi sohasida mutlaqo yangi va samarali iqtisodiy munosabatlar joriy etildi. Yer o‘z egasini topdi. Bugun Qoraqalpog‘iston fermerlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib berish bilan birga, qishloq taraqqiyotida hal qiluvchi ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlarida bo‘lgani kabi Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilayotgan namunaviy loyihalar asosidagi uy-joylarga talabgorlar tobora ko‘paymoqda. Barcha sharoitlarga ega bunday zamonaviy uylarda minglab oilalar baxtli hayot kechirmoqda. Uy to‘ylariga kelin to‘ylari ulanib ketayotir.

Yosh avlodning hech kimdan kam bo‘lmagan sharoitlarda ta‘lim-tarbiya olishi, iste‘dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoit yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘tgan davr mobaynida hududda zamonaviy sharoitlar yaratilgan 99 kasb-hunar kolleji, 9 akademik litsey foydalanishga topshirildi. 2015-yilda 9 ming 700 o‘rinli 22 ta zamonaviy maktab binosi barpo etildi. Ayni paytda hududdagi 370 umumta‘lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda 170 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlar zamonaviy bilimlarni o‘rganmoqda.



O‘tgan yili Nukus shahri markazida 2,5 milliard so‘mlik loyiha asosida bunyod etilgan va barcha qulayliklarga ega “Baxt uyi” foydalanishga topshirildi. Inson baxt uchun dunyoga keladi. Bu borada mamlakatimizda yoshlarga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda.

O‘tgan yili Nukus shahri markazida 2,5 milliard so‘mlik loyiha asosida bunyod etilgan va barcha qulayliklarga ega “Baxt uyi” foydalanishga topshirildi. Inson baxt uchun dunyoga keladi. Bu borada mamlakatimizda yoshlarga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda.

Prezidentimizning 2014-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida Nukus shahri, Amudaryo, Ellikqal‘a, Beruniy, Xo‘jayli tumanlarida ijtimoiy hayotda faol bo‘lgan yuzlab yosh oilalarga “Kamolot” uylari topshirildi.

Nukus shahrida ham keng ko‘lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi va bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Temir yo‘l vokzali, I.Savitskiy nomidagi san‘at muzeyi tanib bo‘lmas darajada zamonaviy qiyofa kasb etdi. Shaharning Qoraqalpog‘iston, Amir Temur, To‘lepbergen Qaipbergenov ko‘chalarida qad rostlagan ko‘p qavatli zamonaviy uylarga ko‘chib o‘tgan yuzlab oilalar hayotiga o‘zgacha Shukuh kirdi. Shahar markazidan oqib o‘tuvchi Do‘stlik kanalining ikki qirg‘og‘i bo‘ylab 2,5 kilometr masofada ko‘plab ko‘ngilochar, dam olish obyektlari ishga tushirildi.

Xalqaro Orolni qutqarish jamg‘armasi Nukus filiali tomonidan 2014-yilda Mo‘ynoq tumanida, Orol dengizining Axantay qismida 1500, Oqqum qismida 34 gektarlik saksovulzor – sun‘iy o‘rmon barpo etildi.

Ayni paytda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 90 million AQSh dollari miqdoridagi loyiha asosida Orol dengizining qurigan qismida cho‘llanishdan

himoyalovchi mitti o'rmonlar bunyod etishga kirishilayotgani ham hudud aholisi turmush farovonligini yuksaltirish borasidagi ezgu ishlarning davomidir.

Mustaqillik inshootlaridan yana biri Qo'ng'iro't soda zavodidir. Ko'plab sohalarda uchun zarur xomashyo – kalsiyashtirilgan soda ishlab chiqarayotgan ushbu yirik korxonada o'z mahsulotining aksariyatini eksportga yo'naltirmoqda. O'tgan yili korxonada xorijlik buyurtmachilarga 24 - ming tonna mahsulot yetkazib berdi. Ichki bozorda "Kvars", "Asl oyna" aksiyadorlik jamiyatlari, "O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati, "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi Qo'ng'iro't soda zavodining asosiy buyurtmachilaridir.

Mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi tubdan yaxshilandi. Bugun olis ovullar aholisi ham zamonaviy tibbiy xizmatdan bahramand bo'layotir. Chekka tuman va qishloqlardagi tibbiy muassasalarning ham moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Bu biz, mutaxassislarni ham yanada samarali ishlashga undamoqda, – deydi Mo'ynoq tumani tibbiyot birlashmasi bosh shifokori o'rinbosari J.Davletova. – Bugun oddiy qishloq shifokori ham bemorga to'g'ri tashxis qo'yib, zamonaviy uskunalardan yordamida samarali davolay oladi. Bularning barchasi Prezidentimiz rahnamoligida aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilayotgan doimiy e'tibor samarasidir.

"Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi ijrosi doirasida oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholi salomatligini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar mustaqilligimizning birinchi kunlaridan belgilab olingan eng muhim vazifalarning izchil davomidir.

Bugun Qoraqalpog'iston shifokorlarining Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Polsha va boshqa ko'plab xorijiy mamlakatlarda malaka oshirishi, ilg'or tajribalarni qo'llashi oddiy holga aylandi.

Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan bunday keng ko'lamli islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishi, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Mustabid tuzum davrida chekka hudud sifatida mutlaqo e'tibordan chetda qolgan Qoraqalpog'iston Respublikasi bugun ana Shunday taraqqiyot yo'lidan dadil bormoqda. Bugunidan mamnun va ertangi kuniga ishonchi qat'iy bo'lgan Qoraqalpog'iston xalqi Vatanimiz mustaqilligining 25 -yillik bayramini munosib kutib olishga hozirlik ko'rmoqda. Bu ularning Shukronalarida, mamnun chehralarida yaqqol aks etmoqda.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'naviy-madaniy va ta'lim sohadagi yangilanishlar.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasida barcha sohalarda bo'lganidek madaniy-ma'naviy sohalarda ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Xususan, bu davrda Nukus shahrining 60 va 70 yilligi, To'rtko'l shahrining 120 yilligi, Ajiniyoz Kasiboy o'g'li va Berdaq Qarg'aboy o'g'lining 170 yilligi, Nukus pedagogika institutining 60 va 70 yilligi, Qoraqalpoq Davlat universitetining 25 -yilligi, Allayor Do'stazarovning 100 yilligi, Ernazar Alakozning 200 yilligi, I.Yusupov va T.Kaipbergenovlarning 70 yilligi keng nishonlandi. Qoraqalpoq

xalqining atoqli farzandlarini nomini abadiylashtirish maqsadida Nukus pedagogik institutiga Ajiniyoz shoir nomi, Qoraqalpoq universitetiga Berdaq nomi berildi. Berdaq va Ajiniyoz, Ulug‘bek haykallari o‘rnatildi, Berdaq muzeyi, Amet va Aimxon Shamuratovlar muzeyi tashkil etildi.

1994 -yili Qoraqalpog‘istonda “Ma’naviyat, madaniyat va ma’rifat markazi” tashkil etildi. Dastlab markaz raisi sifatida - Ibroxim Yusupov tayinlangan bo‘lsa, hozirda Ulmambet Xo‘janazarov faoliyat olib bormoqda. Shuningdek



“Oltin meros”, “Amir Temur”, “Nuroniy”, “Navro‘z” fondlari tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fidoyi farzandlari Allaniyoz Uteniyozov, Agitoy Adilov, Onesya Saitova, Tulebergen Qaipbergenov, Ibroxim Yusupovlar “O‘zbekiston Qaxramoni” yuksak unvoniga sazovor bo‘ldilar.

1993 -yili respublika Ministrlar Kengashi qoraqalpoq tilidan yangi lotin yozuviga o‘tish hakida qaror qabul qiladi. “Bilim” nashriyotidan 1996-1997 -yillarning o‘zida 65 bosmada darsliklar lotin yozuvi asosida chop etildi. 1993 -yili Nukusda turk-qoraqalpoq litseyi tashkil etildi. 1996-yili respublikada 743 ta umumta’lim maktabi faoliyat ko‘rsatdi. Hozir Qoraqalpog‘istonda 6 ta gimnaziya, 13 ta litsey, 19 ta kollej, 18 ta maktab-litsey, 6 ta bank-klass va biznes-maktablar faoliyat ko‘rsatmoqda. Respublikadagi 22 ta o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining kunduzgi bo‘limlarida 11,8 ming o‘quvchi ta’lim olmoqda. 1990 -yili Qoraqalpoq universiteti uchta fakulteti va ikkita bo‘limi asosida Nukus davlat pedagogik instituti qayta tashkil etildi. 1991-yili universitetning tibbiyot fakulteti asosida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filiali tashkil etildi. Unda talabalar soni 2001-yili 1000 taga yetdi. 1995-yili yana universitetning qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyot fakultetlari asosida Toshkent agrar universiteti Nukus filiali, Toshkent arxitektura-qurilish instituti Nukus filiallari tashkil etildi. 2005 -yili Toshkent informatsion texnologiyalar universiteti Nukus filiali tashkil etildi. Beshta oliy o‘quv yurtlarida 9 ming nafar talaba o‘qimoqda.

Yosh avlodning hech kimdan kam bo‘lmagan sharoitlarda ta’lim-tarbiya olishi, iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoit yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘tgan davr mobaynida hududda zamonaviy sharoitlar yaratilgan 99 kasb-hunar kolleji, 9 akademik litsey foydalanishga topshirildi. 2015-yilda 9 ming 7 00 o‘rinli 22 ta zamonaviy maktab binosi barpo etildi. Ayni paytda hududdagi 370 umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda 170 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlar zamonaviy bilimlarni o‘rganmoqda.

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston filiali bo‘lim statusiga ega bo‘ldi. Bo‘lim tarkibida Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Bioekologiya, Orolbo‘yi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar instituti tashkil etilib, mustaqillikdan avvalo uchta institut bo‘lsa, endi 6 ta institut tashkil etildi.

Bo‘limni akademik S.Kamalovdan keyin akademiklar Ch.Abdirov, T.Eshanovlar boshqardilar. Hozirgi vaqtda bo‘lim raisi bo‘lib professor Nagmet Aimbetov ishlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ilmiy markazi Qoraqalpog‘iston bo‘limi tashkil etilib, tarkibiga Shamurat Musaev nomidagi Chimboy dehqonchilik instituti, “Sholi” uyushmasi, Oltinko‘l stansiyasi, molchilik, bog‘chilik, uzumchilik muassasalari kirdi. Qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyot sohalari bo‘yicha J.Mambetullaev va B.Mambetnazarov kabi akademiklarimiz mavjud. Bugungi kuni Qoraqalpog‘istonda 65 fan doktori, 600 dan ortiq fan nomzodi faoliyat ko‘rsatmoqda, Shu jumladan 60% fan doktori va 40% fan nomzodlari mustaqillik davrida ilmiy unvonga ega bo‘ldi. Ilgari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a‘zolidigiga saylangan S.Kamalov (197 -9), Ch.Abdirovlar (1989 -) qatoriga 1994 -2000 - yillari J.Bazarbaev, A.Baxiev, T.Eshanov, A.Dauletov, H.Hamidov ham qabul qilindilar. 1997 -yili esa ikki nafar rassom J.Izentaev va J.Qulmuratov O‘zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akademikligiga saylandi. TilShunos olimlar M.Kalenderov, R.Esemuratova, A.Turabaev, K.Dauletbayevlar, faylasuf Po‘lat Seitov O‘zbekiston Respublikasi Beruniy nomidagi davlat mukofatini oldilar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Berdaq nomidagi davlat mukofatini A.Baxiev, R.Reimov, L.Konstantinova, J.Bazarbaev, K.Dauletova, M.Ametov, J.Sapar-niyazov, T.Eshanov, M.Ajibekov, S.Kamalov, K.Allambergenovlar oldilar. Ginekolog Oral Ataniyazova xalqaro “Goldman” nomidagi ekologik mukofatiga sazovor bo‘ladi. Qoraqalpoq davlat universiteti qoshida qoraqalpoq tili va adabiyoti bo‘yicha doktorlik va nomzodlik, UzFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi tarix, arxeologiya va enografiya instituti yonida tarix bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyalarni himoya qiluvchi ixtisoslashgan kengashlar tashkil etilib fan doktorlari va nomzodlari o‘zimizda himoya qiladigan bo‘ldi. Tarix fanidan hozirgacha 51 fan nomzodi himoya qildilar.

Respublika olimlari mustaqillik yillarida chet el mutaxassislari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Bioekologiya instituti olimlari Germaniya olimlari bilan birgalikda 1993 -yildan beri Orolbo‘yi ekologiyasi muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. 1995-yili Mo‘ynoqda Germaniya yordamida bioekologiya institutining xalqaro ekologiya stansiyasi ochildi. Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlari Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari va fransuz arxeologlari bilan birgalikda ekspeditsiyalar tashkil etmoqda. Tarixchilar Qoraqalpog‘iston hududida turizmni targ‘ibot qilish maqsadida “Oltin marshrut”-ni ishlab chiqib, unga Mizdaxkon, Ellikal’a yodgorliklarini kirgizdilar. 1997 -yili sentabrda Nukusda “Qirqqiz” dostoni va turkiy folklorini tadqiq etish muammolariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi. Mustaqil O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston dolzarb masalalari respublika shoir va yozuvchilari ijodida katta o‘rin egallaydi. O‘zbekiston qahramonlari, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroxim Yusupov, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchisi Tulepbergen Qaipbergenovlar qatoriga Tolibay Kabulov, Xalmurat Saparov, Gulaysha Esemuratova, Kengesbay Raxmonov, Uzakbay Abduraxmanov, Murotbay Nizonov, Kengesbay Reimov, Saginbay Ibroximov, Kengesbay Karimov, Xalila Dauletnazarov, Jiyanbay Izbaskanov, Baxtiyar Genjemuratov, SHarapatdin

Ayapov, Gulistan Matyakupova, Nabiya Toreshova, Munayxan Jumanazarova, Gulnara Nurlepesova, Abdimurat Atajanov, Xurliman Utemuratova, Sharigul Payzullaeva, Saylaubay Jumagulov, Bazarbay Kazakbaev va boshqalar kelib qo'shildi.

1993 -yili yanvarda Toshkentda Qoraqalpog'iston madaniyati kunlari, noyabrda esa Qoraqalpog'istonda Toshkent madaniyati kunlari o'tkazildi. 1993 -yili Toshkent konservatoriyasida milliy "Ajiniyoz" operasi ijro etildi. 1996-yili qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida birinchi marta "Oyjamol" nomli balet sahnalashtirildi. Kompozitorlardan N.Muxammaddinov, K.Zaretidinov, G.Amaniyazov, Sh.Paxratdinov, T.Esirkepov va boshqalar mustaqillik yillari yaxshi faoliyat ko'rsatmoqda. Muyassar Razzakova, Kegesbay Serjanov, Mirzagul Sapaeva, Gulxatiysha Aimbetova, Roza Kutekeeva, Makset Xo'janiyozov, Makset O'temuratov, Gulnara Utepova, Eleonora Qutlipulatova, Anifa Artikova, Gulnara Allamberganova va boshqa qo'shiqchilarimiz butun O'zbekiston va Markaziy Osiyoga tanikli bo'ldi. Jumabay jirov Bazarov, Baxtiyar jirov Esemuratov, baxshilar Turg'unbay Qurbanov, Ziyada Sharipova, Zulfiya Arzymbetova, Jarilkagan Eshanov, Tenel Kalliev va boshqalar Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlarda qoraqalpoq dostonlari va she'rlarini ijro etib, butun dunyoga tanildi. Qoraqalpoq universiteti "Xurliman" ansambli 2000 -yili Toshkentda "O'zbekiston - Vatanim manim" konkursida 1-o'rinni egalladi. Mustaqillik yillari Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq milliy san'at muzeyi va Qoraqalpoq o'lkaShunoslik muzeyi, Berdaq muzeyi milliy o'zligimizni targ'ibot qilishda katta faoliyat ko'rsatmoqda.

2002-yili may oyidan boshlab milliy televideniya "Assalom Qoraqalpog'iston" tonggi ko'rsatuvi tashkil etildi. Shuningdek, "Mavrit", "Tarix va taqdir", "Boyterek", "Shanarak", "Yoshlar kanali" ko'rsatuvlari tashkil etildi. Prezidentimiz Erkin Kutibaev, Alisher Avazbayev, Baxtiyar Nurullaev, Muratbay Baltaniyazov, F.Orazimbetov va boshqalarning sport sohasidagi mardliklarini tan oldi. Mustaqillikning o'tgan davri - tarix uchun bir lahzadir. Lekin Shu muddatda Qoraqalpog'istonda amalga oshirilgan ishlar salmog'i va ko'lami bilan bir necha un yilliklarga teng keladi. Tarixan qisqa davrda mamlakatimiz hayotida ham, odamlar turmushida ham keskin burilish yasaldi.


5. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi.

Hozirgi kunda mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasi davlat rahbarlarining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq yurtboshimiz Islom Karimov bu masalaga jahon hamjamiyati e'tiborini qaratdi. Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasi ana Shunday olijanob sa'y-harakatlar samarasida tashkil etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning BMT minbaridan turib dunyo mamlakatlarini Orol dengizini saqlab qolishga qarata chaqirig'ini katta quvonch bilan kutib oldi. Uning tashabbusi bilan 1994 -yili 14-yanvarda Nukusda Markaziy Osiyoning beshta davlat Prezidentlari hamda Rossiya Federatsiyasining vakillari ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvda Orolga va Orolbo'yi aholisiga amaliy yordam berish masalasi muhokama etildi. 1995-yili xalqaro konferensiyada "Nukus Deklaratsiyasi" qabul

qilinib, unda butun dunyo jamoatchiligi e'tibori Orol muammosiga qaratildi. Deklaratsiyada ovul va o'rmon xo'jaliklarin ilmiy tizimga o'tkazish, suv resurslarin foydalanishning iqtisodiy usullari va texnologiyasi ishlab chiqish, hududning tabiiy resurslarini boshqarish tartibini yengillashtirish, ushbu hududda yashovchi odamlarning turmush darajasini yaxshilash masalalari kun tartibiga qo'yildi. 1995-yili 24 -oktyabrda BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan Bosh Assambleya majlisida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Bugungi kunda xalqaro moliya tizimlari bilan rivojlangan davlatlar qo'llab-quvvatlashsiz, BMTning tashkiliy rolisiz bu muammoni yechish mumkin emas" deb aytdi.

Orolni qutqarish fondi Nukus filiali tashkil etildi va Markaziy Osiyo davlatlari o'z kuchlari va chet el donorlari yordami bilan 2 mlrd 686 mln dollar investitsiya to'plab, Shundan 856,25 - ming dollar 1997-yili yuqoridagi muammolarni yechishga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirildi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha 2013-2017-yillarga mo'ljallangan dasturi bu boradagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Dasturda Orolbo'yini ekologik sog'lomlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, cho'llanishning oldini olish, Orol dengizining qurigan hududlarida sun'iy o'rmonlar barpoetish uchun keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Dasturga ko'ra, mazkur ishlarga 89,39 milliard so'm, 1635,55 million AQSh dollari va 57 -,63 million yevro mablag' yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasi Nukus filiali tomonidan 2014-yilda Mo'ynoq tumanida, Orol dengizining Axantay qismida 1500, Oqqum qismida 34 gektarlik saksovulzor – sun'iy o'rmon barpo etildi.

Ayni paytda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 90 million AQSh dollari miqdoridagi loyiha asosida Orol dengizining qurigan qismida cho'llanishdan himoyalovchi mitti o'rmonlar bunyod etishga kirishilayotgani ham hudud aholisi turmush farovonligini yuksaltirish borasidagi ezgu ishlarning davomidir.



O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Orol fojeasi masalasida yana bir bor jahon jamoatchiligiga yuzlandi.

"Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol xalokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Mana, mening qo'limda Orol fojeasi aks etgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga xojat yo'q.

Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi say-harakatlarni faol birlashtirishni taqazo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha Shu yil maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafdorimiz”. Xulosa qilib aytganda mamlakatimiz rahbari tomonidan Orol fojiasini oldini olish uchun so‘nggi yillarda anchayin ishlar amalga oshirilmoqda. Va bu ishlarning ko‘lami yil sayin kengayib bormoqda

Savol va topshiriqlar

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi qachon tashkil topdi?
2. Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlar bayrog‘i, gerbi, madhiyasi qachon tasdiqlandi?
3. Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon tasdiqlandi?
4. O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy holati haqida nimalarni bilasiz?
5. Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun chiqaruvchi hokimiyati qanday tarkibiy tuzilishga ega va uning xususiyati?
6. Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijro hokimiyati qanday tarkibiy tuzilishga ega va uning xususiyati?
7. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida qanday sanoat korxonalarini barpo etildi?
8. Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy hayotidagi asosiy muammolar nimalardan iborat edi?
9. Qoraqalpog‘iston Respublikasining xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlardagi asosiy hamkor davlatlari qaysilar?
10. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ma’naviy-madaniy hayotida qanday tub burilishlar ro‘y berdi?

12-MAVZU. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

Reja:

1. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi
2. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.
3. O‘zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi
4. Faol tashqi siyosat: O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga tobora integratsiyalaShuvi va rivojlanish startegiyasi.

Darsning asosiy maqsadi: Talabalarga O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi, O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi, faol tashqi siyosat haqida ma’lumot berish

Tayanch iboralar: Tashqi siyosat, BMT, MDH, SHHT, Yevropa Ittifoqi, Markaziy Osiyo, Integratsiya, Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi

1. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi

O‘zbekiston mustaqillikka erishganining dastlabki yillarida chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan teng huquqlilik asosida diplomatik, savdo, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hamkorlik qilish yo‘lini tutdi. Xususan, 2010 - yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston dunyoning 120 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqalari o‘rnatdi. Toshkentda 42 ta davlat elchixonasi, 1 ta bosh konsulxonasi, 9 ta faxriy konsullik, 10 ta xalqaro tashkilot vakolatxonasi, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilot vakolatxonasi, 3 ta savdo tashkiloti vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda.

Katta tarixiy ahamiyatga ega voqealardan biri 1992- yil 2-martda O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘ldi. 1993 - yil **BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida** Prezident I.A.Karimov ma’ruza qildilar. 1995- yil BMTning 50 yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning tantanali yig‘ilishida asosiy e’tibor bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda, yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga



qaratildi. Shu bilan birga Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari uchun o‘ta dolzarb masala Orol muammosining ko‘tarilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, O‘zbekiston jahon jamoatchiligini tashvishga solayotgan xalqaro muammolardan biri bo‘lgan terrorizm, uyushgan jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashish, diniy ekstremizm masalalariga o‘z e’tiborini qaratdi.

Davlatimiz rahbari o‘tgan vaqt davomida dunyoning ko‘pgina notinch

mintaqalarida, jumladan, Afg'oniston hududida ildiz otgan diniy aqidaparastlik va terrorizm xavfidan jahon jamoatchiligini birinchilardan bo'lib ogoh etdi. 1993-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida, 1995-yil 2-martida Kopengagendagi xalqaro konferensiyasida bu borada o'z takliflari bilan chiqdi.

1995-yil 15-sentabrda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent seminar kengashida, 1995-yil 24-oktyabrda BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan maxsus tantanali yig'ilishda, 1999-yil 18-noyabrda YXHTning Istanbul sammitida, 2000-yili BMT Bosh Assambleyasining sammitida va boshqa nufuzli anjumanlardagi chiqishlarida O'zbekiston rahbari I.A. Karimov Afg'onistonning dahshatli vayronkorlik kuchiga ega xalqaro terrorizm o'chog'iga aylanib qolganidan dunyo jamoatchiligini ogohlantirdi. Bu xatarning oldini olish bo'yicha ko'plab amaliy choralarni taklif qildi. Birinchi galda xalqaro terrorizmga qarshi kurashda barcha davlatlarni birlashishga da'vat etdi. Aynan ushbu g'oyaning amaliy natijasi o'laroq 2001- yil 28-sentabrda BMT Xavfsizlik kengashi doirasida terrorchilikka qarshi kurash qo'mitasining tashkil etilishi bilan u amalda o'z ifodasini topdi. Afg'oniston mintaqa va xalqaro xavfsizligiga eng katta xavflardan biri ekanligini ta'kidlab, uzoq yillardan buyon ushbu masala yuzsidan ilgari surilib kelinayotgan **6+2 dasturini** 6+3 ga aylantirish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu tashabbusi I. Karimovning 2008-yil 3-4 aprel kunlari NATO ning Buxaristdagi samitida ilgari surildi.

O'zbekiston Respublikasi NATO ning kollektiv xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan "Tinchlik yo'lida hamkorlik" loyihasini 1994-yilning iyulida imzoladi hamda 1995- yilning iyul oyida ushbu dasturga qo'shildi. 1995-2001-yillar mobaynida "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasida o'tkazilgan harbiy o'quv mashqlarida O'zbekiston Qurolli Kuchlari bo'linmasining tinchlikni saqlash kuchlari o'ndan ortiq harbiy o'quv mashqlarida qatnashdilar.

O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning 1999-yil 23-25-aprel kunlari AQSH ga hamda **NATO** ning 50 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda ishtirok etishi mamlakatimizning ertangi kuni uchun muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston - NATO munosabatlariga va uning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturida hamkorlik qilish, bu NATOga a'zo bo'lish emas. O'zbekiston - NATO munosabatlarining asl mohiyati davlatimizning xavfsizligi va tinchligini ta'minlash, qolaversa mintaqada barqarorlikni qaror toptirish uchun shart-sharoitni imkon qadar kengaytirish va mustahkamlashdan iborat ekanligini ta'kidlandi.



Mustaqillik yillarida O'zbekistonning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" Dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda O'zbekistonning ishtirokini kafolatladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "NATO bilan hamkorlik qilish harbiy-siyosiy

voqealardan xabardor bo‘lib turish, bu uyushma doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalardan bahramand bo‘lish uchun imkon beradi”. NATO Bosh kotibi X.Solana va AQShning NATOdagi doimiy vakili R.Xanterning O‘zbekistonga tashriflari O‘zbekiston va mazkur tashkilot o‘rtasidagi tinchlik yo‘lidagi siyosatining hamohang ekanligini ham ko‘rsatdi.

O‘zbekiston yana bir nufuzli tashkilot **YXHT** ga 1992- yil 26 fevralda a‘zo bo‘ldi. Shu bois O‘zbekistonning YXHTdagi vakolatxonasi Venada 1994 - yildan, 1995- yildan esa YXHTning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari bo‘yicha byurosi Toshkentda faoliyat yuritmoqda. 1999- yilda ushbu byuroga YXHTning mintaqadagi markazi maqom berildi. Markaz faoliyati nazariy jihatdan siyosiy-harbiy, iqtisodiy-ekologik va inson xuquqlari kabi sohalarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.



1996-yil Lissabon Sammitida O‘zbekistonning ishtiroki respublika rahbariyatining xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etishga ham imkon berdi. Anjumanda O‘zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o‘z qarashlarini bayon etish huquqiga ega bo‘ldi. Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zona deb e‘lon qildi. 1999-yil 18-19-noyabr kunlari mazkur tashkilotga a‘zo 54 mamlakat rahbarlari uchun Turkiyaning Istambul shahrida Oliy darajadagi uchrashuvda Prezident xalqaro terrorizmga qarshi markazini tuzish taklifi bilan chiqdi.

1996- yilning boshlarida O‘zbekistonda Britaniya Kengashi bo‘limining ish boshlashi hamkorlikni mustahkamlash va kengaytarish yo‘lidagi yangi qadam bo‘ldi. O‘zbekistonning *Niderlandiya, Finlyandiya, Avstriya, Belgiya, SHveysariya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Polsha, Vengriya, CHexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya* kabi Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalari o‘rnatildi va kengayib bormoqda. Shveysariyaning Altendorf shahrida O‘zbekiston Savdo uyining ochilishi muhim voqea bo‘ldi. Bu maskan bugungi kunda savdo uyigina bo‘lib qolmay, O‘zbekistonning Yevropa va jahonda biznes va savdo markazi hisoblanadigan mamlaka - Shveysariyadagi vakolatxonasiga ham aylandi. 1995- yil oktyabrda Jenevada “O‘zbekistonda xususiylashtirish: hamkorlik uchun imkoniyatlar” mavzusida konferensiya bo‘lib o‘tdi. Shu yil noyabr oyida esa Londonda o‘tgan “O‘zbekistonda biznes” konferensiyasida iqtisodiy islohotlarning xususiyatlari muhokama qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston jahon iqtisodiyotida integratsiyalashish yo‘lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashuv tashkiloti va boshqa moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlarga a‘zo bo‘lib kirdi va ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Shu bilan birga O‘zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar *Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo‘yicha xalqaro ittifoq, Jahon*

meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiya qo'mitasi kabi yana bir qancha tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

“Shanxay xalqaro hamkorlik tashkiloti”ga O‘zbekiston 2001-yilning iyun oyida a’zo bo‘ldi. Unda **Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston**



Respublikalari ham doimiy a’zodirlar. Bugungi kunda izchil faoliyat ko‘rsatayotgan xalqaro siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar xaqida so‘z yuritilganda, Shubhasiz, birinchi navbatda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tilga olinmoqda. Dastlab “Shanxay beshligi” deb nomlangan bu tashkilotga 2001-yilda O‘zbekiston Respublikasi a’zo bo‘lib qo‘shilgach, “Shanxay Hamkorlik

Tashkiloti” deb ataladigan bo‘ldi. Ayni paytda unga **Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston Respublikalari** rasman a’zodirlar.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida Shanxay konvensiyasi” imzolangan bo‘lib, 2002-yil iyulida Sankt-Peterburgda u yanada mustahkamlandi. 2003- yil may oyida Moskva SHHTning tashkiliy organlari, ramzlari tasdiqlanib, O‘zbekiston Tashkilotining yangi raisi etib belgilandi. 2003 - yil sentabrda Pekinda “SHHTga a’zo davlatlarning 20 yilga mo‘ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi” qabul qilinib, mahsulot, kapital, xizmat va texnologiyalar erkin aylanishi shartlari belgilab olindi, SHHTning moliyaviy byudjeti ko‘rildi. 2004 - yil iyundan Tashkilot to‘la ravishda ishga kirishdi. 2005 - yil iyulida Ostona sammitida Mongoliya, Hindiston, Pokiston va Eron kuzatuvchi maqomiga ega bo‘ldi. 2010 - yilda Toshkentda o‘tkazilgan navbatdagi anjuman a’zo davlatlar tashqi siyosatida muhim voqea bo‘ldi.

O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlarida boshlab chet mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e’tiboran mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga kirishga intila boshladi. Jumladan mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan mamlakat bu Turkiya respublikasi edi. 1991- yil 16-19-dekabr kunlari O‘zbekiston davlat delegatsiyasi Turkiyada bo‘ldi. Safar chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkiya jumhuriyati o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to‘g‘risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to‘g‘risida Protokol, iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim, madaniyat, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport va turizm sohasidagi o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida bitim, transport va kommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim, axborot ayirboshlash, televidenie va radio eshittirish bo‘yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa hujjatlar imzolanadi.

2. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tashqi siyosatdagi yo‘nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991- yil dekabrda 1992- yil iyul oyigacha bo‘lgan davr ichida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O‘zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi. Ularning 100 dan ortig‘i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Dastlab Toshkentda **AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Malayziya** va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O‘zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari ochildi. O‘z navbatida O‘zbekistonning elchixonalari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Mamlkatimiz har tomonlama diplomatik, siyosiy, iqtisodiy aloqalarni toboro kengaytirib bormoqda. 1992- yil 27 -28 - iyun kunlari **Pokiston** Islom Respublikasi Bosh vaziri Muhammad Navoz Sharifning O‘zbekistonga rasmiy davlat tashrifi asosida ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarga asos solindi. 1992-yil 24-25- noyabr kunlari respublikamiz rahbarining **Eron** Islom Jumhuriyatiga rasmiy davlat tashrifi O‘zbekiston va Eron o‘rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Shu yili O‘zbekiston davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan **Saudiya Arabistoni, Misrda** bo‘ldi va ular bilan davlatlararo munosabatlarning asoslari to‘g‘risida shartnomalar imzolandi. 1992- yil 6 fevralda O‘zbekiston Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO)ga a‘zo bo‘ldi.

Mustaqil O‘zbekistonni Osiyodagi yirik davlat - **Hindiston** bilan aloqalari yildan-yilga kengayib bormoqda. Bunga 1992- yil 12-13 oktyabr kunlari Hindiston tashqi ishlar vaziri R.L. Bxatiya davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga kelishi diplomatik aloqalarga asos soldi. Mustaqillik yillarida respublikamizda 25 - dan ortiq hind-o‘zbek qo‘shma korxonalari samarali ish olib bormoqda. Masalan, Farmatsevtika, qurilish, to‘qimachilik, servis xizmati jabhalarida tashkil etilgan “Surxon Adjanta farma”, “Tata Projekts LTD”, “Gufik Avitsenna” va boshqalar.

1994 - yil 16-19 may kunlari Respublikamiz davlat delegatsiyasining Yaponiyada bo‘lishi O‘zbekiston **Yaponiya** bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni



rivojlanishiga o‘zaro munosabatlarni rivojlanishiga keng yo‘l ochdi. Respublikamizda Yaponiyaning dunyoga mashhur “Mitsui va KOLTD”, “Mitsubisi korporeyshn”, “Sumitoto korporeyshn”, “Chori” va boshqa ko‘plab kompaniya firmalari samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Yaponiya davlati Respublikamizdagi Ko‘kdumaloq neft-gaz kondensati konini o‘zlashtirishda, Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘l tarmog‘ini barpo etishda, Buxoro, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodlarini qurish va ta‘mirlashda, telealoqa tarmoqlarini ta‘minlashda o‘z sarmoyalari bilan faol qatnashmoqda.

O‘zbekiston Sharqning yana bir rivojlangan davlati **Janubiy Koreya** davlati



o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992- yil yo‘lga qo‘yilgan. 1992- yil 19 iyunda iqtisodiy, savdo, transport, elektronika, telekommunikatsiya, aloqa, to‘qimachilik, maorif, ommaviy axborot, sport aloqalarining rivojlanishiga asos solindi. Shuningdek bu ikki davlat o‘rtasida o‘zaro hamkorlik munosabatlarining uzoq muddatga mo‘ljallangan rejalari belgilab olindi. Janubiy Koreyaning olamga mashhur “Samsung”,

“DEU” korporatsiyalari bilan hamkorlikda Asaka shahrida “**O‘zDEUavto**” O‘zbekiston-Koreya qo‘shma avtomobil zavodining 1996- yil 25 - martda qurib ishga tushirilishi, uning yiliga 200.000 ming zamonaviy “Tiko”, “Damas” va “Neksiya” rusumli avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda Janubiy Koreya davlati bilan hamkorlikda tuzilgan 80 dan ortiq qo‘shma korxonalar keng faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin egallagan **Malayziya va Indoneziya** davlatlari bilan davlatlararo aloqalar o‘rnatildi. Yurtboshimiz I.A. Karimovning 1992- yil 19-23-iyun kunlari bu ikki davlatga safari diplomatik aloqalar boshlanishida muhim ahamiyatga molik bo‘ldi. Ushbu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, madaniy va ma‘rifiy sohalardagi aloqalar tobora kengayib bormoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi va O‘zbekiston. O‘zbekiston Respublikasi va XXR o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik tizimida o‘zaro munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Xitoy O‘zbekiston mustaqilligini 1991- yil 27 - dekabrda tan olgan. 1992- yil 2 -yanvarda ushbu mamlakat bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilgan. Har ikki mamlakat o‘rtasida hamkorlik aloqalari o‘rnatilgandan keyin iqtisodiyot, savdo, fan va texnika, madaniyat va san‘at sohasida o‘zaro manfaatli hamkorlik jadal rivojlanishi uchun ko‘pdan ko‘p imkoniyatlar vujudga keldi. O‘tgan yillar maboynida ikki davlat o‘rtasida sheriklik munosabatlari va hamkorlikni yanada rivojlantirish to‘g‘risida bir qancha deklaratsiyalar, memorandumlar va boshqa hamkorlikka oid bitimlar imzolangan. Agar raqamlarga murojaat qilinsa, 1992-yildan to 2009- yilga



qadar O‘zbekiston va XXR o‘rtasida o‘zaro tovar aylanmasi o‘sha davrga nisbatan 6 barobarga oshgan bo‘lsa, 2008-yilda dunyoda kechayotgan moliyaviy inqiroz tufayli bu ko‘rsatkich 1.200 mln. dollarni tashkil qilgan va 2007 -yilga nisbatan o‘zaro tovar aylanmasi 25 -% ga kamaygan. 2008- yilga qadar O‘zbekistonga kiritilgan Xitoy investitsiyalari hajmi 11 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Kiritilayotgan investitsiyalar nafaqat neft-gaz

sohasiga, balki transport, telekommunikatsiya, gidroenergetika, engil sanoat kabi sohalarga ham jalb qilinmoqda.

O‘zbekiston Xitoyga energiya resurslari, neft va neft kimyosi mahsulotlari, paxta tolasi, ipak, o‘g‘it, meva-sabzavot kabi mahsulotlar eksport qiladi. Xitoydan esa mamlakatimizga mexanik va elektron uskunalari, optik apparatlar, dori-darmon, to‘qimachilik mahsulotlari, plastmassa va plastmassa buyumlar, rangli va qora metallar, yog‘och va yog‘ochdan tayyorlangan mahsulotlar import qilinadi.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2016-yilgacha O‘zbekistonda Xitoy sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 700 dan ortiq qo‘shma korxonalar mavjud bo‘lgan. Ular asosan engil sanoat, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, axborot texnologiyalari kabi sohalarda ish olib boradi. Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan “Elektron hisoblagich” O‘zbekiston - Xitoy qo‘shma korxonasi bunga misol bo‘la oladi. 2004 - yildan buyon faoliyat yuritayotgan “Elektron hisoblagich” qo‘shma korxonasi “O‘zbekenergo” aksiyadorlik jamiyati hamda Xitoydagi “Holley Group” korporatsiyasi hamkorligining amaliy natijasidir. Mazkur korxonalar sarmoyasining 40 % O‘zbekistonga, 60 % Xitoyga tegishlidir. Qo‘shma korxonalar elektr energiyasi sarfini hisoblaydigan turli xil va o‘lchamdagi bir fazali va uch fazali elektron hisoblagichlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Korxonada ilg‘or texnologiyalar asosida tayyorlanayotgan mahsulotlar xonadonlar va tashkilotlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yuqori sifati, qulayligi, xalqaro andozalarga mosligi bilan ajralib turadi .

O‘zbekistonda Xitoyning foizsiz (12 million AQSH dollari) va imtiyozli (36,3 million AQSH dollari) kreditlari asosida qator ijtimoiy loyihalar ham amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Xitoy “Eksimbanki” O‘zbekistonga 300 million dollarlik eksport krediti ajratgan. O‘zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan Xitoy Eksimbanki o‘rtasida telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish hamda To‘polang GES iga agregat o‘rnatish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirish to‘g‘risida ikkita kredit bitimi, “Farg‘onaazot” OAJ bilan “Grinkul” kompaniyasi o‘rtasida qo‘shma korxonalar tuzish to‘g‘risida ta’sis hujjatlari, “Motor zavodi” da “Grinkul” kompaniyasi ishtirokida dvigatellar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida hamkorlik memorandumi imzolangan.

So‘nggi yillarda ikki mamlakat hamkorligida mobil telefon apparatlari ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlik memorandumi, “Markazsanoateksport” kompaniyasi tomonidan Xitoyga mis etkazib berish to‘g‘risida bitim ham olib borilayotgan amaliy ishlar natijasidir. Shuningdek “O‘zsanoatmashimpeks” kompaniyasi tomonidan Xitoyga paxta etkazib berish to‘g‘risida bitim, “O‘zkiyosanoat” kompaniyasi bilan “Luyang Lanbin” kompaniyasi o‘rtasida anglashuv protokoli, “O‘zkiyosanoat” kompaniyasi bilan “Grinkul” kompaniyasi o‘rtasida qo‘shma korxonalar tashkil etish to‘g‘risida bitim imzolangan. Shuningdek, tomonlar o‘rtasida yana bir qator muhim bitimlar bo‘lib, ular ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik rivojiga asos bo‘lmoqda. Jumladan, “Xitoy va O‘zbekiston hukumatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy bitim”, “Ikki tomonlama soliq solinishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida” bitim, “Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasida investitsiyalarni himoya qilish to‘g‘risida”gi bitim “Savdo-

iqtisodiy, investitsion va moliyaviy hamkorlikni kengaytirish to'g'risida" memorandum shular jumlasidandir.

Ushbu ikki davlatning umumiy sa'y-harakatlari bilan hozirgi vaqtda iqtisodiy hamkorlikning shartnomaviy - huquqiy negizi shakllantirilgan, o'zaro savdo hajmi faol o'sib bormoqda, investitsiyalar sohasida, Shu jumladan, iqtisodiyotning neft-gaz tarmog'ida hamkorlik faol rivojlanmoqda, Shuningdek, transport - kommunikatsiya jabhasida ham yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Xususan, 2009 -yilda ikki mamlakat o'rtasida imzolangan ikkitarafli shartnomalar doirasida O'zbekistonga jami 1,5 mlrd. AQSH dollari miqdorida Xitoy investitsiyalari jalb qilingan. Mazkur mablag'lar energetika, kimyo sanoati, geologiya qidiruv, kommunal xo'jalik, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilmoqda .

XXR kompaniyalari bilan investitsion hamkorlikning muhim yo'nalishi hisoblangan neft-gaz sektorini alohida qayd etish lozim. Mazkur tarmoq bo'yicha hamkorlik ham o'zining evolyusiyasiga ega. Masalan, bu borada 2005 -yilda "O'zbekneftegaz" kompaniyasi va Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi (NP) o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritish bo'yicha hajmi taxminan 600 mln. AQSH dollari bo'lgan qo'shma korxonani tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi. 2006-yilda O'zbekistonda Xitoyning kapitali ulushi 100% bo'lgan "NP Silk Road" sho'ba kompaniyasi tashkil etilib, u hozirgi vaqtda O'zbekistondagi Buxoro, Xiva, Farg'ona va Ustyurt neft-gaz mintaqalarida beshta investitsion blokda geologiya - qidiruv ishlarini amalga oshirishga kirishdi. Bunda Xitoy korporatsiyasi O'zbekistondagi geologiya-qidiruv ishlariga 5 yil mobaynida 208,5 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag'larni investitsiya qiladi.


O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2005-yil Xitoyga tashrifi chog'ida "O'zbekneftegaz" va Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi o'rtasidagi o'zaro kelishuvga asosan Buxoro viloyatining Jondor tumanidan boshlanadigan O'zbekiston - Xitoy gaz quvurini qurilishi 2008-yilning iyun oyidan boshlandi. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 2 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi va 500 kilometrlik ikkita liniyani qurilishini o'z ichiga oladi. Ushbu liniyalarning birinchisi 2009 -yilning dekabrda, ikkinchisi 2011-yilda qurib bitkazildi .

Hozirgi kunda davlatlararo iqtisodiy aloqalarda Buyuk Ipak Yo'lini tiklash strategiyasi doirasida O'zbekiston - Qirg'iziston - Xitoy temir yo'lini qurish va avtomobil magistralini qayta ta'mirlash loyihasi yaxshi imkoniyatlarga ega. Tranzit imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish istiqbollari ham Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston temir yo'li (Qoshg'ar - Irkishtom - O'sh - Andijon -Toshkent) loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq. Loyihaning dastlabki qiymati 1,2-1,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, dastlabki bosqichning o'zida tashiladigan yuklar hajmi yiliga 5 mln. tonnani tashkil etadi, keyinchalik esa, 17 -20 mln. tonnani tashkil etishi mumkin. Bu yo'l tovarlarni transportda tashish vaqti va masofasini ilgari mavjud bo'lgan yo'llarga taqqoslaganda tegishli ravishda 7 -8 kun va 900 km ga kamaytirish imkonini beradi, bu esa yuk tashish qiymatini kamaytiradi.

Ikki davlat o'rtasidagi do'stlik o'zaro ishonch va siyosiy hamjihatlik savdo-iqtisodiy aloqalar rivojida, hamkorlikda ko'plab qo'shma biznes loyihalarini hayotga

tatbiq etishda kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lmoqda. O'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichi 2008-yilda 1,2 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda 2,6 milliard AQSH dollariga etdi. Bu borada savdo-iqtisodiy sohadagi o'zaro hamkorlik tobora o'sib bormoqda. 2003 - yilda ikki tomon tovar ayirboshlash xajmi 216 mln AQSH dollariga teng bo'ldi. O'zbekistonning Xitoyga qilgan eksport 53 mln, import 163 mln AQSH dollarini tashkil etdi. 2001-2004 -yillarda Xitoy bilan tovar aylanish hajmi to'rt marotaba oshdi. O'zbekistonda Xitoy investorlari ishtirokida tuzilgan 122 korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shulardan 102 tasi qo'shma korxonalar, 20 tasi 100% Xitoy sarmoyasi hisobidan Xitoy kompaniyalarining 23 ta korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2017 - yilga kelib Xitoyning O'zbekistonga kiritilgan sarmoyasi hajmi 435 mln AQSH dollarini tashkil etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2011-2017- yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb to'rt barobar oshgan. 2017- yilning birinchi yarmida o'zaro savdo yanada jadallashib, 59 foiz o'sdi va 2,3 milliard dollarni tashkil etdi. Davom



etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatida jahon iqtisodiyotidagi umumiy pasayishga va muammolarga qaramay, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo barqaror sur'atlarda o'syapti. Investitsiyaviy hamkorlik-O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning eng muhim yo'nalishidir. Ushbu hamkorlik ayni paytda har ikki tomon uchun ustuvor loyihalar xisobidan kengayib,

eng muhim barcha yo'nalishlar bo'yicha sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston iqtisodiyotiga eng ko'p investitsiya kiritayotgan yirik sarmoyadorlardan biri bu Xitoydir. O'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 6,7 - milliard dollardan oshdi. Bular qatorida Qo'ng'irotda soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodini qurish va ishga tushirish, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi va Angren ko'mir konini texnik qayta jihozlash, Xitoy kompaniyalari bilan hamkorlikda neft, gaz hamda uran konlarini qidirish, razvedka qilish va o'zlashtirishga oid qator qo'shma loyihalar bunday o'zaro manfaatli investitsiyaviy hamkorlikning yaqqol dalillaridir.

O'zbekistonda "Jizzax" maxsus industrial zonasi 2013- yildan boshlab tashkil etilib, investorlar uchun misli ko'rilmagan imtiyoz va preferensiyalar joriy qilindi. Bugungi kunda "Jizzax" maxsus industrial zonasida mobil telefonlar, zamonaviy qurilish materaillari va boshqa yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

O'zbekistonning yirik mamlakat - Hindiston bilan musaqil aloqalariga 1993 - yilda asos solinadi. 1992-yil 10 mayda Ashgabadda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Pokiston davlat va hukumat rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda TransOsiyo temir yo'lini vujudga keltirish maqsadida **Tajan-Seraxs-Mashhad** temir yo'li qurish haqida bitimni, bojxona xizmatini tashkil etish, Shu soha uchun mutaxassislar tayyorlash haqida hujjatlar imzolandi.

O‘zbekiston rahbariyatining 1995- yil AQSh vitse-prezidenti Albert Gor bilan uchrashuvi davomida O‘zbekiston va AQSH o‘rtasida teng huquqli va o‘zaro manfaatli aloqalar rivojiga hamda MDHdagi xavfsizlikka daxldor masalalar hal etildi. Ayni paytda AQSH O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashdagi etakchilik rolini tan olib, respublikamiz bilan terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash, mintaqaviy xavfsizlik va I.Karimovning AQSHga tashrifi chog‘ida muhokama etilgan boshqa masalalar sohasida teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish niyatida ekanligini ma‘lum qildi. O‘zbekiston rahbarining 1996- yil iyun oyida AQSHga qilgan tashrifidan so‘ng O‘zbekiston tashqi siyosatida AQSH o‘ziga xos o‘rin tutdi. Mazkur tashrif davomida O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, hamkorlikning huquqiy asoslarini kengaytirish, Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlik masalalarida fikr yuritildi. O‘zbekiston Respublikasi bilan Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida mintaqa xavfsizligi, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarga oid masalalarni muhim rol o‘ynaydi.

3. O‘zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi

Belorusiyaning Belovejskoe Pushche qarorgohida 1991- yil 8 - dekabrda uch davlat Rossiya, Ukraina, Belorusiya Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligini tuzish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Shartnomada SSSRning mavjudligi va SSSR Konstitutsiyasi to‘xtatiladi, deb e‘lon qilindi. 1991-yil 21-dekabrda Almatida Rossiya, Ukraina, Belorus, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldaviya davlat boshliqlarining kengashida ushbu davlatlarning MDH ga a‘zo bo‘lganligi to‘g‘risidagi bayonot qabul qilindi.

1992-yil 15-may kuni Toshkentda MDH mamlakatlari rahbarlarining navbatdagi kengashi bo‘lib o‘tdi. Toshkent Kengashida bir qator hujjatlar imzolanadi. 1993 - yil yanvarda Minskda MDH davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo‘ldi. Unda MDH ning Nizomi imzolanadi va MDHning huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi. 1993- yil 24 - sentabrda Moskvada MDH davlatlari boshliqlarining Kengashi bo‘lib



o‘tdi. Unda MDH doirasida iqtisodiy ittifoq barpo etish masalasi muhokama etildi va iqtisodiy ittifoqni tuzish haqidagi shartnoma imzolandi. 1994 - yil 21-oktyabrda Moskvada MDH davlat boshliqlarining Kengashi bo‘lib o‘tdi. Kengashda Iqtisodiy ittifoqning Davlatlararo iqtisodiy qo‘mitasi (DIQ) tuzildi.

Shuni qayd etish zarurki 1991-2001-yillarda MDH davlat boshliqlarining 30 ga yaqin kengashi bo‘lib, ularda hammasi bo‘lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy va umumiy sohalarga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi. 1993 - yil MDH davlatlari bilan imzolangan «Iqtisodiy ittifoq» haqidagi shartnoma ham bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va o‘zaro hamkorliklarining yanada mustahkamlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Shuningdek O'zbekistonning **Ukraina, Ozarbayjon, Gruziya, Moldova, Belorussiya, Rossiya Federatsiyasi** bilan mustaqillik yillarida o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara bermoqda. Mamlakatimiz Boltiq bo'yi davlatlari bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirish tarafdori. Bu davlatlar o'rtasidagi muammolar, ularni echish uchun ushbu mamlakat rahbarlari davlatlararo kengashlar o'tkazib, muhim masalalarni ya'ni do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma, diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida protokol va savdo-iqtisodiy hamkorlik bitimlari imzolangan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Prezidentimiz I.A. Karimov Ukrainaga bir necha bor safar qildi. O'tgan davrlar mobaynida O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalar yo'lga qo'yildi. Ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 20 dan ortiq o'zbek-ukraina qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. **O'zbekiston - Belorus** Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnomalar asosida 1991- yildan boshlab ish yuritmoqda. Ikki davlat o'rtasida daromad va mulklardan ikki tomonlama o'zaro soliq olmaslik, avtomobil, temir yo'l, havo yo'li va pochta aloqasi bo'yicha hamkorligini chuqurlashtirishda yangi bosqich bo'ldi.



O'zbekistonning Gruziya, Moldova davlatlari bilan ikki tomonlama davlat aloqalari yo'lga qo'yilgan. Respublikamiz bilan Gruziya o'rtasidagi qadimiy aloqalarni tiklash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki mustaqil davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlik, sarmoyalarni o'zaro himoya qilish va rag'batlantirish, fan-texnika, bank, qishloq xo'jaligi, bojxona, xalqaro transport aloqalari, erkin savdo va ishlab chiqarish, maorif, madaniyat, sport, sog'liqni saqlash, sayyohlik, atrof-muhit muhofazasi, pochta aloqasi, soliq, bojxona tizimi, jinoyatchilikka qarshi kurash kabi 30 dan ortiq hukumatlararo va muassasalararo bitim va hujjatlar imzolangan.

O'zbekistonning Boltiqbo'yi davlatlari bilan o'zaro hamkorligi katta ahamiyatga ega. Bunga O'zbekiston bilan **Litva, Latviya va Estoniya** Respublikalari o'rtasidagi



ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma Deklaratsiyasining imzolanishi bu davlatlar bilan bundan keyingi aloqalarni rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi. O'zbekiston bu davlatlarga rangli metallar, ipak paxta, neft va boshqa mahsulotlar eksport qiladi. Respublikamiz Litva, Latviya va Estoniyadan elektr mashinalari, ularning ehtiyot qismlari, shakar, efir moyi, qora metal, sut mahsulotlari, mebel sanoati mahsulotlarini sotib oladi. O'zaro hamkorlikka asosan Toshkentda bu davlatlarning qo'shma korxonalari ish yuritmoqda.

Ta'kidlash joizki, **O'zbekiston va Rossiya** o'rtasidagi 1992- yil o'rnatilgan diplomatik aloqalardan so'ng siyosiy, iqtisodiy sohalarida 150 dan ortiq shartnomalar imzolangan. Rossiya Federatsiyasi bosh vaziri V.Chernomirdin, keyinroq E.Primakov 1998 yil Rossiya Federatsiyasi prezidenti B.F. Isin, 1999-yil dekabr va 2000-yil may oyida prezident V.V. Putinning O'zbekistonga qilgan tashriflari Rossiya va O'zbekistonning o'zaro iqtisodiy hamkorliklarini yo'lga qo'yishda yangi davrni boshlab berdi. 2003 -2004 - yillarda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar yana ham mustahkamlandi. Jumladan, Rossiya davlati xavfsizlik kengashining raisi, Mudofaa, Tashqi ishlar, Transport vazirlari o'zbekistonlik davlat rahbarlari bilan muhim masalalar bo'yicha bitimlar tuzdi. 16 iyun kuni strategik hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi. V. Putinning Rossiya Prezidenti etib saylanishi Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. V. Putin qisqa muddatda O'zbekistonda ikki marta: 1999- yil 10-11- dekabrda va 2000 - yil 18-19- may kunlarida davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat Prezidentlari va rasmiy delegatsiyalari o'rtasida savdo iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish xarbiy va xarbiy texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg'anistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurashish va boshqa masalalar muxokama etildi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash xajmi 2000 - yilda bir milliard AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda 520 ta O'zbekiston- Rossiya qo'shma korxonasi, Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi firma va kompaniyalari ro'yxatga olingan. Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyasi ishtirokida tushilgan 250 ga yaqin qo'shma korxonalar mavjud. O'zbekiston Rossiyadan mashinalar va jixozlar, kimyo mahsulotlari va plastmassa, qora metal va boshqa tovarlar sotib olib, Rossiyaga turli mashina va jixozlar, paxta tolasi, oziq-ovqat mollari eksport qiladi.



2001- yil 3-5 may kunlari, 2004 - yil aprel oyida O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Rossiyaga tashrifi va Rossiya Prezidenti V. Putinning 2004 - yil iyun oyida O'zbekistonga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yangi tog'onaga ko'tardi. 2001- yili MDH tashkil topganligining 10 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishda savdo, iqtisodiy, ta'lim, madaniyat, soliq, bojxona sohalarida Rossiya bilan shartnomalar imzolandi. Bugungi kunda MDH davlatlari, xususan Ukraina, Belorussiya, Moldova, Boltiq bo'yi respublikalari ham O'zbekiston bilan teng sherikchilik asosida o'zaro hamkorlik qilmoqdalar.

2004 - yil 16- iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi. Mazkur 2005 - yil 14- noyabrda ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma xujjatlari o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global taxdidlarga qarshi xarakat qilish, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan mustaxkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. " O'zbekneftegaz" milliy xolding kompaniyasi bilan " Lukoyl"

neft kompaniyasi OAJ xamda “Gazprom OAJ” o‘rtasida mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolandi. Bu xujjat Rossiya tomonidan O‘zbekiston yoqilg‘i- energetikasi sohasiga 2.5 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritishni nazarda tutadi. Ikki davlat o‘rtasidagi savdo xajmi 2004 - yilda 1 milliard 642 million AQSH dollarini tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2008- yil 5-6 fevral kunlari rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo‘ldi. Muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Prezidentlarining qo‘shma bayonoti, O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi hukumati o‘rtasida 2008-2012- yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi hamda Aviasozlik sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi o‘rtasida 2008- yilga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi.

O‘zbekistonning **Markaziy Osiyo** respublikalari bilan olib borayotgan o‘zaro hamkorligi yanada diqqatga sazovordir. Xususan, O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mustaqillik yillarida yanada kengaygan. Jumladan 1994 - yil yanvar oyida Qozog‘iston Prezidenti N.Nazarboevning O‘zbekistonga tashrifi natijasida “**Yagona iqtisodiy hudud**” to‘g‘risidagi shartnomaga imzo chekdilar. Bu shartnomaga keyinchalik Qirg‘iziston va Tojikistonning ham kirishi Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash uchun O‘zbekiston davlati rahbariyati qat‘iyat bilan harakat qilib kelmoqda. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 1993 - yil 4 yanvar Toshkentdagi tarixiy uchrashuvi ushbu davlatlar hayotida muhim voqea bo‘ldi. Uchrashuvda mintaqa taqdiriga taalluqli masalalar birinchi marta muhokamaga qo‘yildi. Orol dengizini saqlab qolish bo‘yicha xalqaro jamg‘arma tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Shunday uchrashuvlar bir yilda ikki marta (1993 - yil, mart, *Qizil-O‘rda*, 1994 - yil, yanvar, *Nukus*; 1994 - yil, aprel, *Cho‘lpon-ota*, 1995- yil, mart, *Tashhovuz*; 1996- yil, yanvar, *Ko‘kchatov*; 1997 - yil, yanvar, *Bishkek*; 1997 - yil dekabr, *Oqmola*; 1998 yil mart *Toshkent*) kengashlarida mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalar to‘g‘risida shartnomalar, bitimlar imzolandi.

Birgina Qozog‘iston Respublikasi bilan hamkorlik misolida oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2008- yil 22 - 24 - aprel kunlari rasmiy tashrif bilan Qozog‘iston Respublikasida bo‘lishi mamlakatlar yangi tarixida o‘ziga xos davrni boshlab berdi. O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarda 1997 - yilda imzolangan Erkin savdo to‘g‘risidagi bitimga amal qilinar edi. So‘nggi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichi jadal o‘sib bormoqda. Xususan, 2006 yilda 39,1 foizlik o‘sish qayd etilgan bo‘lsa, 2007 - yilda o‘zaro savdo hajmi 63,3 foiz yuksalib, 1 milliard 193,3 million AQSH dollarini tashkil etdi. YA‘ni, 2007 - yilda mamlakatlarimiz ilk bor 1 milliardlik dovondan oshdi. Shuni ham ta‘kidlash kerakki, bunda O‘zbekistonning ijobiy saldosini 129,5 million AQSH dollaridan iborat bo‘lgan.

2008- yil 22 -24 - aprel kunlari bo‘lib o‘tgan uchrashuvlar paytida mamlakatlar o‘rtasida 2006-2010 - yillarga mo‘ljallangan Iqtisodiy hamkorlik dasturi va 2007 - 2016- yillarga mo‘ljallangan Iqtisodiy hamkorlik strategiyasi qabul qilingan. Mazkur hujjatlar savdo, suv-energetika majmui, sarmoya, moliya, transport, kommunikatsiyalar, bojxona va innovatsiya borasida ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etgan.

Islom Karimovning 2007 - yil oktabr oyida Ashxobodda bo‘lib o‘tgan uchrashuvlar va imzolangan hujjatlar O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi yangicha munosabatlarni qaror toptirish, uni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarish uchun poydevor bo‘ldi. 2008-2012- yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risidagi bitim va dastur ushbu sohadagi istiqbolli vazifalarning ijro etilishini ta‘minlashiga shubha yo‘q. Shu bilan birga Markaziy Osiyo mintaqasida Orol dengizi suvidan oqiloana foydalanish, mintaqada ekologik vaziyatni asrashga qaratilgan pozitsiyamiz so‘ngi 20 yil mobaynida jahon jamoatchiligining diqqat e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. 2009 - yil 28 - aprel kuni Qozog‘iston Respublikasining Olmaota shahrida Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlarining uchrashuvida u yana bir bor o‘z aksini topdi. Sammit ishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etdi va ushbu masala yuzasidan o‘zining qat‘iy fikr-mulohazalarini bildirdi.

Mintaqa davlatlarning tarixiy taqdirlari va geosiyosiy holatlarining mushtarakligi, ularning iqtisodiy, savdo-sotiq, siyosiy va ma‘naviy hamkorligini kengaytirish, inqirozli holatlardan tezroq chiqib olish, MDH muammolari bo‘yicha o‘z vaziyatlarini belgilash yo‘llarini axtarishga intilayotganligini anglash lozim. Bu ayniqsa, Tojikistondagi fuqarolar urushini tezroq tinch, keliShuv yo‘li bilan bartaraf etish bo‘yicha O‘zbekistonning sa‘y-harakatlari BMT hamda Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga a‘zo mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlarining oliy darajadagi anjumanlarida so‘zlagan nutqlarida o‘z aksini topdi.

Keyinchalik ushbu tashkilot EvrAzES nomi bilan yuritila boshlandi va “Markaziy Osiyo hamkorligi” tashkiloti ayni bir hil maqsad hamda vazifalarni o‘z oldilariga qo‘yganini ko‘zda tutib, bu tashkilot faoliyati osonlashtirildi, xarajatlar kamaytirildi. EvrAZES – iqtisodiy hamkorlikning yangi sharoitlarida yangi shakl va yangi yo‘nalishlarni topishning ijobiy misollaridan biri ekanligi ma‘lum bo‘lmoqda. Masalan: 2006 yil davomidayoq boj tariflarini unifikatsiyalash, uchinchi mamlakatlardan kiritilayotgan mahsulotlarga boj olish masalalari hozirning o‘zidayoq 60 foizga bajarilganligi buning dalilidir.

Markaziy Osiyo respublikalarining diqqat markazida turgan xalqaro terrorizmga qarshi jipslashish masalasi mintaqadagi respublikalar rahbarlarining 2000 - yil 20-23 aprel kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda yana yuzaga chiqdi. Xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro markazi tuzish haqidagi tashabbusini qo‘llab-



quvvatladilar. To‘rt davlat rahbarlari mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqida hujjatni imzoladilar. Shuningdek, uchrashuvda ikki davlat Qozog‘iston va O‘zbekiston respublikasi prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida erkin harakatlanish to‘g‘risida, yo‘lovchi va yuk tashish transportlarini kengaytirish to‘g‘risida kelishib olindi. Ushbu mamlakatlarni birlashtirib turgan muhim muammolar qatorida Orol dengizi masalasi katta o‘rin tutadi. Shu bois bu masalani to‘la qonli hal etish mintaqadagi davlatlarning global muammolari qatoriga kiradi. Prezidentimiz so‘zi bilan aytganda “Orol bo‘yining barcha ne‘matlarini “yagona sovet xalqi” bilan baham ko‘rilgan” bo‘lsa, “uning achchiq mevasi Orol bo‘yi fojiasidan qutulish Markaziy Osiyo xalqlarining ishi bo‘lib qoldi.” 2002 - yil 28 - fevral -1 mart kunlari Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida “Markaziy Osiyo hamkorligi” tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi shartnomaga imzo chekildi.

Afg‘onistondagi vaziyat yuzasidan mamlakat Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2008- yilning aprel oyida Buxarestda bo‘lib o‘tgan NATO samitidagi ma‘ruzasida ilgari surilgan takliflari mohiyatan o‘ta dolzarb edi. Unda faqat Afg‘oniston emas balki butun musulmon olamida og‘ir vaziyat va keskinlikka sabab bo‘layotgan islom diniga nisbatan mutlaqo asossiz xuruj va bo‘htonlarga yo‘l qo‘ymaslik muhimligi uqdiriladi. Shu o‘rinda mamlakatimiz prezidentining 2001- yilgacha faoliyat ko‘rsatgan “6+2” muloqot guruhini NATO vakolatxonasi ham albatta ishtirok etishini nazarda tutib, “6+2”ni “6+3” guruhiga aylantirish zarurligi haqidagi tashabbuslari keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olinadi. Jumladan Shu munosabat bilan O‘zbekiston tashabbusi bilan 1998 yilda tashkil topgan 6+2 guruhining Afg‘oniston masalasini hal qilishda va Toshkent Deklaratsiyasining ahamiyati muhim edi.

Markaziy Osiyo davlatlari hududida diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi yanada xatarli ekanligi ko‘p bora qayd etiladi. Uning ildizlari 1990-yilda Namangan va Andijonda, 1990-1996-yillarda Tojikistondagi fuqarolar urushi va mojarolar davomida, 1999-yil 19 fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001-yillari Qirg‘izistonning Botkent, O‘zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatida, 2004-yil mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida 2005-yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida, 2010-yil Qirg‘izistonning Osh, Jalolobod viloyatlarida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari, millatlararo nizolar timsolida o‘zini ko‘rsatdi. Ammo, mamlakat Prezidentining olib borgan oqilona ichki va tashqi siyosati tufayli millatlararo nizolarning oldi olindi, qardosh o‘zbek va qirg‘iz xalqlari orasiga rahna solishga intilgan ayrim qora niyatli kuchlarning intilishlari asossiz ekanligi namoyon bo‘ldi

3. Faol tashqi siyosat: O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga tobora integratsiyalashuvi va rivojlanish startegiyasi.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga erishgandan so‘ng jahon hamjamiyati orasida munosib o‘rin egallashga qarakat qilmoqda. O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo‘g‘rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil

tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun imkon bermoqda. Boz ustiga **Shavkat Mirziyoyevning** O‘zbekiston Prezidentligiga saylanishi mamlakatning faol tashqi siyosat borasidagi imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Xususan, avvalombor yaqin qo‘shni davlatlar bilan barcha sohalarda hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yilishi muhim voqea bo‘ldi. Jumladan, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston kabi davlatlar bilan uzoq yillar mobaynida yopilgan chegaralar ochildi. Mazkur davlatlar aholisining chegaradan bemaol o‘tib qaytishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik, barqarorlikni ta‘minlashdir. Ayniqsa qo‘shni Afg‘oniston Respublikasida siyosiy barqarorlikka erishish uchun sa‘y harakat olib borish, asosiy o‘rinda turadi.

Biz xalqaro hamjamiyatni Afg‘oniston hukumati rahbarligida tinchlik muzokaralarini boshlash zaruratini qo‘llab-quvvatlashga da‘vat etdik, dedi Prezidentimiz. Shu munosabat bilan 2018- yilning mart oyida Afg‘oniston bo‘yicha o‘tkazilgan yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi zamonaviy Afg‘oniston tarixida xalqaro miqyosdagi eng qamrovli anjuman bo‘lganini ta‘kidlash lozim. Konferensiya yakuni bo‘yicha qabul qilingan, uning barcha qatnashchilarining yakdil pozitsiyasi ifoda etilgan “Toshkent deklaratsiyasi” Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish bo‘yicha o‘ziga xos dastur bo‘ldi. Aynan ushbu konferensiyadan so‘ng Afg‘onistondagi barcha siyosiy kuchlar, jumladan, “Tolibon” harakati ishtirokida muzokaralar jarayonini boshlashga qaratilgan xalqaro harakatlar yanada faollashdi.

O‘zbekiston Afg‘oniston rahbariyati va mamlakatning yetakchi siyosiy kuchlari, jumladan “Tolibon” harakati vakillari bilan bir qator muhim muzokaralar o‘tkazdi. Ushbu siyosiy kuchlar afg‘on muammosini hal qilishda O‘zbekiston samarali vositachi bo‘la olishi mumkinligini e‘tirof etdi. Biz uchun eng muhim pirovard natija – Afg‘onistonda tinchlik muzokaralarini boshlash va milliy yarashuvga erishishdan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yalpi majlisi tomonidan muhim bir hujjat – **“Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ushbu rezolyusiyani qabul qilish tashabbusi 2017 - yil sentabr oyida Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan edi.** Bizning taklifimizni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘lgan 193 ta davlat keng qo‘llab-quvvatlagani jahon hamjamiyati tomonidan O‘zbekistonning sa‘yharakatlariga berilgan yuksak baho va e‘tirof sifatida barchamizga katta mamnuniyat va g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi. 2018- yilda jahonning yetakchi davlatlari bilan ham o‘zaro manfaatlari aloqalar sezilarli darajada jadallashdi.

Oz vaqt mobaynida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashriflari va xorijiy davlatlar rahbarlari bilan muzokaralari natijasida Rossiya, Belarus, AQSH, Xitoy, Fransiya va boshqa Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Turkiya, Misr, hamda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va yaqin sharq davlatlari bilan strategik sheriklik munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi.



Rossiya Federatsiyasi
 Prezidenti Vladimir Putinning yurtimizga amalga oshirgan davlat tashrifi (2018- yil 19–20- oktabr) davomida o‘tkazilgan muhokamalar yakunlari bo‘yicha yadro energetikasi va kosmos sohalaridagi hamkorlikni o‘z ichiga olgan turli yo‘nalishlarda umumiy qiymati 26 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini

amalga oshirish bo‘yicha 20 ta hukumatlararo hujjat imzolandi. Bu tashrif asosida tuzilgan shartnomalar asosida 7 -9 ta O‘zbekiston–Rossiya qo‘shma korxonalari, 23 ta yangi savdo uylari, 20 ta ulgurji va chakana savdo markazlari ochilishi rejalashtirilgan. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘onning O‘zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida (2018- yil 29 aprel – 1 may) oliy darajadagi O‘zbek–Turk strategik hamkorlik kengashi tashkil etildi. Tomonlar yaqin yillarda o‘zaro tovar aywaboshlash hajmini 5 milliard dollarga etkazish bo‘yicha aniq tadbirlar yuzasidan kelishib olishdi.

Prezidentimizning **AQSHga rasmiy tashrifi** (2018- yil 15–16 may) O‘zbekiston – Amerika strategik hamkorligini rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Tarixiy tashrif davomida savdo, fan, qishloq xo‘jaligi, energetika va boshqa sohalarida o‘zaro manfaatli aloqalarni har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan qator hujjatlar imzolandi. Ikki mamlakat kompaniyalari qiymati 4,8 milliard dollarlik 20 dan ortiq yirik shartnomalarni imzolashdi. Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh Said Husayn Halil as-Sisi 2018- yil 4–5-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi. Davlatlarimiz o‘rtasida yoshlar, sport, investitsiya, qishloq xo‘jaligi sohalarida hamkorlik to‘g‘risida anglashuv memorandumlari, ta’lim, turizm, arxeologiya, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga doir bitimlar, ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2019-2020- yillarga



mo‘ljallangan hamkorlik dasturi va adliya vazirliklari o‘rtasida hamkorlik memorandumi singari jami 12 ta hujjat imzolandi. Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi davomida (2018- yil 12–14 sentabr) 19 ta kelishuv va umumiy qiymati 263 million dollarlik 56 ta savdo shartnomasi imzolandi. Prezidentimizning Hindistonga davlat tashrifi davomida (2018- yil 30-sentabr – 1- oktyabr) 20 dan ziyod hukumatlararo hujjatlar va qiymati 3 milliard 200 million dollarlik shartnomalar imzolandi. Prezidentimizning Fransiyaga rasmiy

tashrifi (2018- yil 8–9 oktyabr) O‘zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev Yevropa Ittifoqi davlatlariga qilgan birinchi safari bo‘ldi.

Tashrif yakunida 10 ta hukumatlararo shartnoma va umumiy qiymati 5 milliard evroga teng bo‘lgan investitsiyaviy loyihalar bo‘yicha bitimlar imzolandi. Umuman olganda, 2018- yil mobaynida 30 dan ortiq davlatlararo va halqaro tuzilmalar rahbarlari bilan oliy darajadagi muzokaralar olib borildi, 180 ta ikki tomonlama shartnoma hamda kelishuvlar tuzildi.

Shuningdek, hukumat, vazirlik, idoralar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari darajasida 360 ta tashrif amalga oshirildi. O‘zbekiston diplomatiyasining yutuqlaridan biri o‘zbekistonlik taniqli diplomat Vladimir Norovning 2019 yil 1 - yanvardan boshlab SHHT Bosh kotibi lavozimiga tasdiqlanganligi ham tarixiy voqea bo‘ldi. 3 yanvarda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev V. Norovni SHHT Bosh kotibi sifatida qabul qildi. O‘zbekiston tashqi siyosatidagi ijobiy o‘zgarish va natijalarni yana boshqa ma’lumotlar misolida ko‘rish mumkin. Faol tashqi siyosat tufayli mamlakati mizning xalqar obro‘ -e’tibori 2018- yil – “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili” O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev dunyoning turli mamlakatlariga 30 ga yaqin oliy darajadagi tashriflar bilan bordi hamda nufuzli tashkilotlarning sammitida qatnashdi. Keyingi ikki yil ichida xorijiy mamlakatlar prezidentlari mamlakatimizga 16 ta tashrifni amalga oshirdi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 7 -2- sessiyasida nutq so‘zladi. Unda bildirilgan takliflar xalqaro hamjamiyat tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi; Prezidentimiz tashabbusi bilan, ilk bor Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvi tashkil etildi; Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi o‘tkazildi; Prezidentimiz Xitoyning Sindao shahrida SHHT Davlat rahbarlari Kengashining o‘n sakkizinchi majlisida ishtirok etdi; BMT shafeligida Orolbo‘yi mintaqasi uchun Trast fondi faoliyati yo‘lga qo‘yildi va hokazo.

Toshkent shahridagi “Miran International” mehmonxonasida 2018-yil 22-sentabr kuni xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida tashkil etilgan “O‘zbekistonning Harakatlar strategiyasi doirasidagi tashqi siyosiy faoliyati” mavzusida davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi. Unda tashkilotchi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti vakillari bilan bir qatorda AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Belgiya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Pokiston va Hindistondan tashrif buyurgan, jami 26 nafar ekspert ham ishtirok etdi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT minbarida so‘zlagan ilk nutqidan so‘ng tashkil etilishi ramziy ma’noga ega bo‘lib, O‘zbekistonning xalqaro maydonda ijobiy imijini oshirish, olib borilayotgan islohotlar bilan jahon hamjamiyatini xolisona tanishtirish kabi tashabbuslar kelgusida yanada qo‘payishi tabiiydir.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasi bilan, Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan

munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan faol tashqi siyosat olib borishda muhim rol o'ynadi. O'zbekiston 2017 - yildan boshlab Xitoy tashabbusi bilan tashkil qilingan **“Bir makon, bir yo‘l”** xalqaro forumining ishtirokchisidir. Mazkur hamkorlik ikki yo‘nalish- quruqlik va dengiz orqali davlatlararo hamkorlikni musathkamlashga qaratilgan. U hozigi kunda Osiyo, Afrika va Yevropadagi 65 mamlakatni qamarab olgan. 2019 yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur forumda nutq so‘zlab, O'zbekiston va Xitoy sheriklik aloqalarini yuksaltirishdan minnatdorligini qayd qilgan edi. Umuman, qayd qilingan ma'lumotlarga tayanib, O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar jadal rivojlanayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu esa kelajakda har ikki davlat o'rtasidagi sherikchilik aloqalarining strategik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda respublikamizda ta'lim sohasida ham xalqaro hamkorlikda sezilarli ijobiy siljishlarga erishildi. Agar raqamlarga murojaat qilinsa, 2019 yil 1 iyul holatiga ko'ra O'zbekistonda 102 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan. Birgina 2018- yilda mamlakatimizda jami 13 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Samarqandda **“Ipak yo‘li”** turizm xalqaro universiteti, Rossiya Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi **“Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti”**ning Olmaliq shahridagi filiali, Toshkent shahrida Janubiy Koreyaning Puchon universiteti filiali faoliyat boshladi. Davlatimiz rahbarining 2018- yil 25 - sentabrdagi Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida **“El-yurt umidi”** jamg'armasi tashkil etildi. 2018- yilda ilk bor xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi yaratildi, ta'lim va ilmiy tadqiqot jarayonlari tahlil qilindi. Mamlakatimizda o'nga yaqin oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari tashkil etildi. Masalan, Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar institutining, Toshkent shahrida esa AQSHning Webster universitetining filiali ochildi.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston bugungi kunga kelib qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lgan?
2. O'zbekiston YUNESCO bilan hamkorlikda so'nggi yillarda qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
3. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan munosabatlari qanday rivojlanmoqda?
4. O'zbekiston va BMT aloqalari haqida gapirib bering.
5. Prezident SH.Mirziyaevning Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investisiyalarni jalb etish yuzasidan qanday ishlarni amalga oshirmoqda?
6. Mintaqaviy mojarolar va terrorizm xavfini misollar yordamida tuShuntiring.
7. O'zbekiston va Turkiya aloqalari haqida so'zlab bering.
8. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi hamkorlik aloqalari haqida referat yozing.
9. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi aloqalar haqida nimalarni bilasiz?
10. O'zbekiston bilan Koreya Respublikasi o'rtasida qanday sohalarda hamkorlik qilinmoqda?

11. MDH qachon tashkil topdi, unga qaysi respublikalar a'zo bo'lib kirdi?
12. O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma qachon imzolandi, uning ahamiyati nimada?
13. Qanday misollar O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanib borayotganligidan guvohlik beradi?
14. O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalar haqida so'zlab bering.
15. O'zbekiston va Belarus Respublikalari o'rtasidagi aloqalar haqida nimalarni bilasiz?
16. Orol muammosini hal qilish yo'lida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
17. O'zbekistonning Qozog'iston bilan hamkorligi haqida so'zlab bering.
18. O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi hamkorlik aloqalari haqida nimalarni bilasiz?
19. O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi aloqalar haqida so'zlab bering.
20. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi aloqalar haqida nimalarni bilasiz?

13-MAVZU. YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI

Reja:

1. Xalq bilan muloqotning yo‘lga qo‘yilishi.
2. Harakatlar strategiyasi - milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichi.
3. Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak.
4. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichi.

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga xalq bilan muloqotning yo‘lga qo‘yilishi, Harakatlar strategiyasi - milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichi haqida kengroq ma’lumotlar berish.

Tayanch iboralar: Yangi O‘zbekiston, besh tashabbus, Prezident Administratsiyasi, www.my.gov.uz

Xalq bilan muloqotning yo‘lga qo‘yilishi. Azaldan oddiy xalqning fikri davlat rahbari uchun muhim bo‘lgan. Shuni inobatga olgan holda 2016-yilda ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti yo‘lga qo‘yildi. Shu yilning sentabr oyida Bosh vazirning (pm.gov.uz manzilida) virtual qabulxonasi ochildi. **2017 -yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”** deb e‘lon qilinishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi. Ana Shu muloqotni amalda yo‘lga qo‘yish, inson manfaatlarini ta‘minlash maqsadida fuqarolar murojaatlari bilan ishlashning yangi tizimi joriy etildi.

Ijtimoiy adolat ta‘minlangan davlatda xalqning bunyodkorlik salohiyati, yaratuvchanlikka intilishi va ishtiyoqi hosil beraveradi. Shu ma‘noda mustaqil Vatanimiz tarixida, xalqimiz hayotida yana bir yangi davr, yangi taraqqiyot bosqichi boshlandi, deyishga barcha asosimiz bor. **Strategik maqsadlarimiz aniq va ravshan** – demokratik, insonparvar davlat qurish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish, pirovardida, xalqimizni hayotdan rozi qilish, uning yanada farovon yashashi uchun barcha shart-sharoitni yaratish. Bunday yuksak marralarga xalq bilan muloqot qilib, odamlarning ichiga kirish, ularning dardu tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta‘minlash orqaligina erishish mumkin. **2016-yil 24 -sentabrda** O‘zbekiston hukumati portalida Bosh vazirning virtual qabulxonasi pm.gov.uz (**2017 -yil yanvar oyidan Prezident virtual qabulxonasi**) ochildishi murojaatlar bilan ishlash tizimini bugungi shiddatli XXI asr talablariga mos holda takomillashtirish imkonini berdi. Hukumat rahbari bilan oddiy odamlar o‘rtasida hech qanday vositachilarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot yo‘lga qo‘yildi. Shu bois ham mazkur virtual qabulxona ishga tushgan kuniyoq mamlakatimizning turli joylaridan mingga yaqin ariza, shikoyat va takliflar kelib tushdi. Virtual qabulxona ochilgunga qadar ham mamlakatimizda davlat organlarining “Ishonch telefoni” Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali mavjud edi. Bu sohada maxsus “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Lekin, ming afsuski, bu qonun amalda to‘la ishlamaganini, uning ijrosini nazorat qilish o‘z holiga tashlab qo‘yilganini, aniqrog‘i, bu masalaga ikkinchi darajali bir ish sifatida qaralganini bugun ochiq tan olishga majburmiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning **2016-yil 28 -dekabr**dagi **“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi farmoniga binoan **Xalq qabulxonalari** tashkil etildi. Uning xodimlari esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining xodimlari hisoblanishi belgilab qo‘yildi. **2017 -yil dekabrda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida Xalq qabulxonalari negizida, Prezident huzurida alohida tuzilma – **Tezkor davlat xizmatlari agentligini** tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi.

Bir yil davomida sinovdan o‘tib, tobora takomillashtirilib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yo‘lidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish etildi. Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 7-2-sessiyasida, xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o‘zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta’kidlabo‘tdi. Mamlakatimiz, xalqimiz hayotida har kuni yangidan-yangi o‘zgarishlar, yangilanishlar ro‘y bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan, yurtimizni har tomonlama rivojlantirish, xalq bilan ochiq-oshkora muloqot qilishning yangicha tizimi – Xalq qabulxonalari instituti o‘tgan vaqt mobaynida bajarilgan ishlardan ko‘ra hali etilishi lozim bo‘lgan vazifalar yanada ko‘proq ekanligini namoyon etdi. Zotan, haqiqat bahslarda, oshkora muloqotlarda bo‘y ko‘rsatadi. Prezidentning joylarda Xalq qabulxonalari, virtual qabulxonasi tashkil etilganidan keyin xalqning real hayotidan xabardor bo‘lish, odamlarning ko‘p yillik muammolarini, talab va ehtiyojlarini yaqindan o‘rganish, ularni hatto joyida hal etish, zarur chora-tadbirlarni belgilab, ijtimoiy adolatni ta’minlash imkoniyati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining (keyinchalik **Prezident Administratsiyasi**) Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tomonidan mamlakatimizning barcha shahar hamda tumanlarida, chekka-chekka qishloqlarda, mahallalarda ommaviy qabullar, xalq bilan yuzma-yuz suhbatlar tashkil etildi. Qisqacha qilib aytganda, xalq ichiga kirib borildi. Odamlarning yuraklarida yig‘ilib qolgan dardlari, allaqachon hal qilinishi mumkin bo‘lgan-u, lekin to‘rachilik, o‘zibo‘larchilik, sansolarlik oqibatida yillar davomida yechilmay kelgan muammolar yuzaga chiqa boshladi. Eng muhimi, odamlar dardlarini aytishi, kattayu kichik idoralar rahbarlari bilan yuzma-yuz gaplashishi, muammolariga qisqa fursatda yechim topishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keldi. Nafaqat muammolar, ularning talab va takliflariga ham quloq tutildi, bu takliflar yig‘ilib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi yo‘lga qo‘yildi. Prezidentimizning **“Rahbarlar xalqning xizmatkori bo‘lishi zarur”, “Asosiy maqsadimiz – xalq roziligi, xalq bizdan rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi”**, degan qat’iy talablari amalda o‘z

ifodasini ko'rsatdi. Bugungi kunda ana Shu izlanishlar samarasi sifatida ko'plab yangiliklar hayotga tatbiq etilmoqda.

Fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazish yo'lga qo'yilib, Prezidentning virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar tahlil qilinganda, qator muammolar bilan birga, aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish borasida ham ko'plab yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi. Holbuki, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida **2003-yildan** boshlab tadbirkorlik subyektlarini **“Yagona darcha”** tamoyili asosida ro'yxatdan o'tkazish



uchun shahar, tuman hokimliklari huzurida maxsus inspeksiyalar tashkil etilgan. **2016-yildan** esa ular negizida **Davlat xizmatlari ko'rsatish markazlari** ish olib borgan. Ammo ushbu sa'y-harakatlar ham aholining bugungi talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emasligi ayon bo'ldi. Binobarin, odamlarning har bitta hujjat uchun turli-tuman idoralarga murojaat qilishi, soatlab navbat kutishlar, qog'ozbozlik, turli

ovoragarchiliklar barham topmadi. Shu boisdan mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish borasida keng ko'lamli ishlar boshlandi. Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnomasida demokratiyaning ilg'or mexanizmi sifatida jamoa bo'lib elektron murojaat kiritish tartibini joriy etishni taklif etdi. Ya'ni, bir guruh fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni Oliy Majlis yoki xalq deputatlari kengashlari ko'rib chiqishi majburiy ekani qonunda belgilab qo'yilishi lozim.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari uchun internet tarmog'ida **“Mening fikrim”** deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. **2018-yilda** O'zbekistonda jamoaviy murojaatlar uchun yagona mahalliy portal paydo bo'ldi. U yerda fuqarolar davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar bo'yicha o'z fikr va tashabbuslarini e'lon qilishlari mumkin. “Mening fikrim” veb-portali mamlakatimizda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining ochiqligi, qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida yaratildi.

Portal quyidagi tartibda ishlaydi:

1. Fuqarolar o'z tashabbuslarini portalga yozishadi
2. Ekspertlar ko'rib chiqqanidan so'ng ushbu tashabbus portalda e'lon qilinadi
3. Portalda ushbu tashabbuslarga jamoatchilik tomonidan ovoz beriladi
4. Ovozlar yetarli darjaga yetgach tashabbus Oliy Majlis yoki Xalq deputatlari Kengashlari e'tiboriga taqdim etiladi

Harakatlar strategiyasi - milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni,

davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim po'ydevor bo'ldi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining tahlili, bugungi kunda jahon bozori talabi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuvni ishlab chiqishni taqozo etdi. Mamlakatning **2016-yilda** saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shartsharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 7-fevraldagi** farmoni bilan **2017–2021--yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi** tasdiqlandi. Strategiya dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan. Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Prezident rahbarlik qiladigan 14 kishilik Milliy komissiya tuzilib, u mazkur hujjatda belgilangan vazifalarning o'z vaqtida, sifatli bajarilishini nazorat qiladigan bo'ldi.



Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning **5 ta ustuvor yo'nalishi** keltirilgan:

I. *Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish* (**Moviy havorang** – osmon va toza suv ramzi, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi);

II. *Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish* (**Siyohrang** –

qonun ustuvorligi va or-nomuslilik ramzi);

III. *Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish* (**Tillarang** – iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi);

IV. *Ijtimoiy sohani rivojlantirish* (**Qizil rang** – hayot va aholining munosib turmush tarzini ta'minlash ramzi);

V. *Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat* (**Oq rang** – tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va sofl ik ramzi).

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi. Bugun O'zbekiston ham o'z tarixining ana Shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g'oyaga aylanmoqda.

Strategiya - bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Bizning asrimiz ya'ni, XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarida vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o'zaro bog'liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. *Siyosat, strategiya va taktika* - strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi Shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan obyektning mayog'iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat - bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir. Ko'rib turganimizdek, strategiyaning asl mohiyatida xalqimizning orzu-umidlari yo'g'rilgan g'oyalardan tashkil topgan milliy mafkuraning ifodasi yotadi. Mafkuradan nusxa olib bo'lmaganidek, davlatning strategik maqsadlarini ham boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusxa olib bo'lmaydi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy tarixi, tabiiy resurslari mavjud bo'ladi. Aynan Shu omillar ma'lum ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish bo'yicha 2017 -yilning o'zida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, **17 ta** vazirlik, qo'mita va boshqa tashkilotlarning faoliyatlari, vazifalari va tarkibi qayta ko'rib chiqildi; davlat va xo'jalik idoralarning 20tasi o'zgartirildi, 5tasi tugatildi hamda yangi **21 tasi** yangidan tuzildi. Mazkur tashkilotlarning faoliyatini yanada tartibga solish va nazoratini kuchaytirish maqsadida **2017 -yil sentabr** oyida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasi qabul qilindi.

Deputatlar va Senat a'zolarining joylardagi haqiqiy vaziyatni o'rganish va muammolarni hal qilish maqsadida har oy xizmat safariga chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Yanvar-iyul oylari davomida mamlakatimizning **60 ta** tumanlariga safarlar

uyushtirildi, **218 mingdan ziyod** fuqarolar bilan uchrashildi, muammolarini hal qilishda ko‘maklashildi va tizimni yaxshilash borasida takliflar qabul qilindi.

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlashning yangi tizimi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joylardagi Xalq qabulxonalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunga qadar virtual qabulxonaga aholidan **1,2 milliondan ziyod** murojaatlar kelib tushgan.

Ruxsatnoma va litsenziyalarni olish tartibini soddalashtirish uchun licence.gov.uz, davlat xizmatlarini “Bir darcha” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish uchun **www.birdarcha.uz** veb-sayti ishga tushirildi. Mazkur soddalashtirish ishlari natijasida tadbirkorlik sub'ektini ro‘yxatdan o‘tkazish harakatlari to‘rt baravar, ro‘yxatdan o‘tkazish vaqti esa 30 daqiqagacha qisqartirildi.

Parlament nazoratining yangi shakli yo‘lga qo‘yildi – ichki ishlar vaziri har olti oyda Oliy Majlis Senati oldida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ishlar bo‘yicha hisobot topshiradigan bo‘ldi.

Axborot texnologiyalari yo‘nalishidagi faoliyatni takomillashtirish maqsadida **www.my2gov.uz** portalining davlat elektron xizmatlarini onlayn to‘lash, kerakli hujjatlarni muassasaga bormay turib qo‘lga kiritish imkonlari yaratilgan yangi shakli ishga tushdi. Tarmoqda turib soliq va kommunal xizmatlaridan qarzdorlik, yo‘l qoidalarini buzganlik uchun jarimalar, shaxsiy nafaqa va sug‘urta ustamolari haqida ma'lumot olish mumkin bo‘ldi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish yo‘nalishida esa 2017 -yilda quyidagi ishlar amalga oshirildi: Qonun hujjatlarini tarqatish tizimi tubdan takomillashtirildi;

Sud tizimini yanada isloh etish orqali bir qator muhim qonun hujjatilari qabul qilindi. Xususan, sudyalik lavozimida bo‘lishning ilk marotaba 5 yillik, navbatdagi 10 yillik muddatga va sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davriga muayyan tartibda tayinlanishi yoki saylanishi belgilandi;

Sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy tamoyilga rioya etilishini ta'minlashga ko‘maklashadigan Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi. Sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash, Shu jumladan xo‘jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudlarini tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 7 -1 ta tumanlararo tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etilishi belgilandi;

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash maqsadida **27 ta** huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari rahbarlarining virtual qabulxonalari tashkil etildi;

Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish orqali ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan muqobil jazo turlarini qo‘llash ko‘lami kengaytirildi. Jumladan, ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish orqali tarbiyaviy ta'sir ko‘rsatish choralarini kuchaytirishga qaratilgan «majburiy jamoat ishlari» jinoiy jazosi kiritildi;

Qonunchilikka kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarga muvofiq, fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish muddati 3 yildan 1 yilga qisqartirilishi belgilandi.

Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak. 2017-yil 12-dekabrda Prezidentimizning **“Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi Farmoni qabul qilindi va ushbu hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi **Davlat xizmatlari agentligi** tashkil etildi. Bu ham, albatta, aholiga barcha sohalarda qulay imkoniyatlar yaratish, ortiqcha ovoragarchiliklarga barham berish yo'lida tashlangan yana bir muhim qadamdir. Ilgari **“Yagona darcha”** tizimi faqatgina tadbirkorlarga xizmat ko'rsatib kelgan bo'lsa, endilikda oddiy fuqarolarga ham davlat idoralari bilan bog'liq ishlarda ushbu tizim orqali xizmat ko'rsatish maqsad qilindi. Natijada aholiga eng zarur va talab yuqori bo'lgan davlat xizmatlarini **“yagona darcha”** tamoyili asosida ko'rsatish uchun mamlakatimizning barcha shahar va tumanlarida Davlat xizmatlari markazlari tarmog'i vujudga keldi.

Mazkur tizimning davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan va amalda munosib samara bergan Xalq qabulxonalari negizida barpo etilgani ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki Shu jamiyatda yashayotgan har bir fuqaro hayoti davomida turli ehtiyojlar bilan davlat idoralariga duch kelishi tabiiy hol. Xalqning davlat idoralari bilan munosabatlarida yengillik yaratish, mushkulini oson qilish esa bugungi kunda davlatimizning asosiy e'tibor markaziga ko'tarilgan. Davlat xizmatlari ko'rsatishning yangi, zamonaviy konsepsiyasida fuqarolarning navbat kutib turishlarini keskin kamaytirish, hujjatlarni elektron tarzda yuritish hisobiga qog'ozbozlikni qisqartirish, turli xil buyruqbozlik va sansolarliklarga chek qo'yish ko'zda tutilgan. Eng muhimi, davlat xizmatlari markazlarining ish prinsipi **“Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi”** degan tamoyilga asoslangan.

Qisqa fursatda respublikamizdagi har bir tuman va shaharda **Davlat xizmatlari markazlari** tashkil qilindi. **2018-yil boshida** ushbu markazlarda aholiga qariyb 30 turdagi xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, 1-apreldan e'tiboran bunday xizmatlar soni 50 tadan ortdi. Iyun oyidan boshlab esa ular qatoriga yana 30 dan ortiq xizmat turlari qo'shildi. Bu odamlarning qimmatli vaqtlarini tejash bilan birga, ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish imkonini ham bermoqda. Misol uchun, yoshlar oila qurganda nikohni qayd etishi, farzand dunyoga kelganda unga guvohnoma olish, bolalarni bog'chaga joylashtirish, mashinani boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasini olish yoki yangisiga almashtirish kabi kundalik hayotimizda ko'p bora duch keladigan ishlar endilikda Davlat xizmatlari markazida hal etib beriladi. Buning uchun turli idoralarga qatnashga, uzoq vaqt kutishga endi hojat yo'q.

Avvalo, Shuni chuqur anglashimiz zarurki, bugun mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarish va islohotlarning zamirida **“Nima qilsak odamlarimizning tashvishi kamayadi, ularga tejamli va qulay bo'ladi?”** degan jiddiy savol turadi. Ana Shu yangilik va islohotlarning barchasi odamlarni ko'pdan beri qiynab kelgan muammolarni bartaraf etish, ularni bugungi hayotdan mamnun etib, ertangi kunga bo'lgan ishonchini amalda mustahkamlashga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda yurtimiz hayotida yangilik bo'lgan mazkur tizim faoliyatini boshlashda ham puxta

o‘ylab qadam tashlandi. Bu borada davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasini muntazam ravishda o‘rganib borishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Hozirga qadar Angliya, Germaniya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Rossiya Federatsiyasi, Gruzija, Ozarbayjon, Litva, Singapur, Qozog‘iston va boshqa davlatlar qonunchiligi o‘rganilib, Avstraliya va Kanadaning davlat xizmatlari elektron tizimi atroflicha tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra ma‘lumotnomalar tayyorlanib, ularning ijobiy tajribasidan kerakli o‘rinlarda foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Yana shuni aytish mumkinki, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini olish, ipoteka shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, tibbiy faoliyat huquqini litsenziyalash, elektron raqamli imzo kalitlarini ro‘yxatga olish, haydovchilik guvohnomasini yangi namunadagisiga almashtirish, bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasasiga joylashtirish, kommunal xizmat kabi masalalarda odamlar ko‘plab muammolarga, ortiqcha sarsongarchiliklarga duch kelar edi. Endilikda bunday masalalar Davlat xizmatlari markazida qisqa vaqtda hal etib beriladi. Masalan, haydovchilik guvohnomasini yangisiga almashtirmoqchi bo‘lgan kishi markazga kelib, eski haydovchilik guvohnomasi va fuqarolik pasportini beradi va belgilangan miqdordagi to‘lovni istalgan shaklda to‘laydi. Mutaxassislar Shu yerning o‘zida fuqaroni suratga olib, tegishli hujjatlarni hech qanday muammosiz rasmiylashtiradi. Qarabsizki, yarim soat ichida fuqaro yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasini olib ketadi. Bolalarni bog‘chaga joylashtirish masalasida ham ota-onalar shu paytgacha turli qiyinchiliklarga duch kelganligini ko‘pchilik yaxshi biladi. Endilikda bu masala ham markazda hal qilinadigan bo‘ldi.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichi. Istiqloqlarning dastlabki yillarida milliy istiqloq g‘oyasi xalqimizning milliy tiklanishiga xizmat qildi. G‘oyaviy kurashlarda kunimizga yaradi. Xalqimizni birlashtirdi, buzg‘unchi g‘oyalar mohiyatini tuShuntirdi. **2017 -yildan** boshlab O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichiga kirdi. Konstitutsiyamizga asoslangan, xalqimizning tub manfaatlariga javob beradigan O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi amalda. Keyingi yillarda erishilgan yuksak marralar xalqimizni baxtli qilishga qaratilgan islohotlar samaralarini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbasi bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarurligi alohida ta‘kidlandi. **2019-yil 8-aprel kuni** Prezidentimizning O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida **milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini** ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoyishi qabul qilindi.

Mazkur hujjat qabul qilinishining zarurati nimalarda namoyon bo‘ladi? Rivojlangan mamlakatlarda milliy g‘oya davlat maqsadlarini xalq maqsadlariga uyg‘unlashtiradi. **“Bir hudud – bir xalq”** e‘tiqodini shakllantirib, mamlakatlar aholisini birlashtirgani, umumiy maqsad yo‘lida safarbar qilganiga misollar ko‘p. Ularning aksarida milliy g‘oya milliy qadriyatlarga bog‘lab singdirilganini ko‘ramiz.

Mamlakatimizda milliy g'oyaga yangi davr, millatimiz tarixining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqqan real talablar qo'yilmoqda. Ilgari milliy g'oyani tushunish va tushuntirishda noqulayliklar uchrab turar edi. Masalan, odamlarning quloqlari milliy g'oya davlat va xalq birligi tarannumini eshitardi. Lekin ko'zlarimiz hokimliklar, vazirlik va idoralarning oldidagi temir panjaralarni ko'rar edi. Xalq davlat organlariga xizmat qilishi kerak, degan noto'g'ri qoida amalda edi. Fuqaro hokimiyatga emin-erkin kirolmas, dardini ayto'lmas edi. Chunki amalda xalqdan davlatni ajratuvchi temir panjara bor edi. Panjaralar kesib tashlandi. Lekin ayrim amaldorlarimiz ongida bu panjara haligacha turibdi. Tafakkurdagi temir panjaralarni qo'porib tashlash qiyin kechyapti. Milliy g'oya ana Shunday vaziyat talablaridan kelib chiqib yangilanmoqda.

Dastlab milliy g'oya ijtimoiy-gumanitar, ma'naviy-ma'rifiy masala, deb tushunildi. Bugun uning iqtisodiy-siyosiy poydevori – O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi bor. Taktikasi – har yilning bosh Dasturi, mablag'i, ijrochilari bor. Demak, yangi davrda milliy g'oya gumanitar masala bo'lib qolmaydi. Chunki uning natijasiga qaratilgan iqtisodiy tizim ishlamoqda. Milliy g'oya ro'yobi uchun demokratik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Demokratiya – to'g'rilik, rostlik, adolat, qonuniylikning sharti. Nohaqdan – haqni, zolimdan – mazlumni, zo'ravondan – ojizni himoya qilishga xizmat qiladi. Shu haqda jar soladi. Jamoatchilik nazoratini ishga soladi. Chunki milliy g'oya aholining bir toifasi emas, hamma yaxshi yashasin, hayotdan rozi bo'lsin, deydi. Mamlakatda adolat, qonuniylik buzilar ekan, demokratiya ham, milliy g'oya ham quruq shiorlar bo'lib qoladi. Xalq norozi bo'ladi. Xalq norozimi, demak, milliy g'oya o'z bongini urmayotgan, vazifasini bajarmayotgan bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy g'oya xalqimizning kuch-qudratiga aylanishi uchun sharoit yaratdi. Endi gap milliy g'oyani har bir o'zbekistonlikning niyatiga va harakatiga aylantirishda. Yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yo'l ochadi. Axborot maydonini nuqul negativ kontent egallab olmasligi uchun pozitiv, yaxshi, nekin mazmun, mavzular bilan mutanosib to'ldirishga alohida e'tibor qaratmog'imiz zarur. Negaki, biz kattalar ham, bolalarimiz ham har kuni yaxshi-yomon fikrlardan ta'sirlanamiz. Bir-birimiz bilan ijtimoiy tarmoqda tortishamiz, aytishamiz, urishamiz. Lekin biz bularning negativ fikrlardan boshlangan g'oyalar kurashi ekanligini anglamaymiz.



Milliy g'oyamizning bosh g'oyasi **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”**. Yuksalish – harakatni talab qiladi. Demak, milliy g'oyamiz harakatlar mafkurasi bo'ladi. Milliy g'oya odamlarga islohotlar kim uchun, nima uchunligini, ahamiyatini tushuntiradi. Yotganni – o'tqazadi, o'tirganni – turg'izadi, turganni – yurgizadi, yurganni – yugurishga undaydi. tushuntiradi. Chunki shularni tushunmagan odamlar birlashmaydi, ko'r-ko'rona, yuzaki ishlaydi. Biri ishlasa, ikkisi tomoshabin bo'ladi. tushunganlar birlashib, ixtiyoriy, zavq bilan ishlaydi. Natijada hayotidan rozi bo'ladi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida **“Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”** va **“Yo'l xaritasi”** ishlab chiqildi. Davlatimiz rahbari “Ma'naviyat – eng ta'sirchan qurolimizdir”, degan qat'iy fikrni bildirdi. Bu – bejiz emas. Chunki “Biz nima uchun o'zgarishimiz, birlashishimiz, kurashishimiz kerak?”. Bu savolga yakdil g'oyaviy javobi yo'q jamiyat – quroli yo'q qo'shinga o'xshab qoladi. Ma'naviyat va ma'rifat, mafkuraviy tarbiya O'zbekistonning turli millat, din, kasb, yoshlarga mansub xalqini g'oyaviy qurollantiradi. Islohotlar nima uchun, kim uchun kerakligini xalqqa uning orzulari bilan bog'lab uqtiradi, ko'rsatadi. tushungan xalq – g'oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi. Har birimizdan Vatanning bir o'g'il-qizi sifatida o'z lavozimimizga munosib bo'lib ishlash va yashash burchini eslatadi. O'z milliy g'oyasini anglagan xalqni to'xtatib bo'lmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. 2016-yilda respublikamizda xalq bilan muloqotning yo'lga qo'yilishida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. Dastlab Bosh vazir, keyinchalik Prezident virtual qabulxonasining (pm.gov.uz) ishga tuShurilishi qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi?
3. Xalq qabulxonalarining vazifalari nimalardan iborat?
4. Fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazishdan asosiy ko'zlangan maqsad?
5. Harakatlar strategiyasi nima?
6. 2017 -2021--yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi qanday ustuvor yo'nalishlardan iborat?
- 7 -. Davlat xizmatlari agentligi nima maqsadda tashkil etildi?
9. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” deganda nimani tuShunasiz?
10. Milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishdan ko'zlangan maqsad nima?

14-MAVZU. 2017 -2021- YILLARDA YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Reja:

1. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarida belgilangan vazifalar.
2. Strategik dastur va rejaning uyg‘unligi.
3. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlar sohasidagi islohotlar.

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarida belgilangan vazifalar, strategik dastur va rejaning uyg‘unligi, harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlar sohasidagi olib borilayotgan islohotlar haqida chuqurroq bilimga ega qilish.

Tayanch iboralar: 5 ta ustuvor yo‘nalish, “Elektron hukumat”, “Har bir oila - tadbirkor”,

1. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarida belgilangan vazifalar.

Davlatimiz rahbarining Harakatlar strategiyasini ishlab chiqishdan maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta`minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta`minlash, chuqur O‘ylangan, O‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bO‘limlardan iborat. Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bO‘yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi.

2017-2021- yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishi:

davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortiShuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

2017-yilgi Davlat dasturining **“Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish”** deb nomlangan birinchi yo'nalishini amalga oshirishda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.



Davlat boshqaruvini takomillashtirish, eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash Davlat dasturining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo'ldi. Shu munosabat bilan jamoatchilik nazoratini

takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, Shuningdek mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Davlat dasturining **ikkinchi yo'nalishi** qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta'minlashi kerak bo'lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalar korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilgan. Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida prosessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilgan.

Mazkur yo'nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarning, xabarlarining o'z vaqtida olinishini ta'minlash nazarda tutilmoqda. Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek ushbu yo'nalish 2018-2021- yillarda jinoyat va jinoyat-prosessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o'qitish, tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini e'lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notarial tizimini va FHDYO organlarini isloh qilishni ham o'z ichiga oladi.

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investisiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilgan.

Shuningdek ushbu yo‘nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi.

2017 -2021- yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investisiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro‘yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

“Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikasiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta‘minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta‘lim muassasalarining qulayligini ta‘minlash, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Jumladan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha qariyb 25-mingta



investisiya loyihasini ro‘yobga chiqarish hisobiga 25-6,4 ming ish o‘rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta‘minlash dasturlarini to‘liq ijro etish nazarda tutilgan. ishsizlik darajasi eng yuqori bo‘lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o‘rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta‘lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilgan.

Katta yoshli avlodni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta‘minlash rejalashtirilgan.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta‘minoti quvurlari, 31-6 kilometrlik gaz ta‘minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo‘llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi avtobus yo‘nalishini joriy etish va 537-ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilgan.

“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlangan beshinchi yo‘nalish doirasida respublikaning konstitusiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni

ro'yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo'nalishlari konsepsiyasini hamda diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Keyingi besh yilda mamlakatni rivojlantirishning strategik va ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida Farmon asosida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya tuzilmoqda. Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish Harakatlar strategiyasi beshta yo'nalishining har biri bo'yicha tuzilgan komissiyalar zimmasiga yuklatilgan. Ushbu komissiyalar zimmasiga nafaqat yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish, balki 2018-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarini tayyorlash ham yuklatilmoqda.

Strategik dastur va rejaning uyg'unligi hamda turli darajadagi qarorlarning mustahkam bog'liqligi muvaffaqiyatning kafolati. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bo'g'inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funksional bo'lim rejalarining kelishuvi bilan ta'minlanadi. Ayni paytda strategiyani amalga oshirish imkoniyatlarini tug'diradi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy va huquqiy sharoitlar yaratilishi lozim.

Davlat strategik rejaları aniq va o'zgarmas tamoyillarga bo'ysundirilishi muhim. Ular islohotlarning bir maromda, izchil yo'nalishini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, rahbar o'z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma'lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog'i, bundan tashqari, improvizatsiya qilmog'i, quyilgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ yondashuvlarni tashkil etishi lozim. Mazkur tamoyillar oldin qabul qilingan qarorni o'zgartirish ehtimoli yoki o'zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib, qayta ko'rib chiqish imkoniyatini berishi zarur.

Ushbu tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past sur'atlariga, shaxsiy mas'uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan o'zgartirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, strategik yo'nalishlarni belgilashning mavhum va noma'lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga erishiladi.

Mamlakatimiz strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa, xalqning davlatga bo'lgan munosabatini o'zgarayotganligida namoyon bo'lmoqda. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi davlatning bosh maqsadi sifatida strategik yo'nalishlar belgilanmoqda. Ular avvalo, rivojlantirilayotgan ijtimoiy sohalarda o'z ifodasini topmoqda. Yoshlarga munosib ta'lim berish, zamonaviy kasb-hunarlar bilan qurollantirish, aholining salomatligini ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisini yo'qotganlar, yolg'iz keksalar, umuman, ko'makka muhtoj

qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash davlatimiz rahbarining **2018-yil 28 -dekabr** kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida o‘z tasdig‘ini topdi.

Davlat va jamiyat qurilishi Shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o‘zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokomotiv vazifasini ham bajaradi. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, obyektiv tahlil qilish, o‘z vaqtida tegishli choratadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishlash mexanizmlarini yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilishni talab qiladi. Davlatning harakatlar strategiyasi yetaklovchi lokomotiv kuchi - bu davlat va uning organlari. Islohotlarning garovi va kafolati hokimiyatning samarali faoliyati bilan bog‘liq hodisa. U boshqaruv mahorati bilan uzoqqa mo‘ljallangan maqsadlarni rejalashtiradi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qiladi, aholini safarbar etadi, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va uni odilona taqsimot qilish vazifalarini amalga oshiradi. Shunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmasdan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo‘lmaydi. Modernizatsiya o‘z umrini poyoniga yetkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko‘tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqozo qiladi. Shu nuqtai-nazardan Prezidentimiz parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma‘muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo‘llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas‘uliyatini qayta ko‘rib chiqish, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalarini belgilaydi.

Boshqaruvda adolatli davlat idora tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari - ikkinchi uzviy bog‘lanuvchi muhim tamoyil ta‘minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud — oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi-yomoni, foyda-ziyonini belgilab beruvchi ma‘naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan ko‘ra bunyodkorlik qilish afzal bo‘ladi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning izchil amaliyotini joriy etishga qaratilmoqda.

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi, Shubhasiz, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini takomillashtirish

imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovatsion texnologiyalarining tatbiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. Ya'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni amalga oshiradi. Natijada mavjud salohiyatdan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi. Jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongining in'ikosi. Fuqarolar qanday ezgu amallar ma'rifati bilan qurollangan bo'lsa, ana Shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to'lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo'ladi. U, o'z navbatida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o'rinlarning paydo bo'lishiga, aholining real daromadi va Shunga muvofiq turmush darajasining o'sib borishiga xizmat qiladi.

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlar sohasidagi islohotlar. Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi.

2017 -yilda Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda alohida e'tibor **“Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun”** degan tamoyil va **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** degan ezgu g'oyaning, eng avvalo, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini ta'minlash orqali hayotga amaliy tatbiq etilishiga qaratildi.

Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasida 30 dan ortiq qonunlar hamda 900 dan ortiq qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi keng ko'lamli islohotlar, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, xalq farovonligini yuksaltirishning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari, Shuningdek, har bir davlat organida tashkil etilgan fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash bo'yicha maxsus bo'linmalar aholi bilan ishlashning sifat jihatidan yangi samarali tizimini shakllantirishga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi davlat boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, “Elektron hukumat” va davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini rivojlantirish, iqtisodiyotga ma'muriy ta'sirni qisqartirish hamda

boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish, sog'lom raqobat muhiti va qulay investitsiya iqlimini yaratish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Sud-huquq tizimida sudlarning haqqoniy mustaqilligini ta'minlash, sud kadrlarini tanlab olishning demokratik va shaffof mexanizmini shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Joylarda ma'muriy va iqtisodiy sudlarning tashkil etilganligi odil sudlovga erishish darajasini oshirish imkonini berdi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini isloh qilish, huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatda jinoyatchilikning umumiy ko'rsatkichi 15,7 - foizga kamayishiga erishildi, 1,2 ming mahallalarda birorta jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.



Ilgari, asosan xavfsizlikka xavf-xatar va tahdidlar oqibatlariga qarshi kurashish bilan cheklangan terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga yondaShuvlar konseptual qayta ko'rib chiqildi. Mazkur muammolarni hal qilishda, birinchi navbatda, yoshlarning huquqiy madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish orqali odamlarning ongi uchun kurashish ustuvor vazifa etib belgilandi.

O'z taqdirini O'zbekiston bilan bog'lagan, mamlakatimiz farovonligi yo'lida halol va vijdonan mehnat qilayotgan, o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylanib qolgan fuqarolarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga alohida e'tibor qaratildi. O'tgan davrda 1 24 -3 nafar shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.

Iqtisodiy sohada keng ko'lamlı o'zgarishlar amalga oshirildi, eng avvalo, O'zbekistonning o'z majburiyatlarini bajarish va chet el hamkorlarining daromadlarini repatriatsiya qilish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi milliy valyuta erkin konvertatsiyasining joriy etilganligi bu borada muhim qadam bo'ldi.

Davlat byudjetini shakllantirishning tamomila yangi prinsiplari va mexanizmlari joriy etildi, uning daromad va xarajatlari shaffofligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat aktivlarini boshqarishning samaradorligini oshirish va byudjetning daromad qismini ko'paytirishga qaratilgan ishga solinmagan zaxiralardan foydalanish choralari ko'rildi.

Birinchi bosqichda – uzoq muddatli (10-15 yilga mo'ljallangan) tarmoq, hududiy va maqsadli rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash, ikkinchi bosqichda – tarmoq, hududiy va maqsadli loyihalar portfellarini tuzish, uchinchi bosqichda – rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirishning mutlaqo yangi tartibi tasdiqlandi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng ko‘lamda rivojlantirish orqali amalga oshirilmoqda. Liberallashtirish uzluksiz, doimiy jarayon sifatida bundan keyin takomillashib boraveradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oila tadbirkorligini rivojlantirish, **“Har bir oila - tadbirkor”** Dasturini izchil amalga oshirish uning kafolati bo‘la oladi. Ayrim davrlarda davlat “charchagan” xususiy va jamoa mulki ob‘yektlarini “jonlantirib”, keyin ularni xususiy qo‘llarga sotishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulotning 81 foizi nodavlat, 19 foizi esa davlat sektorida ishlab chiqarilmoqda. Yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotlari, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida nodavlat sektor ulushi 100 foizga yaqinlashib qoldi. Ish bilan band aholining 80 foizdan ziyodi mazkur tizimda mehnat qilayotir.

Mamlakatimizda har yili 30 mingdan ziyod kichik biznes sub‘yektlari barpo etilmoqda. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 56,9 foizga, sanoat ishlab chiqarishida esa 45 foizga yetkazildi. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar ulushi 52 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni pirovard maqsad bo‘lmasligi kerak. Agar erkinlashtirish sur‘atlari, iqtisodiyotning o‘shish sifat ko‘rsatkichlari, aholi turmush darajasi barobarida kechsa yanada yaxshi bo‘ladi. O‘zbekiston iqtisodiy o‘shish prognozlariga ko‘ra, dunyodagi tez rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash borasida ham oldingi o‘rinlarga chiqdi. Ushbu ko‘rsatkichlar hozirgi sharoitda ancha yuqori hisoblanadi.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq, 2017-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Valyuta siyosatini erkinlashtirish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. Undan asosiy maqsad, barcha bozor ishtirokchilari uchun bir xil sharoit yaratish bo‘lib, bozordagi turli-tuman valyuta kurslari o‘rniga yagona rasmiy kurs bir dollarga 8100 so‘m miqdorida belgilandi. Korxonalar va aholida chet el valyutasini erkin sotib olish imkoni paydo bo‘ldi. Bu qadar radikal yondaShuv hatto ancha bilimdon bo‘lgan iqtisodchilarni ham xavotirga solib: endi nima bo‘ladi, milliy valyuta kursining roppa-rosa ikki baravarga pasaytirilishi inflyasiyaning yangi xalqasini keltirib chiqarmaydimi, degan mulohazalarni tug‘dirgan edi.

2017-yil 29-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi. Qarorda tashqaridan kiritiladigan tovarlarga boj to‘lovlari o‘rtacha 14,5 foizdan 6,5 foizgacha tushirish ko‘zda tutilgan. Ma‘lumki, tashqi savdoni keyingi erkinlashtirgunga qadar O‘zbekistonda noqishloq xo‘jalik mahsulotlariga import stavkalari eng yuqori edi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlariga esa yaqinlashib import bojlari boshqa hamkor mamlakatlarga nisbatan aksincha past edi. O‘tgan yil oktyabr oyidan boshlab barcha tovarlarga bojxona import bojlari o‘rtacha 2,5 martaga pasaytirildi. Tashqi savdoning liberallashtirishini eksport-import operatsiyalari kuchayishiga, milliy iqtisodiyotning dunyo bozoridan o‘rin olishini osonlashtirishga,

asosiysi mamlakatimizning qo‘shimcha qiymat global zanjiriga integratsiyalaShuviga xizmat qilishi Shubhasiz.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog‘lig‘ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta‘minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratildi.

Shaharlar va qishloqlarda umumiy turar joy maydoni 3,5 million kvadrat metr dan ortiq bo‘lgan namunaviy va ko‘p qavatli uylar qurildi. Turar joy qurilishi hajmlari 2010 -yilga nisbatan 3,5 baravarga oshdi.

Xalq bilan muloqot natijalari bo‘yicha 11 yillik umumiy o‘rta ta‘limni qayta tiklash haqida qaror qabul qilindi, oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilishning shaffof mexanizmlari joriy etildi va kvotalar jiddiy ravishda oshirildi. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi.

Millatlararo tinchlik va totuvlikni, puxta o‘ylangan va o‘zaro manfaatli tashqi siyosat amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilganligi natijasida qo‘shni davlatlar bilan ishonchli munosabatlar yo‘lga qo‘yildi, Markaziy Osiyo hududida savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Faqat o‘tgan yilda **21 ta** oliy darajadagi tashrif amalga oshirildi, **60 ta** davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi, 400 dan ortiq kelishuvlarga erishildi, 60 milliard AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi bitimlar imzolandi.

Savol va topshiriqlar:

1. Mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish yo‘nalishida qanday islohotlar amalga oshirildi?

2. Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish bo‘yicha qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida nimalarni bilasiz?

4. O‘tgan yillarda ijtimoiy sohani rivojlantirish yo‘nalishidagi islohotlar nimalardan iborat bo‘ldi?

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur O‘ylangan, O‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish sohasida qanday ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?

15-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O‘RNI VA NUFUZINI ORTIB BORISHI

Reja:

1. Xalqaro reyting va indekslar tushunchasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash borasidagi davlat siyosati.
3. Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston pozitsiyasi.

Darsning o‘quv maqsadi: Talabalarga xalqaro reyting va indeks nima ekanligini, O‘zbekistonning ulardagi pozitsiyasi qanday ekanligini tushuntirish.

Tayanch iboralar: xalqaro reyting, xalqaro indeks, World Economic Forum, World Bank, International Monetary Fund, UN, Transparency International.

1. Xalqaro reyting va indekslar tushunchasi.

Hozirgi kunda hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur’atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko‘rsatkichlarida ham o‘z ifodasini topayotir.

Aytish mumkinki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o‘zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o‘shish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko‘zgasidir. Bu jihatlarda mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug‘lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo‘lib yashashini ta‘minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezon sifatida qo‘llanib kelinadi.

Aholi turmush darajasini oshirish, davlat organlarining xalq manfaatlarini uchun xizmat qilishida davlat siyosatidagi ustuvorligini ta‘minlash hamda mamlakatga kirib kelayotgan investitsiyalar oqimini jadallashtirish va investor mulkini davlat tomonidan himoya qilish kabi mamlakatda turli sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarni dunyo hamjamiyatiga namoyon etish maqsadida turli sohalar bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladigan xalqaro reyting va indekslar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori baholangan har qanday xalqaro reytinglar samarasi sifatida ishbilarmonlardan tortib dunyo aholisi barcha qatlamining e‘tibori Shu mamlakatga qaratiladi: investitsion muhit, turizm, xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanadi, buning natijasida aholining turmush darajasi va farovonligi yaxshilanadi.

Xalqaro reyting va indekslarni faoliyat yo‘nalishiga qarab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalariga ajratish mumkin. Bunda iqtisodiyot, ishbilarmonlik, byudjet, sanoat, investitsiya va barqaror rivojlanish maqsadlarini ijtimoiy-iqtisodiy

sohaga, huquq, korrupsiya, demokratiya hamda boshqaruv sifatini siyosiy-huquqiy sohalarga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Indeksni tuzuvchi xalqaro tashkilotlar tegishli davrlar bo'yicha davlat organlari tomonidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar hamda turli xalqaro tashkilotlarning (**World Economic Forum, World Bank, International Monetary Fund, UN, Transparency International** va boshqalar) reyting hisobotlari natijalariga asoslanib,



indikatorlar natijalarini hisoblaydi hamda o'zining rasmiy veb saytlarida e'lon qilib boradi.

2020--yilgi reyting natijalariga ko'ra **Biznes yuritish va Iqtisodiy erkinlik indeksida** Yangi Zelandiya, Gong Kong hamda Singapurni yuqori 3 talik davlatlar qatorida ko'rish mumkin. Indikatorlar bo'yicha reytingi

yuqori davlatlar tahlil qilinganda, Yangi Zelandiya Biznes yuritish indeksining korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish (100.0) va kredit olish indikatorida (100.0), Singapur kontraktlar ijrosini ta'minlashda (84.5) hamda Gong Kong qurilish uchun ruxsatnoma olishda (93.5) dunyoda yetakchilik qiladi.

Umr ko'rish davomiyligi 85.3 yil, kutilayotgan ta'lim yillari 18.1 yil, o'rtacha ta'lim yillari 12.6 yil hamda aholi jon boshiga yalpi milliy daromad 68 059 AQSH dollari bo'lgan **Inson kamoloti indeksida** Norvegiya davlati **2001-yildan** beri (2007 -, 2008-yillar bundan mustasno) ushbu reytingni boshqarib kelmoqda.

So'nggi reyting natijalariga ko'ra, O'zbekiston xalqaro reytinglar tasnifiga ko'ra, **Biznes yuritish indeksida top 20 talik** islohotchi-mamlakatlar, **Iqtisodiy erkinlik indeksida** davlatda iqtisodiyot asosan erkin bo'lmagan davlatlar, **Inson kamoloti indeksi bo'yicha** inson taraqqiyoti darajasi yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin oldi.

Inson huquqlari himoyasini kafolatlash, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta'minlash, sud-huquq sohasidagi moddiy va protsessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlari oshishiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, so'nggi to'rt yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg'armasining **"Iqtisodiy erkinlik"** indeksida 52 pog'onaga, Jahon bankining **"Logistika samaradorligi"** indeksida 19 pog'onaga, **"Biznes yuritish"** indeksida 18 pog'onaga ko'tarildi. O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining **"Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash"** tizimidagi 6-guruh mamlakatlari qatoridan 5-guruh mamlakatlari qatoriga ko'tarildi.

Shu bilan birga, ayrim rahbarlar reytinglar bilan ishlashga yetarlicha e'tibor qaratmayotganligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan so'rovlarda

aksariyat islohotlar o‘z aksini topmayotganligi oqibatida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasi quyi pog‘onalarda qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash borasidagi davlat siyosati. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro‘cini shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rnini xolis va haqqoniy baholashni ta‘minlash bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ko‘rilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emas. Mazkur holat xalqaro tashkilotlar va ilmiy muassasalar bilan tizimli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, mas‘ul vazirlik va idoralarda baholanayotgan yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiyalar va boshqa davlatlarning ijobiy tajribasini o‘z ichiga olgan tegishli ma‘lumotlar bazasini, xodimlarda esa xalqaro reytinglar metodologiyasini qo‘llash bo‘yicha dunyoqarashni shakllantirish imkonini bermayapti.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, Shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashni ta‘minlash maqsadida **2019-yil 25-fevral** kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev **“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi qarorni imzoladi. Ushbu qarorda O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimi yaratish ko‘zda tutilgan.

Milliy monitoring tizimi faoliyatini tashkil etishning dastlabki bosqichi sifatida respublikadagi tadqiqot institutlariga alohida xalqaro reytinglar birlashtiriladi va ularga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- xalqaro reytinglarning metodologik va boshqa tarkibiy qismlarini aniqlash, ularni amaldagi qonunchilikka implementatsiya qilish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi past ko‘rsatkichlariga sabab bo‘layotgan asosiy omillarni aniqlash;

- o‘zini o‘zi baholash uchun ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari asosida milliy indekslarni ishlab chiqish;

- loyihalar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yuksaltirishga to‘sqinlik qilayotgan normalarni aniqlash nuqtai nazaridan ekspert tahlil qilish hamda tahlil natijalariga ko‘ra tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

- O‘zbekistonning tegishli reytinglardagi rivojlanish jarayoni to‘g‘risidagi axborotlarni, Shuningdek, baholanayotgan yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiyalar va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘z ichiga olgan axborot-ma‘lumotlar bazasini yaratish;

- O‘zbekistonning ustuvor xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashga to‘sqinlik qilayotgan mavjud haqiqiy muammolarning tizimli tahlilini olib borish, ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- xalqaro tashkilotlar, reyting agentliklari va ilmiy muassasalarning ekspertlari bilan hamkorlik o‘rnatish va konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish.

Iqtisodiy va siyosiy-huquqiy xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash, bu borada mutasaddi vazirlik va idoralarning faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz mavqeyini yanada yuksaltirish, xorijiy reyting agentliklari bilan hamkorlikni tizimli ravishda amalga oshirish, mas’ul davlat organlari rahbarlariga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishida ularning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish maqsadida **2019-yil 7 -mart** kuni O‘zbekiston respublikasi Prezidentining **“Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”**gi qarori farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, Ustuvor xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha komissiya tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 2-iyunda** qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”**gi farmoni yurtimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim dasturilamal bo‘ldi. Mazkur farmonga muvofiq, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tuzilib, sohada parlament nazorati o‘rnatildi.

Prezidentimiz farmoni asosida davlat organlari faoliyati natijadorligini oliy, ya'ni parlament darajasida nazorat qilish belgilanganidan maqsad - bu borada vazirlik va idoralar rahbarlarining mas'uliyatini oshirishdir. Shu bois, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi. Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining xalq tomonidan saylanishini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur mexanizm sohadagi chora-tadbirlar ijrosi ustidan xalq nazorati o‘rnatilganligini anglatadi.

Xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatimiz o‘rnining yaxshilanishi ko‘p jihatdan qabul qilayotgan qonunlarimizning joylardagi ijrosiga bog‘liq. Shuning uchun ham kengash tarkibiga mahalliy hokimlar kiritildi. Bu esa qonun talablarining joylardagi ijrosi yuzasidan muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Shu orqali bu yo‘nalishdagi ishlarda parlament, vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklarning o‘zaro hamkorligi ta'minlanadi, sansalorlik holatlarining oldi olinadi, barcha ishlar muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston pozitsiyasi. Keyingi yillarda mamlakatimiz ko‘pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir. Masalan, yaqinda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining (YUNIDO) **“Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi”** bo‘yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk

marotaba aks ettirilib, **152** ta mamlakat orasida **92-o‘rinni**, MDHga a'zo davlatlar orasida **5-o‘rinni**, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida **2-o‘rinni** egalladi.

Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagi islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo‘naltirilmoqda. Barcha sa'y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zamirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo‘lsa, turli reyting va indekslardagi o‘rnimiz o‘z-o‘zidan oshib boraveradi.

Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o‘shish istiqbollari yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar **2020-yilda** Jahon bankining **“Biznes yuritish” indeksida** 76-o‘rindan 69-o‘ringa ko‘tarilishimizga, “Transparency International”ning Korrupsiyani qabul qilish indeksi hamda “World Justice Project”ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o‘rni yaxshilanishiga olib keldi.

Xalqaro reyting va indekslarning ahamiyati, oldimizda turgan ustuvor vazifalarni belgilash, reyting agentliklarining metodologiyalarini o‘rganish maqsadida mahalliy hokimliklar hamda vazirlik va idoralar mas'ullari uchun maxsus treninglar boshlandi. Shu bilan birga, eng asosiy ishimiz qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaldagi ijrosini, bir so‘z bilan aytganda, qonun ustuvorligini ta'minlash va bu borada biz parlament va jamoatchilik nazoratini qat‘iy yo‘lga qo‘yishga kirishildi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda o‘rnini quyidagi ikki yo‘nalish bo‘yicha izohlash mumkin:

- indikatorlar ko‘rsatkichining o‘zgarishi: Biznes yuritish indeksi tarkibidagi 10 ta yo‘nalishning 9 tasida (to‘lovga qobiliyatsizlikni hal qilishdan tashqari), Iqtisodiy erkinlik indeksi tarkibidagi (sud faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichidan tashqari) barcha indikatorlarda hamda Inson kamoloti indeksi bo‘yicha umr ko‘rish davomiyligi indikatorida 2020--yilda 2019-yilga nisbatan o‘shishga erishgan;

- indikatorlar o‘rnining pastligi: turlari bo‘yicha eng so‘nggi reyting natijalariga ko‘ra, **Biznes yuritish indeksi** tarkibidagi 3 yo‘nalish (qurilish uchun ruxsatnomalar olishda 132-o‘rin, xalqaro savdoda 152-o‘rin va to‘lovga qobiliyatsizlikni hal qilishda 100-o‘rin), **Iqtisodiy erkinlik indeksi** tarkibidagi 6 yo‘nalish (sud faoliyati samaradorligida 123-o‘rin, davlat yaxlitligida 142-o‘rin, monetar erkinlikda 17 -5-o‘rin, savdo erkinligida 129-o‘rin, investitsiyalar erkinligida 169-o‘rin va moliyaviy erkinlikda 162-o‘rin) hamda **Inson kamoloti indeksi** bo‘yicha 3 yo‘nalish (umr ko‘rish davomiyligida 117 -o‘rin, kutilayotgan ta‘lim yillarida 128 -o‘rin va aholi jon boshiga YAMDDa 126-o‘rin) indikatorlari juda past ko‘rsatkich sifatida baholangan.

Oxirgi to‘rt yil davomida barcha sohalarda bo‘lgani kabi mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash borasida ko‘plab Shu jumladan, xalqaro reyting va indekslarda ham salmoqli yutuqlarga erishildi. Bu yutuqlarni O‘zbekiston Respublikasining 2011-2020--yillardagi xalqaro reyting va indekslardagi dinamikasi orqali ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizning **Biznes yuritish indeksi** bo‘yicha 2020-yil 2011-yilga nisbatan 81 ta pog‘onaga, **Iqtisodiy erkinlik indeksi** bo‘yicha 49 ta pog‘onaga

hamda **Inson kamoloti indeksi** bo'yicha esa 7 - ta pog'ona (2020- yilgi reyting natijalari 2020- yil dekabr oyida e'lon qilinishini hisobga olib, 2019 yil yakunlariga nisbatan olindi)ga yuqorilab, bu borada bir qancha yutuqlarga erishayotganini ko'rish mumkin.

Siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rinlari nisbatan quyi pog'onalarda. Masalan, **So'z erkinligi va hisobdorlik indeksida** 191-o'rinda, **Normativ sifat indeksida** 184-o'rinda, **Korrupsiyani nazorat qilish indeksida** 183-o'rinda, **Qonun ustuvorligi indeksida** 182-o'rinda, **Jahon matbuot erkinligi indeksida** 156-o'rinda turibmiz. Albatta, so'nggi 3-4 yil mobaynida ushbu sohalarni tartibga soluvchi ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi, turli institutsional o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, mamlakatimizda so'z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining cheklov va to'siqlarsiz faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari uchun media bozorida teng sharoit yaratish va ularni yanada rivojlantirish hamda jurnalist va blogerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”**gi qonun qabul qilindi. Bu boradagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish, turli organlar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini yurituvchi **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** tuzildi.

Qator sohalardagi o'zgarishlar bilan bog'liq qonunchilikning jadal rivojlanishi ayrim hollarda amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan ko'plab normalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham qonunchilikni tubdan qayta ko'rib chiqish, uni tizimlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, ijrosi monitoringini takomillashtirish maqsadida Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontseptsiyasi ishlab chiqildi.



“World Justice Project” xalqaro nohukumat tashkiloti 2019-yil yakunlari bo'yicha 2020--yil uchun huquq ustuvorligi indeksini e'lon qilindi. Ta'kidlash joizki, mazkur indeksning qamrovi yildan yilga kengayib bormoqda. Xususan, 2018-yilda 119-mamlakat qamrab olingan bo'lsa, 2019-yilda 126-mamlakat, 2020--yilda esa 128 -

mamlakat baholandi. Baholash jarayonida hukumatning ochiqligi , jamiyatning korrupsiyadan xolilik darajasi, qonunlarga rioya qilinishi, huquq-tartibot, xavfsizlik odil sudlov kabi inson huquqlarini muhofazalash bilan bog'liq natijalar muhim mezon etib belgilandi.Ushbu indeksda O'zbekiston **128-ta** davlat ichida **92-o'rinni**

egallab o'tgan yilgi indeksdan to'rt pog'ona yuqoriladi. Bu MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi ijobiy ko'rsatkichdir.

Prezidentimizning 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi farmonida mamlakatimizda jamiyatning barcha sohalari, jumladan, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini muhofazalash borasidagi islohotlarni izchil davom ettirish belgilangan. Jumladan, **1995-yilgacha** O'zbekistonga kelgan va Shundan buyon fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasi asosida doimiy istiqomat qilayotgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi fuqarosi deb tan olish tartibini joriy etish, odil sudlovni ta'minlash, tadbirkorlarning manfaatini muhofazalash, propiska tizimini isloh etish va boshqa yangiliklar inson huquqlarini ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'ladi.

Biznes yuritish osonligi reytingi - Doing Business reytingi kichik va o'rta biznes yuritish osonligi darajasini ifodalaydi. Hozirgi paytda bunda jami 11 indikator baholanadi: yangi ishni tashkil qilish, qurilishga oid ruxsatnomalar olish, elektroenergiyaga ulanish, mol-mulkni ro'yxatdan o'tkazish, kredit olish, minoritar investorlarni himoyalash, soliqlarni to'lash, transchegaraviy savdo, shartnomalarga rioya qilish mexanizmlari, bankrotlik, Shuningdek mehnat bozorini tartibga solish osonligi. Doing Business -mamlakatlar investitsiyaviy iqlim holatini tavsiflovchi eng ommaviy reytinglardan biri. **2019-yilda** O'zbekistonga **7 -6-o'rin** berilgan edi. 2012-yilga taqqoslaganda O'zbekiston 7 -8 pozitsiyaga ko'tarildi.


Iqtisodiy erkinlik ko'rsatkichi - O'zbekistonning iqtisodiy erkinligi 53,3 ballga teng bo'lib, **2019-yilgi** ko'rsatkichga binoan **140-o'rinda**. Biznes erkinligi, mehnat erkinligi hamda investitsiya erkinligi yuqorilab, O'zbekiston iqtisodiy erkinligi umumiy hisobda 1,8 ballga o'sgan. O'zbekiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 43 mamlakat orasida **36-o'rinni** egallab turibdi va uning umumiy reytingi mintaqaviy va jahon o'rtacha ko'rsatkichlaridan past.

O'zbekistonning **Inson taraqqiyoti indeksi** qiymati 2017-yil uchun 0,7 -10 ni tashkil etdi, bu mamlakat inson taraqqiyotining yuqori toifasiga kirib, 189 ta mamlakat va hudud ichida **105-o'rinni** band etdi deganidir. 2000 -2007 -yillar

oralig'ida O'zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi qiymati 19,3 foizga oshgan holda 0,595dan 0,7 -10 ga ko'tarildi.

Logistik faoliyat ko'rsatkichi - O'zbekiston har ikki yilda nashr etiladigan Jahon Banklarining logistik faoliyat ko'rsatkichi nashrida **2018-yilda** 2016-yildagi 118-o'rnidan 19 pog'ona yuqorilab oldi.

Logistik faoliyat ko'rsatkichi uchun asosiy mezonlar bojxona, infrastruktura, xalqaro yuk tashish, logistik mahorat, harakatlanish, kuzatish hamda davriylikni o'z ichiga oladi.



Ekologik samaradorlik indeksi (The Environmental Performance Index) – Yel universiteti qoshidagi Ekologik siyosat va huquq markazining aralash ko‘rsatkichisi bo‘lib, u mamlakat yutuqlarini ekologiya va tabiiy resurslarni boshqarish nuqtai nazaridan o‘lchaydi. 2018-yilgi reyting yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston **136-o‘rinni** egalladi.

Ilmiy-tadqiqot faolligi darajasi ko‘rsatkichi mamlakat ilmiy-texnik rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi hamda ilmiy manbalar indeksi tizimiga kiritilgan tahrir qilinuvchi ilmiy jurnallar va nashrlarda chop qilingan ilmiy-tadqiqot materiallarining umumiy soni sifatida hisob-kitob qilinadi. Dunyo mamlakatlari ilmiy-tadqiqot faolligi ko‘rsatkichi har yili AQSH ning **“Science and Engineering Indicators”** deb nomlanuvchi Milliy ilmiy fondining maxsus hisobotida chop qilinadi. **2017-yilda** O‘zbekiston dunyoning 195 mamlakati o‘rtasida 82-o‘rinni egalladi.

AKT rivojlanishi indeksi 2007 -yilda Xalqaro elektraloqa ittifoqi tomonidan AKT rivojlanishini baholashda foydalaniladigan 11 ko‘rsatkich asosida amalga oshiriladi. Indeks ushbu ko‘rsatkichlarni yagona mezonga birlashtiradi, va undan dunyo mamlakatlarning AKT rivojlanishi borasidagi yutuqlarini taqqoslashga yo‘naltiriladi, ayni paytda global, mintaqaviy va milliy darajalarda qiyosiy tahlilni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanilishi mumkin. 2017 -yilda ushbu indeks bo‘yicha O‘zbekiston **95-o‘rinni** egalladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, dunyo davlatlarining orasida O‘zbekiston ham o‘z o‘rnini topib bormoqda. Shunday ekan uning ana shu indeks va reytingini ko‘tarish yo‘lida mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ko‘lami yildan yilga ortib bormoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro reyting va indekslar deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash borasida qanday huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilingan?
3. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash borasida qanday chora-tadbirlar olib borilmoqda?
4. Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston ko‘rsatkichlari qanday?
5. “Biznes yuritish” indeksi nima?
6. “Logistika samaradorligi” indeksi nima?
7. Iqtisodiy erkinlik va Inson kamoloti indeksi nimalarga asoslangan?
8. Huquq ustuvorligi indeksi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi, Matbuot erkinligi indeksi haqida nimalarni bilasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Nazariy-metodologik adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. Toshkent: O‘zbekiston, 2004.
3. Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. T. 14. Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini shakllantirish-mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. Toshkent: Ozbekiston, 2011.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimiz garovidir / Xalq so‘zi. 2012, 10 may.
8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
12. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

Asosiy adabiyotlar:

1. 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
2. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
3. Mustaqil O‘zbekistan tarixining dastlabki saxifalari. Toshkent, 2000.
4. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. Toshkent: Akademiya, 2013.
5. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullayev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. Toshkent: Sharq, 2006.
6. Noveyshaya istoriya Uzbekistana. Rukovoditel’ proekta i redaktor: M.A.Raximov. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (7 -0 80-yillar misolida). Qo‘llanma. Toshkent: Sharq, 1999.
2. G‘ulomov S., Ubaydullayeva R., Ahmedov E. O‘zbekiston. Toshkent: Mehnat, 2001.
3. Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
4. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
5. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
6. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Sharq, 2006.
7. O‘zbekiston mustaqillik yillarida. Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
8. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). 2 tom. Mas‘ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
9. O‘zbekiston tarixi. R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. Toshkent, 2005.
10. O‘zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlarini: tarix va hozirgi holat. Toshkent: TIU, 2011.
11. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas‘ul muharrir R.H. Murtazayeva. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
12. Oblomurodov N., va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. T.: Yangi asr avlodi, 2011.
13. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994-yy.). Nukus, 1995.
14. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. Toshkent: Moliya, 2003.
15. Usmonov Q. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik. T.: Sharq, 2007.
16. Yunusova X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma‘naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009.
17. Axmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. Toshkent: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2002.
18. Azizxo‘jayev A.A. Chin o‘zbek ishi. Toshkent, 2003.
19. Azizxo‘jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. Toshkent: 2001.
20. Ўзбекистон Республикаси: Мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. Т.: Ўзбекистон, 1992.
21. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т.: Шарқ, 2000.
22. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т.: Шарқ, 2000.
23. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т.: Шарқ, 2000.

Internet resurslar:

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.google.uz
4. www.gov.uz
5. www.lex.uz

GLOSSARIY

Abolitsionizm – (lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQSHda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – abolitsionist deb atalgan.

Avtonomiya – (yunon. autos+nomos-o‘zi+qonun); 1. yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o‘lka) o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlarini berish; 2. Ma‘muriy-hududiy birlik; 3. Qandaydir organlar (xo‘jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o‘zini o‘zi boshqarish huquqi.

Afv etish – Sud hukmi bilan jazo tayinlangan biror shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yoki berilgan jazoni yengillashtirish. Odatda afv davlat boshlig‘ining qarori bilan amalga kiritiladi.

Agregatsiya – (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish, ya‘ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida turli manfaatlar uyg‘unlashtiriladi va ular o‘rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda asosiy va muhim manfaatlar tanlab olinadi ularni qondirish chora va tadbirlari ko‘riladi.

Advokatura – huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan Shug‘ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. O‘zb.Res. fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining advokatura to‘g‘risidagi qonuni 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan.

Adliya – (arab.-adolat) sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, Shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama.

Adolat (arab. – odillik, to‘g‘rilik) – u yoki bu qadriyatlarining o‘zaro umumiy munosabatini va ularning individlar o‘rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlarini haqidagi tasavvurlarga mos bo‘lgan jamoa tartibi.

Aeronavigatsiya – (lot. - kemada suzish) Uchish apparatlarini tegishli asbob va vositalar yordamida belgilangan yo‘ldan olib borish haqidagi fan; havo navigatsiyasi.

Amnistiya – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to‘liq yoki qisman jazodan ozod qilish, Shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya‘ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Apatiya – (yunon.) butunlay befarqlik holati, loqaydlik.

Axborot – (“informatio” lotinchadan ma‘lumotlar, tuShuntirishlar, bayonlarni anglatadi) – bu ma‘muriy, tashkiliy tadbirlar o‘tkazish haqida qarorlarni qabul qilish uchun, Shuningdek taklif va tavsiyalarni tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi muhim faktlar (shaxslar, harakatlar, tashkilotlar, voqealar) to‘g‘risidagi ma‘lumotdir. Falsafiy nuqtai nazardan axborot bizning ma‘lumot (belgi) olish natijasida o‘rganilayotgan hodisalar (jarayonlar) haqida tasavvurlarimizning noaniqligini kamaytirish yoki olib tashlashni ta‘minlaydi.

Axborot madaniyati – jamiyatning axborot resurslar va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, Shuningdek bu maqsadlarda axborotlashtirish vositalar va axborot texnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilg'or yutuqlarni qo'llash qobiliyati. Axborot madaniyati kishida axborot muhiti bilan o'zaro munosabatda bilim, mahorat, ko'nikma va refleksi ko'rsatmalar mavjud bo'lishi bilan ifodalanadi. Kishining axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri – axborot resurslarini bilish (ulardan erkin foydalanish imkoniyati).

Axborot makoni – (Axborot muhiti) axborotni saqlash, ishlash va uzatish bo'yicha texnikaviy va dasturiy vositalar, Shuningdek axborotlashtirish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlari majmuasi.

Axborot sohasini liberallashtirish – (liberalis lotinchadan erkinlikka taalluqli) OAV huquq va erkinliklarini kengayish jarayoni, Shuningdek ularning faoliyatidagi cheklovlarini olib tashlash va davlat nazoratini susaytirish.

Axborot erkinligi – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, so'z, matbuot va boshqa ommaviy axborotga ega bo'lgan axborotni olish huquqi va qonuniy asosda olingan axborotlarni tarqatish huquqi axborot erkinligi hisoblanadi. O'z.Res. Konstitutsiyasiga asosan, ommoviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, ssenzuraga yo'l qo'yilmaydi (67 -modda).

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – axborot foydalanuvchilari manfaatida uni yig'ish, ishlash, saqlash, tarqatish, aks etish va foydalanish maqsadida integrallashgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlar va dasturiy-texnikaviy vositalar majmui. Bugungi kunda AT tushunchasiga mikroelektronika, kompyuterlar va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va ishlab chiqarish, aloqa va telefoniya, mobil servislar, Internetdan foydalanishni ta'minlash, Internet axborot resurslarini ta'minlash kiradi.

Bakalavr – (lot. Baccalaureus) Oliy ta'lim dasturining birinchi bosqichini tugallagan talabalarning ilmiy darajasi.

Baynalmilal – (arabcha– millatlar o'rtasidagi, millatlararo) Xalqaro, umuminsoniy, umumxalqiy mazmunlarida qo'llaniladi.

Bipartizm-ijtimoiy sheriklikning ikki sub'ekti o'rtasidagi keliShuv

Bozor – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisidir.

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

Bunyodkor g'oya — jamiyatni taraqqiyot sari etaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari bo'lgan g'oya.

Vayronkor (buzg'unchi) g'oya – yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o'rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va

jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo'lgan g'oyalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

Vatan (arabcha “Vatan” – ona yurt) – kishilarning yashab turgan, ularni avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o'z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtai nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy,

Vatan ravnaqi – milliy istiqlol mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g'oyalaridan biri. Prezidentimiz Vatan ravnaqi g'oyasini ilgari surar ekan, uning mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir deb ta'riflaydi. Zero, u milliy istiqlolning oliy maqsadi - O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

Vatanparvarlik – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining ornomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir. Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoiylik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat.

Verbal – (lot.) og'zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning sub'ektiv jihatiga bog'liq emasligiga ishoraqilinmoqda.

Vijdon erkinligi – ijtimoi-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.

Galereya – (fr. – peshayvon) binoning ikki qismini birlashtiruvchi usti yopiq uzun yo'lak; tomosha zalida eng yuqorigi yarus.

Genezis – yunon. genesis- kelib chiqish; paydo bo'lish, tashkil topish jarayoni.

Global – fran. global-umumiy); umuman olganda, butun er yuzi bo'ylab.

G'oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari etaklaydigan kuchli, teran fikr

G'oyaviy bo'shliq – deb, eski xukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog'liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o'tmish va kelajakka dahldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to'liq anglab etmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo'shliqqa aytiladi.

Gumanizm (insonparvarlik) – tenglik, adolat, o'zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g'amxo'rlik qilish g'oyalari singdirilgan dunyoqarash.

Davlat – muayyan hududda jamiyat va uning siyosiy tizimini tashkil etish usuli, hokimiyatning markaziy instituti, jamiyatning siyosiy tashkiloti bo'lib, ma'lum bir

hudud va unda yashovchi xalqlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatni boshqaruvga tizim sifatida Davlat ichki tizimga o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlarga ega. Davlat odamlar va jamoat guruhlarining faoliyati hamda munosabatlarini tashkil etadi, ularni yo'naltiradi va nazorat qiladi.

Davlat tassarrufidan chiqarish – davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

Daxldorlik hissi – fuqarolarning tug'ilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmui.

Delimitatsiya – (lot. – chegaralamoq, ajratmoq) davlat chegaralarini tuzilgan shartnomaga muvofiq tavsiflash va xaritalashtirish asosida belgilash; belgilangan chegaralarni qayta ko'rib chiqish.

Demokratik institutlar – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchidemokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi. jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

Demokratik kuchlar bloki – parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etish maqsadida o'z dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holdabir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalari va O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar o'z sa'y-harakatlarini birlashtirishi.

Demokratiya (yunoncha, “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiyati ma'nosini anglatib, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun berilgan imkon bo'lib, davlat konstitutsiyasida ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi tamoyili rasmiy e'lon qilindi, hamda fuqarolarning erkinligi teng huquqligi e'tirof etildi. Demokratiya har bir davrning ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlariga mos shakllanib, rivojlanib boruvchi chegarasiz tabiiy – tarixiy jarayondir.

Deputat – (lot. Deputatus - vakil qilingan, yuborilgan) Vakolatli davlat organiga saylangan kishi, vakil.

Diaspora – yun. diaspora -tarqalish ma'nosida bo'lib, ma'lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o'z davlat tuzilmasiga ega, ma'lum bir xalq millat vakillarining yig'indisi (masalan O'zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

Diversifikatsiya – (lot.diversificatio – o'zgarish, xilma-xil) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy bankrotlikni oldini olish maqsadida ishlab chiqariladigan mahsulot assortimentining kengaytirilishi, mahsulot sotiladigan bozorlarni o'zgartirish yoki yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashish.

Diniy bag'rikenglik –bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to'g'ri tuShunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

Diskurs – ingl. discourse < lat. discursus – suhbat, muomala, monolog, dialog.

Doktrina – (lotincha – ta'limot; o'qimishlilik) Ilmiy yoki falsafiy ta'limot, nazariya; asosiy nazariy yoki siyosiy nuqtayi nazar.

Dotatsiya (lot. - tuhfa) – ma’lum harajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir sub’yekta tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan pul mablag‘i berilishi.

Jamiyat – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yig‘indisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-ma’naviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiy orzu-maqсадlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi.

Jamoat birlashmalari – fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

Identifikatsiya – (lot. o‘xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamoq) monandlik. Siyosiy identifikatsiya - u yoki bu siyosiy guruhga o‘zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

Ijtimoiy adolat – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘rni mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.

Ijtimoiy manfaat – bu barcha jamiyat a’zolarining birgalikda ro‘yobga chiqadigan manfaatlaridir.

Ijtimoiy uyushmalar – fuqarolar manfaatlari umumiyliigi va ixtiyoriylik asosida vujudga keluvchi, lekin o‘z faoliyati natijasida daromad olishni ko‘zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlar, bolalar tashkilotlari, ilmiy texnik, madaniy-ma’rifiy, sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, jamg‘armalar, assotsiatsiyalar, boshqa tuzilmalar). Demak, fuqarolarning har qanday ko‘ngilli uyushmasi – ijtimoiy uyushmadir. Mavjud siyosiy hayotni o‘zgartirishga yoki unga ta’sir etishga urinuvchi ijtimoiy uyushmalar siyosiy, deb qaraladi.

Ijtimoiy hamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi.

Ijtimoiy sheriklik – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, Shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, Shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar – bu kishilar uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va is’temol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Iqtisodiy mustaqillik – muayyan bir mamlakatning Shu mamlakatda mavjud ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va ma’naviy boyliklarga va Shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona egalik qilishi.

Iqtisodiy resurslar – ma’lum davrda ma’lum bir mamlakat ixtiyorida to‘plangan va mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ularni

iste'molchilarga etkazib berish va iste'mol jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar, qo'r-qutlar, imkoniyatlar va manbalardir

Immunologiya – (yun. — tushuncha, ta'limot) Organizmning kimyoviy xususiyatlari, uning immuniteti haqidagi fan.

Individ – lot. individuum-bo'linmas, alohida; inson zotining alohida olingan namunasi, uning vakillaridan biri; har biri alohida, mustaqil mavjud bo'lgan tirik organizm; shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi.

Innovatsiya – (ingl.— kiritilgan yangilik, ixtiro) Ilg'or texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanishi.

Inson omili – inson mohiyatiga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlarni – insondagi jismoniy – ruhiy tomonlarning birligi.

Inson huquqlari – unga tor ma'noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zboshimchalik va noqonuniy ushlab yoki qamash, vijdon va din erkinligi, otionalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquqlari kiradi. Keng ma'nodagi inson huquqlari esa o'zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi

Institut – lot. institutum-mahkama, idora, muassasa; tizimlashtirilgan, hammaga tanilgan, amalda qo'llanilayotgan va e'tirof etilgan (har qachon ham o'z rasmiy tasdig'ini topavermaydigan), u yoki bu tarzda mustahkamlangan qoidalar va me'yorlarga muvofiq o'zaro xatti harakat qilish uchun qo'llab-quvvatlanayotgan ko'rsatmalarga ega bo'lgan ijtimoiy agentlarning o'zaro hatti harakatlari shakllari kiradi.

Integratsiya – (lot. — tiklash, to'ldirish) Ayrim qismlarning, elementlarni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni.

Interaktiv davlat xizmatlari – idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ko'rsatiladigan xizmatlar. Bizning mamlakatimizda bu xizmatlar 2013- yil 1 iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan o'zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi my.gov.uz Interfaol Davlat xizmatlari yagona portali orqali ko'rsatiladi.

Internet – axborot bilan almashish uchun ham kompyuter tarmoqlari foydalanuvchilarni, ham shaxsiy kompyuterlarni o'zaro bog'lovchi butun dunyo axborot kompyuter tarmog'i.

Interfaol muloqot – real vaqt rejimida turli OAV (asosan Internet) vositasida "jonli" muloqot qilish. SHartli ravishda bunday muloqotning bir necha shaklini belgilash mumkin:

Ishlab chiqaruvchi kuchlar – ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi.

Infratuzilma – Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan me‘yoriy sharoitni ta‘minlashga xizmat qiladigan turli-tuman yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmui.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli tizimi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 - yilning 29 avgustida “Kadrlartayyorlashmilliy dasturi to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Ushbu dasturda (3-bandi) kadrlar tayyorlashning milliy modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iboratligi belgilab qo‘yilgan:

1. Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub‘ekti va ob‘ekti, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste‘molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

2. Davlat va jamiyat – ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga amlga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

3. Uzluksiz ta‘lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta‘limning barcha turlarini, davlat ta‘lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

4. Kadrlar tayyorlash tizimida – fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini, Shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta‘minlash jarayonining qatnashchisi (“Barkamol avlod– O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, T., 2008-. , 41-53 b.).

Kasaba uyushmalari – korxonalar, muassasa, o‘quv yurti va boshqa mehnat jamolarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti;

Konfessiya – lot. cōnfessio dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo‘nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

Konsepsiya – biror sohani rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli loyiha yoki qarashlar majmui.

Konvertatsiya – (lot. convertatio – o‘zgartirish, aylantirish) Milliy valyutaning amaldagi kurs bo‘yicha boshqa xorijiy valyutalarga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi.

Kooperatsiya – lot. cooperatio-hamkorlik; ko‘pchilik kishilarning birgalikda bitta yoki o‘zaro bir-birlariga bog‘lik o‘lgan bir necha faoliyatlardagi ishtiroki, mehnatni tashkil etish shakllaridan biri; ishlab chiqarish va mahsulot ayirboshlash sohasidagi jamoaviy birlashma.

Ko‘ppartiyaviylik – mamlakat parlamentida ko‘pchilik o‘rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

Kuchli davlat – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma‘naviyatga egabo‘lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma‘naviy asosga ega bo‘ladi.Uningqudrati

fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do'stlik va bag'rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi demakdir.

Kuchli jamiyat – mustahkam negizning barqaroligi ta'minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

Kuchli fuqarolik jamiyati – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta'minlangan, qonun ustuvor bo'lgan jamiyat.

Qonun – qonunchilik hokimiyatining fuqarolar, jamiyat va davlat hayotiga taalluqli munosabatlarda muayyan tartib joriy etish borasidagi irodasining namoyon bo'lishi.

Qonun ustuvorligi – ushbu tamoyilning mazmuni Shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat'iy hukmron bo'ladi. YA'ni, hech kim, hech birdavlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo'ysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tadbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

Legitimlik – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimiyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo'ladi.

Liberalizm – (lot. erkinlik) mafkura, ijtimoiy-siyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o'tuvchi hokimiyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o'zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutloqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilari I.Bentam, J.Mill, A.Smit, G.Spenser).

Liberallashtirish – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo'lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo'lini e'tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

Logistika – (yun. logistike – hisoblash, muhokama san'ati) Inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta'minlashni boshqarish tizimi.

Madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va uslublari majmui.

Magistral – (lot. — bosh, asosiy) asosiy yo'l. Qatnov yo'li, umuman, tarmoqlangan sistemalarning asosiy qismi.

Magistr – (lot. – boshliq, ustoz) ayrim mamlakatlarda bakalavr va fan doktori o‘rtasidagi ilmiy daraja. Tayanch oliy ta‘lim kursidan so‘ng qo‘shimcha dastur bajargan, maxsus imtihonlarni topshirgan va muayyan ilmiy ishni himoya qilgan shaxslarga beriladi.

Mahalliy (yoki munitsipal) boshqaruv – ma‘muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo‘yiladigan organlar hamda ularning ma‘muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

Ma‘naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma‘naviy barkamol inson tushunchasi sog‘lom avlod tushunchasi bilan ham bog‘lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Ma‘naviy jasorat – er yuzida barcha o‘lmas obidalarni, insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yuborgan jamiki ulug‘ kashfiyot va ixtirolarni, mumtoz san‘at va adabiyot durdonalari hamda mardlik va qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan insonlarning mislsiz aql-zakovati vayuksak ma‘naviy salohiyatini ifodalaydi.

Ma‘naviy tahdid – tili, dini, e‘tiqodidan qat‘i nazar, har qaysi odamning tom ma‘nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutadi.

Ma‘naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Ma‘naviyatga tahdid – inson qalbi va imon e‘tiqodini susaytirishga qaratilgan hamda insonning o‘zligidan begonalashtirib, kelajagidan mahrum etishga yo‘naltirilgan yot va begona g‘oyalar.

Ma‘naviyatni shakllantiradigan mezonlar – inson ongiga ta‘sir ko‘rsatadigan, uning dunyoqarashi tafakkur tarzini muayyan yo‘nalishga soladigan, o‘zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma‘naviy, madaniy va moddiy asoslar, an‘analari, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, g‘oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushuncha.

Ma‘rifat – ta‘lim tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy va ma‘naviy boyliklarning, ularni yanada ko‘paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

Mentalitet – (nem. – aql, idrok) Jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an‘analari, rasm-rusumlari, urfodatlarini, diniy e‘tiqod va irimlarini qamrab oladi.

Millat – til, ma‘naviyat, milliy o‘zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an‘analari va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil sub‘ekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir.

Millatlararo munosabatlar – birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o‘rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o‘zbek millati va Shu bilan birga o‘zlarining o‘rtasida ko‘p yillarga mo‘ljallangan ezgulik, ishonchlilik, do‘stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma’naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosallilik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi.

Millatchilik bu – millat ayirish, bir millatni har tomonlama ulug‘lab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularni erga urishdan iborat bo‘lgan nodemokratik mafkura.

Milliy g‘oya – ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e‘zozlab kelinayotgan, Shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlari yig‘indisi.

Milliy g‘oya negizlari – ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan, xalqning o‘ziga xos milliy xususiyatlarini ifodalagan milliy ma’naviy meros qadriyatlari hamda dunyo xalqlari tomonidan e’tirof etilgan demokratiyaning umuminsoniy prinsiplar majmuidir.

Milliy qadriyat – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyat shakli.

Milliy mafkura – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g‘oyaviy asoslash, ta’minlashga qaratilgan qarashlar tizimi

Modernizatsiya – (modern – zamonaviy) yangilanish, zamonaviy; davlat, jamiyat, iqtisodiyot, texnologiya va boshqa sohalarning yangilanishi, yangi uslublar, ixtirolarning qo‘llanishi asosidagi o‘zgarishlar.

Mulkdan foydalanish – mol-mulkning Iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo‘llanilishi, ya’ni uning naflari jihatlarining bevosita iste’mol qilinishi.

Mulkni tasarruf etish – mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish. Mulkka egalik qilish - mulkdorlik huquqining uning egasi qo‘lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o‘zlashtirishning ijtimoiy shakli.

Mulkchilik munosabatlari – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o‘zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Nizom – muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foydani) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani)

o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari – o‘z oldida Internet tarmog‘ida ommaviy axborot vositasi (OAV) funksiyalarini bajarish vazifasini qo‘yuvchi nodavlat tushdagi ro‘yxatga olingan veb-saytlari.

Ommaviy axborot vositalari – keng ko‘lamda axborotni yig‘ish, ishlash va tarqatishni ta‘minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televidenie va h.k.). Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 - y., 3-son, 20-modda)

Parlament – ingl. parlament, frans. parlargapirmoq va so‘zlamog; parlament oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

Parlamentdagi ko‘pchilik – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko‘pchilik o‘rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi.

Parlamentdagi muxolifat – yangitdانشakllantirilgan hukumatning tutgan yo‘li va dasturiga yoki uning ayrim yo‘nalishlariga qo‘shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari, Shuningdek O‘zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhi.

Partiya – (lot. partio — bo‘lak, qism) G‘oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari bir bo‘lgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy tashkilot.

Passiv saylov huquqi – fuqarolarning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylanish huquqi.

Plyuralizm – lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

Prezident – lot. praesidens (praesidentis) – oldinda o‘tiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi so‘zlaridan olingan bo‘lib, ko‘pchilik Prezidentlik va parlament respublikalari joriy etilgan mamlakatlarda ma‘lum bir muddatga saylangan davlat boshlig‘i.

Prinsip – lot. principium-asos, dastlabki, boshlang‘ich; asos bo‘ladigan poydevor g‘oyalar; xulq, faoliyat va hatti-harakatning asosiy qoidasi.

Proporsional – (proportionalis-mutanosib; saylovlarda nomzodlar uchun beriladigan ovozlar ro‘yxatlar bo‘yicha beriladigan, har bir ro‘yxat uchun berilgan ovozlariga mutanosib ravishda joy egallanadigan saylov huquqi tizimi.

Ratsional – (lot. rationalis-oqilona); maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to‘g‘ri yo‘l ma‘nosida ham ishlatiladi).

Rejim – fran. rejime; davlat tuzumi, idora etish obrazi.

Referendum – (lotincha – ma’lum qilinishi zarur bo‘lgan narsa) Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim masalalar bo‘yicha o‘tkaziladigan va ba’zan qonun qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan umumxalq so‘rovi, ovoz berish yo‘li bilan xalq fikrini aniqlash.

Sammit – (ingl. – tepa, yuqori, cho‘qqi; yuksak daraja) ikki yoki bir necha davlat boshliqlarining muhim xalqaro masalalar bo‘yicha uchrashuvi; oliy darajadagi kengash.

Sanksiya – huquqshunoslikda huquqbuzarga nisbatan qo‘llaniladigan va uning uchun muayyan oqibatlar keltiruvchi chora.

Saylov – aholining rasmiy mansabni egallash uchun biror shaxsni tanlashi jarayonidir.

Saylov huquqi – davlat boshlig‘i, vakillik organlari va boshqani saylash tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig‘indisi. Caylov huquqi, odatda, konstitutsiya va saylov to‘g‘risidagi maxsus qonunlar bilan belgilanadi.

Seminariya – 1) Boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari tayyorlaydigan maxsus o‘quv yurti; 2) xristian cherkovlari uchun ruhoniylar tayyorlaydigan o‘quv yurti.

Senat – lot. senatus-eski, qariya; ko‘pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

Sessiya – (lot. sessio – majlis, yig‘ilish) Ish, mashg‘uloti davriy ravishda amalga oshiriladigan vakolatli organlarning, sud yoki jamiyatlarning ish, yig‘ilish o‘tkazadigan davri.

Simpozium – (musiqa, she‘r o‘qish bilan o‘tadigan yig‘in) biror ilmiy masala bo‘yicha o‘tkaziladigan xalqaro ilmiy kengash; ilmiy anjuman.

Siyosiy jarayonlar – turli siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar individlar munosabati sifatida namoyon bo‘ladi.

Siyosiy qarashlar – siyosiy qarashlarning shakllanishi va qaror topishida o‘ziga xos an‘analar mavjud bo‘lib, siyosiy hodisalar turli xil talqin etilgan.

Siyosiy madaniyat – insonning siyosiy hodisalarga doir qadriyatlarga oid tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo‘ladigan xulqi kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat sub‘ekti sifatidagi faoliyat uslubi. Shu ma’noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo‘lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi.

Siyosiy ong – turli ijtimoiy guruhlarning davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlar, ularning jamiyat hayotidagi rolga, boshqa davlat va millatlar bilan munosabatiga oid qarashlarning bir tizimga solingan nazariy ifodasi.

Siyosiy partiyalar – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

Siyosiy tashkilotlar – siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning manfaatlari, maqsadlarini ifoda etadi.

Siyosiy tizim – jamiyatda davlat hokimiyati va boshqaruvni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar harakatlarida o‘z ifodasini topadi.

Skrining – (ing. – saralash) maxsus usullar yordamida kasallikni erta va tez aniqlash uchun aholini ommaviy tekshirishdan o‘tkazish.

Sotsial – lot. socialis – ijtimoiy, jamoatchilik; jamiyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘langan.

Sotsium – lot. socium-umumiy, birgalikdagi; insonlar hayot faoliyati shart-sharoitlarini birligini xarakterlovchi ijtimoiy umumiylik, birlik.

Strategiya – uzoqqa boruvchi ta’sir vositalari va uslublari; maqsadni istiqbolli dinamik aniqlab olish.

Struktura (lotincha “structura” –“tuzilma”, “tuzilish”) – ob’ektning bir butunligini va uning o‘ziga o‘zi aynanligini, ya’ni turli ichki va tashqi o‘zgarishlarda o‘zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta’minlovchi barqaror aloqalar yig‘indisidir.

Subordinatsiya – (lot.) tartibga keltirish; xizmat intizomi qoidalariga tegishli holda martaba darajalari bo‘yicha kichik mansabdorlarni katta mansabdorlarga bo‘ysunishga qat’iy amal qilish.

Suveren – fran. souverain-oliy so‘zidan olingan bo‘lib, oliy, suverenitetga ega bo‘lish, mustaqil, qaram bo‘lmagan ma’nolarini beradi.

Suverenitet – (fran. “souveränität”) davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo‘l qo‘ymagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

So‘z erkinligini ta’minlash – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o‘z fikrini (hayolini) oshkora (og‘zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

Shafe – (tarafini oluvchi, homiy; vositachi) birovga yon bosuvchi, homiylik qiluvchi; homiy.

Taraqqiyot – jamiyat rivojlanishining oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo‘nalgan, bir sifat bosqichidan yangi sifat bosqichiga o‘tishi jarayoni.

Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” – istiqlolning dastlabki yillarida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan islohotlar strategiya bo‘lib, taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o‘tish tajribasi, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi: Birinchi tamoyil: iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; Ikkinchi tamoyil: davlat – bosh islohotchi; Uchinchi tamoyil: jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi; To‘rtinchi tamoyil: aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; Beshinchi tamoyil: bozor iqtisodiyotiga ob’ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o‘ylab, bosqichma-bosqich o‘tish.

Tashabbus – lot. initsiativa initiative-tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

Tolerantlik – fr. tolyrant (lat. Tolerāns-tolerantis) hozirgi o‘zbek tilida lug‘aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma’nolarini anglatadi.

Antik davr va oʻrta asrlarga qadar asosan tabobat sohasida keng istifoda etilgan mazkur tushuncha hayvonlar va insonlar organizmlarining turli-tuman kasalliklar, jarohatlar va umuman, hayot uchun kurashish jarayonlariga doir immun qobiliyatini oʻrganish masalalariga aloqador boʻlgan. Keyinchalik boshqa fanlar doirasida ham eʼtiborli asarlar yaratgan mashhur tabobat olimlari va aksincha, tabobat borasida ham diqqatga sazovor fikrlar bildirgan boshqa soha olimlari mazkur tushunchani kengroq maʼnoda qoʻllay boshlaganlar (Epimenid, Gorgiy, Aristotel, Epiktet, Ibn Sino). XX asrga qadar tolerantlik tushunchasining ayniqsa din bilan bogʻliq muruvvat maʼnosidagi talqinlariga koʻp duch kelish mumkin. Lekin mazkur asr boshlaridan texnika taraqqiyoti va uning asosida mehnatni tashkil etish munosabatlarining jadal rivojlanishi natijasida tolerantlik tushunchasi davlat va xalq munosabatlarida, ayniqsa huquqiy munosabatlar tizimida keng mazmun kasb etadi. Endi tushuncha chidam, sabr-toqat maʼnolarini yoʻqotmagan holda koʻproq bagʻrikenglik, hamjihatlik, hamkorlik kabi mazmunda talqin etila boshlandi.

Totalitar – lot. totalis-butun, toʻla, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitutsion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati biron-bir guruh (siyosiy partiya) qoʻlida toʻplanib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muholifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar boʻlmaydi.

Transchegaraviy – chegaralararo, bir necha davlat hududidan oʻtuvchi. Daryolar va yoʻlarga nisbatan qoʻllaniladi.

Tranzaksiya – ingl. bank transaction, ot lot. transactio - keliShuv, shartnoma; tranzaksiya – bu sotib olishga doir sharnomani tuzish/moliyaviy vositalarni sotishga doir shartnoma.

Bank tranzaksiyasi, deganda bir bank hisob raqamidan ikkinchisiga yoki bank ichidagi bir hisob raqamidan ikkinchisiga pul mablagʻlarini oʻtkazish tuShuniladi.

Transformatsiya – lot. transformatio – oʻzgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni oʻzgartirish, faroliyatning maqsadli yoʻnalishini oʻzgartirish.

Tripartizm – ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari oʻrtasidagi keliShuv.

Oʻzini oʻzi boshqarish – (ingl. municipal oʻzini oʻzi boshqarish); u yoki bu maʼmuriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning maʼmuriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega boʻlgan ishlarni boshqarishga aytiladi. Oʻzbekistonda oʻzini oʻzi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yigʻinlari kiradi.

Oʻzini oʻzi boshqarishning asosiy prinsiplari – Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va qonunlarida mustahkamlangan oʻzini oʻzi boshqarish organlarining tabiati bilan bogʻliq boʻlgan mustaqil faoliyatni amalga oshirishni tashkil qiluvchi rahbariy gʻoyalar yigʻindisidir.

Umumbashariy qadriyat – dunyo xalqlarining koʻpchiligi tomonidan tan olingan, huquqiy meʼyorlar tarkibiga kiritilgan yoki qadriyat, anʼana va masʼuliyatiga

aylangan, voqe'lik vayohud munosabatlar tizimiga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha.

Umuminsoniy qadriyatlar – butun insoniyatning tajribasini ifodalovchi va ma'lum farqlanishlar bo'lishidan qat'i nazar, barcha odamlar uchun mushtarak bo'lgan dunyoqarashning ideallari yoki axloqiy normalar.

Uchinchi sektor – dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

Faol (aktiv) saylov huquqi – fuqaroning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash huquqi.

Feminizm – lot. femina-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

Festival – (ital.– bayramona, shod, quvnoq) san'atning musiqa, kino, teatr va boshqa sohalarida erishilgan eng yaxshi yutuqlar bo'yicha o'tkaziladigan tanlov, ko'rikdan iborat ommaviy bayram, tantana, sayil.

Fikr erkinligi – bu jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga, fuqarolar bilan siyosiy tashkilotlarga va milliy, irqiy, diniy, sinfiy munosabatlarga ega bo'lgan mustaqil fikrlarini huquqiy, siyosiy diniy va boshqa muassasalar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan turli tazyiqlardan muhofaza qiladigan ijtimoiy muhit.

Forum – lot. forum; vakillar majlisi, qurultoyi, kongressi; qadimgi Rimda xalq majlisi o'tkazilgan maydon.

Fraksiya – lot. fractio-buzish, sinish, darz ketish; parlament a'ziligiga yoki boshqa vakillik organlariga saylangan deputatlar birlashmasi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy asosi – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda ularning chegaralarining o'rnatish va o'zgartirish tartib-qoidalarini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, Shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning tashkiliy asosi – o'zini o'zi boshqarish huquqining instituti sifatida o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilishi, faoliyat tartibi, shakli va prinsiplarini, faoliyat doirasini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

Fuqarolik – insonlarni muayyan davlat, davlatchilik bilan bog'liq huquqiy holatlarini, munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir.

Fuqarolik jamiyati – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta'minlangan ijtimoiy makondir.

Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

Fuqarolik mas’uliyati – qonun ustivorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish.

Funksiya – lot. functio-faoliyat, o‘tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

Xalq – (arab. yaratilgan jonzot, odamlar) – keng ma’noda, muayyan mamlakatning barcha aholisi, tor ma’noda, tarixiy-etnoijtimoiy birliklarning turli shakllari, chunonchi, millat, elat, etnik birlik, urug‘ va boshqalarni ifoda etuvchi tushunchadir. Xalq - birinchi marta xalqaro huquq sub’ekti sifatida 1945 yili BMT Ustavida «Xalqlarning tengligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilash» tamoyilining mustahkamlanishi natijasida tan olingan.

Xalq farovonligi – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri. Xalq farovonligi harbir shaxs va oila farovonligi bilan bog‘liqdir. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi.

Xartiya – (yun. qog‘oz, yorliq) o‘rta asrlarda ommaviy huquqiy siyosiy xarakterdagi xujjat bo‘lgan. Hozirgi xalqaro huquqda deklaratsiyaning sinonimi. U – majburiy kuchga ega bo‘lmagan, umumiy tamoyillar va maqsadlarni ifoda etuvchi xujjat.

Xususiylashtirish – mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o‘tishi.

Hamkorlik siyosati – xalqaro siyosat sub’ektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtai nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko‘ra tomonlar o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tuShuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko‘rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

Huquq – davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta‘minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o‘rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy me‘yorlar va qoidalar.

Huquqiy davlat – huquq, Konstitutsiya va Qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o‘z ma‘suliyatlarini his qilishlari, o‘z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma‘suliyatlarini his qilishlari kerak. Bu ma‘suliyatni oshirish orqali huquqiy demokratik davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi.

Huquqiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim qismi. Huquqiy madaniyat tarixan asta – sekin shakllangan ijtimoiy voqea bo‘lib, hozirgi davrda

ilg'or huquqiy davlatlarning va ularning fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylangan.

SHok terapiyasi (iqtisodiyotda) – iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan qator salbiy oqibatlarni (narxlarning o'sishi, inflyasiya, bandlikning pasayishi va Shunga o'xshash boshqa holatlar) o'z ichiga oluvchi radikal chora-tadbirlar majmuasi.

Evolyusiya (lotin tilidan tarjimai – boshlash, vujudga kelish) – tizimning rivojlanish jarayonini anglatadigan tushuncha bo'lib, birinchi galda jamiyatga xosdir. Unga ko'ra, jamiyatda asta-sekin yuz berayotgan o'zgarishlar tizimga, uning tuzilmalari tashkil qilinishi va funksiyalari sifatli o'zgarishiga olib keladi.

Elat – bir tilda so'zlashuvchi, o'ziga xos madaniyati mavjud bo'lgan va ma'lum hududda yashaydigan hamda muayyan maqsad asosida birlashgan va o'z tuzilmasiga ega bo'lgan ijtimoiy-tarixiy birlik tushuniladi. Elat— kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi.

Elektoral – lot. elector-saylovchi; saylanadigan, tanlanadigan.

Elektorat – saylovlarda ma'lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider)ga ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma'lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

Elektron huqumat – (angl. e-Government) – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va davlat xizmatchilariga axborotni taqdim qilish va shakllanib bo'lgan davlat xizmatlarining to'plamini ko'rsatish usulidir, bunda davlat va arizachi o'rtasidagi o'zaro shaxsiy aloqa minimallashtirilgan va imkon boricha maksimal ravishda axborot texnologiyalardan foydalaniladi. Elektron huqumat – mamlakat miqyosida boshqaruv jarayonlarning butun majmuasini avtomatlashtirishga asoslangan hamda davlat boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshirish va jamiyatning har bir a'zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiyalar harajatlarini kamaytirish maqsadiga xizmat qiluvchi davlat boshqaruvi elektron hujjat almashinuvi tizimi. Elektron huqumatni yaratish hujjatlarni va ularni ishlash jarayonlarini boshqarish bilan bog'liq vazifalarning to'liq ko'lamini hal etishni amalga oshiruvchi ijtimoiy boshqaruvining umumdavlat taqsimlash tizimi qurilishini nazarda tutadi.

Emissiya – fr. émission – chiqarish; pul emissiyasi - muomalaga yangii pullarni chiqarish, muomaladagi pul hajmini ko'paytirish. Emissiya naqd yoki naqd pulsiz bo'lishi mumkin.

Empirizm – yunon. emperia-tajriba; tajribani bilishning birdan-bir vositasi, deb tan oluvchi ta'limot.

Erkinlashtirish – mamlakatning demokratik jamiyatga o'tish va islohotlar o'tkazish jarayoni davom etadigan turli to'siqlar, cheklashlar va yon berishga majbur etadigan omillardan qutilishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. U demokratik jarayonlarning samarali rivojiga yangi kuch, quvvat va ilhom bag'ishlash imkoniyatini yaratadi.

Yuksak ma'naviyat – inson ma'naviyatining eng yuqori darajasi bo'lib, u insonlarni eng ezgu va ulug' maqsadlarga yo'naltirishga xizmat qiladigan ona Vatan baxti iqboli yo'lida buyuk jasoratga chorlaydigan yengilmas kuchdir.

Yurisdiksiya – (lotincha – sud qilish, sud jarayoni) Huquqiy masalalarni hal qilish, sudlov ishlarini olib borish huquqi. Muayyan davlat organi vakolatlari doirasidagi huquq sohasi.

Yurt tinchligi – milliy istiqloq mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri, mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiysharti.

ISESCO – Islom Konferensiyasi tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasi.

ZiyoNet – **ZiyoNET jamoat axborot ta’lim tarmog‘i**. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005-yil 28-sentabrdagi PQ191-sonli “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq tashkil topgan. ZiyoNET tarmog‘ining asosiy maqsadi, respublika yoshlari hamda ta’lim oluvchilari uchun ta’lim olish tizimida keng ko‘lamli axborot-kommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat. ZiyoNET O‘zbekiston Respublikasiga taalluqli bo‘lgan turli resurslar tiplaridan axborot axborot ta’lim tarmog‘i: darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, leksiyalar konspektlari, referatlar, taqdimotlar, ma’lumotnomalar va lug‘atlar, bakalavrlarning bitiruv ishlari, magistrnlarning dissertatsiyalari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarning avtoreferatlari va yana boshqalar.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
1-Mavzu KIRISH. “O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI” O‘QUV FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI	4
2-Mavzu . MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY JARAYONLAR	16
3-Mavzu MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	34
4-Mavzu O‘ZBEKISTONNING O‘ZIGA XOS ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO‘LI	51
5-Mavzu O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR	64
6-Mavzu O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR	89
7-Mavzu IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI. O‘ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI	105
8-Mavzu O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOYIY O‘ZGARISHLAR	124
9-Mavzu MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT	145
10-Mavzu O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR	167
11-Mavzu MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI	178
12-Mavzu O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI	195
13-Mavzu YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI	215
14-Mavzu 2017 -2021- YILLARDA YILLARDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI ..	225
15-Mavzu O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O‘RNI VA NUFUZINI ORTIB BORISHI	235
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	243
Glossariy	246